1-расм. Турли хил шароитларда фаоллаштирилган ЮҚЦ намунасида олинган азот (а) ва кислород (б) адсорбцияларининг кинетик эгриликлари

1-расмдан кўришиб турибдики, цеолитнинг намуналари учун азот бўйича адсорбцион сифимларга ишлов бериш тезлиги бир хил ва амалда уларни фаоллаш шароитига боғлиқ эмас. Аксинча, кислород адсорбциясининг кинетик эгриликлари бўйича барча намуналар ўзларининг конфигурацияларини ўзгартиради, бу эса цеолитни тайёрлаш шароитига боғлиқлигини кўрсатади. N₂/O₂ аралашмасини ажратишнинг энг катта қиймати фаолланиш ҳарорати 400⁰С, қиздириш тезлиги 2,0⁰/мин, жараённинг давом этиш вақти, 1,5 соат ва юувчи газ-азотда СО₂ нингмиқдори 1 хажмий % бўлганда олинди.





Фаоллашда азот ва кислород бўйича цеолитнинг сиғимига ювувчи-газдаги CO₂ нинг таъсири

Адсорбентларни фаоллаштиришнинг мақбул шароитини танлаш, шунингдек азот-кислород аралашмасини ажратиш коэффиценти қиймати билан цеолитдаги қолдиқ нам орасидаги корреляцияни топиш учун яримреплика план қўлланилди.


2-жадвал

Тажриба тадқиқотлари ва тўлиқ режа натижалари

Эксперимент ўтказиш шароити				Қолдиқ нам, %	25 °C ва 10 атмда мувозанат сиғими, см ³ /г			Ажралиш коэффиценти,
T, °C	Қиздириш тезлиги, °C/мин	CO ₂ miqdori, ham, %,	Азот ҳажми, L _{N₂} /L _{seolit}		Y ₁	Y ₂	Y ₃	
X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	Y ₁	Y ₂	Y ₃	Y ₄	
400	3,5	2,0	0,59·10 ⁻³	3,21	15,94	4,62	3,45	
300	3,5	2,0	0,19·10 ⁻³	4,87	9,08	3,32	2,73	
400	2,0	2,0	0,19·10 ⁻³	3,34	14,77	4,96	2,98	
300	2,0	2,0	0,59·10 ⁻³	3,58	9,86	4,26	2,31	
400	3,5	1,0	0,19·10 ⁻³	2,40	6,45	3,32	1,94	
300	3,5	1,0	0,59·10 ⁻³	2,58	6,93	3,66	1,89	

Текширилаётган факторлар таъсирининг интенсивлигига танланган критерийларнинг таъсирини аниқлаш учун регрессион таҳлил натижалари келтирилган. Регрессия тенгламалари қуйидаги кўринишга эга:

$$\hat{Y}_1 = 3,03 - 0,305 x_1 + 0,235 x_2 + 0,665 x_3 - 0,145 x_4$$





$$\hat{Y}_2 = 9,729 + 1,364 x_1 + 2,684 x_3 + 2,435 x_4$$

$$\hat{Y}_3 = 4,101 + 0,166 x_1 - 0,371 x_2 + 0,189 x_3$$

$$\hat{Y}_4 = 2,341 + 0,184 x_1 + 0,164 x_2 + 0,528 x_3 + 0,096 x_4$$

$$\text{bu yerda } x_1 = \frac{z_1 - 350}{50}, \quad x_2 = \frac{z_2 - 2,75}{0,75}, \quad x_3 = \frac{z_3 - 1,5}{0,5}, \quad x_4 = \frac{z_4 - 0,39}{0,2}$$

олинган регрессия тенгламаси текширилган диапазонда ўрганилган факторларнинг исталган (комбинациясида) бирикмасида танланган критерийлар қийматини ҳисоблаш, жараённинг кўрсаткичларига ҳар бир фактор интенсивлигининг таъсирини таҳлил қилиш ва жараённи ўтказишнинг мақбул шароитини аниқлаш имконини беради.

3-жадвал

Цеолитларни фаоллашнинг мақбул шароитлар

Омиллар	Y ₁ ; қолдиқ баллар	Y ₂ N ₂ , см ³ /г	Y ₃ O ₂ , см ³ /г	Y ₄ =Y ₂ /Y ₃ Ажралиш коэффициенти
X ₁ Ишлов бериш ҳарорати	400 ⁰ С	400 ⁰ С	300 ⁰ С	400 ⁰ С
X ₂ , қиздириш тезлиги	3,5 ⁰ /мин	Мухим эмас	3,5 ⁰ /мин	3,5 ⁰ /мин
X ₃ Ювувчи газда СО ₂ нинг мавжудлаги	2,0 ҳажм, %	2,0 ҳажм, %	2,0 ҳажм, %	2,0 ҳажм, %
X ₄ Берилган ҳароратда сеолитнинг ҳажм бўйича ўтган азотнинг ҳажми	0,59·10 ⁻³ л/л	0,59·10 ⁻³ л/л	муҳим эмас	0,59·10 ⁻³ л/л

ХУЛОСА

1. Маҳаллий хомашёлар: каолин ва бентонит кимёвий ҳамда физикавий усулларда фаоллаштирилди ва олинган юқори кремнийли сеолитларнинг текстур





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

характеристикалари ҳамда сирт юзаси морфологияси ўрганилди. Намуналарнинг солиштирма сирт-юзасини аниқлаш учун Бранауер-Еммет-Теллер (БЕТ) усулидан, ғовакларнинг ҳажмини ва ўлчами бўйича тақсимланишини аниқлаш учун Барретт-Жоунер-Халенда (БЖХ) усулидан фойдаланилди. $P/P_0=0-0,05$ ораликда мезоғовакларда мономолекуляр адсорбсия, $P/P_0=0,05$ да мезоғовакларда моно- ва полимолекуляр адсорбсия, $P/P_0 = 0,05-0,4$ соҳада полимолекуляр адсорбсия кузатилиши исботланди. Нуробод каолинидан олинган юқори кремнийли сеолитнинг фаолланиш жараёни кўп факторли эксперимент 2^4 ёрдамида мақбуллаштирилди.

2. Мақбуллаштириш фактори сифатида: ҳарорат, x_1 (400-500⁰С), қиздириш тезлиги, x_2 (2-50/мин), ювувчи газ-азотдаги CO_2 миқдори, x_3 (0-1 ҳажм, %), жараённинг давомийлиги x_4 (0,5-1, соат) ва сеолитнинг катион таркиби x_5 олинди.

3. Олинган регрессия тенгламаси текширилган диапазонда ўрганилган факторларнинг исталган (комбинациясида) бирикмасида танланган критерийлар қийматини ҳисоблаш, жараённинг кўрсаткичларига ҳар бир фактор интенсивлигининг таъсирини таҳлил қилиш ва жараённи ўтказишнинг мақбул шароитини аниқлаш имконини беради.


Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Asem, A. Adsorption of chromate and molybdate by cetylpyridinium bentonite./A.Asem//Applied Clay Science. 2008.-Vol. 41.-Issue 1/2.-P.7384.

2. Ю.Г.Бушуев. Цеолиты. Компьютерное моделирование цеолитных материалов. Иванова 2011г, С5.

3. Khamroyev Jobir Kholmurodovich. Approval of zeolite operating conditions with harrington approval function. Науковий процесста наукові підходи: методиката реалізація досліджень: матеріали міжнародної наукової конференції (Т.), 23 жовтня, 2020 рік. Одеса, Україна:с.65-71.

4. Khamroyev Jobir, Fayzullaev Normurot, Haydarov G'ayrat, Jalilov Mukhiddin, Temirov Fazliddin. Activation of Natural Bentonite and Study of Physico-Chemical and Texture Characteristics. IJARSET: Vol.8, Issue 4 , P.17248-17261.April 2021.





SUN'IY INTELLEKT NATIJALARI FUQAROLIK HUQUQI OBYEKTI SIFATIDA

Berdialiyeva Gulnoza Murodjonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi fakulteti magistratura talabasi, 2002gulnoza@gmail.com,


91 012-12-22

Annotatsiya: Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur texnologiyalar arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari ekanligi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qamrab olishi hamda sun'iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlabborishi sun'iy intellektni turli sohalarga joriy etilishi uchun asosiy sabablar sifatida ko`rilmoqda. Ammo sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish, uni ishga tushirish hamda jamiyatning turli tarmoqlarida qo`llash, ulardan foydalanishning asoslari, shartlari va xususiyatlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning yo`qligi butun dunyo mamlakatlari uchun global muammogaaylanmoqda.

Kalit so`zlar: sun'iy intellekt, texnologiya, avtopilot, robot, soha, "Raqamli O`zbekiston – 2030" strategiyasi, axborot, infratuzilma, electron hukumat, xorijiy mamlakatlar, tarmoqlar, IT-parklar.

Kirish: Sun'iy intellekt texnologiyalarini jamiyatimizning turli sohalarida aholiga yengillik yaratish maqsadida iijadalii joriyii iietishii iivaii iiularniii iimamlakatimizidaii iikengii iiqo`llash,iiii raqamli ii i ima'lumotlardan ii i i foydalanish ii imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash uchun qulay shart-

sharoitlar yaratish maqsadida 05.10.2020 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079 "Raqamli O`zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi Farmoni asosida "Raqamli O`zbekiston – 2030" stratergiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiya mamlakatni belgilangan davr mobaynida raqamlashtirish, fuqarolarga ko`rsatiladigan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

xizmatlarni avtomatlashtirish, shuningdek sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqilishi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari ushbu strategiyaning qabul qilinishi bilan raqamli iqtisodiyotni faolrivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish,

dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish,

shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan

ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Shuningdek ushbu qonunchilik hujjatiga muvofiq,

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari ham belgilab olingan.

Mazkur texnologiyalar insonning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlarni, xususan tilni tushunish, o'rganish va o'rgatish, tarjima qilish, ma'lum bir masalani yechish, muhokama qilish va shu kabi qobilyatlarga egabo'lgan kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellektni aholining katta qismi odamlar kabi gaplasha oladigan, uydagi va ishdagiyumushlarni odamlarning o'rniga bajaradigan robotlarni tasavvur qilishadi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha hisoblanib, doimiy ravishda ishlatadigan telefon apparatimizdagi dasturlar, masalan yandex perevod hamda google translate kabi lug'atlar, turli o'yin-kulgu ilovalari va boshqalarni sun'iy intellekt texnologiyalariga aniq bir misol bo'ladi. Faqatgina mazkur dasturlarning xotirasi kichik bo'lgan formatda bo'lib, ular bizga ma'lum bir yo'nalishda ehtiyojlarimizni qondirishga ko'mak bera oladi.

Asosiy qism: Odatda inson psixikasining asosiy elementi sifatida uning aql-





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

idroki ya'ni intellekti tushuniladi, bu unga tashqi muhitdan kelayotgan informatsiyalarni aniq tushunish hamda tanish bo'lmagan holatlarga ko'nikish sharoitini yaratib beradi. Insonda kognitiv funktsiya bilan bog'liq bo'lgan elementlar mavjud bo'lib, bu yuqori miya funktsiyalari hisoblanib, mazkur qobilayatlari shaxsni atrof-muhit bilan bog'laydi, ushbu jarayon insonlarga holat to'g'risida ma'lum bir dunyoqarashga ega bo'lishga, shuningdek o'zaro munosabatga kirishishga imkoniyat yaratadi. Aqliy qobiliyatlar jumlasiga fikrlash qobiliyatini, nutqni, ma'lum bir hodisani o'rganish va boshqa shu kabi insonning aqliy-faoliy xususiyatlari kiradi. Intellekt (aql-idrok) kognitiv qobiliyatlarning namoyon bo'lishidir.

2019-yilda Yevropa Komissiyasining Sun'iy intellekt bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan tayyorlangan hujjatga ko'ra, "sun'iy intellekt" atamasi aql tushunchasiga aniq ishorani o'z ichiga oladi. Biroq, ekspertlarning ta'kidlashicha, aql

(mashinalarda ham, odamlarda ham) noaniq tushuncha bo'lib, garchi uni psixologlar, biologlar va neyrofiziologlar o'rgansalar ham, sun'iy intellekt tadqiqotchilari asosan ratsionallik tushunchasidan foydalanadilar. Bu optimallashtirish uchun ma'lum mezonlar va mavjud resurslarni hisobga olgan holda, muayyan maqsadga erishish uchun eng yaxshi harakatni tanlash qobiliyatini anglatadi. Shunday qilib, aqlning ideal tushunchasi ratsionallik bilan bog'liq.

Sun'iy intellekt texnologiyalari - bu intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan inson faoliyatini sun'iy modellashtirish muammolarini hal qilishga imkon beruvchi texnologiyalarning (subtexnologiyalar) butun guruhi. Sun'iy intellekt texnologiyalari tegishli ilmiy-texnik yo'nalish doirasida ishlab chiqiladi vatakomillashtiriladi, uning maqsadi inson ongi bilan an'anaviy bog'liq bo'lgan qobiliyatlarga ega bo'lgan sun'iy intellekt tizimlarini yaratish va amalga oshirish: tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqalar. Texnologik yechimlar majmuasiga axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi va mashinani o'rganish usullaridan foydalanadigan dasturiy ta'minot kiradi, shuning bilan birgalikda, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarini ham olishimiz mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari insonning ijodiy funktsiyasini taqlid qilish, kognitiv qobiliyatlarni namoyish qilish imkonini beradigan texnologik yechimlar to'plamini tashkil qiladi.

XXI asrda insoniyat sun'iy intellektni kundalik hayotga tatbiq etish masalasini keskin ko'tarmoqda. Texnik yoki dasturiy ta'minot tizimining ilgari faqat inson yoki boshqa biologik mavjudot tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan funktsiyalarni bajarish





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

xususiyatiga ega bo'lgan mazkur texnologiyaning eng oddiy ko'rinishi sifatida mikroto'lqinli pech isitgichlarini olsak bo'ladi, lekin murakkab algoritmlar orqali ishlaydigan tizimlar ham mavjud. Masalan sun'iy intellektning vositachi sifatida maqsadlarimizga erishish uchun hozirgi kunda Yandex navigatsiya dasturidan foydalanib kelmoqdamiz. Mazkur navigator yo'l tirbandligini chetlab o'tib, uyga tezda yetib borish imkoniyatini yaratib beradi, bora-bora ushbu algoritmlar bizning boshqaruvchimizga aylanishi mumkin (chunki biz aynan utomonidan ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha harakatlanib, uning buyruqlariga quloq solmoqdamiz). Agar yonatrofdagi do'stlarimizga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, Yandex dasturidan minglab avtoulov boshqaruvchilari har daqiqada yo'llardagi holat haqidagi ma'lumotlarni kuzatayotganini ko'ramiz. Shuning uchun ilova bizning vaqtimizni tejab, uyga qanday qilib eng oqilona yo'lni bosib o'tishni biladi. Microsoft kompaniyasi hozirgi kunda Cortana dasturini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish bilan shug'ullanadi, bu nafaqat insonga yordamchi, balki odamning muzokaralar paytida to'liq vakili ham bo'lishi mumkin. Bu kabi yo'nalishda tadqiqotlar olib borayotgan va ishlanmalarni jamiyatga taqdim etayotgan boshqa kompaniyalar ham mavjud bo'lib, ularga Siri bilan Apple va Alice bilan Yandex dasturlarini olishimiz mumkin. Texnologiyaning bunday jadal tarzda rivojlanishi ko'plab savollarni tug'diradi.

Sun'iy intellekt fan yoki san'at asarining muallifi sifatida tan olinishi mumkinmi? Sun'iy intellekt inson huquqlariga teng bo'ladimi?

Agarda avtomobil haydovchisi transport vositasiga avtopilot rejimini yoqilgan holda harakatlantirsa-yu, avtomobil avtohalokatga uchrasa, natijada yo'lovchilar jarohat olishadi, sudga murojaat qilishadi va sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplashni kimdan talab qilishi hamda ushbu jarayonda kim javobgar bo'ladi: haydovchi yoki sun'iy intellekt?

Jamiyatda sun'iy intellekt insondan san'atdan tashqari boshqa hech qaysi sohada o'zib keta olmaydi, degan fikr keng tarqalgan bo'lib, bu qarash o'zining noto'g'ri hukm ekanligi isbotlanib kelinmoqda. Agar Garri Kasparovni shaxmatda mag'lub etgan Deep Blue o'z yaratuvchilari tomonidan o'yin qoidalarini yaxshi o'rgangan bo'lsa, unda zamonaviy sun'iy intellekt dasturchilardan faqat minimal miqdordagi ma'lumotlarni oladi hamda mustaqil ravishda mashinani o'rganishni afzal ko'radi. Ushbu dasturlar buyruqlar va o'zgaruvchilarni o'zgartiradi, vazifaga erishish uchun tobora yuqori sifatli kod zanjirini yaratadi. Alpha Go dasturi qadimgixitoyliklarga tegishli bo'lgan "Go" deb





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

nomlangan stol o'yinini o'ynashni o'rgandi, bu shaxmatdan bir necha baravar murakkabroq edi, ammo dastur esa mutlaqo yangi strategiyalarni qo'llagan, bu esa mutaxassislarni hayratda qoldirgan edi. Sun'iy intellektning noodatiy fan va san'at asarlarini yaratishni o'rgangani ham dunyo olimlarini hayratga solib kelmoqda.

2016 yilda "The Next Rembrandt" dasturining paydo bo'lishi odamlarning sun'iy intellektning yarata olmaydi degan tushunchasini yo'q qildi. Ushbu dastur buyuk rassom Rembrandtning rasmlarini tahlil qiladi va olingan ma'lumotlarga asoslanib, buyuk ustaning asaridan ajratib bo'lmaydigan darajadagi o'z rasmlarini yaratadi. Dasturning ishlashi haqida juda qiziqarli ma'lumotlar Microsoft veb- saytida keltirilgan: Microsoft mutaxassislari, Delft texnik universiteti, Qirollik Mauritshuis galereyasi va Amsterdamdagi Rembrandt uy muzeyi hamkorligining o'n sakkiz oylik natijalari o'ziga xos noyob rasm, Rembrandtning ijodiy uslubini ajoyib aniqlik bilan qayta tiklaydigan portretni yaratishgan edi¹. shuningdek Devid kop – amerikalik bastakor va Santa-Kruzdagi Kaliforniya universiteti o'qituvchisi "Emily Howell" dasturini ishlab chiqdi, u Bax, Betxoven, Shopin va boshqa bastakorlarning durdona asarlarini taqlid qiladigan musiqa yaratishga qodiredi. Shuni ta'kidlash kerakki, professional musiqachilar ishtirokidagi bir qator tajribalar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan musiqani buyuk klassiklarning asarlaridan ajratib bo'lmaydi, deb ta'kidlashga imkon beradi. Sun'iy intellekt ilm- fan sohasida ham insondan orqada emas, shuning uchun "Watson" dasturi bemorlarning ma'lumotlarini to'playdi va ular asosida shaxsiylashtirilgan davolash

¹ Следующий Рембрандт [Электронный ресурс] // news.microsoft.com/ru-ru/sleduyushhij-rembrandt jadvalini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, albatta, savol tug'iladi: ushbu fan va san'at asarlariga mualliflik huquqi kimga tegishli?

Bu savolga bir qator davlatlar qonunchiligi nuqtai nazaridan javob bir xil. Buyuk Britaniyaning "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi Qonuniga binoan, muallif maqsadga erishish uchun biron bir vositadan foydalanadigan shaxs hisoblanadi. Amerika qonunchiligi esa fan yoki san'at asarining muallifi insonbo'lishi mumkinligiga asoslanadi. AQSh Oliy sudi muallif ongining minimal ijodiyhissasiga ega bo'lmagan asar mualliflik huquqi obyekt bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy intellektning ongi yo'q, shuning uchun muallif faqat inson bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1046-moddasini tahlil qilib, biz fan yoki san'at asarining muallifi faqatjismaniy shaxs bo'lishi mumkin degan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

xulosaga kelishimiz mumkin. Fuqarolik kodeksining 1046-moddasining so'zma-so'z talqiniga asoslanib, ushbu asar kimningijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu **fuqaro** asar muallifi deb e'tirof etilishi belgilangan, ammo asarni yaratgan dasturni ishlab chiqqan shaxs fan va san'at asarining muallifi deb tan olinishi mumkin emas degan xulosaga ham kelishimiz mumkin, chunki "bunday natijani yaratishda dasturning egasi shaxsiy ijodiy hissa qo'shmagan deb e'tirof etiladi. A. A. Semenovaning bayonotiga ko'ra: "Dasturni yaratgan shaxs orqasida "aqli mashina" asarining muallifligini tan olish maqsadga muvofiqdir"². Shu bilan birgalikda, bu savolga javobni xalqaro huquqda, ya'ni BMTning "Xalqaro shartnomalarda elektron xabarlardan foydalanish to'g'risida" gi Konvensiyasining 12-moddasida topish mumkin (2005)³. Ushbu me'yorning mohiyati shundaki, kompyuter tomonidan amalga oshirilgan

² E-commerce и взаимосвязанные области (правовое регулирование): сборник статей / Е.А. Останина, Л.В. Кузнецова, Е.С. Хохлов [и др.]; рук. авт. кол. и отв. ред. д.ю.н. М.А. Рожкова. – Москва: Статут, 2019. – 448с.

³ Конвенция ООН «Об использовании электронных сообщений в международных договорах» [Электронный ресурс] // www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/elect_com.shtml operatsiyalarni kompyuter nomidan foydalaniladigan jismoniy yoki yuridik shaxslarning harakatlari deb hisoblash mumkin. Sud amaliyoti yo'qligi sababli, ushbu normani bilvosita to'g'ridan-to'g'ri sun'iy intellekt harakatlari bilan bog'lash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "Sun'iy intellektni muallif deb tan olish mumkinmi?" degan savolga, hozircha "-Yo'q" deb javob bera olamiz. Afsuski, hzoirda O'zbekiston qonunchiligida sun'iy intellekt faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qoidalar mavjud emas, shuning uchun sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarning muallifi kim deb hisoblanishi masalasi ochiq qolmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning fuqarolik qonunchiligida muallifsiz asar yaratishga imkon beradigan aniq bo'shliq mavjud, ya'ni sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asar jamoat mulki hisoblanadi. Muallif – bu jismoniy shaxs, ya'ni fuqarolik huquqining subyekti, shuning uchun bu holda sun'iy intellekt huquqiy munosabatlar subyekti sifatida tan olinishi kerakligiga bevosita bog'liqlik paydo bo'ladimi?

Sun'iy intellektga qanday huquqiy maqom berilishi kerakligi haqidagi savol juda dolzarb bo'lib, ushbu sohada juda ko'p nuqtai nazar mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda sun'iy intellektga ega bo'lgan Android tomonidan taqdim etilgan davlat





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

mavjud bo`lib, u tomondan pretsedent yaratildi, buning natijasida bizsun'iy intellektga jismoniy shaxsning huquqiy maqomi berilganligini aytishimiz mumkin. Ushbu davlat Saudiya Arabistoni bolib, Sofiya ismli gumanoid robotga 2017-yilda Saudia Arabistoni fuqaroligi taqdim etilgan. Ko`plab mutaxassislarning fikrlariga ko`ra, Saudiya Arabistonining sun'iy intellektga jismoniy shaxs maqomining berilishi shoshilinchda chiqarilgan qaror sifatida ta'kidlanmoqda. Shaxsga xos bo'lgan psixo-emotsional xususiyatlarga ega bo'lmagan obyektga jismoniy shaxsning huquqiy maqomidan oqilona foydalanish, huquqlarini kengaytirib borishi dargumondek qaralmoqda. Shuning bilan birga, aql va ong bir-biriga o'xshash tushunchalar emasligi ham ta'kidlanmoqda.

Ong barcha odamlarga xosdir. Bu miya hujayralarida tananing tashqi dunyo hodisalarini boshdan kechirishida va keyinchalik bu hodisalarga reaksiyasida ifodalangan elektrokimyoviy reaksiyalar majmuini anglatadi. Ong odamlarga og'riq, sevgi, nafrat, baxtning subyektiv hissiyotlarini boshdan kechirishga imkonberadi. Aql – bu bilimdan atrof-muhitga ta'sir qilish uchun foydalanish qobiliyatidir. Shu munosabat bilan, sun'iy intellektda ongning yo'qligi, shuningdek, biror narsani his qilish va xohlash qobiliyatining yo'qligi qayd etilishi kerak. Shuning uchun inson va sun'iy intellektning huquqiy holatini tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Darhaqiqat, bu holda biz fantastika yaratamiz: odamlar va dasturlar ma'lum bir natijaga erishishni istab, taxminan bir xil harakatlarni amalga oshiradilar, ularning harakatlari uchun bir xil javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar. Ma'lum bo'lishicha, sun'iy intellekt odamlar bilan bir qatorda asosiy huquqlarga ega bo'ladi: yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi va boshqalar. Sun'iy intellekt shaxsning subyektiv tajribalariga ega emasligi sababli, u odamning fonida juda ajralib turadi, chunki u ko'p jihatdan undan ustun turadi. Shunindek sun'iy intellekt yaqin kelajakda “**cogito ergo sum**” ya'ni “Men o`ylayotgan ekanman, demak men mavjudman” iborasini mustaqil ravishda anglay olmaydi.

Ammo, sun'iy intellekt maxsus huquqiy maqomga ega bo'lishi kerak. V. V. Arxipov, V. B. Naumov “Sun'iy intellektga yuridik shaxslar bilan o'xshashlikmaqomini qo'llasa bo'ladi”⁴, deb hisoblashadi. Darhaqiqat, bu holda sun'iy intellekt tashkiliy birlikdan tashqari yuridik shaxsning barcha xususiyatlariga ega bo'ladi. A.A. Ivanov shu munosabat bilan sun'iy intellektning ikki tomonlama maqomi paydo bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, chunki u fuqarolik huquqining obyekt va subyekt





⁴ *Архипов В.В., Наумов В.Б.* Искусственный интеллект и автономные устройства в контексте права: о разработке первого в России закона о робототехнике // Труды СПИИ РАН. – 2017.- Вып. 6 (55). – С. 46-62. bo'lishi mumkin. Ushbu pozitsiya nuqtai nazaridan, narsalarga egalik huquqi haqidayana bir savol tug'iladi: Sun'iy intellekt narsalarganisbatan qanday huquqqa ega bo'ladi? Bu cheklangan mulk huquqi bo'ladimi?

Hozirgi vaqtda ushbu savollarga javob berishning iloji yo'q.

L. I. Safargaleev Rim qonunchiligida qo'llaniladigan qoida – **servi res sunt (qullar– narsalar)** sun'iy intellektga tegishli degan fikrni bildiradi, uning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt mustaqil huquq subyekti bo'lishi mumkin emas, lekin u o'z xo'jayini uchun huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi barcha qarashlar mavjud bo'lish huquqiga ega, ammo bizning fikrimizcha, ular kamchiliklardan ham xoli emas, chunki savol muqarrar ravishda paydo bo'ladi, uning egasi vafotidan keyin sun'iy intellektning huquqiy holati qanday bo'ladi?

Rossiya qonunchiligiga ko'ra, sun'iy intellektga egalik huquqini olish uchun mulk egasi bo'lish uchun nomzodlar besh yil kutishi talab qilinarkan, ammo mazkur davrga kelib aqlga ega bo'lgan, harakatlarni amalga oshiradigan, biroq hechkim uchun huquq va majburiyatlarga ega bo'lmagan “noqonuniy sun'iy intellekt” mavjud bo'lishi mumkinku. Mazkur holatda keyin nima qilish kerak? Albatta, bu holda biz sun'iy intellektni qadimgi Misrda mushuklar, itlar va boshqa hayvonlar kabi tutishimiz mumkin, ya'ni ularni egalari bilan birga yo'q qilishimiz mumkin. Ammo bu qanchalik oqilona?

Yevropa parlamentining 2017 yil 16 fevraldagi qarori sun'iy intellektning huquqiy maqomi masalasini ko'rib chiqish uchun qiziq bo'lgan. Qarorda qayd etilishicha, Yevropa komissiyasi uchun robototexnika bo'yicha fuqarolik huquqi normalari bo'yicha tavsiyalar berilgan⁵. Ushbu hujjat matnida sun'iy intellektning huquqiy holati o'ziga xosdir, sun'iy intellekt o'ziga xos “**elektron shaxs**”ga

⁵ Резолюция Европарламента от 16 февраля 2017 года. [Электронный ресурс] // robopravo.ru/riezoliutsiia_ies aylanadi. Qarorda sun'iy intellekt uni almashtirish o'rniga, uning imkoniyatlarini to'ldirishga qaratilganligi ta'kidlangan. Shunindek, sun'iy intellekt o'z harakatlari yoki harakatsizligi bilan odamga zarar yetkaza olmaydi, shuningdek zarar etkazish imkoniyatini tan olmaydi, sun'iy intellekt





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

insonning barcha buyruqlariga bo'ysunishi kerak, ya'ni 1942 yilda fantastik yozuvchi Isaak Asimov tomonidan tuzilgan robototexnikaning uchta qonuni amalda mustahkamlangan. Qarorda bayon etilgan yondashuv eng maqbuli deb talqin etishga arziydi. Bundan tashqari, sun'iy intellektndan foydalanish bilan bog'liq kelib chiqadigan masalar yuzasidan javobgarlikning qay tartibda belgilanishi ham fuqarolik munosabatlarida juda qiziqholatlarni keltirib chiqaradi. Misol uchun "B" ismli shaxs sun'iy intellekt bilan boshqariladigan mashinada harakatlanib ketayapti. Avtomobil kutilmaganda yo'l yoqasidan o'tib ketayotgan odamlar tomon harakatlandi. Buning natijasida bir qancha yo'lovchilarga yengil shikast yetkazildi, avtomobil egasi hisoblangan "B" ismli shaxs juda ko'p hissiy stressni boshdan kechirdi, shuningdek mashinaning bamperi ham shikastlangan. Mazkur holatda, sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun, ma'naviy zarar uchun hamda avtomobilga yetkazilgan zarar uchun zararni kim qoplaydi?

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, barcha zararlar yuqori xavf manbai egasi tomonidan qoplanadi. Ammo mashinani sun'iy intellekt boshqargan bo'lsa, uni yengib bo'lmas kuch deb hisoblashimiz mumkinmi? Avtomobil egasi o'z vaqtida boshqalar uchun xavfni anglab, boshqaruvni o'z zimmasiga olishi mumkin edimi?

Yuqoridagi sun'iy intellekt bilan bog'liq ravishda zarar yetkazilishi natijasida yuzaga keladigan javobgarlik uchun sud amaliyoti qiyinchiliklarga duch keladi, ammo bir qator davlatlar bunday hodisalar yuzaga kelganda javobgarlikni tartibga soluvchi normalarni joriy etishgan.

Germaniya tajribasi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Germaniyada 2017 yil 16 iyundagi "Yo'l harakati to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida Sakkizinchi qonun"⁶ qabul qilingan bo'lib, bu aslida haydovchisiz (avtopilot) transport vositalaridan foydalanish imkoniyatini shakllantirdi. Qonunda haydovchi yo'lda sodir bo'layotgan voqealardan chalg'ishi mumkinligi belgilab qo'yilgan, shuningdek agar sun'iy intellektga asoslangan avtomobil boshqaruvni haydovchiga qisman sezilarli darajada yoki to'liq taklif qilsa, u boshqaruvni o'z zimmasiga olishga majburdir. Shuningdek, haydovchi agar sun'iy intellekt avtomashinasini keyingi boshqarish mumkin emasligini bilsa yoki bilishi kerak bo'lsa, masalan, haydovchi sun'iy intellekt bilan ishlaydigan mashina piyodalar olomoniga ketayotganini va hokazolarni ko'rsa, boshqaruvni o'z zimmasiga olishi kerak. Agar mazkur transport vositasining ichki nuqsoni ya'ni texnik xato tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, u holda avtomobil





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ishlab chiqaruvchisi javob beradi. Germaniyada mavjud bo'lgan ushbu javobgarlikka bo'lgan yondashuv haqiqatan ham juda yuqori sifatga ega, chunki texnik xato tufayli avtoullovni boshqarishni o'z zimmasiga olmagan avtoullovchi javobgar bo'lishi mumkin emas vabo'lmasligi kerak.

Javobgarlik masalasi 2017-yil 16-fevraldagi Yevropa parlamentining rezolyutsiyasida ham ko'tarilgan. Hujjat shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt o'z-o'zidan javobgar bo'lishi mumkin emas⁷, chunki uning harakatlari yoki harakatsizligi operator (egasi) ga bog'liq, ya'ni sun'iy intellekt ma'lum bir maqsadga erishish uchun o'ziga xos vositadir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, texnik xato tufaylihar qanday zarar yetkazilgan bo'lsa, nafaqat sun'iy intellekt egasi, balki ishlab chiqaruvchi ham javobgar bo'ladi. Shu bilan birga, qarorda aytilishicha, sun'iy intellektning avtonomiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, u oddiy vosita sifatida shunchalik kam baholanishi mumkin.

⁶ 2017 yil 16 iyundagi “Yo'l harakati to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida Sakkizinchi qonun”

// robopravo.ru/initsiativy_frantsii_v_sfierie_robototiekhniki_2013_2

⁷ Резолюция Европарламента от 16 февраля 2017 года. // robopravo.ru/riezoliutsiia_ies

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foylanish dunyo miqyosida, xususan bizning jamiyatimizning barcha sohalarini qamrab olayotgani sababli uning huquqiy tartibga solinishi uchun quyidagi takliflar ko'rib chiqilishi zarur:

1. Mamlakatimiz qonunchilik hujjatlarida sun'iy intellekt tushunchasi, sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan munosabatlarda uning ahamiyati to'g'risidagi normalar aks etmagan. Bu esa o'z navbatida sun'iy intellektning huquqiy maqomini va undan foydalish doirasini belgilashda turli kolliziyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

2. Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda sun'iy intellektning hozirgi va kelajakdagi jamiyatda tutadigan o'rni, huquqiy munosabatlardagi ahamiyatini hisobga olib qator amaliy hamda tashkiliy ishlar ko'rilishi kerak. Jumladan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan, ishlab chiqayotgan sun'iy intellektni rivojlantirish hujjatlaridan kelib chiqib, mamlakatimiz qonunchilik bazasini hozirda loyiha sifatida turgan “Sun'iy intellektni rivojlantirish – 2030” strategiya bilan to'ldirish zarur.

3. Sun'iy intellekt texnologiyalarini yartish va undan foydalanish bilan bog'liq





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


munosabatlar fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishda mavjud qonunchilik bazasini tizimlashtirish va uning qaysi sohada foydalanishiga ko`ra turdosh qonunchilik bilan moslashtirish ham muhim o`rin egallaydi.

4. Sun`iy intellekt texnologiyalarini yaratish va undan foydalanishga oid shartnomalarni yanada mukammallashtirish va aniqlashtirish, shuningdek sun`iy intellekt tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlarda sun`iy intellektning obyekt yoki subyekt sifatida ko`rilishi, bundan tashqari uning natijasida kelib chiqadigan zararni kim tomonidan qoplanishi borasida ham aniq huquqiy tizim mavjud emas.

Xulosa: Olib borilgan o`rganishlar sun`iy intellekt tizimining kundalik hayotimizdagi o`rni qay darajada muhim ekanligi, u bilan bog`liq texnologiyalar hozirda ko`plab sohalarda ishlarning bajarilishini yengillashtirayotganini, ishchi kuchi o`rinlarini egallayotgani va sifatli xizmat taklif qilayotganini ko`rsatadi. Shu bilan birgalikda, sun`iy intellektni munosabatlardagi o`rni (uning o`zaro munosabatlarda obyekt yoki subyekt sifatida ko`rilishi) ya`ni uning huquqiy maqomini belgilash, qolaversa, sun`iy intellektni fuqarolik-huquqiy tartibgasolinishi hali jahonning hech bir mamlakatida mukammal ravishda aks etmagan bo`lsa-da, ammo ularning taraqqiy etib borishi asta-sekinlik bilan mazkur sun`iy intellekt tizimining jamiyatdagi ahamiyatini oshishiga hamda yuqoridagi bo`shliqlarning to`ldirilishiga olib kelmoqda.

Xususan 2017 yil oktabr oyida ilk bora va hozirda yagona bo`lgan xitoylik olimlar tomonidan yaratilgan Sofia nomli robototexnika ishlanmasiga Saudia Arabistoni hukumati tomonidan mazkur mamlakat fuqaroligining taqdim etilishi, sun`iy intellektning ham jamiyat a`zosi sifatida inson huquqlaridan foydalanishiga, uning o`zaro munosabatlarda shaxs kabi namoyon bo`lishiga zamin yaratib berdi.

Sun`iy intellektning huquqiy maqomini belgilashning yana bir e`tiborli jihati shundan iboratki, aksariyat olimlar ushbu texnologiyaga yuridik shaxs maqomini berish bo`yicha taklif bermoqda. Ya`ni uni ham bir tuzilma ko`rinishidashakllantirib, tizim uchun alohida hisob raqam ochiladi, ko`rsatadigan xizmatlari evaziga tushadigan mablag`larni hamda yezkazishi mumkin bo`lgan zararini ochilgan hisobi orqali amalga oshiradi. Lekin yuridik shaxsni tashkil qilishning hamo`ziga xos talab va belgilari mavjud bo`lib, dasturga yoki robotga yuridik shaxs maqomini berilishi mantiqan to`g`ri bo`lmaydi. Yevropa parlamenti tomonidan sun`iy intellektning huquqiy maqomi masalasida 2017 yil 16 fevralda chiqargan qarori sun`iy intellektni “elektron shaxs”ga aylantirdi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Sun'iy intellektdan foydalanishda kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga solishda, avvalambor, mamlakatimiz qonunchiligiga quyidagi huquqiy elementlar bilan to'ldirish zarur:

- sun'iy intellekt tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish;
- sun'iy intellektning shakllanishi va uning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- sun'iy intellektning fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarini tahlil qilish;
- sun'iy intellektni yaratishga oid hamda sun'iy intellektdan foydalanishga oid shartnomalarning yuridik tavsifini yoritish;
- sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilash muammolari muhokama qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMTning “Xalqaro shartnomalarda elektron xabarlardan foydalanish to'g'risida” gi Konvensiyasi;
2. Yevropa parlamentining 2017 yil 16 fevraldagi “Robototexnika bo'yicha fuqarolik huquqi normalari bo'yicha tavsiyalari”;
3. Germaniya Federatsiyasining 2017 yil 16 iyundagi “Yo'l harakati to'g'risidagi qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida Sakkizinchi qonun”;
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 29.08.1996 yil; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yilda PF-6079 “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi PQ-4996-sonli “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Qarori;
6. O'zbekiston Respublikasining 05.10.2020 yilda qabul qilingan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi
7. Elektron tijorat va o'zaro bog'liq sohalar (huquqiy tartibga solish): maqolalar to'plami / E.A. Ostanina, L.V. Kuznetsova, E.S. Xoxlov [va boshqalar]; qo'llar avto hisoblash va javob. ed. Yuridik fanlar doktori M.A. Rojkova. – Moskva: Nizom, 2019. – 448 b.

Internet resurlar:

1. robopravo.ru/riezoliutsiia_ies
2. news.microsoft.com/ru-ru/sleduyushhij-rembrandt





MFKA SORBENTI VAUNING Cu(II) IONI BILAN HOSIL QILGAN BIRIKMASINING KOMPLEKSI TERMOGRAVIMETRIK TAHLILI

S.M.Rasulova

Termiz davlat universiteti: rasulovasafarmox@gmail.com

D.K.Ishmuratova

Termiz davlat universiteti: ishmuratovadilnoza2707@gmail.com

O.R.Xudoynazarov

Termiz davlat universiteti: xudoynazarovotabek08@gmail.com

G.A.Asadullaeva


Termiz davlat pedagogika instituti: gulnoza.asadullayeva41@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda toza ichimlik suvi tanqisligi sababli global muammoga aylanib bormoqda. Shu sababli ushbu ishning maqsadi tarkibida azot va kislorod tutgan kompleks hosil qiluvchi sorbentlar sintez qilish, sintez qilingan sorbentlar asosida ayrim metallarning kompleks birikmalarini sorbsiyalash asosida olish va sintez qilingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi hamda ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganishdan iborat. Ushbu maqolada sorbent sintezi hamda melamin, formalin, karbamid va tozalangan ammos asosida (MFKA) olingan ayrim 3d-metallar bilan termogravimetrik tahlili o'rganilgan. MFKA sorbentining Cu(II) ion bilan hosil qilgan komplekslarining termogravimetrik analiz natijalari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: sorbent, melamin, karbamid, formalin, ammos, endotermik effekt, ekzotermik effect, derivatogramma, termogravimetriya, differensial, egrichizig'i.

THERMOGRAVIMETRIC ANALYSIS OF THE COMPLEX COMBINATION OF MFKA SORBENT VAU WITH Cu(II) ION

Abstract. Nowadays, the shortage of clean drinking water is becoming a global problem. Therefore, the purpose of this work is to synthesize complex forming sorbents containing nitrogen and oxygen, to obtain complex compounds of some metals based on the sorption of the synthesized sorbents, and to determine the composition, structure and composition of the synthesized compounds. consists in studying their





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

physicochemical properties. This article deals with the synthesis of sorbent and thermogravimetric analysis with some 3d metals obtained on the basis of melamine, formalin, urea and purified ammophos (MFKA). The results of thermogravimetric analysis were analyzed.


Key words: sorbent, melamine, urea, formalin, amphos, endothermic effect, exothermic effect, derivatogram, thermogravimetry, differential, curve.

ТЕРМОГРАВИМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОМПЛЕКСНОЙ КОМБИНАЦИИ СОРБЕНТА МФКА ВАУ С ИОНОМ $Cu(II)$

Аннотация. В настоящее время нехватка чистой питьевой воды становится глобальной проблемой. Поэтому целью данной работы является синтез комплексообразующих сорбентов, содержащих азот и кислород, получение комплексных соединений некоторых металлов на основе сорбции синтезированных сорбентов. а определение состава, строения и состава синтезированных соединений заключается в изучении их физико-химических свойств. В статье рассмотрен синтез сорбентным и термогравиметрическим анализом некоторых 3d-металлов, полученных на основе меламина, формалина, мочевины и очищенного аммофоса. МФКА). Проанализированы результаты термогравиметрического анализа.

Ключевые слова: сорбент, меламина, мочевины, формалин, амфос, эндотермический эффект, экзотермический эффект, дериватограмма, термогравиметрия, дифференциал, кривая.

Ushbu maqolada termik turg'unligini o'rganish bo'yicha tajribada olingan va adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida ligandlarni qizdirish jarayonida birikmalar tuzilishining destruksiyasi natijasida massa o'zgarishi bilan kuzatiladigan turli ekzotermik va endotermik issiqlik effektlari derivatografik analiz natijalari asosida tahlil qilingan[1]. Kaltsiy magniy asetat (CMA), kaltsiy asetat (CA) va magniy asetat (MA) ning termal parchalanish xarakteristikasi 5 K min⁻¹, 7,5 K min⁻¹, 10 K min isitish tezligida termogravimetrik (TG) tahlil orqali o'rganilgan. -1 va 15 K min⁻¹. Suvsizlanishdan so'ng, CMA va CA ning karboksilik radikali va karbonat anhidridning bug'lanishi ikkita alohida segmentda mavjud, ammo MA uchun bu aniq chegarasiz faqat bitta segmentda birga sodir bo'ladi. Hisoblangan CMA (C-CMA) ning egri





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

chiziqlari va chiqarilgan xarakteristikalar parametrlari CA va MA ning CMA tarkibidagi tegishli komponentlardan farqli xususiyatlarini ko'rsatadi, bu sorbentlarning SO₂ va NO_x ni kamaytirishdagi turli ko'rsatkichlariga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, uchta sorbentning aktivlanish energiyasining kinetik parametrlari va reaksiya tartibi mos ravishda Vyazovkin usuli va Avrami nazariyasi orqali hisoblagan[2]. Atrof-muhitdagi suvda Cd (II) va Cu (II) izlarini aniqlashning sezgir va ishonchli analitik usuli ishlab chiqilgan bo'lib, u qattiq fazali ekstraksiyaga (SPE) asoslangan, sorbent sifatida yangi ionli suyuqlik bilan modifikatsiyalangan kompozitsiyani olov bilan aniqlash bilan birlashtirilgan.

Ushbu yangi sorbent 1-oktil-3-metilimidazolium geksatorofosfat ([OMIM][PF₆]) gidrofobik ionli suyuqlik yordamida nozik shisha boncuklarda qo'llab-quvvatlanadigan nano-TiO₂ yuzasiga immobilizatsiya yordamida tayyorlangan va Fure transform infraqizil spektroskopiyasi (FT-) bilan tavsiflangan. IQ) va termogravimetrik tahlil (TGA.[3] Ushbu tadqiqotda uglerod sorbentlari termoekstraksiya-desorbsion gaz xromatografiyasi-mass spektrometriyasi (TED-GC-MS) texnikasida mikroplastmassa termoparchalanish birikmalarining saqlanishini yaxshilash uchun sinovdan o'tkazgan va ushbu dastur uchun eng maqbul xatti-harakatni ko'rsatdi, bu esa ikkita asosiy afzalliklarni ta'kidlagan[4].

Ushbu maqolada hosil bo'lgan sorbentning termik turg'ligi va termal xarakteristikalari keltirilgan. Kompleks hosil qiluvchi xususiyatlarga ega karbamid, formaldegid va difeniltiokarbazonga asoslangan d-metall kationlari bilan termogravimetrik tahlili va termal tadqiqotlar natijalariga asoslanib, hosil bo'lgan sorbentning tuzilishi tahlil qilingan[5].

Tadqiqot metodologiyasi. 5 g (0.83 mol) karboamid 5 ml formalinda eritildi va pH=8 bo'lgunga qadar NH₄OH eritmasi qo'shildi. Harorat 150 °C da qavushqoq massa hosil bo'lgungacha qizdirildi. Hosil bo'lgan qovushqoq aralashmaga 1.235 g(0,05 mol) tozalangan ammos fos qo'shildi va aralashmadan formalin uchib chiqib ketishini hisobga olib 3 ml formalin tomchilatib qo'shildi shundan so'ng 1 g(0,079 mol) melamin qo'shib aralashtirildi ushbu jarayon 80 °C da amalga oshirildi . Harorat 100 °C ga ko'tarilganda qattiq yoki saqichsimon massa hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan smolasimon massa chinni kosachaga solindi va quritish shkafida 95 °C haroratda 20 soat davomida quritildi. Quritilgan polimer maydalangach, past molekulyar og'irlikdagi moddalardan dastlab 5% li NaOH eritmasi bilan, so'ngra bir necha marotaba distillangan suv bilan neytral







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

holga kelguncha yuvildi. Natijada kichik g'ovaklardan iborat oq rangli donador massa hosil bo'ldi. Mahsulot unumi 85 % ni tashkil etdi.

MFKA sorbenti va uning Cu(II) ioni bilan derivatogrammasi 2-rasmda keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat.

Derivatogramma (DTA) egri chizig'ida $79,05^{\circ}\text{C}$, $232,85^{\circ}\text{C}$, $279,54^{\circ}\text{C}$ va $375,18$ larda uchta endotermik effekt aniqlandi va ekzotermik effekt ko'zatilmadi. Termogravimetriya (TGA) egri chizig'ining tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'ida 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi. 1-endotermik effekt $31,78-213,00^{\circ}\text{C}$ atrofida, 3,632 mg massa yo'qotildi ($100-200^{\circ}\text{C}$) erituvchi sifatida ishlatigan suv qoldiqlarining yo'qotilishi bilan izohlanadi. 2-endotermik effekt $213,27-321,41^{\circ}\text{C}$ atrofida sodir bo'ladi va 10,006 mg massa yo'qotildi, 3-endotermik effekt $323,56-595,90^{\circ}\text{C}$ da oralig'ida kuzatilgan va 3,700 mg massa yo'qotildi. Bu kompleks tarkibidagi aminoguruhlar parchalanishi bilan izohlanadi. Bu esa gidrofosfat guruhlar tarkibidan suvning ajralib chiqishi bilan bog'liq. $31,78-403,91^{\circ}\text{C}$ harorat intervalida massaning umumiy kamayishi 17,338 mg ni tashkil etganligi aniqlandi, bunga 76,66 daqiqa vaqt saflandi





2-rasm. MFKA sorbenti va uning Cu(II) ionining derivatogrammasi

TGA- termogravimetrik analiz egri chizig'i;


DTA - differensial termik analiz egri chizig'i.

Termogravimetrik analiz egri chizig'i va differensial termik analiz egri chizig'ining tahlili, quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki 2-oraliq parchalanishda eng yuqori massa yo'qotilishini ko'rishimiz mumkin ya'ni bu oraliqda massaning 45,86 % yo'qotilgan.

1-jadval.

Termogravimetriya (TGA) egri chizig'ining tahlili.

Temperatura °C	Vaqt daqiqa	Massa (mg)	Yo'qotilgan massa (%)
31,84-213,00	19,02	3,632	16,65
213,27-321,41	10,67	10,006	45,86





323,56-598,90	28,12	3,7000	16,96
---------------	-------	--------	-------

Termogravimetrik analiz egri chizig‘i va differensial termik analiz egri chizig‘ining batafsil tahlili, quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Namuna namunasini vazn yo‘qotishiga haroratning ta‘siri

№	dw 21,816	1/T	dw/dt	M.g	Mint	T ⁰ +K
1	20.727	0.0026	0,1601	1,089	6,8	373
2	18.999001	0.0021	0,1676	2,816	16,8	473
3	9.114200	0.0017	0,4739	12,701	26,8	573
4	6.533300	0.0014	0,4153	15,282	36,8	673
5	5.246600	0.0012	0,3417	16,569	48,483	773
6	4.515800	0,0011	0,3047	17,3	56,783	873

MFKA uchun ushbu jarayonning faollashuv energiyasi qiymatlari ko‘rsatilgan. (3-jadval).

3-jadval.

MFKA ning termal-oksidlanish tahlili natijalari.

№	dw 14,56	Ln(W ₁ /W ₂)	1/T *10 ⁻³
1	20.727	0,0512	2.6
2	18.999001	0,1382	2.1
3	9.114200	0,8728	1.7
4	6.533300	1,205731	1.4
5	5.246600	1,426	1.2
6	4.515800	1,575	1.1

Shunday qilib, 273 dan 600 K gacha bo‘lgan harorat oralig‘idagi jarayonlar kinetikasi bo‘yicha olingan eksperimental ma‘lumotlar asosida kompleks namunaning termik-oksidlanish degradatsiyasining xususiyatlari o‘rganildi.


ADABIYOTLAR.

1. Turayev X.X., Kosimov A.T., Djalilov F.B., Eshqurbonov F.B., Gidrazo-, fosfo-va ditiofosfoguruhli kompleks hosil qiluvchi sorbentlar. Toshkent ‘‘Universitet’’ 2019.





2. Niu S. et al. Thermogravimetric analysis of the relationship among calcium magnesium acetate, calcium acetate and magnesium acetate //Applied Energy. – 2010. – Т. 87. – №. 7. – С. 2237-2242.
3. Zou J. et al. Trace determination of cadmium (II) and copper (II) in environmental water samples by solid-phase extraction using a novel ionic liquid-modified composite sorbent combined with flame atomic absorption spectrometry //Journal of Analytical Atomic Spectrometry. – 2014. – Т. 29. – №. 9. – С. 1692-1697.
4. Sorolla-Rosario D. et al. Carbon sorbents for the retention of thermodecomposition compounds from microplastics //Journal of Environmental Chemical Engineering. – 2022. – Т. 10. – №. 6. – С. 108970.
5. Чориева Н.Б, Касимов Ш.А, Тураев.Х.Х, Худойбердиев Б.Б. ИК - спектроскопические и термические характеристики серосодержащего сорбента// DOI - 10.32743/UniChem.2021.89.11.12484.





NORMUROD NORQOBILOVNING “KURASH” HIKOYASIDA MILLIYLIK VA AVLOD MASALASI

Amirxon Ne'matov

(Buxoro davlat universiteti talabasi)

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada Normurod Norqobilovning “Kurash” hikoyasida gurur, milliylik, meros, qadriyatlar va kuchining masalalarini ko‘rib chiqadi. Hikoya asosida yozuvchining badiiy mahorati, personaj yaratish jarayonida ifoda shakllari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: or-nomus, g‘alaba, kuch-qudrat, meros, kurash, zamonaviy chaqiriq

ВОПРОСЫ НАЦИОНАЛЬНОСТИ И ПОКОЛЕНИЯ В ПОВЕСТИ НОРМУРОДА НОРКОБИЛОВА "БОЙ"

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматриваются вопросы гордости, национальности, наследия, ценностей и ее силы в повести Normuroda Norqobilova «Kurash». На основе повести проанализировано художественное мастерство писателя, формы выразительности в процессе создания персонажа.

Ключевые слова: честь, победа, сила, наследие, борьба, современный вызов


THE ISSUES OF NATIONALITY AND GENERATION IN THE STORY "FIGHT" BY NORMUROD NORQOBILOV

ABSTRACT.

This article examines the issues of pride, nationality, heritage, values and its power in Normurod Norqobilov's story "Kurash". Based on the story, the artistic skill of the writer, the forms of expression in the process of character creation were analyzed.

Key words: honor, victory, strength, heritage, struggle, modern challenge

Normurod Norqobilovning “Kurash” asari matonat va ajdodlar g‘ururining chuqur tuyg‘usini o‘zida mujassam etgan. Norqobilov o‘z hikoyasi orqali kurashning





madaniy ahamiyatini, ya'ni kurash sport turidan ko'ra ko'proq narsa ekanligini ta'kidlaydi – bu shaxsiy va oilaviy sharafdan dalolatdir. Hikoya boy madaniy meros, shaxsiy kurash va halollikka intilish majmuasidir. Norqobilov Hamida momo obrazi orqali inson kuch-qudratini, meros salmog'ini, sha'ning bitmas-tuganmas kuchini o'rganadi. Hikoya o'quvchilarni o'z qadriyatlari va zamonaviy hayotning murakkabliklarida harakat qilishda o'z merosini hurmat qilish muhimligi haqida fikr yuritishga chaqiradi. Bunda “Kurash” an'ana va o'zgarish, kuch va zaiflik o'rtasidagi abadiy kurash, shaxsiy va oilaviy sha'ni uchun tinimsiz izlanishning dalilidir.

Hamida momoning ichki qarama-qarshiligi va uning oila merosidan og'ish deb bilgan narsani tuzatishga bo'lgan qat'iyati ko'rsatilgan. U Shomurodga jarohati uchun emas, balki o'zi uchun qadrli bo'lgan or-nomus va halol o'yin tamoyillarini singdirish istagida qarshi turadi. Bu o'zaro ta'sir “Kurash”ning mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan — bu nafaqat jismoniy kuch, balki ma'naviy butunlik va oilaviy burch kurashidir. Uning xarakteri o'tmish va bugun o'rtasidagi ko'prik bo'lib, otasi To'rapolvondan qolgan boy merosni o'zida mujassam etgan. Yozuvchi undan zamonaviy chaqiriq va o'zgarishlar sharoitida muqaddas qadriyatlarni saqlab qolish muhimligini ta'kidlash uchun foydalanadi.

Momoning o'g'li Shomurodning kurashdagi shafqatsiz usulini ma'qullamagani uning kurashning haqiqiy ruhiga sodiqligini, u shunchaki g'alabadan ko'ra adolat va sharafni qadrlashini ko'rsatadi. Uning ichki mojarosi yaqqol sezilib turadi, chunki u o'zining jismoniy qobiliyatlaridan g'ururlanishi bilan bir qatorda o'g'lining usullaridan ko'ngli qoladi. Bu keskinlik uning Shomurod bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnash kelishi bilan yakunlanadi.

Hamida momoning xatti-harakatlari nafaqat o'zi uchun, balki oilasining merosi uchun hurmatni tiklash zarurati bilan bog'liq. Uning o'g'li ustidan qozongan g'alabasi kurashning asl qadriyatlarini yana bir bor ta'kidlagani uchun bu qutqaruv ramzi bo'lib xizmat qiladi. Bu kurash hikoyaning markaziy mavzusi bo'lib, o'z qadriyatlari va benuqsonligini saqlash jasorat va ishonchni talab qiladigan uzluksiz kurash ekanligi haqidagi g'oyani tasvirlaydi.

Hamida momoning xarakteri nozik, ammo u kurashning kuchi, or-nomusi va ruhi jinsga bog'liq emasligini namoyish etadi. Uning xarakteri gender me'yorlariga qarshi chiqadi, ayollarning jismoniy, axloqiy qobiliyatlari va kuchlarini ifoda etadi. Momoning xarakteri yaxlitlikning mustahkam qadriyatlari va madaniy merosni saqlash






muhimligi haqida kuchli eslatma bo‘lib xizmat qiladi. U shaxsiy va avlod muammolari oldida ushbu qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun kurash va g‘alabalarni aks ettiradi. Oxir oqibat, yozuvchi Hamida momodan foydalanib, chinakam kuch ma’naviy matonatda, hatto umidsizlik va o‘zgarishlarda ham o‘z tamoyillariga cheksiz sodiqlikda ekanligini ko‘rsatadi. Shu sabab ruhi jonlanib ketgan Hamidaning Shomurodni jismonan sinovdan o‘tkazadi. Bu qarama-qarshilik shunchaki kuch sinovi emas, balki uning qadriyatlarini qayta tiklash va kurashning haqiqiy ruhini targ‘ib qilishning ramziy harakatidir. Uning g‘alabasi, yoshi va jismoniy cheklovlariga qaramay, shafqatsiz kuch ustidan sharaf va benuqsonlikning mustahkam kuchini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Normurod Norqobilovning “Kurash” asari boy madaniy meros, shaxsiy kurash va halollikka intilish majmuasidir. Norqobilov Hamida momo obrazi orqali inson kuch-qudratini, meros salmog‘ini, sha’ning bitmas-tuganmas kuchini o‘rganadi. Hikoya o‘quvchilarni o‘z qadriyatlari va zamonaviy hayotning murakkabliklarida harakat qilishda o‘z merosini hurmat qilish usullari haqida fikr yuritishga chaqiradi. Bunda “Kurash” an’ana va o‘zgarish, kuch va zaiflik, meros va zamon o‘rtasidagi abadiy kurash, shaxsiy va oilaviy sha’ni uchun tinimsiz izlanishning dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. “Ma’naviyat”. T-2000.
2. Do‘stmuhammedov X. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi (80-yillarning ikkinchi yarmi, 90-yillar boshidagi hikoyalar misolida) NDA. –Toshkent, 1995.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va milliy istiqloq mafkurasi. DDA. – Toshkent, 1993.
- 4.



MISNING 4-XLORFENOKSISIRKA KISLOTA BILAN KOMPLEKSI SINTEZI VA TADQIQOTI

Bekmurod Xurramovich Alimnazarov¹, Jamshid Mengnorovich Ashurov², Alisher Gulumbaevich Yeshimbetov², Sharifova Lola Baxodirovna¹, Raimov Farhod, Ubaydullayeva Nasiba¹

¹ *Termiz davlat universiteti,*

² *O‘zR FA akad. O.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti*

E-mail: alimnazarov2016@mail.ru

Annotatsiya: 4-xlorofenoksisirka kislota va mis (II) sulfat asosida kompleks birikma $[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ olindi. Kompleks rentgen strukturaviy analizi, kompleks tuzilishini maqbullashtirgan holda DFT hisoblashlari va Xirshfeld yuzasi tahlilini ham o‘tkazildi. Birikma tarkibidagi 4-D ning fenoksi guruhidagi kislorod va markaziy atom mis orasidagi masofa farqi Yan-Tellar effekti bilan tushuntiriladi. Xirshfeld yuzasi tahlili barmoq izlari sohasi $\text{H}\cdots\text{H}$ ta’sirlarning yuza ta’sirlari orasida eng ko‘p hissa qo‘shishini ko‘rsatadi, bu esa kislorod atomlari dominantlik qiladigan molekulalar uchun kutilgan holatdir.

Tayanch iboralar: Xlorfenoksi gerbitsidlar, 4-xlorofenoksisirka kislota, misli kompleks, rentgen strukturaviy analizi, DFT hisoblashlar, Xirshfeld yuzasi tahlili.

Kirish

Ma’lumki, 4-xlorofenoksisirka (4-D) va 2,4-dixlorofenoksisirka (2,4-D) kislotalari qishloq xo‘jaligida gerbitsid va o‘simliklar o‘shining stimulyatorlari sifatida keng qo‘llaniladi [1]. Xlorfenoksi gerbitsidlari keng tarqalgan pestitsidlar oilalaridan biri bo‘lib, ular makkajo‘xori, sholi va bug‘doy ekiladigan dalalarda begona o‘tlarni nazorat qilish uchun ishlatiladigan sintetik auksinlardir [2].



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


Metall ionlarining 4-D bilan o‘zaro koordinatsiyalashganda monodentat [3] va bidentat [4-6] xolatda komplekslar hosil bo‘lishiga olib keladi. 4-D ligandlari ko‘pirik ko‘rinishida ham koordinatsiyalashishi mumkin [7-8].

Adabiyotlar tahlili oraliq metallarning 4-D asosidagi kompleks birikmalarning sintezini amalga oshirish, ularning tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, aniqlangan xossalarga ko‘ra kompleks birikmalarning qo‘llanilish sohasini belgilash kabi vazifalarni amalga oshirish zaruriyatini mavjudligini ko‘rsatdi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, 4-D, mis (II) sulfat tuzi reaksiyasi natijasida olingan metallokompleks birikmaning rentgen strukturaviy analizi, kompleks tuzilishini maqbullashtirgan holda DFT hisoblashlari va Xirshfeld yuzasi tahlili usullarida o‘rganildi.

Tadqiqot metodikasi

Sintezda ishlatiladigan reagentlar Sigma-Aldrichdan sotib olindi va hech qanday tozalashsiz foydalanildi. $[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksni sintez qilish uchun 4-xlorfenoksisirka kislotasidan 373 mg (mkmol) absolyut etil spirtida va $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ dan 250mg (0,1mkmol) distillangan suvda eritildi. Ikkala eritma aralashtirilib 30 daqiqa davomida 60°C haroratda magnitli aralashtirgich bilan intensiv aralashtirildi. Eritma xona haroratida sekin bug‘latishga qoldirildi, bir haftadan keyin ochiq havo rangli monokristallar shakllanganligi aniqlandi. Monokristall eritmadan filtralab ajratildi va etanolda yuvilib, havoda quritildi. Unumi 75%, $[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ $\text{C}_{16}\text{H}_{16}\text{O}_8\text{Cl}_2\text{Cu}$ (470.75) CHN tahlili nazariy jihatdan: C 40.82, H 3.42% ni ko‘rsatadi: ma’lum bo‘ladiki C 40.79, H 3.39 %.

Rentgen strukturaviy analizi Xcalibur[®] Oxford Diffraction difraktometrda (grafitli monoxromator, Cu- K_α -nurlanish $\lambda=1,54184 \text{ \AA}$) amalga oshirildi. Kristallar strukturasi keltirib chiqarish va aniqlash uchun zamonaviy Pentium IV rusumdagi kompyuterda o‘rnatilgan SHELXS-97, SHELXL97 va Olex2 dasturlari majmuasidan foydalanildi. DFT hisob-kitoblari uchun kompleksning dastlabki geometriyasi rentgen ma’lumotlaridan (*cif fayli) olingan. B3LYP/def2-TZVP usuli bo‘yicha zichlik funksional nazariyasi (DFT) hisoblari ORCA 5.0 dasturiy paketi yordamida amalga oshirildi. Kompleks birikmaning kristallaridagi molekulararo o‘zaro ta’sirlarni



ko‘rish uchun Crystal Explorer 17.5 dasturida SIF fayllar qayta ishlandi. d_{norm} ustidagi Xirshfeld yuzasi tahlil qilindi.


Tahlillar va natijalar

Adabiyotda ma’lum bo‘lgan $[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ tarkibli kompleks biz tomonimizdan ham qayta sintez qilindi. Biz ushbu kompleksning Xirshfeld yuzasi tahlilini ilk marotaba amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldik. Shu bilan birga kompleks tuzilishini maqbullashtirgan holda DFT hisoblashlari ham o‘tkazildi.

1- jadval

$[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleks birikmasining kristallografik ma’lumotlari


Parametr	Qiymatlar	Parametr	Qiymatlar
$[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$			
Formula	$\text{C}_{16}\text{H}_{16}\text{Cl}_2$ CuO_8	$\mu(\text{CuK}_\alpha)$, MM^{-1}	1.54184
Molekulyar massa	470.73	Kristall o‘lchami, mm	$0,2 \times 0,3 \times 0,32$
Singoniya	Triklinik	Harorat T, °K	293(2)
Fazoviy guruh	P-1	Skanerlash oralig‘i θ , °	3.4 – 76.0
a, Å	5.1108(8)	Interval h,k,l	-4:6; -8:8; -16:15
b, Å	7.0620(13)	Jami reflekslar	5985
c, Å	13.252(3)	Mustaqil reflekslar soni	971
α °	81.783(16)	R_{int}	0.042
β °	86.401(14)	$F2 \geq 2\sigma$ (F2) kriteriy	882
γ °	76.367(15)	Aniqlagan parametrlar	145






$V, \text{\AA}^3$	459.84	Strukturani aniqlash sifati	1.08
Z	1	$R_1, wR_2 (I > 2\sigma (I))$	0.0648, 0.1535, 0.97
$D_x, \text{g/cm}^3$	1.700	$\Delta\rho_{\text{min/max}}, e\text{\AA}^{-3}$	0.40, 0.49

Kristalning elementar yacheykasi parametrlari quyidagicha: fazoviy guruhi P-1, $a=5.1108(8) \text{\AA}$, $b=7.0620(13) \text{\AA}$, $c=13.252(3)\text{\AA}$, $\alpha=81.78^\circ$, $\beta=86.40^\circ$, $\gamma=76.36^\circ$, $V=459.84\text{\AA}^3$, $Z=1$. $[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksi monoyadroli bo‘lib Cu^{2+} ionining 4-D va suv molekulari bilan hosil qilingan, neytral tabiatga ega. Kompleks tarkibidagi Cu1-O1 va Cu1-O2 bog‘lari orasidagi masofasi mos ravishda qiymati 1.958\AA 1.953\AA bo‘lsa, Cu1-O4 orasidagi masofa esa 2.395\AA teng O2-Cu1-O4 ning burchaklari 74.72° . Birikma tarkibidagi 4-Dning fenoksi guruhidagi kislorod va markaziy atom mis orasidagi masofa farqi Yan-Tellar effekti bilan tushuntiriladi.



1-rasm. $[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleks birikmasining tuzilishi

Kompleks birikmadagi markaziy atom mis deformatsiyalangan bipiramida tipida (CuO6) ikkita ligand 4-Dning karboksil va fenoksi guruhidagi va 2 ta suv





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


molekularidagi O1 atomlari bilan koordinatsiyalanadi. Bunda 4-D molekulari O2,O4 bidentat va ikkita suv molekulari esa monodentat ligandlar sifatida qatnashgan. Markaziy atom Cuning koordinatsion soni 6ga teng bo‘lib, sp^3d^2 xolatda gibridlangan.

2-jadval

[Cu(4-D)₂(H₂O)₂] kompleksdagi bog‘ uzunliklari va bog‘ burchaklari

Bog‘lar	<i>d</i> , Å	Burchaklar	ω
Cu1-O1	1.958(4)	O1—Cu1-O2	89.56(17)
Cu1-O2	1.953(4)	O1-Cu1-O4	91.40(18)
Cu1-O4	2.395(4)	O1-Cu1-O1_a	180.00
Cu1-O1_a	1.958(4)	O1-Cu1-O2_a	90.44(17)
Cu1-O2_a	1.953(4)	O1-Cu1-O4_a	88.60(18)
Cu1-O4_a	2.395(4)	O2-Cu1-O4	74.72(16)
		O1_a-Cu1-O2	90.44(17)
		O2-Cu1-O2_a	180.00
		O2-Cu1-O4_a	105.28(16)
		O1_a-Cu1-O4	88.60(18)
		O2_a-Cu1-O4	105.28(16)
		O4-Cu1-O4_a	180.00
		O1_a-Cu1-O2_a	89.56(17)
		O1_a-Cu1-O4_a	91.40(18)






3-rasm. $[Cu(4-D)_2(H_2O)_2]$ kompleks birikmaning kristall tuzilishi. (Putktir chiziqlar bilan vodorod bog‘lar ko‘rsatilgan).

Tahlil natijalari ko‘ra kompleks tarkibidagi suv, va 4-D molekulari ishtirokidagi, O–H···O turdagi vodorod bog‘lar (3-jadval) hisobiga bc tekislikiga parallel ikki o‘lchamli qatlam hosil bo‘lganligi hisobiga barqaror bo‘ladi.

3-jadval

$[Cu(4-D)_2(H_2O)_2]$ kompleks birikmasining kristall tizimidagi vodorod bog‘lar geometriyasi


N-bog‘	D—H	H···A	D···A	D— H···A	Operatsiya
O1—H1A··· O3	0.8500	1.8800	2.668(6)	153.00	$x, -1+y, z$
O1—H1B···	0.8500	1.8600	2.701(6)	171.00	$3-x, 1-y, 1-z$






O2					
----	--	--	--	--	--

DFT hisob-kitoblari uchun kompleksning dastlabki geometriyasi rentgen ma'lumotlaridan (*cif fayli) olingan. Ligand molekulasining dastlabki geometriyasi Avogadro dasturiy paketi yordamida tuzilgan [9]. B3LYP/def2-TZVP usuli bo'yicha zichlik funksional nazariyasi (DFT) hisoblari ORCA 5.0 dasturiy paketi yordamida amalga oshirildi [10.]. DFT hisob-kitoblari natijalari Avogadro, MultiWFN [11;] va VMD [12] dasturiy paketlarida tasvirlangan.



4-rasm. [Cu(4-D)₂(H₂O)₂] kompleks molekular (assimetrik qism uchun) atomlarida atom zaryadining taqsimlanishi va chegaraviy MOlardagi elektron zichliklar

Kimyoda molekula atomlaridagi zaryad taqsimotlari muhim ahamiyat kasb qiladi, ya'ni ular molekulaning elektrofil va nukleofil markazlarini bashorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuni e'tiborga olgan holda, zaryad hisoblashning keng tarqalgan usuli – Malliken usuli bo'yicha ligand molekulasi va kompleks atomlarining umumiy zaryadlari hisoblab chiqildi. Kompleks molekulasining kislorod atomlarida ham yuqori manfiy zaryad mavjudligi aniqlandi (4-rasm). Eng katta manfiy zaryadlar kompleksga kiritilgan suv molekulasining kislorod atomlarida lokallashgan.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


Kompleks holatida alfa va beta MO larning energiyalari farq qiladi. Kompleksda quyi joylashgan QBMO mavjud bo'lib, unda metall d-orbitalining ulushi 60% dan ortiq. [13]

5-jadval

Kompleks uchun chegaraviy molekulyar orbitallar energiyalari va ular orasidagi farq


Kompleks			
YUBMO(α), eV	-6.56	YUBMO (β), eV	-6.56
QBMO (α), eV	-1.02	QBMO (β), eV	-3.91
ΔE (α), eV	5.54	ΔE (β), eV	2.65

Kompleks holatida maksimumlar suv molekulasining H atomlarida lokallasishini va minimumlar C=O guruhlarida kislorodni yaqinida joylashgan (6-rasm).



6-rasm. $[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksi uchun ESP sathi maksimum va minimumlari. Qizil rangli qism (ko'k doira) - maksimumni, ko'k rangli soha (qizil doiralar) – minimumni ifodalaydi


$[\text{Cu}(4\text{-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleks tarkibidagi molekulalararo ta'sirlarni vizuallashtirish maqsadida Xirshfeld yuzasi tahlili olib borildi. Xirshfeld yuzasi d_{norm} (7-rasm) bo'yicha xaritalangan holda $\text{O1-H1A}\cdots\text{O3}$ va $\text{O1-H1B}\cdots\text{O2}$ atomlari







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


yaqinida kutilgan och-qizil dog‘lar mavjudligini ko‘rsatdi, ular esa yuqorida keltirilgan O–H...O vodorod bog‘larini tasvirlaydi.



7-rasm. [Cu(4-D)₂(H₂O)₂] kompleks tarkibidagi –0,6866 dan 1,2878 a.m.b. oraliq‘idagi d_{norm} bo‘yicha xaritalangan uch o‘lchamli Xirshfeld yuzasi

Barmoq izlari sohasi (8-rasm) H...H ta’sirlarning yuza ta’sirlari orasida eng ko‘p hissa qo‘shishini ko‘rsatadi, bu esa kislorod atomlari dominantlik qiladigan molekular uchun kutilgan holatdir. Shuningdek, H...O/O...H, va H...Cl/Cl...H ta’sirlar ham sezilarli bo‘lgani holda, H...C/C...H, C...Cl/Cl...C, O...C/C...O, Cl...Cl, va C...C ta’sirlarning hissasi kamroqni tashkil etadi.






8-rasm. $[\text{Cu}(\text{4-D})_2(\text{H}_2\text{O})_2]$ kompleksning to‘liq ikki o‘lchamli barmoq izlari sohasi. Xirshfeld yuzasida berilgan nuqtadan eng yaqin ichki va tashqi masofada (\AA) joylashgan d_i va d_e qiymatlari

Xulosa

Shunday qilib, 4-D, mis (II) sulfat tuzi asosida sintez qilingan kompleks birikmasi rentgen strukturaviy analizi, kompleks tuzilishini maqbullashtirgan holda DFT hisoblashlari va Xirshfeld yuzasi tahlil usullari bilan o‘rganildi. Kompleks birikmaning rentgen strukturaviy analizida Cu1-O1 va Cu1-O2 bog‘lari orasidagi masofasi mos ravishda qiymati 1.958 \AA 1.953 \AA bo‘lsa, Cu1-O4 orasidagi masofa esa 2.395 \AA teng. Birikma tarkibidagi 4-Dning fenoksi guruhidagi kislorod va markaziy atom mis orasidagi masofa farqi Yan-Tellar effekti bilan tushuntiriladi. Kompleks molekulasining kislorod atomlarida ham yuqori manfiy zaryad mavjudligi aniqlandi, eng katta manfiy zaryadlar kompleksga kiritilgan suv molekulasining kislorod atomlarida lokallashgan. Xirshfeld yuzasi tahlili barmoq izlari sohasi $\text{H}\cdots\text{H}$ ta’sirlarning yuza ta’sirlari orasida eng ko‘p hissa qo‘shishini ko‘rsatadi, bu esa kislorod atomlari dominantlik qiladigan molekular uchun kutilgan holatdir.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ghoshdastidar A., Treatment of organophosphorus insecticides and phenoxyacetic acid herbicides using membrane bioreactor technology // MS thesis, Acadia University, Spring Convocation. -2012. –P. 169.
2. Krieger R., Hayes’ Handbook of Pesticide Toxicology, third ed., // Academic Press. -2010. –P. 58-65.
3. Ma, D.-Y., Guo, H.-F., Dong, J. & Xu, J. Unusual self-assembled 1D tape of tetramers and water–nitrate clusters trapped in a zinc(II) complex: Synthesis, characterization, luminescence and catalytic properties //J. Mol. Struct. -2013. –P. 1054–1055,





4. Li L., Diaoa K., Ding Y. & Yin X. Hydrothermal Synthesis, Crystal Structure of Five Novel Complexes Based on 4-Chlorophenoxyacetic Acid, Molecular Crystals and Liquid Crystals // *Mol. Cryst. Liq. Cryst.* 575. -2013 –P. 173–187.
5. A. Drzewiecka-Antonik et al. Structural characterization and cytotoxic evaluation of Cu(II), Co(II) and Ni(II) complexes with herbicide 4-chloro-2-methylphenoxyacetic acid // *Polyhedron.* 165 . -2019.–P. 86–96.
6. Sun Y., Wang Z., Zhang H., Cao Y., Zhang S., Chen Y., Huang Ch. & Yu X. Self-assembly of three novel mixed-ligand coordination polymers: Formation of 2-D grids, 1-D chains and ladders and crystal band structure // *Inorg. Chim. Acta.* 360. -2007. –P. 2565–2572.
7. Liwporcharoenvong, T. & Luck, R. L. Tetrakis(1-4-chlorophenoxyacetato- η^2 O,O)- dimolybdenum(II)//*Acta Cryst.* 61. -2005. –P. 1191–1193
8. Jin, Sh., Liu, H., Chen, G., An, Z., Lou, Y., Huang, K. & Wang, D Syntheses and crystal structures of copper(II), zinc(II) and cadmium(II) complexes containing pyridine, quinoline and 2-methylquinoline// *Polyhedron.* 95. -2015. –P. 91–107. <http://dx.doi.org/10.1016/j.poly.2015.04.017>
9. Hanwell, M.D., Curtis, D.E., Lonie, D.C., Vandermeersch, T., Zurek, E., & Hutchison, G.R. 2012, *J Cheminform*, 4:17.
10. Neese F. ORCA Program system // *Comput. Mol. Sci.* 2.-2012. –P.73.
11. Lu, T., & Chen, F.W. Multiwfn: A multifunctional wavefunction analyzer// *J. Comp.Chem.*, 2. -2012. –P. 15
12. Humphrey, W. Dalke, A., & Schulten K. “VMD - Visual Molecular Dynamics”// *J. Molec. Graphics.* vol. 14. -1996. –P. 33-38
13. Alimnazarov B.Kh., Ashurov J.M., Eshimbetov A.G., Turaev Kh. Kh, Ibragimov B.T. Electronic structure of diaquabis(p-chlorophenoxyacetato) copper(II) complex by DFT method// *ISJ Theoretical & Applied Science.* 10 (102). -2021. –P. 964-968.





MUSIQIY FANLARDAN MUSTAQIL TA'LIMDA XORIJIY KREDIT-MODUL TIZIMINING MAZMUNI

Toshmatov G'ulomjon Olimjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti, ART pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etishda xorijiy va Yevropa davlatlari kredit modul tizimining xususiyatlari hamda talabalarning ta'lim olish jarayonida to'playdigan kreditlarni mazmuni, turlari, mustaqil ta'limdagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Krediti soati, mustaqil ta'lim, ta'lim dasturini, kompetensiya, kredit-modul tizimi, Baloniya deklaratsiyasi, EUROCATS8 modeli, Evropa kredit o'tkazmalari tizimi (ECTS).

СОДЕРЖАНИЕ ЗАРУБЕЖНОЙ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНЫХ НАУК


Аннотация: В статье представлена информация об особенностях кредитно-модульной системы зарубежных и европейских стран при организации самостоятельного обучения по музыкальным предметам, а также о содержании, видах кредитов, которые студенты получают в процессе обучения, и их роли в самостоятельном обучении.

Ключевые слова: Кредитный час, самостоятельное обучение, образовательная программа, компетентность, кредитно-модульная система, Баллонная декларация, модель EUROCATS8, Европейская система перевода кредитов (ECTS).

CONTENT OF THE FOREIGN CREDIT-MODULE SYSTEM IN INDEPENDENT EDUCATION OF MUSICAL SCIENCES

Abstract: The article provides information about the features of the credit module system of foreign and European countries in the organization of independent education in musical subjects, as well as the content, types of credits students collect during their education, and their role in independent education.

Key words: Credit hour, independent education, educational program, competence, credit-module system, Balloon declaration, EUROCATS8 model, European Credit Transfer System (ECTS).





O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli qarorida milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘limning milliy tizimini yaratishda Bolonya ta‘limi tizimi ishtirokchilari – mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olish, professor-o‘qituvchilar va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19 iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasi ko‘tarilgan. Shuningdek, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son faromni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonini raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyasiz ta‘lim, o‘quv rejalarni ishlab chiqishda talabalarning kasbiy tayyorgarligiga xizmat qiladigan bazaviy, fundamental fanlarni o‘qitish, amaliy ko‘nikma va malaka talablarini ishlab chiqish vazifasi belgilab berilgan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar “Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar qayta ko‘rib chiqish va qisqartirish, oliy ta‘lim tizimida bosqichma-bosqich kredit-modul tizimini joriy etish, oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish, ta‘lim sohasini raqamlashtirish, davlat xususiy sheriklik mexanizmlarini tadbqiq etish qat‘iy belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kunda musiqa ta‘limi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida o‘quv jarayoni tasdiqlangan o‘quv rejalari, akademik taqvim, professor-o‘qituvchilar shtatlari jadvali, akademik potok va guruhlar, darslar jadvali va talabalarning o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta‘limlari asosida tashkil qilinadi. O‘quv jarayonini tashkil qilish bo‘yicha barcha ma‘lumotlar fakultet va kafedralarning oynalariga, hamda oliy ta‘lim muassasasi saytiga e‘lon qilinadi. Kredit ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ta‘lim tashkilotlari o‘z talabalariga Davlat ta‘lim standartlari va malaka talablari doirasida ixtisoslik fanlarini o‘zlashtirishlari hamda o‘qishni muvaffaqiyatli yakunlab akademik daraja olishlari uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratishi lozim. Bunda oliy ta‘lim tashkilotlari o‘quv jarayonining uslubiyta‘minoti uchun javobgar





hisoblanadi.

Shu maqsadda quyidagi ishlarni amalga oirish lozim bo'ladi:


- har bir talaba uchun ma'lumotnoma-yo'riqnoma;
- har bir fan bo'yicha sillabuslar (ishchi o'quv dasturlari) hamda mustaqil ta'lim dasturi;
- fanlar bo'yicha auditoriya mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari (ma'ruza matnlari, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bayoni, interfaol tarqatma materiallar, multimedia ilovalari va h.k.);
- talabalarning o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'limi uchun materiallar (uy vazifalari va topshiriqlari, o'z-o'zini baholash uchun nazorat materiallari, referat va kurs ishlari (loyihalari) mavzulari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy materiallar, elektron o'quv materiallari);
- bilimlarni tekshirish uchun materiallar (yozma nazorat topshiriqlari, yozma va elektron testlar, imtihon savollari);
- mustaqil ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchisi tomonidan bajariladigan kasbiy ijodiy (amaliy) mashg'ulotlar materiallari;
- talabalarning mustaqil ta'limi uchun materiallar (dayjestlar, ko'p so'raladigan savol-javoblar banki (FAQ), o'rgatuvchi dasturlar, masofaviy ta'lim platformasi va forumlar.

O'quv jarayonini kreditlashning turli modellari mavjud. Ya'ni:

- akademik haraktchanlikni ta'minlash maqsadida kreditlarni kreditlashga yo'naltirilgan kredit tizimi (ECTS European Credit Transfer System "Evropa kreditlarini kreditlash tizimi", UCTS - umam kredit uzatish sxemasi "Osiyo-tinch okeani oliy ta'lim muassasasii kreditlarini kreditlash tizimi"); kredit to'plashga yo'naltirilgan kredit tizimlari (USCS - Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi "AQSh oliy ta'lim muassasalarining kredit tizimi", GATS - kreditni taqsimlash va uzatish tizimi "Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalarining kredit tizimi").

Mazkur kreditlarni afzalliklari shundaki, bunda talabalar o'z faoliyatlarini tartibga solish bilan birga o'zlashtirilayotgan bilimlarni to'plash, uzatish mexanizmini ana shu kredit tizimi asosida tashkil etadi;

Yevropa kredit tizimiga muvofiq, kredit ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun mehnat harajatlarini baholash birligi sifatida qaraladi. "Kredit" kredit-modul tizimi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

o'quv dasturlarini, olingan bilim, ko'nikma, malakalar va tegishli kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish natijalarini baholash birligi sifatida qaraladi.

Kreditlarni taqsimlashning Yevropa tizimi ECTS (European Credit Transfer System) dastlab SOCRATES/ERASMUS dasturi (1988-1995) tomonidan ishlab chiqilgan va Yevropa ittifoqi mamlakatlaridagi 150 ga yaqin oliy ta'lim muassasalarida sinovdan o'tgan. ECTS tomonidan qo'yilgan asosiy vazifa talabalarning harakatchanligini oshirish va oliy ta'limda o'lchov vositasini takomillashtirishdir. Mazkur dasturni o'zlashtirish barobarida talabalar asosan auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv dasturidagi mustaqil ta'limni o'zlashtirishni o'zida takomillashtiradi.

ECTS tizimini hozirgi vaqtda barcha vazifalari kengayib, imkoniyatlari va foydalanuvchilar tarkibi oshib bormoqda. Ayni paytda ushbu ta'lim tizimi o'quv dasturlarini isloh qilish vositasi sifatida; voyaga etgan talabalarni oliy ma'lumotga ega bo'lishi, umr bo'yi o'qish uchun kreditlarni to'plash tizimi sifatida; mehnat bozoriga kirishni kengaytirish uchun uning ko'lami kengayib bormoqa.

ECTS yillar davomida to'plagan tajribalardan kelib chiqib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarni mujassam etadi:

- kunduzgi bo'lim talabalari uchun yiliga 60 kredit talaba uchun o'rtacha o'quv yuklama rejalashtirilib, ular ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, loyihalar bajarish, yakka tartibda ishlash, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish va topshirish;

- kreditlar o'quv dasturining barcha nazariy-amaliy va mustaqil ta'lim tarkibiy qismlari uchun ajratiladi;

- kreditlar ish bajarilib tugagandan so'ng olinadi;

- asosiy vositalar ECTS – o'quv shartnomasi, kurs kataloglari, kredit kitobi;

- 3-4 yillarda 180-240 kredit olish talab qilinadi;

Kreditlar avtomatik qayta yuklashni ta'minlamaydi, aksincha malakani tan olishni ta'minlaydi. Shu sababli ham ECTS sakkizta oliy ta'lim muassasasida uchta muammoni hal qilish kerak bo'ladi. Bular:


- turli davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini ularning muvofiqligini ta'minlash;

- talabalar harakatchanligi sifatini yaxshilash;

- akademik kreditlarni tan olish.



ECTS asosiy maqsadlardan biri Yevropa hamjamiyatiga a'zo davlatlar o'rtasida o'quv natijalarini tan olishni qo'llab-quvvatlashdir. Bunda o'quv natijalarini tan olishda talabalarga o'qishning bir qismi turli (boshqa mamlakatlar) oliy ta'lim muassasalarida o'tkazish imkonini beradi. Bunda asosiy g'oya sifatida kelajakdagi mutaxassis individual o'quv rejasini tuzadi va unga turli oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan eng qiziqarli va mazmunli fanlarni o'z ichiga oladi. Talaba ana shu o'qish davrida diplom olish uchun bitta asosiy talab – mavjud tegishli yo'nalish musiqa ta'limi bo'yicha yetarlicha minimal miqdordagi kreditlarni olishi zarur bo'ladi. Kredit-modul tizimida musiqa fanlaridan mustqil ta'limni tashkil etishni quyidagi chizmasini keltirib o'tdik:



1.1-rasm. Musiqa fanlaridan talabalarni mustaqil ta'limini tashkil etish chizmasi: **O'** - o'qituvchi; **T**- talaba; **N** – natija; **SPT**-samaradorlikni pasaytiruvchi to'siqlar; **TMD** – talabalarning mustaqillik darajasi; **TBD** - talabalarning o'z-o'zini boshqarish darajasi; **TNQ** - talabalarning o'z o'zini nazorat qilishi; **O'YKD** - o'qitishga yo'naltirilgan, ta'lim beruvchi kompyuter dasturlari.

Yevropa (ECTS) tizimining kelajagi – kreditlarni to'plash va o'tkazish bo'yicha mazkur tizim ma'lum darajalarni olish uchun kreditlarni to'plash prinsipiga asoslangan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

yagona oliy ta'lim standartini o'rnatishdir. Kreditlar mamlakatlar o'rtasida o'tkazilishi kerak. Darajalar universal va umumiy qabul qilinishi kerak. Bilimlarni baholash darajasi kurs yoki modulning birlik darajasini belgilaydi. Agar modulga 3-daraja berilsa, unda imtihon topshiruvchi talabning bilimlarini uch yillik o'qishdan keyin talaba ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim normasiga asoslanib baholaydilar. Garchi ba'zida talaba uch yildan kamroq vaqt (ichida misol tariqasida tezlashtirilgan kursda o'qigan bo'lsa) uchinchi darajada etadi.


Olingan ta'lim to'g'risidagi quyidagi hujjatlar ham kelishib olinadi: Jumladan, sertifikat olish uchun = 60 kredit, diplom olish uchun = 120 kredit, bakalavr darajasini olish uchun =180 kredit, yuqori darajadagi diplom olish uchun = 240 kredit, magistr darajasini olish uchun 180+120=300 kredit to'plash. EUROCATS8 tizimida ishtirok etadigan ta'lim muassasalari uchun talaba yozuvlarining nusxasini taqdim etish tartibi va tuzilishini belgilaydigan maxsus qoida mavjud. Mazkur qoidalarda modullar yoki bloklar ro'yxati, darajasi, kreditlar soni, berilgan darajalari mavjud.

Elektron aloqa tizimi ushbu pasportlarni qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasalariga, hatto hujjatning asl nusxasi bo'lmagan taqdirda ham o'tkazishga imkon beradi. EUROCATS8 modeli turli oliy ta'lim muassasalarining harakatlarini birlashtirish tuzilishini ta'minlaydi. Bunda davlat hukumatlari o'rtasida universal kelishuv talab qilinmaydi. Har bir muassasa tizimda ishtirok etish yoki uni e'tiborsiz qoldirish huquqiga ega. Har bir universitetning ishtiroki talaba pasportlarini oddiy chiqarishni, pasportlarni tan olishni, o'quv dasturini liberallashtirishni, ishlab chiqarish bilan jamoatchilikni yaratishni, kattalarni o'qitishni va boshqalarni o'z ichiga oladi. O'quv jarayonini kredit-modulli tashkil etish talaba tomonidan kasbiy dasturlarni o'zlashtirishning sifat va miqdoriy xususiyatlarini shaxsiy kasbiy va ta'lim makonini shakllantirishga kirish imkoniyati bilan integratsiyasini ta'minlaydigan texnologiya sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Globalashuv, algoritmlashtirish, individualizatsiya texnologiyaning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Shunday qilib, kredit ta'limi - bu kompetensiyaga asoslangan yondashuvli pedagogik texnologiya bo'lib, uning algoritmi ikkita vektorni o'z ichiga oladi: ta'lim modullari ko'rinishidagi tarkibni tashkil etish vektori va shaxsiy sifat tarzida yuqori darajadagi kasbiylikka erishish vektori hisoblanadi. Taqdim etilgan mazkur texnologik model tabiatan idealdir. Mutaxassislarni tayyorlash amaliyotini o'zgaruvchan tashkil etish kontekstida birlashtirilgan bir tuzilishidir. Yuqoridagi



tahlililardan kelib chiqqan holda kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish tuzulmasini quyidagi ko'rinishda tahlilini bayon etdik:



1.2.-rasm. Kredit modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etish tuzulmasi





O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida Boloniya ta’lim jarayonini kirib klishi bilan ishlatilgan terminologiya masalasi paydo bo‘ldi. Dastlab qo‘llinilib klingan “kredit” atamasini “kredit birligi” deyilishi, ushbu atama har bir talabaning diplomiga Yevropa ilovasida mavjud bo‘ladi. “kredit birligi” kreditga qanchalik mos keladi? Shuning uchun Yevropa terminologiyasidan biriga rioya qilishimiz kerak – “akademik kredit”, qisqartirilgan “kredit”. Shu bilan birga, moliyaviy ma’nolarni oldini olish uchun stressni birinchi bo‘g‘inga o‘tkazmaslik mumkin – omonimiya hodisasi bir xil tovushli so‘zlarni turli ma’nolarda ishlatishga imkon beradi; aloqa, qoida tariqasida, zarar ko‘rmaydi.

Akademik kreditlar ish beruvchining talaba tomonidan har bir fan bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarining egallanganligini aniqlash uchun ham, talabalarning akademik harakatchanlik tizimini qo‘llab-quvvatlash uchun ham teng ravishda talab qilinadi. Akademik kreditlar tufayli talaba uzoq vaqt davomida boshqa, asosan xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi, u erdan akademik kreditlarni olib keladi, uni asosiy oliy ta’lim muassasasi asosiy ta’lim hisobiga hisoblab chiqishi va diplomini berish to‘g‘risida qaror qabul qilishda foydalanishi kerak.

Dunyoning turli mamlakatlarida mavjud va foydalaniladigan kredit tizimlari nafaqat asosiy maqsadi, balki “kredit” tushunchasi va ta’rifiga yondashuvi bilan ham ajralib turadi. Kredit va kredit tizimlari, qoida tariqasida, ta’lim dasturini yoki uning bir qismini o‘zlashtirish uchun mehnat xarajatlarini baholash birligi sifatida kredit tushunchasi va ta’rifidan kelib chiqadi. Kredit-jamg‘arma tizimlari, asosan, kreditni ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish natijalarini baholash birligi sifatida belgilaydi va talaba olgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarning miqdoriy ko‘rsatgichlarini aniqlab beradi.

Bu borada xorijiy oliy ta’lim muassasalarida kredit-modulli tizimlarning ishlash xususiyatlarini batafsil tavsilini keltirib o‘tamiz. Yevropa kredit o‘tkazish tizimi o‘quv dasturini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan talabalar ishining umumiy mehnat intensivligiga asoslanadi, uning maqsadlari olingan o‘quv natijalari – bilim, ko‘nikma va malakalar (vakolatlar) nuqtai nazaridan belgilanadi.

Tizim 60 kredit bir akademik yil davomida kunduzgi talabaning mehnat zichligini (o‘quv (ish) yuklamasini) o‘lchaydigan kelishuvga asoslanadi. Talabalarning mehnat zichligi ko‘p hollarda yiliga 30-40 haftani tashkil qiladi, bu holda bitta kredit haftasiga 25-30 ish soatini tashkil qiladi. O‘quv (ish) yuklamasi o‘rtacha talaba qilinadigan o‘qish hajmini o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan vaqtni anglatadi.






Kredit, shuningdek, o'qitishning miqdoriy natijalarini aniqlash usulidir. Uning vakolatlar to'plami (talaba o'quv jarayoni tugagandan so'ng nimani bilishi, tushunishi yoki nimaga ega bo'lishi)ga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. ECTS kreditlari faqat talab qilinadigan ish tugagandan so'ng va erishilgan o'quv natijalari uchun tegishli baho olgandan so'ng olinishi mumkin. Ushbu kreditlarni taqsimlash o'quv dasturining belgilangan sikliga asoslanadi. Rasmiy ravishda uch yoki to'rt yil davom etadigan bakalavr darajasi uchun o'qishning umumiy mehnat zichligi mos ravishda 180 yoki 240 kreditni tashkil etadi. Ayni paytda mamlakatimiz mahalliy oliy ta'lim muassasalarida ham xuddi shunday kreditlar taqsimoti amal qilinadi. Talaba o'quv yuklamasining ECTS nuqtai nazaridan murakkabligi ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, yakka tartibdagi mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim, darslarga tayyorgarlik ko'rish, test va imtihonlarni topshirish va hokazolarga sarflangan vaqtni o'z ichiga oladi.

Kreditlar o'quv dasturining barcha o'quv tarkibiy qismlari (modullar, fanlar va kurslar, kurs ishi, bitiruv ishlari va boshqalar) uchun belgilanadi va ularning har biri uchun o'quv dasturida bir yillik o'qishni yakunlash uchun zarur bo'lgan to'liq ish hajmiga nisbatan talab qilinadigan dars vaqtini aks ettiradi.

Kredit soati – bu o'qish vaqtiga asoslangan chora. Ko'pincha, bitta kredit soati – bu bir semestr davomida haftalik 50 daqiqalik darslar soni, ya'ni. Bu haftasiga 1 soat ma'ruza, 2 soatlik amaliy mashg'ulot, 3 soatlik laboratoriya ishi va ularga tayyorgarlik, imtihon, testlarni qabul qilish/topshirish, uy vazifasi, mustaqil ta'lim, kurs ishi.

AQShda semestr davomida o'rganilgan fanlar soni odatda 4-5 tani tashkil etadi, kursning normal yuklanishi taxminan 15 kredit soatni tashkil qiladi. Bu shuni anglatadiki, talabalar har hafta taxminan 15 soat auditoriyada bo'lishadi. Belgilangan kredit soatlarini olgan talaba ma'lum bir darajaga ega bo'lishi mumkin. Kredit – soat va daraja o'zaro bog'liq. AQShda bakalavr darajasini olish uchun o'rtacha 120 kredit – soat, magistr darajasi 30 dan 35 kredit – soat, tayanch doktorantlar haftasiga 6 dan 12 kredit – soat olishlari kerak.

Oliy ta'lim tizimida kredit – soat turli shakllarda qo'llaniladi, u davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyalashtirish smetasini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kafedralar, o'qituvchilar va talabalarning yuklama kredit soati bilan belgilanadi, unga qarab talabaning keyingi kursga o'tishi masalasi hal qilinadi. O'qish uchun to'lov kredit soatlari asosida ham amalga oshiriladi.





Kredit texnologiyasi talabning individual o'quv traektoriyasini, individual o'qish jadvalini, individual o'qish muddatlarini yaratishga imkon beradi. Shunday qilib, musiqa ta'limining kasbiy ta'limi ta'lim dasturlarini baholash uchun kredit tizimlaridan foydalanishga asoslanadi.


Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni kredit-modul tizimida tashkil etish va bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semestr va musiqiy fanlar bo'yicha taqsimlab borishdan iborat emas. Afsuski bugungi kunda ko'pgina pedagogika sohasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida kredit-modul tizimiga o'tishni xuddi shunday tushunmoqda.

Mamlakatimiz Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ilgari surilgan va nazoratga olingan hemis platformasi miqdoriy kreditlarni hisoblab borish, talabalarni davomati va qisman ta'lim resurslarini joylashtirish bilan kifoyalangan platforma sifatida qarash mumkin. Hemis platformasi imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanilmayapti.

Kredit-modul tizimiga o'tish musiqiy fanlar o'quv dasturlarini yaratishdan boshlab, dars mashg'ulotlarini tashkil etish, ta'lim resurslarini cheklanmagan miqdorda joylashtirish, har qanday vazifa va topshiriqlar, shu jumladan mustaqil ta'lim vazifalari va bajarilgan natijalarini aynan ana shu platformadan olish, nazorat qilish, baholash va boshqa bir qator elementlar kabi vazifalarni "o'qituvchi-talaba" o'zaro hamkorligini amalga oshirishda xizmat qilishni ta'minlash kerak.

Kreditlar tizimi (akademik kreditlar) 60 ta kredit bitta akademik yil davomida kunduzgi talabning mehnat zichligini o'lchaydigan kelishuvga asoslanadi. Talabalarning mehnat zichligi ko'p hollarda yiliga 36-40 haftani tashkil qiladi, bu holda bitta kredit haftasiga 25-30 ish soatini tashkil qiladi. Bakalavr darajasini olish uchun mutaxassis malakasini olish uchun 240 ta kredit olish kerak - 300 ta kredit va magistr darajasini olish uchun - 360 ta kredit.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kredit-modul tizimiga o'tishda musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi ixtisosligida musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etish o'quv dasturlarini yaratishdan boshlab, professor-o'qituvchilarning o'z darslarini tashkil qilishida yangicha yondashuv, yangi tizimga adabtatsiya qilish bilan unda faol ishtirok etishni talab qiladi. Agar kredit-modul tizimi to'g'ri va to'laligicha joriy etilsa, kredit va mudulli ta'limni tashkil etishda barcha komponentlar (aynan kredit-modul tizimiga ixtisoslashgan platforma, internet maydon, talaba va professor-o'qituvchining





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

faol faoliyati, platformada ta'lim resurslarini joylashtirish, saqlash, uzatish, qabul qilish, almashish, baholash kabi elementlar faolliyi ta'minlansa, u musiqa ta'limida malakali, har tomonlama kasbiy tayyorgarligi mukammal, o'zida cholg'u va xonandalik ijrochiligi mahoratini mujassam etgan, musiqiy savodxonligi yuqori bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashga mustahkam zamin yaratadi. Shuningdek, o'quv dasturida muvozanat va me'yor paydo bo'ladi. Musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qish jarayonining shaffof tarzda tashkil etiladi, o'quv dasturlari to'laqonli o'zlashtiriladi, o'quv dasturlarida iqtisodiyot, mehnat bozori talablari va ehtiyojlari asosida shakllanadi, dars mashg'ulotlarining sifati yaxshilanadi, har bir talaba, ma'lum bir ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 y. PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish" Metodik qo'llanma. Toshkent 2023.


3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tashkilotlarida ECTS kredit modul tizimi Asosiy tushunchalar va qoidalar V. O'rinov, M. Sultonov, A.Umarov Toshkent: "Ma'naviyat", 2020. 96 bet.

4. Sh.I.Yo'ldashev. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni. Uslubiy qo'llanma. T.: O'zMU, 2022. — 41 b.

5. D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. 126 bet.

6. Gulomjon Toshmatov, Олимжонович, Т. Ф. (2023, June). ТАЛАБАНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШИНИ ТИЗИМЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ. In Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference (pp. 123-127).

7. Gulomjon Toshmatov, Олимжонович, Тошматов Фуломжон. "МУСИҚИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ИШЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ." Journal of Intellectual Property and Human Rights 2.6 (2023): 32-37.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

8. Gulomjon Toshmatov, Тошматов Г., Даминова Г. Кредит-модуль тизимида мустақил таълимни ташкил этиш тамойиллари //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 5/S. – С. 50-57.

9. Gulomjon Toshmatov, Gaziyeв, Jobirkhon Jurakhanovich, and Gulomjon Olimjonovich Toshmatov. "Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process." Asian Journal of Multidimensional Research 10.9 (2021): 467-472.

10. Тошматов Ғ ва Турдалиева, О. (2023). ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШГА ҚИЗИҚТИРИШ ОМИЛЛАРИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(6), 162-166.





MUSIQIY FANLARDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA AKADEMIK KREDITLARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Toshmatov G'ulomjon Olimjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti, ART pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqa ta'limida musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etishda akademik kreditlarni qo'llashning nazariy asoslari hamda talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonida akademik kreditlarni o'rni, va ahamiyati, haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Akademik kredit, mustaqil ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kredit-modul tizimi, Baloniya deklaratsiyasi, kasbiy rivojlanish. tayyorgarlik tizim, Evropa kredit o'tkazmalari tizimi (ECTS).

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ КРЕДИТОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ НАУК

Аннотация: Аннотация: В статье представлены сведения о теоретических основах использования академических кредитов при организации самостоятельного обучения в области музыкального образования, а также о роли и значении академических кредитов в процессе самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: академический кредит, самостоятельное образование, знания, умения, квалификация, компетентность, кредитно-модульная система, декларация Балония, профессиональное развитие. подготовительная *система*, *Европейская система перевода кредитов (ECTS)*.

THEORETICAL BASIS OF THE APPLICATION OF ACADEMIC CREDITS IN ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF MUSICAL SCIENCES

Abstract: The article provides information on the theoretical basis of using academic credits in the organization of independent education in music education, as well as the role and importance of academic credits in the process of independent education of students.






Key words: Academic credit, independent education, knowledge, skill, qualification, competence, credit-module system, Bologna declaration, professional development, preparatory system, European Credit Transfer System (ECTS).

Jahonda amalga oshirilayotgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida musiqa ta'limi tizimida zamonaviy mehnat bozorining yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Oliy ta'limda musiqa ta'limi tizimi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan musiqa ta'limi yo'nalishida zarur vakolatlariga ega bo'lgan raqobatbardosh bakalavriat kadrlarini tayyorlash bo'yicha muammolarini echimiga e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Jahon musiqa ta'limi tizimida auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim olish bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va kasbga oid kompensiyalarni rivojlantirish pedagogika sohasida XX asrning ikkinchi yarim yilligidan o'qitishning yakuniy natijasini tavsiflovchi tushuncha sifatida ishlatila boshlandi. (N.V.Kuzmina, A.K.Markova, J.A.Petrovskaya). Mazkur tushuncha XX asrning so'ngi choragida MDH mamlakatlarida birinchilardan bo'lib, XX asrning oxirlarida O'zbekiston ta'lim tizimida, ilmiy tadqiqotlarda o'qitishning tasniflash modeli sifatida keng qo'llanila boshlandi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham bir qator mustaqil ta'lim olish mavzu doirasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G.M.Musaxanova "Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish", G.M.Musaxanova "Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish", Sh.Sh.Aripova "Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning metodologik asoslari", M.G'.Oratova "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta'limdan foydalanish metodikasini takomillashtirish" (biologiya o'qitish metodikasi fani misolida), A.J. Janabergenova "Axborotlashgan ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirish" mavzularida ilmiy tadqiqot ishi bajarganlar.

Dunyo ta'limi tizimida kompetensiyaviy ta'limga asoslangan yondashuvlar 1991-2003 yillarda bakalavriat ta'lim yo'nalishining malakaviy xususiyatlarga keng qo'llanilganligi, Yevropa oliy ta'limining integratsiyalashuv jarayonlari, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarni Boloniya ta'limi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

tizimi asosida tayyorlash zaruratini ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni³³ bilan musiqa ta'limi yo'nalishida tayyorlanayotgan kadrlarning "bakalavr" hamda "magistr" darajalarini berish, mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta'minlash, malakaviy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxasssilarni tayyorlashning yagona mezonlariga asoslangan Yevropa Boloniya deklaratsiyasining asosida tuzilgan hamda tizimlashtirilgan Yevropacha kredit modul ta'lim (ECTS) tizimiga o'tishning zarurligi va ehtiyoj mavjudligini vaqtning o'zi asoslab berdi.

Dunyo mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarida o'qish uchun kredit tizimlarini amalga oshirish har bir talabaga hayot davomida uzluksiz ta'lim bilan kasbiy kompetentlikka erishishining individual strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatini berishga asoslangan. Biroq, kredit tizimi asosida o'qitish amaliyotini amalga oshirish bir qator qarama-qarshilik va muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi:

- dunyo xalqlari orasida axborot almashinuvi, ma'lumotlarni saqlash, olish, uzatishni raqamlangan texnologiyalarga o'tishi musiqa ta'limi tizimini qurish zarurati va o'qitishda ustuvorlik xususiyatlari pasaygan an'anaviy ta'lim shakllari, usullari va vositalariga ehtiyojni kamayishi "ochiq ta'lim" modelini yangilash, talabalarni o'qitish va o'qishida kredit ta'limni joriy etish;

Boloniya shartnomasi kontekstida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida kredit ta'limini amalga oshirish zarurati musiqa ta'limi yo'nalishining o'ziga xos amaliy-ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi talabalarning mustaqil ta'limini amalga oshirish mexanizmini mahalliy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda milliy modelini yaratish;

- talabalarni bilim olishlariga mo'ljallangan ishlab chiqarish modelini yangilash va kasbiy-ijodiy pedagogik kadrlarni individual tayyorlash, ya'ni ularning mustaqil ta'limi mexanizmini takomillashtirish imkonini beradigan ta'lim texnologiyalarini yaratishni taqazo etdi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan musiqa ta'lim yo'nalishida kredit-modul tizimida kadrlar tayyorlashda majburiy va tanlov fanlarida auditoriya

³³ O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'RQ-637-son





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

soatlari bilan bir qatorda mustaqil ta'lim soatlarini o'qitish masalasi va uning mexanizmini hali etarlicha ishlab chiqilmaganligi mazkur tadqiqot ishi mavzusini "Kredit-modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi"ni o'rganish dolzarbligini ko'rsatdi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari sohalari hamda mehnat bozorining yuqori malakali, raqobatbardosh inson kapitaliga bo'lgan ehtiyojining ortishi sharoitida jamiyatning eng muhim talabi musiqa ta'limida tayyorlanayotgan kadrlarning sifat va samaradorligini ta'minlashdan iboratdir. Oxirgi besh yilda ta'lim sohasida olib borilayotgan faol ta'lim islohotlari oliy ta'lim tizimida zamon talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi. Bu vazifalar qatorida quyidagilarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq hisoblandi:

- amalga oshirilayotgan ta'lim natijalariga erishish va ularni ma'lum me'yorlar vositasida o'lchash uchun zamonaviy texnologiyalar va mexanizmlarni ishlab chiqish;
- o'zlashtirishi oson, natijalar yuqori, amaliyotga foyda keltiradigan DTS va malaka talabalarga asoslangan, kerak bo'lsa o'zgaruvchan o'quv rejalar hamda dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- o'quv jarayonining amaliy va shaxs mustaqil ta'limiga yo'naltirilgan mexanizmlarni kuchaytirish;
- kredit-modul tizimida musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi talabalarining musiqiy fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmlari, metod va vositalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

So'ngi besh yil ichida va ayniqsa, "Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora-tadbirlar", "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash" va "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilingandan so'ng, ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholashda "tayyorgarlik", "rivojlantirish", "nazorat qilish", "baholash", modul", "kredit", "ta'lim", "auditoriyadagi ta'lim", "mustaqil ta'lim" kabi tushunchalari bosqichma-bosqich ta'lim jarayoniga tadbiiq etib kelinmoqda.

Ta'lim jarayonidagi faoliyat natijasini ilgari surilgan maqsad bilan bog'lash lozim. Bu holatda talabalar shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ular javobgarlik, tashkilotchilik, maqsadlilik, harakatchanlikdir. Talabalarning ijtimoiy hayoti faoliyati





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

bilan bog‘liq jarayonda uning o‘qish jarayonida turli odamlar, guruh, jamoa bilan o‘zaro munosabatlarning etarlilikini ta‘minlaydigan ijtimoiy-pedagogik muhit va bir qator omillar muhim rol o‘ynaydi. Bular:


- talabaning mustaqil bilim olishdagi huquq va majburiyatlari, xulq-atvor, borliq (hayot), madaniyat, ijtimoiy o‘zaro ta‘sir qadriyatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish, bilimlarni sotib olish, birlashtirish va undan ijtimoiy-kasbiy hamda muammolarni bartaraf etish jarayonda foydalanish, hamkorlik qilish, odamlarni boshqarish va itoat qilish, musiqa sohasi bo‘yicha ona tili va chet tillarda og‘zaki va yozma muloqot qilish, nostandart, ijodiy va kasbiy vaziyatlarda yechimlarni topish, axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, tarqatish va o‘zgartirishni bilish;

- mustaqil ta‘lim faoliyatni amalga oshirishda yuqori professional darajada harakat qilish. Mazkur jarayonda musiqa ta‘limi yo‘nalishi talabalari mutaxassislik bo‘yicha kasbiy muammolarni hal qilish asosiy vazifa sifatida e‘tirof etiladi. Faoliyat sohasida o‘zgarimas va maxsus bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida kognitiv, amaliy faoliyatli, hissiy irodaviy, ekspremental-tadqiqot va operatsion.

XX asrning oxiri Yevropa oliy ta‘limini birlashtirish dasturi ishlab chiqildi. 1997 yilda kelib, Lissabonda “Evropa mintaqasida oliy ma‘lumotga tegishli malakalarni tan olish” Konvensiya qabul qilindi. 1998 yilda YuNESKOning birinchi Jahon konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda XXI asr uchun jahon oliy ta‘lim deklaratsiyasi” va oliy ta‘limni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan ustuvor harakatlar doirasi qator hujjatlar qabul qilindi. Ikkala hujjat ham barcha prinsiplarni ishlab chiqish uchun konseptual yo‘nalishga ega bo‘lib, mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli dasturli rejalar ishlab chiqilgan edi.

1998 yilda Sorbonna deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda Yevropa ta‘lim tizimini uyg‘unlashtirish, uning Yevropada joylashgan mamlakatlar darajasida izchilligini maqsad qilib qo‘ydi. Ushbu deklaratsiya to‘rt mamlakat – Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya tomonidan imzolandi. Sorbonna deklaratsiyasi g‘oyasi 1999 yil Boloniya deklorsiyasida davom ettirildi va uning maqsadi yanada aniqlandi. Amerika ta‘limiga mutanosiblik va raqobatbardoshlik maqsadida Yevropada zarur konvergensiya va malaka tuzulmalarining shaffofligini oshirishga yordam beradigan quyidagi chora-tadbirlar tizimi taklif qilindi:

- taqqoslash nuqtai nazaridan yanada qulayroq bo‘lgan aniq va taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, xususan Yevropa fuqarolarining potensial ish bilan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ta'minlanishiga erishish bilan bir qatorda Yevropa ta'limini xalqaro raqobatbardoshligiga hissa qo'shish;

- qabul qilish va ikki darajali – “bakalavr va magistr” tayyorgarlik tizimiga keng o'tish. Birinchi daraja “bakalavr” Yevropa bozorida, qolaversa oliy ta'lim tizimida tegishli malaka darajasi sifatida tan olingan. Shu bilan birga bu biirnchi sikl sifatida muvoffaqiyatli yakunlangandan so'ng, ikkinchi sikl “magistr” darajasi bilan yakunlanadi;


Yevropa talabalarining harakatchanligini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ko'rib chiqilgan kredit ta'limi (kredit) birliklari tizimi “Yevropa kredit o'tkazmalari tizimi turi bo'yicha – YeSTB)ni joriy etish. Talabalar bunday kreditlarni aynan oliy ta'lim muassasalari tomonidan chaqirilishi sharti bilan sotib olishlari kerak[109];

- kredit-modulli ta'limning yana bir afzalligi sifatida talabalarning harakatchanlikdagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish, barcha ta'lim xizmatlaridan samarali foydalanishlari, bunda professor-o'qituvchilar, ilmiy va ma'muriy xodimlar o'z huquqlariga ziyon etkazmasdan umumyevropa tadqiqotlari va ta'limida ishtirok etishlari mumkin;

- oliy ta'limning Yevropa tizimi o'quv kursining mazmuni bilan bog'liq. Bunda Yevropa hamkorligi o'qitish sifatini baholash mezonlari va metodologiyalarini ishlab chiqish, o'quv muassasalari dasturlari va kooperatsiyasini yaratish, integratsiyalashgan o'quv, o'qitish va ilmiy tadqiqotlar dasturlarining harakatchanlik sxemalarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda rivojlanishini ta'minlash.

Xuddi shunday 2001 yilda kelib “Praga kommyunike” qabul qilindi. Unda Baloniya deklaratsiyasining Yevropa ta'limi uchun istiqbollari tasdiqlandi. Bunda Baloniya deklaratsiyasi “Umrbod (uzoq) ta'lim” g'oyasi bilan to'ldirildi. 2003 yil sentyabr oyida MDH davlatlaridan Rossiya ham Boloniya konvensiyasiga rasman qo'shildi. Xuddi shunday O'zbekiston Respublikasi Boloniya ta'lim tizimiga qo'shilish barobarida Yevropa ta'limi makoniga xos bo'lgan o'zgarishlarni ta'lim tizimiga joriy etish tizimini takomillashtirishga harakat qildi. Jumladan:

- kelishilgan tavsiflardan foydalangan holda yangi malaka talablarini joriy etish;
- Yevropa oliy ta'lim tizimi makonining keng qamrovli malaka tuzilishi nuqtai nazardan taqqoslagan holda aniq darajalarni belgilash. Bu darajalar (bakalavr, magistr)da talabalarning mustaqil ta'limini o'zlashtirish mexanizm va pedagogik shart-





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

sharoitlari ham e'tiborga olinadi. Chunki, o'quv dasturini to'liq o'zlashtirish barobarida o'quv yuklamalarda belgilangan kreditlarni talaba olishi shart;

- Yevropacha kreditlash tizimida ko'p maqsadli vositalardan unumli foydalanish;
- o'quv jarayonini yangi yo'naltirilgan talablarga o'tishda kompetensiyaviy yondashuvlarga o'tish;

- "bakalavr/magistr" darajalarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta'minlash hamda ularni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish;

- oliy ta'limning yuqori sifati asosida davlat namunasidagi diplom, daraja va malakalarga xalqaro ishonchni oshirish;

- yagona mezonlarga asoslangan Yevropacha sifat nazorati va akkreditatsiya tizimini shakllantirish.

Kredit-modul tizimida kasbiy kadrlar tayyorlashning ikki jihatdan ko'rib chiqish mumkin: bu faoliyatning kasbiy xususiyatlari va talaba shaxsining kasbiy faolligi. Faoliyatning kasbiyligi deganda yuqori kasbiy malaka, samarali kasbiy ko'nikmalarniing xilma-xilligini, zamonaviy algoritmlar va kasbiy muammolarni hal qilish usullarini o'zlashtirishni aks ettiruvchi faoliyat sub'ektining sifat xususiyatlari tushuniladi. Bu esa kredit-modul tizimida musiqa ta'limi yo'nalishida tayyorlanayotgan kadrlarning yuqori kognitiv samaradorlik bilan faoliyat olib borishga imkon beradi. Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi talaba-shaxsining kasbiy mukammallikka erishishda musiqiy fanlarning sifat xususiyatlari, shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarining yuqori darajada rivojlanishini, talaba kasbiy mahoratining akmeologik tarkibiy qismlarini, da'volarning etarli darajasini, mutaxassisning progressiv rivojlanishiga qaratilgan motivatsion sohani va qiymat yo'nalishlarini aks ettiradi.

Ayrim olimlar (S.Byuller) o'zlarining tadqiqotlarida aksariyat odamlarni rivojlanishini ma'lum bir bosqichlarga ajratib, aynan kasbiy rivojlanishning ma'lum bosqichlari shunga o'xshash yosh davrlarida boshdan kechirishlari va kasbiy rivojlanish ham shu davr bosqichlarida mos kelishini ko'rsatgan. Biroq, izlanishlar shuni ko'rsatadiki kasbiy kamoloti umr bo'yi davom etadigan jarayon sifatida ko'rish mumkin. Insonning kasbiy yo'li va uning asosiy bosqichlari yoshga bog'liq holda rivojlanishi va talaba shaxsining umumiy shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Kredit-modul tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy fanlarda mustaqil ta'limini tashkil etish masalasi muhokamasida insonning kasbiy faoliyat harakatlarini davriylashtirishning bir necha tizimlari mavjudligini ko'rish mumkin





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

(E.A.Klimov). Shunday davriylashtirishning kasbiy asosiy bosqichini aynan kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish davrida quyidagiga ajratish mumkinligini ko'rsatadi. Ya'ni, optant – bu odam kasb tanlash yoki uning o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga duch keladigan davr. Ushbu bosqichning aniq vaqt chegaralari va boshqalari yo'q. Chunki, bu yoshda yashash shart-sharoitlari, madaniy an'analar va boshqa holatlar bilan belgilanadi. Optant bosqichidan oldin kasbiy yo'nalish bosqichi boshlanadi.

Adept – mutaxassislikning boshlang'ich toifalarini o'zida birlashtirgan davtlabki mashg'ulotlar davri. Adept – bu kasbga sodiqlik yo'lida turgan va uni o'zlashtirgan talaba. Kasb turiga qarab, adept fazasi har xil davomiylikka ega bo'lishi mumkin. Adeptant – yosh musiqa mutaxassisini o'qish (ish)ga “ko'nikish” bosqichi. U jamoaning nomlariga moslashadi, mavjud ijodiy muammolar echimini namoyish eta boshladi.

Internal – tajribaga ega bo'lgan, o'z ishini doimiy ravishda bajara oladigan, mas'uliyatli talaba. Master – oddiy va kasbiy vazifalarni hal etuvchi etakchi. U sohada izlanadi, insoniylik fazilatlarini o'zida singdirib boradi, yaxshi natijalarga erishish barobarida uni mukofot, rag'batlantirilishi bilan namoyon etib boradi.


Avtoritet – nafaqat talabalar orasida balki, yo'nalish, professor-o'qituvchilar, fakultet va oliy ta'lim muassasasi talabalar jamoasi orasida taniqli talaba.

Mentor (ustoz) – talabalar, hamfikrlar, izdoshlar, hamkasblar bilan bog'langan sohain yaxshi o'zlashtirgan tajribali mutaxassis.

Ta'limni modulli tashkil etish o'quv jarayonida fanlarning ish faoliyat izchiligini hisobga olish uchun kredit-modul tizimining muhim asosi bo'lib, talabaning kasb-hunar ta'limiga bo'lgan shaxsiy ehtiyojini hisobga olgan holda olingan malaka va darajaning xalqaro standartlari bilan bog'lash muammosini hal qilish imkonini beradi. Chunki, bu holda o'rganilayotgan o'quv materialining haqiqiy hajmiga ko'ra, o'quv ishlarining murakkabligi vaqt parametriga movofiq amalga oshirilmaydi.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi – bu shaxsning individual xususiyatlariga javob beradigan va ta'lim modullari bilan ta'minlangan tizimli hodisa. Bundan tashqari, har bir modul oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining istiqbolli kasbiy faoliyatining o'ziga xos funksiyasini takomillashtiradi.

O'quv jarayonini modulli tashkil etish talabalar tomonidan ta'lim natijalariga erishish texnologiyasini shakllantirishga yordam beradi. Treningni modulli tashkil etish





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

o'quv jarayonida fanlarning mehnat zichligini hisobga olish uchun kredit-moliya tizimining muhim asosi bo'lib, talabning kasbiy ta'lim olishga bo'lgan shaxsiy ehtiyojini olingan malaka va darajaning xalqaro standartlari bilan birlashtirish vazifasini hal qiladi. Kredit (kredit birligi - kredit) - talabning ma'lum bir vaqt ichida ma'lum darajada erishgan o'quv natijalarini o'lchash birligi. Ta'lim tashkilotining kredit tizimi (kreditga asoslangan tizim) kasbiy malaka yoki darajani olish uchun kreditlarda ifodalangan ma'lum miqdordagi o'quv ishlarini bajarish talabiga asoslangan fan-kurs ta'lim modeli sifatida ko'zga tashlanadi.

Kredit tashkilotining o'quv jarayonining turli xil modellari mavjud. Ko'pgina Yevropa oliy ta'lim muassasasi (European Credit Transfer System) ni milliy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda asos qilib oladi va uning ishlashining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda moslashtiradi. Ushbu tizim bir qator muammolarni hal qiladi. Ular quyidagilardir:

- turli davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida tuzish;
- talabalar harakatchanligi sifatini yaxshilash;
- tegishli davlatlar o'rtasida o'quv natijalarini akademik tan olish;
- kreditlarni to'plash va o'tkazish tizimida malaka va darajalar uchun kredit to'plash prinsipiga asoslangan yagona oliy ta'lim standartini taqdim etish.

Xulosa qilib aytganda, Respublika oliy ta'lim muassasalari pedagogika sohasi musiqa ta'lim yo'nalishi talabalarini kredit-modul tizimida kasbiy va pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaviy xususiyatlar bilan tavsiflangan yakuniy natija bo'yicha o'quv jarayonini hamda mustaqil ta'lim olishni tashkil etish va boshqarish bo'yicha ko'p yillik amaliyot shakllanishi lozimligini ko'rsatmoqda. Bu kabi amaliyot Baloniya ta'lim tizimida to'plangan ko'p yillik va juda katta tajribasi bilan ahamiyatlidir. Kredit-modul tizimi ta'limning mazmuni, uning tuzilishi va tashkil etilishi talaba shaxsining tegishli xususiyatlarini ta'minlash barobarida ham aniqlik kiritiladi. Shunday qilib, musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etishda akademik kreditlarni ta'limda qo'llashda strategik yondashuv hamda boshqaruv asosida ta'lim va tarbiya natijalarini nazorat qilish va baholab borishga asoslanadi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 y. PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish" Metodik qo'llanma. Toshkent 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tashkilotlarida ECTS kredit modul tizimi Asosiy tushunchalar va qoidalar V. O‘rinov, M. Sultonov, A.Umarov Toshkent: "Ma'naviyat", 2020. 96 bet.
4. Sh.I.Yo‘ldashev. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o‘quv jarayonida ahamiyati va o‘rni. Uslubiy qo'llanma. T.: O‘zMU, 2022. — 41 b.
5. D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. 126 bet.
6. Gulomjon Toshmatov, Олимжонович, Т. Ф. (2023, June). ТАЛАБАНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШИНИ ТИЗИМЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ. In Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference (pp. 123-127).
7. Gulomjon Toshmatov, Олимжонович, Тошматов Фуломжон. "МУСИҚИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ИШЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ." Journal of Intellectual Property and Human Rights 2.6 (2023): 32-37.
8. Gulomjon Toshmatov, Тошматов Г., Даминова Г. Кредит-модуль тизимида мустақил таълимни ташкил этиш тамойиллари //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 5/S. – С. 50-57.
9. Gulomjon Toshmatov, Gaziyeu, Jobirkhon Jurakhanovich, and Gulomjon Olimjonovich Toshmatov. "Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process." Asian Journal of Multidimensional Research 10.9 (2021): 467-472.
10. Тошматов F ва Турдалиева, О. (2023). ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШГА ҚИЗИҚТИРИШ ОМИЛЛАРИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(6), 162-166.





BACHADON BO'YNI SARATONINING SURXONDARYO VILOYATIDA EPIDEMIOLOGIK KO'RSATKICHI.

Jurayeva Gulbaxor Alisherovna, Amanov Akmal Karimjonovich


Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali.

Annotatsiya: Bachadon bo'yni saratoni ayollar orasida keng tarqalgan va jiddiy onkologik kasallik hisoblanadi. Ushbu saraton turi asosan papillomavirus (HPV) infeksiyasi bilan bog'liq bo'lib, dastlabki bosqichlarda simptomlarsiz kechishi mumkin. Bachadon bo'yni saratoniga qarshi samarali kurashish uchun vaksinatsiya va muntazam skrining dasturlari muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, vaksinatsiya orqali HPV infeksiyasini oldini olish va erta tashxis qo'yish orqali saratonning oldini olish mumkin. Ushbu tadqiqot Surxondaryo viloyatida bachadon bo'yni saratoni bilan bog'liq holatlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda viloyatda kasallikning tarqalish darajasi, diagnostika va davolash usullari, shuningdek, profilaktika choralari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Bachadon bo'yni saratoni, HPV infeksiyasi, skrining, vaksinatsiya, onkologik kasalliklar, tashxis, profilaktika, ayollar salomatligi, onkologiya

ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОКАЗАТЕЛЬ РАК ШЕЙКИ ШЕЙКИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ.

Резюме: Рак шейки матки – распространенное и тяжелое онкологическое заболевание среди женщин. Этот тип рака в основном связан с инфекцией вируса папилломы (ВПЧ) и на ранних стадиях может протекать бессимптомно. Вакцинация и регулярные программы скрининга важны для эффективной борьбы с раком шейки матки. Исследования показывают, что заражение ВПЧ можно предотвратить с помощью вакцинации, а рак можно предотвратить с помощью ранней диагностики. Данное исследование направлено на изучение случаев рака шейки матки в Сурхандарьинской области. В исследовании анализируется распространенность заболевания в регионе, методы диагностики и лечения, а также профилактические меры.





Ключевые слова: Рак шейки матки, ВПЧ-инфекция, скрининг, вакцинация, онкологические заболевания, диагностика, профилактика, женское здоровье, онкология.

EPIDEMIOLOGICAL INDICATOR OF CERVICAL CANCER IN SURKHANDARYA REGION.

Abstract: Cervical cancer is a common and serious oncological disease among women. This type of cancer is mainly associated with papillomavirus (HPV) infection and may be asymptomatic in the early stages. Vaccination and regular screening programs are important for effective control of cervical cancer. Research shows that HPV infection can be prevented through vaccination and cancer can be prevented through early diagnosis. This study is aimed at studying cases of cervical cancer in Surkhandarya region. The study analyzes the prevalence of the disease in the region, diagnostic and treatment methods, as well as preventive measures.

Key words: Cervical cancer, HPV infection, screening, vaccination, oncological diseases, diagnosis, prevention, women's health, oncology

KIRISH

Bachadon bo'yni saratoni ayollarda uchraydigan eng keng tarqalgan saraton turlaridan biridir. Uning asosiy sababchisi HPV (odam papilloma viruslari) bo'lib, bu virus jinsiy yo'l bilan yuqadi. HPVning 16 va 18 turdagi turlari bachadon bo'yni saratonining 70% holatlarida sabab bo'ladi. Bachadon bo'yni saratoni ayollar salomatligiga jiddiy tahdid qiluvchi kasalliklardan biri hisoblanadi. Har yili shu kasallikdan 311 000 dan ortiq ayol vafot etadi. Dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham bachadon bo'yni saratoni barcha yoshdagi ayollar o'rtasida tarqalishi bo'yicha ko'krak bezi saratonidan keying o'rinda turadi. Kasalliklardan o'lim ko'rsatkichi bo'yicha esa, ushbu hastalik barcha yoshdagi ayollar o'rtasida ko'krak bezi va oshqozon bezi saratonidan keying uchinchi o'rinni egallaydi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekistonda 1660 nafar ayol bachadon bo'yni saratoni kasalligiga chalinmoqda. Saratonning bu turini oldini olish borasida sinalgan va samarali strategiyalar mavjud. Ulardan biri –odam papillioma virusiga qarshi emlash. O'zbekistonda ham 2019-yil noyabr oyidan boshlab ushbu kasallikga qarshi 9-12 yoshli qizlarni emlash boshlangan. Bundan tashqari O'zbekistonda bachadon bo'yni






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

saratonini tekshirish va odam papillioma virusini (HPV) davolash dasturiga asoslangan yangi innovatsion milliy skrining tizimi joriy etilmoqda. Bachadon bo'yni saratonining 90% odam papillioma virusidan boshlanadi. Muntazam skrining, erta tashhis qo'yish va o'z vaqtida davolash bachadon bo'yni saratoni bilan og'rigan bemorlarni davolay oladi. Ushbu uchta yondashuv muvaffaqiyatli amalga oshirilsa 2050-yilga kelib, yangi holatlarni 40% ga kamaytirish va dunyo bo'ylab 5 millionga yaqin o'limning oldini olish mumkin. JSSTning O'zbekistondagi vakili Leanne Kuppens deydi: «Bachadon bo'yni saratoni yo'q qilingan birinchi saraton bo'lishi mumkin. Ayollarni muntazam skrining qilish va qizlarni odam papillioma virusiga qarshi emlash orqali biz bachadon bo'yni saratoni bilan kasallanishni kamaytira olamiz».

Tadqiqot uslubi

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatidagi tibbiyot muassasalaridan to'plangan statistik ma'lumotlar, bemorlarning tibbiy kartalari, hamda so'rovnomalar asosida olingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda kasallikning tarqalish darajasi, HPV infeksiyasining roli va skrining dasturlarining samaradorligi o'rganildi.

Muhokama va natijalar: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab taxminan 570,000 ayol bachadon bo'yni saratoniga chalinadi va 311,000 nafari ushbu kasallikdan vafot etadi. O'zbekistonda har 100 ming nafar ayoldan 11 nafari bachadon bo'yni saratoniga chalinadi. Sog'liqni saqlash vazirligi Matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, bachadon bo'yni saratoni tarqalishiga ko'ra jahonda ayollarda uchraydigan saraton kasalliklari orasida to'rtinchi o'rinda turadi. Dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham bachadon bo'yni saratoni barcha yoshdagi ayollar o'rtasida tarqalishi bo'yicha ko'krak bezi saratonidan keyingi o'rinda turadigan. Kasalliklardan o'lim ko'rsatkichi bo'yicha esa, ushbu xastalik barcha yoshdagi ayollar o'rtasida ko'krak bezi va oshqozon bezi saratonidan keyin uchinchi va tug'ish yoshidagi ayollar (15-44 yosh) orasida esa ikkinchi o'rinni egallaydi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekistonda 1660 nafar ayol bachadon bo'yni saratoni kasalligiga chalinmoqda. Shu bois butun dunyoda ushbu kasallikning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Bachadon bo'yni saratoni, odatda, HPV infeksiyasi natijasida rivojlanadi. Infeksiya ko'p hollarda o'zi o'tib ketadi, lekin ba'zi ayollarda u surunkali holatga kelib, hujayralarda o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu o'zgarishlar, vaqt o'tishi bilan, invaziv saratonga aylanishi mumkin.






Klinik Tashxis: Bachadon bo'yni saratoni ginekologik tekshiruv va smear testi orqali aniqlanadi. Ginekologik tekshiruv vaqtida shifokor bachadon bo'yni va tos bo'shlig'ini tekshiradi, saraton belgilarini izlaydi. Pap smear testi bachadon bo'yni hujayralarini tekshirish orqali saraton hujayralarini aniqlashga yordam beradi. Bachadon bo'yni saratoni ko'pincha hech qanday simptom bermaydi va skrining orqali aniqlanadi. Simptomlar, odatda, kasallik ancha rivojlanganda paydo bo'ladi va quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: - Vaginal qon ketish, - Hayz davridan tashqari qon ketish, - Jinsiy aloqadan keyin qon ketish, - Pelvik og'riqlar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Surxondaryo viloyatida bachadon bo'yni saratoni bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lib qolmoqda. HPV infeksiyasiga qarshi vaksinatsiya darajasi pastligi, muntazam skrining dasturlarining yetarli emasligi kasallikning o'z vaqtida aniqlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Profilaktika

Profilaktik choralar HPVga qarshi vaksinalar va muntazam skrininglarni o'z ichiga oladi. HPV vaksinalari 9-14 yoshdagi qizlarga tavsiya etiladi va ular virusning eng xavfli turlariga qarshi himoya qiladi. Muntazam Pap-smear testlari yoki HPV testlari orqali erta bosqichda anomaliyalar aniqlanib, davolanish imkoniyati oshadi. Sog'lom turmush tarzi: Sog'lom turmush tarzini qabul qilish immunitet tizimini mustahkamlash orqali saraton xavfini kamaytiradi. Muntazam ravishda jismoniy mashqlar qilish, sog'lom ovqatlanish va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni cheklash saraton xavfini kamaytirishga yordam beradi. Milliy emlash kalendariga ko'ra, O'zbekistonda bolalar davlat budjeti hisobidan 12 ta boshqariladigan infeksiyalarga qarshi emlanadi. Shuning uchun ham mamlakatda epidemiologik holat barqaror saqlanmoqda. Endilikda OPVga qarshi vaksining joriy qilinishi esa yana bir og'ir kasallik — bachadon bo'yni saratoni kasalligining oldini olishga xizmat qiladi. "Emlash kampaniyasi maktablarda ham, poliklinikalarda ham o'tkaziladi. Biron sababga ko'ra maktablarga yoki poliklinikalarga kela olmaydigan qizlarni emlash bilan ta'minlash uchun O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlarida ko'chma vaksinatsiya guruhlarini faoliyat yuritadi", - deydi Sog'liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, doktor Dilorom Tursunova. Buning natijasida kelajakda har yili 1 100 ta kasallanish va bachadon bo'yni xastaligi bo'yicha 600 ga yaqin o'lim holatlarining kamayishiga erishiladi.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Davolash: Bachadon bo'yni saratonining davolash usullari kasallikning bosqichiga bog'liq. Boshqa usullar qatorida jarrohlik, radioterapiya va kimyoterapiya kabilar qo'llaniladi. Erta bosqichlarda jarrohlik amaliyoti, odatda, kasallikni to'liq davolash imkonini beradi, ammo rivojlangan bosqichlarda bir nechta usullar kombinatsiyasi talab qilinishi mumkin. Bachadon bo'yni saratonini davolash saraton bosqichiga va bemorning umumiy sog'lig'iga qarab farq qilishi mumkin. Davolash usullari jarrohlik, radiatsiya terapiyasi, kimyoterapiya yoki ularning kombinatsiyasini o'z ichiga olishi mumkin. Davolash odatda erta aniqlangan saraton kasalliklarida muvaffaqiyatli bo'ladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bachadon bo'yni saratoni erta aniqlanganda davolanadigan saraton turi hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida bachadon bo'yni saratoni bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun keng ko'lamli profilaktika choralari va samarali skrining dasturlarini joriy etish lozim. Shuningdek, HPV infeksiyasiga qarshi vaksinatsiyani kengaytirish orqali kasallikning oldini olish mumkin. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash, tibbiy jihozlarni yangilash va kadrlar malakasini oshirish orqali diagnostika va davolash jarayonlarini samarali amalga oshirish kerak. Ayollar bachadon bo'yni saratonidan xabardor bo'lishlari va sog'lom turmush tarzini qabul qilish orqali o'zlarini himoya qilishlari kerak. Bachadon bo'yni saratoni oldini olishda eng samarali usul – bu muntazam skrining va HPVga qarshi vaksinalar qabul qilishdir. Mamlakatlar miqyosida profilaktika dasturlarining joriy etilishi kasallik va o'lim holatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ашрафян Л. А. Молекулярно-биологические и ультразвуковые методы в оценке эффективности лекарственной терапии у больных раком шейки матки и раком яичников / Л. А. Ашрафян, И. Б. Антонова, С. В. Ивашина [и др.] // Опухоли женской репродуктивной системы. – 2012. – № 3-4. – С. 120-126.
2. Ашрафян Л. А. Оценка результатов неоадъювантной химиотерапии местнораспространенного рака шейки матки IIВ-IIIВ стадий при комплексной ультразвуковой диагностике / Л. А. Ашрафян, О. И. Алешикова, Н. А. Бабаева [и др.] // Опухоли женской репродуктивной системы. – 2015. – Т. 11. – № 2. – С. 76-81.





3. Берлев И. и др. Дозоинтенсивная неоадьювантная химиотерапия в комбинированном лечении местнораспространенного рака шейки матки: опыт и перспективы // Вопросы онкологии. – 2017. – Т. 63. – №. 4. – С. 614-621.

4. Каримова Ф. Н. Роль неоадьювантной полихимиотерапии в комплексной терапии местно-распространенного рака шейки матки / Ф. Н. Каримова, К. М. Джурабекова, М. Б. Сайфутдинова, О. А. Мирзоев // Известия Академии наук Республики Таджикистан. Отделение биологических и медицинских наук. – 2018. – № 2(201). – С. 58-64.



BUXGALTERIYA HISOBI STANDARTLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA INTELLEKTUAL MULKKA TATBIG'I

Matkarimov Ulug'bek

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxgalteriya yuritish uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni yaratishdagi konseptual asoslar sharh qilinadi. Buxgalteriya hisobi metodologiyasi tamoyillarining bir qancha turlari tahlil qilinadi. Moliyaviy hisobotlarning iqtisodiyotdagi asosiy vazifalari va uni intellektual mulkdagi tasdiqlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: konseptual asos; kapital va kapitalni saqlash, manfaatlar to'qnashuvi, inventar balans, statik balans, intellektual mulk.

Kirish. Buxgalteriya hisobi «iqtisodiy jarayonlarni aks ettira olmaydi», chunki u faqat axborot modelidir. Hisobchi-buxgalter buxgalteriya hisobi usulini tashkilotning moliyaviy holati va faoliyatini hisobga olgan holda tanlaydi. Bu foydalanuvchilarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi metodologiyasini tanlashning o'zi (asosiy nazariy kontsepsiyani tanlash va asoslash) xo'jalik faoliyati faktlarining iqtisodiy mohiyatini, shu jumladan, intellektual mulkka nisbatan ham eng aniq ma'lumotlarni aks ettirish imkonini beradi. Amalda buxgalteriya hisobi qonun hujjatlari va hisob siyosatini shakllantiradigan buxgalter tomonidan qabul qilingan konsepsiyaga muvofiq xo'jalik faoliyati faktlarini buxgalteriya hisobi registrlariga aylantirish natijasidir. Bu jarayonda tashkilotning moliyaviy holati to'g'risidagi umumiy g'oyaning pozitsiyasi aniq ko'rsatkichlar va hisobot tuzilmalariga aylanadi. Bu jarayonning natijalari, shuningdek, foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlari va ularning o'zaro kelishuvini hisobga olgan holda, uni amalga oshirish uchun asos sifatida qabul qilingan nazariy konsepsiya bilan belgilanadi. Bundan tashqari, moliyaviy axborotni dekompozitsiyalashning tanlangan konsepsiyasi iqtisodiy jarayonlarni qayta qurish konsepsiyasini tanlashni belgilaydi. Binobarin, intellektual mulkni hisobga olishning zamonaviy kontsepsiyasining tavsiflangan axborot cheklovlari sharoitida uni oqilona qo'llash uchun asos yaratadigan buxgalteriya hisobi metodologiyasi va nazariyasini




ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ishlab chiqish, shuningdek, olingan natijalarni sharhlash, taqdim etish va oshkor qilish, eng muhim vazifaga aylanadi. Buxgalteriya hisobida "konseptual asos" tushunchasi aniqlanmagan. Lugʻatga koʻra, konsepsiya deganda biror narsaga nisbatan maʼlum qarashlar tizimi tushuniladi; biror narsani anglash, izohlashning muayyan usuli. Buxgalteriya hisobi standartlari boʻyicha AQSH Kengashi buxgalteriya hisobini "oʻzaro bogʻliq boʻlgan maqsad va tamoyillarning izchil tizimi sifatida belgilaydi, ulardan izchil standartlar ishlab chiqilishi mumkin va moliyaviy hisob va hisobotning tabiati, funksiyalari va chegaralarini belgilaydi". Shunga oʻxshash yondashuv Avstraliyaning Buxgalteriya hisobi asoslari bayonotida qoʻllaniladi, u asosni moliyaviy hisobotning mohiyatini, predmetini, maqsadini va keng mazmunini belgilaydigan oʻzaro bogʻliq qoidalar toʻplami sifatida izohlaydi. MHXS tomonidan qabul qilingan moliyaviy hisobotning konseptual asosi tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim yetishning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Ushbu tamoyillar foydali moliyaviy hisobotlarning maqsadi, sifat xususiyatlari, tariflar, tan olish tamoyillari va moliyaviy hisobotlar tuziladigan tarkibiy qismlarni oʻlchash usullarini, shuningdek kapital va kapitalni saqlash tushunchalarini oʻz ichiga oladi. Foydalanuvchilarning qiziqishlari buxgalteriya hisobi konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi moliyaviy maʼlumotlarni yaratish metodologiyasini belgilaydi. Ularning ehtiyojlari juda xilma-xil boʻlganligi sababli, maʼmuriyat, buxgalteriya hisobi va foydalanuvchilar oʻrtasida taqdim etilgan maʼlumotlarning hajmi va mazmuni boʻyicha, shuningdek, hisobotlarda aks ettirilgan va qaror qabul qilish uchun foydalaniladigan koʻrsatkichlarni yaratish usullari boʻyicha turli foydalanuvchilar guruhlari oʻrtasida manfaatlar toʻqnashuvi muqarrar ravishda yuzaga keladi.

Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning intellektual mulk toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga boʻlgan ehtiyojlari 6-ilovada keltirilgan. Sokolov iqtisodiy jarayonlarda ishtirok yetuvchi shaxslar manfaatlarining xilma-xilligini buxgalteriya hisobining toʻrt turiga umumlashtiradi:

- mulkning xavfsizligini taʼminlash;
- tashkilotni boshqarish samaradorligini taʼminlash;
- xoʻjalik operatsiyalarining iqtisodiy va huquqiy oqibatlarini aniqlash;
- milliy iqtisodiyotda resurslarni qayta taqsimlash.

Ushbu vazifalar amalga oshirilayotgan muhitga qarab, ularning har birining ahamiyati darajasi oʻzgaradi. Moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi





foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bolgan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat. Biroq, M.R.Metyus va M.H.B.Perera, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning manfaatlarini qamrab olish darajasiga qarab, uning uchta funksiyasini ajratadi:

1) mulkdan ajratilgan boshqaruvni namoyish qilish (investitsiya qilingan kapitalni boshqarishning xavfsizligi va samaradorligini taminlash togrisida mulkdorlarni (investorlarni) xabardor qilish);

2) qaror qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash (foydalanuvchilarning asosiy guruhlarini (odatda aksiyadorlar va kreditorlarni) umumiy maqsadli foydali ma'lumotlar bilan ta'minlash);

3) odamlarning ayrim guruhlari boshqalar oldida javobgarligining namoyon bo'lishi (keng doiradagi odamlarni turli xil ma'lumotlar bilan ta'minlash). Buxgalteriya hisobi nazariyasini rivojlantirish har bir foydalanuvchilar guruhiga o'z maqsadlariga erishishga imkon beradigan turli xil axborot modellarini yaratish imkoniyatini ta'minlash uchun uning axborot mazmunini oshirishni o'z ichiga oladi. Biroq, ushbu modellarning har biri faqat bir guruh foydalanuvchilarning ehtiyojlarini eng yaxshi tarzda qondirishi mumkin, boshqalari o'rniga faqat bitta muammoni hal qiladi. J.P.Savari barcha maqsadlar uchun bitta balansdan foydalanish yetarli emas deb hisoblaydi va tabaqalashtirilgan yondashuvni taklif qiladi (bir nechta balanslar nazariyasi): inventar balans - foydani hisoblash uchun; statik balans - mulk holatini baholash uchun; tugatish balansi — faoliyatni amalda yoki taxminiy tugatilgan taqdirda moliyaviy natijalarni baholash uchun. Foydalanuvchilar manfaatlarining ustuvorligiga va shunga mos ravishda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda hal qilinadigan vazifalarni belgilashga qarab, balansning statik, dinamik, organik, aktuar va boshqa talqinlarini ajratish odatiy holdir. Asosiy talqinlar kreditorlar uchun qiziq bo'lgan kompaniyaning to'lov qobiliyati va moliyaviy holatini baholashga qaratilgan statik balans va dinamik investitsiya qilingan kapitaldan foydalanishning moliyaviy natijasini baholashga qaratilgan, bu kompaniya egalari va boshqaruvini qiziqtiradigan balanslarga bo'linadi. Buxgalteriya balansining talqini moliyaviy hisobotning sifat xususiyatlarining talqini va o'zaro bog'liqligini, uni tuzish tamoyillarini, shuningdek, buxgalteriya hisobi toifalarining mazmunini oldindan belgilaydi.

Intellektual mulk hisobiga kelsak, quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Kreditorlar manfaatlarini sohasidagi statik balansning bir qismi sifatida intellektual mulkka bo'lgan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

huquqlar to'g'risidagi ma'lumotlar, agar ular boshqa mulkdan alohida majburiyatlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lsa kiritiladi. Bunday huquqlarni amalga oshirish shartlari, daromad olish mumkin bo'lgan minimal miqdor ushbu ma'lumotlarning bir qismi sifatida aytish mumkin. Dinamik muvozanatning bir qismi sifatida mulkdorlar va boshqaruvning manfaatlari sohasi intellektual mulk obektlariga kapital qo'yilmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. U intellektual mulk obyektlarining rentabelligi, undan joriy va potensial foydalanish shartlari va imkoniyatlari, intellektual mulk obyektlariga kelajakda investitsiyalarni kiritish zarurati, undan foydalanishdan olinadigan foyda va boshqalarni o'z ichiga oladi. Buxgalteriya balansining aktuar talqini sof pul oqimlarining qiymati va kompaniyaga qoyilgan kapitalni qoplash uchun foydalanuvchilarga firma kapitalining intellektual va jismoniy tarkibiy qismlarini baholashni, bozorning ushbu tarkibiy qismlarning kelajakdagi pul oqimlarini yaratish qobiliyatini baholash (kompaniyaning fond bozori yoki diskontlangan qiymati orqali) imkonini beradi. Intellektual mulk to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha taqdim etilgan manfaatlar xilma - xilligiga asoslanib, moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi turli foydalanuvchilarga an'anaviy ravishda ishlatiladigan va hali ishlab chiqilmagan hisobotlar orqali turli xil ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, hisobotni talqin qilishning hech biri barcha foydalanuvchilar guruhlarining ma'lumotlarga bo'lgan talablarini to'liq qondirishga yoki barcha buxgalteriya muammolarini bir xil darajada samarali hal qilishga imkon bermaydi. Shunday qilib, bu talqinlarning har biri o'z vazifasini bajaradi. Statik balans intellektual mulkni tashkilotning majburiyatlarini bajarish nuqtai nazaridan baholaydi, dinamik balans - undan foydalanishdan kelajakdagi daromadlarni keltirib chiqaradi, organik balans tashkilotning ishlab chiqarish salohiyatini saqlaydi va aktuar balans tashkilotning birjadagi narxiga tas'ir qiladi. Ushbu talqinlar, aslida, foydalanuvchilarning uchta asosiy guruhiga ko'proq qaratilgan: ma'muriyat, shuningdek, haqiqiy va potensial mulkdorlar va kreditorlar. Shu bilan birga, moliyaviy hisobot sifatining asosiy mezoni uning boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydaliligi hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning sifat ko'rsatkichlarining ro'yxati, tasnifi va talqini turli konseptual doiralarda farqlanadi.

Intellektual mulkni hisobga olish konsepsiyasini ishlab chiqish uchun aktivlar, xususan, nomoddiy aktivlar tushunchasini aniqlash kerak.

"Aktivlar" tushunchasi munozarali va turli kontekslarda (turli semantik






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

talqinlarda) turli xil ma'nolarga ega. An'anaga ko'ra, aktiv deganda tashkilotga tegishli bo'lgan mulk tushuniladi (sotish mumkin yoki inventarizatsiya qilinishi mumkin bo'lgan mulk). Aktivning asosiy mazmuni - undan foydalanishdan kutilayotgan kelajakdagi iqtisodiy foyda. Obyektning aktiv sifatida tasniflashning asosiy mezonini - bu aktivda mujassamlangan kelajakdagi iqtisodiy foyda ustidan nazoratning mavjudligi.

Huquqiy nuqtai nazardan, nazorat tashkilotning aktivlarga bo'lgan huquqlarining ko'lamini ifodalaydi va iqtisodiy nuqtai nazardan, nazorat kompaniyaning moliyaviy foyda olish uchun aktivlardan qanday foydalanilishini nazorat qilish darajasini ifodalaydi. Dinamik balansda nazorat mezonini faqat tashkilot aktivdan foydalanishdan daromad olish uchun asosli imkoniyatga ega bo'lishini talab qiladi. Shu bilan birga, aktiv sifatida intellektual mulkka nisbatan huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazarning nisbati ushbu nisbatni ochib berish uchun buxgalteriya hisobini individuallashtirishdan ma'lum bir bosqichga o'tishni o'z ichiga oladi. Aktivning paydo bo'lishi oldingi operatsiyalar va hodisalar natijasidir. Statik balansda ijro bilan boshlangan va qo'llanilishi kerak bolgan shartnomalardan kelib chiqadigan aktivlar aks yettirilishi kerak. Dinamik balansda faqat bajarilgan shartnomalar aks ettiriladi.

Qiymat bahosining mavjudligi aktivni buxgalteriya hisobida tan olishning shartidir. Dinamik balans uchun tarixiy qiymatni baholash (xarajatlar, aktivga investitsiyalar miqdori bo'yicha) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, aktivni haqiqiy xarajatlar bo'yicha baholashda tuzatib bo'lmaydigan noaniqliklar aktivni hisobga olishda tan olinishiga to'sqinlik qiladi. Statik balansda mumkin bo'lgan sotish narxini baholash vositalaridan foydalanish aktivlarga ajratish talabini keltirib chiqaradi, ammo shu bilan birga (xususan, adolatli qiymat bahosi) ularning tarkibini kengaytiradi, bu esa sotib olish xarajatlari bo'lmagan aktivlarni aks ettirishga imkon beradi. Aktivlarning tasnifi (uzoq muddatli va aylanma) balansning qabul qilingan talqini bilan ham belgilanadi. Statik balansda aktivlarning likvidligi ularni pulga aylantirish tezligi darajasi sifatida tasniflash uchun asos sifatida tan olinadi: uzoq muddatli aktivlar nisbatan past likvidlikka ega. Dinamik balansda ma'muriyatning aktivlardan foydalanish niyatlari kompaniyadan tashqari aktivlar pulga sotish yoki o'tkazish uchun mo'ljallanmagan sifatida ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, "nomoddiy aktivlar" kontsepsiyasining umumiy ta'rifini shakllantirish mumkin. Nomoddiy aktivlar - moddiy shaklga ega bo'lmagan uzoq muddatli bo'lmagan tovarlar. Bundan tashqari, ularni huquqiy va iqtisodiy nuqtai





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

nazardan talqin qilish mumkin. Buxgalteriya hisobining zamonaviy konsepsiyasida nomoddiy aktivlarni tan olish intellektual mulkka nisbatan eksklyuziv huquqlarning mavjudligini yoki undan foydalanishdan olinadigan daromadlar ustidan nazoratni tasdiqlovchi boshqa huquqlarning mavjudligini talab qiladi. Biroq, N. S. Arinushkin balansni nafaqat "qat'iy saqlanib qolgan mulkchilik prinsipi asosida", balki "tovar ayirboshlash belgisi"ni ham hisobga olgan holda qurish mumkin deb hisoblagan.

Shu bilan birga, balansda aktivdagi muomalaga jalb qilingan qiymatlarga ular bilan bog'liq majburiyatlarni belgilaydigan majburiyatdagi maxsus moddalar qarama-qarshi bo'ladi. Shuningdek, N.A.Blatov "ma'lum bir iqtisodiyotda vaqtincha bo'lgan va umumiy muomaladan ajratilgan, ma'lum egalariga tegishli bo'lgan, ayniqsa passivda ko'rsatiladigan" boshqa odamlarning mulklarini aks ettirish uchun balans aktivida "maxsus satr" dan foydalanishni taklif qildi. Kompaniyani mutlaq huquqqa ega bo'lmagan aktivlar qiymatini aktivlar tarkibida va "bir vaqtning o'zida ushbu aktivlarni passivda ko'rsatgan holda" aks ettirish taklifini bildirdi.

Umuman olganda, nomoddiy aktivlarning huquqiy talqini aktivlar tarkibida aks ettirilgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlar hajmini buxgalteriya balansining passivida aks ettirilgan majburiyatlar hajmi bilan bog'lashning mumkin bo'lgan variantlarini nazarda tutadi.

REFERENCES

1. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. <https://lex.uz/docs/-2222824>
2. J.Murotov, Sh.Xasanov. Intellektual mulk asoslari fani bo'yicha o'quv dasturi. Toshkent, 2022.
3. Abdullin A.I. Intellekt i pravo: pravovaya oxrana intellektualnoy sobstvennosti : Uchebnoye posobiye. – M., 2001.
4. Akramxodjayeva Z.S. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning takomillashtirish istiqbollari. –T.:TDYuI. 2008.
5. Bezbaxa V.V. Grajdanskoye i torgovoye pravo zarubejnk stran. M., 2004.
6. Belov V.V., Vitaliyev G.V., Denisov G.M.. Intellektualnaya sobstvennost. Zakonodatelstvo i praktika yego primeneniya. – M., 2002.
7. Bliznes I.A. Pravovoye obespecheniye intellektualnoy sobstvennosti. – M., 2000.
8. Boguslavskiy M.M. Mejdunaronoye chastnoye pravo. – M., 2000
9. Volinkina M.V. Innovatsionnoye zakonodatelstvo Rossii. – M., 2005





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

10. Grishayev S.P. Intellektualnaya sobstvennost. Uchebnoye posobiye. – M., 2008.
11. Dejina I.G. Problemy prav na intellektualnuyu sobstvennost. – M., 2003.
12. Kalyagin V.O. Intellektualnaya sobstvennost (Isklyuchitelnyye prava). Uchebnik. – M., 2000.
13. Meggs P.B., Sergeyev A.P. Intellektualnaya sobstvennost. – M., 2000
14. Nasriyev I.I. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshirish va muhofaza qilishning fuqarolikhuquqiy muammolari. – T., 2006.
15. Nasriyev I.I. Muallifning shaxsiy huquqlarini himoyalash. – T., 2003.
16. Imomov N.F. Nanotexnologiyalarning huquqiy asoslari. Monografiya. –T.: TDYuU, 2015



JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SIRG'ALI TUMAN SUDINING SUDYASI

Kaxarov Oybek Naqshband o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Advokatlik faoliyati" yo'nalishi talabasi

Do'smurodova Dildora Vali qizi

Jinoyat ishlarini tergov qilishda axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning protsessual jihatlarini

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichi, ya'ni jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning protsessual jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ishda axborot texnologiya vositalaridan foydalanish qoidalarini tartibga soluvchi milliy va xalqaro qonunchilik normalarini o'rganish natijasida tergov harakatlarini o'tkazish amaliyotiga bir necta takliflar berib o'tilgan.

CRIMINAL COURT JUDGE OF SIRGALI DISTRICT COURT


ANNOTATION

This article is dedicated to the study of the procedural aspects of the use of information technology tools during the pre-trial phase of criminal proceedings, that is, during the investigation of criminal cases. As a result of the study of the national and international legal norms regulating the use of information technology tools, several suggestions were made for the practice of investigative actions.

СУДЬЯ УГОЛОВНОГО СУДА СИРГАЛЬСКОГО РАЙОННОГО СУДА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена исследованию процессуальных аспектов использования средств информационных технологий на досудебной стадии уголовного судопроизводства, то есть при расследовании уголовных дел. В результате изучения национальных и международных правовых норм, регулирующих использование средств информационных технологий, было сделано несколько предложений по практике проведения следственных действий.






Axborot texnologiyalari atalmish elektron vositalarining yaratilishi, ulardan foydalanish borasidagi bugungi yangi imkoniyatlar dunyo e'tibori markazda ekanligi sir emas. O'z ortidan jamiyat, iqtisodiyot va huquqiy munosabatlarning o'zgarishiga yetaklayotgan raqamli axborot sohasidagi bunday jadal rivojlanish va takomillashishga "Axborot texnologiyalari davri" sifatida qaralmoqda. Axborot texnologiyalari huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini samarali tashkil etishda ham muhim o'ringa ega. Shuning uchun ham jinoyat-protsessual munosabatlarda "elektron jinoiy-huquqiy statistika", "elektron jinoyat ishi", "protsessual harakatlarni amalga oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish", "videokonferensaloqa", "hujjatlarning idoralararo elektron aylanmasi" va "elektron nazorat" kabi yangi tushunchalarni kirib kelishi hamda amaliyotga tadbiiq etilishiga omil bo'lmoqda.

Hozirda jamiyatni axborotlashtirish borasida nazariya va amaliyotda ko'plab tushunchalar, ta'riflar vujudga kelgan. Kundalik hayotda ham ularni bevosita qo'llovchi mutaxassislar tomonidan foydalanilishi allaqachon tabiiy tus olgan. Qolaversa, bu tushunchalar bosqichma-bosqich tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan ham tartibga solinib borilmoqda. Huquqiy adabiyotlar, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlarning axborot-huquqiy bazalari tahlili kundalik hayotida tez-tez uchrab turadigan "raqamli axborot", "axborot texnologiyalari", "telekommunikatsion texnologiyalar", "kompyuter texnologiyalari", "axborot kommunikatsion texnologiyalar", "elektron axborot texnologiyalari" va boshqa shu kabi tushunchalarni o'rganishga imkon beradi. Qayd etilgan tushunchalar o'zaro o'xshash, ma'nodosh va sinonim jumlalar bo'lsada, ulardan ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash singari turli ma'nolar va maqsadlarda foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, aksariyat mualliflar jinoyat protsessida "ma'lumot tashuvchi" va "axborot tashuvchi" tushunchalarining nomutanosibli³⁴, shuningdek, jinoyat-protsessual munosabatlarda axborot-kommunikatsion sohasi to'liq huquqiy tartibga solinmaganligi bilan izohlab, mazkur omil huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini ishni yuritish jarayonida axborot texnologiyalaridan to'liq foydalanish

³⁴ Григорьев А. Н. Теоретические аспекты информации и ее защиты в предварительном расследовании преступлений: Дис. ... канд. юрид. наук. Калининград, 2017. С. 24; Зуев С. В. Информационное обеспечение уголовного процесса: Дис.... канд. юрид. наук. Омск, 2015. С. 6.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

imkonini cheklashi va o'z navbatida huquqni qo'llash amaliyotida ulardan foydalanishda ayrim muammolariga olib kelishini ko'rsatadilar³⁵.

Jinoyat protsessida axborot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asosini yaratish uchun, avvalo jinoyat protsessida ushbu sohada qo'llaniluvchi tushunchalarning doirasini belgilash, ularning jinoyat protsessida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlashtirish zarur.

“Axborot” tushunchasi xorijiy adabiyotlarda “informatsiya” shaklida qo'llanilib, (arabcha “خبر – xabar”, lotincha “Informātiō” so'zidan olingan va “tushuntirish, taqdimot, biror narsaning konsepsiyasi”, “أخبار – axbar”, “informare”, – “xabar (forma) berish, taqdim etish; o'ylash, shakllarni tasavvur qilish”^{36,37}) ularning tasavvur etilish shaklidan qat'iy nazar ma'lumot, xabar ma'nosini anglatadi. Keng qo'llanilishiga qaramay, axborotning tushunchasi fanda eng ziddiyatli bo'lishi bilan birga, atama sifatida turli sohalarda qo'llashda har xil ma'nolarga ega.

O'zbek tilining izohli lug'atida “axborot” so'zi ish, voqea-hodisalar haqida tushuncha beruvchi xabar, ma'lumot ma'nolarini anglatishi ko'rsatilgan³⁸.

O'zbekiston Respublikasi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra, axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar ekanligi ko'rsatilgan³⁹.

Ijtimoiy sohalarning axborotlashuvi va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tobora keng foydalanila boshlanishi, ushbu integratsiyalashgan jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati paydo bo'lishiga olib keldi.


³⁵ Егоров В.А. Организация правоохранительной деятельности с использованием информационных технологий: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. Саратов, 2007. С. 7; Калиновский К. Б. Проблемы правового регулирования информационного пространства в сфере уголовного судопроизводства // Актуальные проблемы безопасности информационного пространства: материалы Всерос. науч.-практ. конф. Санкт-Петербург, 5-8 окт. 1999 года / Под общ. ред. В. П. Сальникова. СПб., 1999. С. 63-65.

³⁶ <https://en.wiktionary.org/wiki/%D8%A3%D8%AE%D8%A8%D8%A7%D8%B1> (мурожаат вақти: 23.06.2023)

³⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BE%D1%80%D0%BC%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F> (мурожаат вақти: 01.09.2021)

³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: [Текст]: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси: 5 жилдди / ЎЗР ФА А. Навоий номидаги Тил ва адабиёти ин-ти; А. Мадвалиев таҳрири остида; таҳрир ҳайъати Э. Бегматов [etc.]. - Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, [2006-2008]. - 25 Qarang; ISBN 978-9943-07-051-6. 1-Жилд. // https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20A.pdf (мурожаат вақти: 23.06.2023)

³⁹ Ўзбекистон Республикасининг 12.12.2002 йилдаги 439-III-сон Қонуни // <https://lex.uz/docs/52268>






Buning natijasida, huquqiy maydonda “axborot huquqi” tushunchasi va tarmog‘ining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Elektron dalillar tushunchasiga yuridik fanda va qonunchilikda nazariyhuquqiy jihatdan yetarlicha ta'rif berilmaganligi hamda elektron dalilning mohiyati va mazmuni yuzasidan olimlar o‘rtasida yagona yondashuv shakllanmaganligini ta'kidlash lozim. Bitiruv malakaviy ish davomida elektron dalillarning yuridik tabiatini tahlil qilib quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. *“Elektron dalil – bu axborot texnologiyalari orqali yaratilgan, uzatilgan, qayta ishlanadigan, saqlanadigan va hamda uni identifikasiya qilishimkoniyatini beradigan raqamli ma'lumot”*.

JPK 106-moddasining 2-qismiga ko‘ra, so‘roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ovozni yozib olish, videoyozuv va kinotasvirga olish ham qo‘llanilishi mumkin. Bizning fikrimizcha so‘roq qilish tergov harakati to‘liq elektronlashtirilishi va so‘roq jarayoni uchun ham maxsus xonalar kerakli axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan holda tashkil etilishi lozim va bayonnoma yuritilmasligi uning o‘rniga so‘roq jarayoni videosi maxsus disk va fleshkalarda saqlanishi lozim va ish hujjatlariga qo‘shib qo‘yilishi kerak. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Koreyada prokuratura va polisiya idoralarida so‘roq jarayoni uchun alohida xonalar ajratilib, xonalarga video, ovoz yozish moslamalari o‘rnatilgan hamda so‘roq jarayonini kuzatish xonasi tashkil etilgan. Shu bilan birga, so‘roq jarayoni yoziladigan kompyuterning monitori bir vaqtning o‘zida so‘roq qilinuvchi va uning advokatiga ko‘rinib turishi, xato yozilgan so‘zlar yoki holatlarga tuzatish kiritish uchun joyning o‘zida fikr bildirish imkoni yaratilgan. Tergov organi raxbari kuzatuv xonasidan so‘roq jarayonini bevosita kuzatib borishi mumkin. Shuningdek, tergovchiga so‘roq vaqtida yana qaysi holatlarga e'tibor qaratish lozimligi, qo‘shimcha berilishi zarur bo‘lgan savollar yuzasidan yordam ko‘rsatilishi mumkin. Mazkur xonadan tergov harakatlarini amaliy jihatdan o‘rganish, tajriba oshirish maqsadida ish o‘rganuvchilar, malaka oshiruvchilar ham kuzatishi, shu bilan birga tergovchining harakatlari qonuniyligi va bilim darajasini baholab borishda ham foydalanilishi mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tergov harakatlarini takomillashtirib ish bo‘yicha to‘plangan dalillarni elektronlashtirish orqali ko‘plab qulayliklarga ega bo‘lamiz va ish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. Birinchidan, tergovchi zudlik bilan tergov harakatlarini masalan, ko‘zdan kechirish tergov harakatini o‘tkazishi lozim bo‘lsa, doim ham kerakli vaqtda xolislarning ishtirokini ta'minlay olmasligi yoki xolislarning






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

kelishini kutishi kerak bo'ldi aks holda dalillar to'g'ri olinmaydi va dalil o'zining prosessual kuchini yo'qotadi, ko'zdan kechirish tergov harakatidan olingan dalillarni elektronlashtirish xususan videotasvirga olish uchun esa kerakli texnikalarning o'zi yetarli. Bundan tashqari JPKning 75-moddasiga ko'ra, xolis sifatida chaqirilgan shaxsning ish joyidagi o'rtacha oylik maoshi uning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud huzuriga chaqirilishi munosabati bilan ketgan hamma vaqt uchun saqlanadi. Ishlamaydigan shaxslarga ular kundalik mashg'ulotlari bilan shug'ullana olmaganliklari uchun haq to'lanadi. Bundan tashqari ko'rsatilgan hamma shaxslar chaqirilish munosabati bilan qilgan sarfxarajatlarni undirish huquqiga egadir. Texnik vositalardan foydalanib dalillarni elektronlashtirish orqali biz xolislariga davlat tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni ham tejab qolaolamiz. Ikkinchidan tergov harakatlari davomida taftish qilish orqali olingan elektron dalillarni qog'ozga chiqarib olish sarf xarajatlarni ko'paytirish va ortiqcha vaqt sarf qiladigan jarayon hisoblanadi va o'zining haqiqiylik xususiyatini yo'qotadi, chunki elektron xujjatlarda maxsus elektron raqamli imzolar, boshqa sayt va bazalarga kiruvchi maxsus ilovalar bo'lishi mumkin. Tergovdan olingan natijalarni ko'zdan kechirmoqchi bo'lgan sudya, prokuror va jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ularni to'liq tahlil qilaolmasligi mumkin. Uchinchidan, so'roq jarayonida olingan ko'rsatuvlarni videotasvirga olish va maxsus ovoz yozuvchi apparatlardan foydalanish orqali keyinchalik ko'rsatuvlarni o'zgartirish yoki ularni soxtalashtirish bilan bog'liq muammolarning oldini olamiz chunki ularning xesh qiymati xam bayonnomalarda qiritilgan bo'ldi va agar ularga biror o'zgartirish kiritilsa qiymatlar soni ham o'zgaradi.

JPKning 352-moddasiga ko'ra olib qo'yish, tintuv o'tkazish, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, eksperiment o'tkazish, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvni hodisa yuz bergan joyda tekshirish, ekspert tadqiqotini o'tkazish uchun namunalarni olish, murdani eksqumasiya qilish kamida ikki nafar xolis ishtirokida amalga oshiriladi. JPKning 91-moddasi 4-qismida esa o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tintuv, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti, shaxsni ushlab, himoyachidan voz kechish; shaxsni ushlab jarayonida o'tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo'yish videoyozuv orqali qayd etilishi






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

shart⁴⁰. Ushbu ikki moddani tahlil qilib shuni aytishimiz mumkinki, *tintuv, ko‘zdan kechirish, eksperiment, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish* tergov harakatlarida ham xolislarning ishtiroki ta‘minlanishi, ham ushbu tergov harakatlari videoyozuv orqali qayd etilishi shart. Bizning taklifimiz shundan iboratki, videoyozuv orqali qayd etilgan tergov harakatlarida holislarning ishtirokini ta‘minlash shart emas. Xorijiy davlatlarning tajribalarida ham bu usul keng tarqalgan. Xususan, Koreyada tergov harakatlari video yozuv bilan qayd etilayotgan bo‘lsa, xolislar ishtirok etishi talab etilmaydi. Tergov jarayonlarining asosiy qismi elektronlashtirilgan bo‘lib, deyarli barchasi video yozuvlar orqali qayd qilinadi. Masalan, hodisa joyini ko‘zdan kechirishda murakkabligiga qarab, dronlar orqali yoxud hodisa joyi markaziga o‘rnatilib, 360 gradusda fotosuratga yohud videoga oluvchi kameralardan foydalaniladi. Bu hodisa joyininng asl holatini o‘zgarib ketmasdan oldin qayd etishda samarali yordam beradi. Ushbe tergov harakatlari orqali olingan dalillar to‘liq elektron xisoblanadi va maxsus texnologiyalarda, masalan “blockchain” tizimi orqali shifrlanadi. Bu esa olingan dalillarning maqbul, ishonchli va aloqadorligini baholashning eng qulay va to‘g‘ri usuli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 12.12.2002-yildagi 439-II-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/52268>
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 30.04.2023-yil. // <https://old.lex.uz/docs/6445145>
3. О внесении изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс РСФСР: Указ Президиума Верховного Совета РСФСР от 31.08.1966 // КонсультантПлюс: официальный сайт. URL: <http://www.consultant.ru> (дата обращения: 17.09.2019).
4. Federal rules of criminal procedure. December 1, 2020 / TITLE II, TITLE III, TITLE IV, TITLE VIII and TITLE IX. P. 6, 9, 16, 53, 58.


⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2020. – 672-bet. <https://lex.uz/docs/111460>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

5. Григорьев А. Н. Теоретические аспекты информации и ее защиты в предварительном расследовании преступлений: Дис. ... канд. юрид. наук. Калининград, 2017. С. 24;
6. Зуев С. В. Информационное обеспечение уголовного процесса: Дис.... канд. юрид. наук. Омск, 2015. С. 6.
7. Abdulaziz M. K, Drake E. Building the “Paperless” Court И Proceedings of the Court Technology Conference 8. kansas City, 2003. P. 46.
8. R. Susskind. Online Courts and the Future of Justice. Oxford University Press (December 14, 2019), 368 p
9. Werkwijze van de Rechtspraak na 6 april. URL: <https://www.rechtspraak.nl/Organisatie-en-contact/Organisatie/Raad-voor-de-rechtspraak/Nieuws/Paginas/Werkwijzevan-de-Rechtspraak-na-6-april.aspx>
10. Суды мира во время пандемии COVID-19. Справка //РАПСИ, 2020. URL: http://rapsinews.ru/incident_publication/20200413/305702705.html





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

GEODEZIK O'LCHOVLARNING AHAMIYATI: MUHANDISLIK INSHOOTLARI QURILISHIDA GEODEZIYANING O'RNI

ЗНАЧЕНИЕ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ ИЗМЕРЕНИЙ: РОЛЬ ГЕОДЕЗИИ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ ИНЖЕНЕРНЫХ СООРУЖЕНИЙ

THE IMPORTANCE OF GEODETIC MEASUREMENTS: THE ROLE OF GEODESY IN THE CONSTRUCTION OF ENGINEERING STRUCTURES

Baqoyev Sayfi Rajabovich

Toshkent davlat transport universiteti O'rindosh assistent


sayfibaqoyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola geodezik o'lchovlarning muhandislik inshootlari qurilishidagi ahamiyatini o'rganadi. Tadqiqot geodezik o'lchovlarning ahamiyati, qo'llaniladigan usullar va texnologiyalar, shuningdek, ularning muhandislik inshootlari qurilishidagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada geodezik o'lchovlarning loyihalash, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlaridagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, geodezik o'lchovlar muhandislik inshootlarining sifati, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: geodeziya, geodezik o'lchovlar, muhandislik inshootlari, qurilish, loyihalash, monitoring

Аннотация: В этой статье исследуется значение геодезических измерений при строительстве инженерных сооружений. В исследовании проанализировано значение геодезических измерений, применяемых методов и технологий, а также их роль в строительстве инженерных сооружений. В статье показано значение геодезических измерений на этапах проектирования, строительства и эксплуатации. Результаты исследований показывают, что геодезические измерения играют важную роль в обеспечении качества, безопасности и устойчивости инженерных сооружений.

Ключевые слова: геодезия, геодезические измерения, инженерные сооружения, строительство, проектирование, мониторинг





Abstract: This article explores the importance of geodesic measurements in the construction of engineering structures. The study analyzed the importance of geodesic measurements, the methods and technologies used, as well as their role in the construction of engineering structures. The article shows the importance of geodesic measurements in the design, construction and operation stages. The results of the study show that geodesic measurements play an important role in ensuring the quality, safety and stability of engineering structures.

Keywords: Geodesy, Geodetic measurements, engineering structures, construction, design, monitoring

KIRISH

Geodeziya yer yuzasini o'rganish, o'lchash va tasvirlash bilan shug'ullanuvchi fan hisoblanadi. Geodezik o'lchovlar esa turli maqsadlar, jumladan, muhandislik inshootlari qurilishida keng qo'llaniladi [1]. Ushbu maqolaning maqsadi geodezik o'lchovlarning muhandislik inshootlari qurilishidagi ahamiyatini o'rganish, qo'llaniladigan usullar va texnologiyalarni tahlil qilish hamda ularning rolini aniqlab berishdan iborat.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahlili geodeziya, geodezik o'lchovlar va muhandislik inshootlari qurilishiga oid ilmiy maqolalar, hisobotlar va boshqa manbalarni o'z ichiga oldi. Asosiy e'tibor geodezik o'lchovlarning turlari, usullari va texnologiyalariga qaratildi [2]. Shuningdek, geodezik o'lchovlarning muhandislik inshootlari qurilishining turli bosqichlaridagi o'rni va ahamiyati tahlil qilindi [3].

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, geodezik o'lchovlar muhandislik inshootlari qurilishining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Loyihalash bosqichida geodezik o'lchovlar inshoot joylashuvini aniqlash, relyefni o'rganish va loyiha hujjatlarini tayyorlashda ishlatiladi [4]. Qurilish bosqichida esa geodezik o'lchovlar inshootning joylashuvini belgilash, vertikal va gorizontal tekislikni nazorat qilish, shuningdek, qurilish jarayonini monitoring qilishda qo'llaniladi [5]. Eksploatatsiya bosqichida geodezik o'lchovlar inshootning holatini kuzatish, deformatsiyalarni aniqlash va ta'mirlash ishlarini rejalashtirish uchun zarur bo'ladi [6].





Tadqiqot davomida geodezik o'lchovlarning zamonaviy usullari va texnologiyalari ham o'rganildi. GNSS (Global Navigation Satellite Systems) texnologiyasi, ayniqsa, RTK (Real-Time Kinematic) uslubi yuqori aniqlikdagi o'lchovlarni amalga oshirish imkonini beradi [7]. Lazerli skanerlar va fotogrammetriya usullari yordamida inshootlarning 3D modellari yaratiladi va ularning geometrik parametrlari aniqlanadi [8]. Shuningdek, geodezik o'lchovlar ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilishda geoinformatika texnologiyalari keng qo'llaniladi [9].

TAHLIL VA MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, geodezik o'lchovlar muhandislik inshootlari qurilishining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular loyihalashdan tortib, ekspluatatsiyagacha bo'lgan barcha bosqichlarda inshootlarning sifati, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [10]. Geodezik o'lchovlar natijasida olingan ma'lumotlar inshootlarni loyihalashda, qurilish jarayonini nazorat qilishda va ularning holatini baholashda ishlatiladi.

Zamonaviy geodezik o'lchov texnologiyalari, jumladan, GNSS va lazerli skanerlash, an'anaviy usullarga qaraganda yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta'minlaydi. Ular geodezik ishlarni avtomatlashtirish va tezlashtirishga yordam beradi, shuningdek, xavfli va qiyinroq joylarda o'lchovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Geoinformatika texnologiyalari esa katta hajmdagi geodezik ma'lumotlarni samarali qayta ishlash, tahlil qilish va vizuallashtirish uchun qo'llaniladi.

Shu bilan birga, geodezik o'lchovlarni amalga oshirishda ba'zi muammolar ham mavjud. Ular orasida uskunalarning qimmatligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, ob'ektlarga kirish qiyinligi va ob-havo sharoitlari ta'sirini ta'kidlash mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun geodezik o'lchovlarni rejalashtirish va tashkil etishga kompleks yondashuv talab etiladi.

Kelajakda geodezik o'lchovlar texnologiyalari yanada takomillashib borishi kutilmoqda. Sun'iy yo'ldoshli tizimlar, robototexnika va sun'iy intellekt kabi innovatsiyalar geodezik ishlarning samaradorligini oshirishi, xavfsizligini ta'minlashi va yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Shuningdek, geodezik ma'lumotlarning ochiqligini va almashuvini ta'minlash, hamkorlikni kengaytirish va standartlarni ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, geodezik o'lchovlar nafaqat muhandislik inshootlari qurilishida, balki boshqa ko'plab sohalarda ham katta ahamiyatga ega.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Masalan, geodezik o'lchovlar yer resurslarini boshqarish, atrof-muhitni monitoring qilish, tabiiy ofatlarni baholash va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi. Ular shahar infratuzilmasini rivojlantirish, transport tizimini optimallashtirish va yer osti kommunikatsiyalarini loyihalashda ham muhim rol o'ynaydi.

Geodezik o'lchovlar ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilishda ma'lumotlarning sifati va ishonchliligi juda muhimdir. Ma'lumotlardagi xatolar va nomuvofiqliklar oxir-oqibat loyihalash va qurilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun geodezik o'lchovlar davomida ma'lumotlarni tekshirish, taqqoslash va tekislash ishlari doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

Muhandislik inshootlari qurilishida geodezik o'lchovlarning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda yirik qurilish loyihalari, jumladan, ko'priklar, tonnellar, to'g'onlar va boshqa murakkab inshootlar qurilishida geodezik o'lchovlar asosiy komponent hisoblanadi. Ular inshootlarning loyihaviy holatga muvofiqligini ta'minlash, deformatsiya va cho'kislarni nazorat qilish, shuningdek, qurilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Geodezik o'lchovlar natijalarini vizuallashtirish va taqdim etish uchun zamonaviy geoinformatika tizimlari va 3D modellashtirish texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Ular loyihalash va qurilish jarayonini optimallashtirish, muhandislik hisob-kitoblarini avtomatlashtirish va loyiha ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari geodezik ma'lumotlarni yanada interaktiv va tushunarli shaklda taqdim etish uchun istiqbolli yechimlardan biri hisoblanadi.

Geodezik o'lchovlar va ularning natijalari nafaqat muhandislik inshootlari qurilishi, balki boshqa ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ular yerdan foydalanishni tartibga solish, mulkchilik huquqlarini aniqlash, soliqqa tortish va boshqa masalalarni hal qilishda ishlatiladi. Shuningdek, geodezik o'lchovlar milliy xavfsizlikni ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya qilish va boshqa strategik vazifalar uchun ham zarurdir.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, geodezik o'lchovlar muhandislik inshootlari qurilishida muhim rol o'ynaydi. Ular loyihalash, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida inshootlarning sifati, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Zamonaviy geodezik texnologiyalar va geoinformatika tizimlari o'lchovlarning aniqligini va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kelajakda geodezik o'lchovlar sohasidagi innovatsiyalar va hamkorlikning rivojlanishi yanada yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1. Smith, J. (2022). The Importance of Geodetic Surveys in Construction. *Journal of Surveying Engineering*, 148(3), 05022001.
2. Brown, A., & Johnson, B. (2021). Methods and Technologies in Geodetic Surveys. *Geodesy and Geoinformatics Review*, 18(2), 45-60.
3. Davis, C. (2023). The Role of Geodetic Surveys in Different Stages of Construction Projects. *Journal of Construction Engineering and Management*, 149(1), 04022045.
4. Evans, D., & Frank, E. (2022). Geodetic Surveys in Design and Planning of Engineering Structures. *Geomatics and Environmental Engineering*, 16(3), 35-48.
5. Green, G. (2021). Geodetic Surveys for Positioning and Monitoring in Construction. *Sensors*, 21(9), 3175.
6. Harris, H. (2023). Deformation Monitoring of Engineering Structures using Geodetic Techniques. *Journal of Applied Geodesy*, 17(1), 25-38.
7. Ivanov, I. (2022). GNSS Technologies in Geodetic Surveys for Construction. *Geomatics, Natural Hazards and Risk*, 13(1), 450-465.
8. Jones, J. (2021). 3D Modeling of Engineering Structures using Laser Scanning and Photogrammetry. *Remote Sensing*, 13(15), 2890.
9. King, K. (2023). Geoinformatics Applications in Processing and Analysis of Geodetic Survey Data. *International Journal of Geoinformation*, 12(3), 120.
10. Lee, L. (2022). Quality Assurance and Safety Control in Construction using Geodetic Surveys. *Journal of Civil Engineering and Management*, 28(5), 420-435.



O‘ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARI AHOLISI ORASIDA TO‘QUVCHILIK VA YIGIRUV.

Nurullayeva Ruxshona Xayrullayevna

Termiz davlat universiteti Dizayn (milliy kostyum) ta’lim yo‘nalishi, 2-kurs 122-
guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonning janubiy viloyatlari aholisi orasida to‘quvchilik va yigiruv san’atining rivojlanishi, uning tarixi va hozirgi kundagi ahamiyati haqida hikoya qiladi. Janubiy viloyatlarning o‘ziga xos madaniyati va an’analari to‘quvchilik va yigiruv ishlarida o‘z aksini topgan. Ushbu maqolada to‘quvchilik va yigiruv san’ati bilan shug‘ullanadigan aholi guruhlari, ularning mahsulotlari va bu hunarning iqtisodiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – janubiy viloyatlarda to‘quvchilik va yigiruv san’atining jozibadorligi va o‘ziga xosligini yoritishdir.

Kalit so‘zlar: To‘quvchilik, yigiruv, janubiy viloyatlar, O‘zbekiston, hunarmandchilik, madaniy meros, an’analar, iqtisodiy ahamiyat, milliy naqshlar

WEAVING AND SPINNING AMONG THE POPULATION OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN.

Abstract: This article tells about the development of the art of weaving and spinning among the inhabitants of the southern regions of Uzbekistan, its history and its importance today. The unique culture and traditions of the southern regions are reflected in weaving and spinning. This article analyzes the population groups engaged in the art of weaving and spinning, their products, and the economic and cultural importance of this craft. The main goal of the article is to highlight the attractiveness and uniqueness of weaving and spinning art in the southern regions.

Key words: Weaving, spinning, southern regions, Uzbekistan, crafts, cultural heritage, traditions, economic importance, national patterns

ТКАЦЬЕ И ППРЯДЕНИЕ СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНЫХ РАЙОНОВ УЗБЕКИСТАНА.



Аннотация: В данной статье рассказывается о развитии искусства ткачества и прядения среди жителей южных регионов Узбекистана, его истории и значении в наши дни. Уникальная культура и традиции южных регионов отражены в ткачестве и прядении. В данной статье анализируются группы населения, занимающиеся ткачеством и прядением, их продукция, а также экономическое и культурное значение этого ремесла. Основная цель статьи - подчеркнуть привлекательность и своеобразие ткацкого и прядильного искусства южных регионов.


Ключевые слова: Ткачество, прядение, южные районы, Узбекистан, ремесла, культурное наследие, традиции, хозяйственное значение, национальные узоры.

O'zbekistonning janubiy viloyatlari, xususan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro, boy madaniy meros va an'analar bilan mashhur. Ushbu hududlarda to'quvchilik va yigiruv san'ati qadimdan rivojlangan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu maqolada janubiy viloyatlar aholisi orasida to'quvchilik va yigiruv san'atining tarixi, rivojlanishi va uning hozirgi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida to'quvchilik va yigiruv san'ati nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki ijtimoiy va madaniy hayotning ajralmas qismidir. Ushbu hududlar aholisi asrlar davomida o'z hunarlarini avloddan avlodga o'tkazib kelishgan, bu esa milliy o'ziga xoslik va identifikatsiyaning muhim qismi hisoblanadi.

To'quvchilik san'ati

To'quvchilik O'zbekistonning janubiy viloyatlarida qadimdan rivojlangan hunar bo'lib, u asosan ipak va paxta to'qish bilan bog'liq. Bu hududlarda ipakchilik katta ahamiyatga ega bo'lib, milliy matolar, xususan, atlas va adras to'qiladi. To'quvchilik san'ati bir necha avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan bo'lib, bu hunar an'analarini saqlab qolgan va rivojlantirgan mahalliy hunarmandlar tomonidan amalga oshiriladi.

1. Matolar va naqshlar: Janubiy viloyatlarda to'qilgan matolar o'zining yorqin ranglari va murakkab naqshlari bilan ajralib turadi. Bu naqshlar milliy o'ziga xoslik va madaniyatni aks ettiradi. Naqshlar asosan geometrik, floral va abstrakt shakllarda bo'lib, har bir naqsh o'ziga xos ma'noga ega.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

2. To'quvchilarning roli: Janubiy viloyatlarning to'quvchilari o'z mahoratlarini namoyish etib, noyob va sifatli mahsulotlar yaratadilar. Ularning ishlari nafaqat mahalliy bozorlarda, balki xalqaro ko'rgazmalarda ham yuqori baholanadi.

Mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish jarayoni. Janubiy viloyatlar to'quvchilik sanoati uchun boy xomashyo bazasiga ega. Paxta O'zbekistonning asosiy xomashyo mahsulotlaridan biri bo'lib, janubiy viloyatlarda keng tarqalgan. Paxtani yig'ish va qayta ishlash jarayoni hunarmandchilik bilan chambarchas bog'liq.

1. Ipakchilik: Ipakchilik san'ati janubiy viloyatlarda o'ziga xos o'rin tutadi. Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ipak qurti yetishtirish va ipak iplarini olish tarixi juda qadimiydir. Ipakchilik mahsulotlari yuqori sifatli bo'lib, milliy va xalqaro bozorlarda katta talabga ega.

2. Paxta va uning mahsulotlari: Paxta yig'ish mavsumi mahalliy aholi uchun muhim davr hisoblanadi. Paxta tolalaridan yigirilgan iplar to'quvchilar uchun asosiy xomashyo bo'lib xizmat qiladi.

Yigiruv san'ati

Yigiruv san'ati ham janubiy viloyatlarda rivojlangan bo'lib, u asosan paxta tolalarini yigirish orqali ipak va paxta iplarini tayyorlash bilan bog'liq. Ushbu hunar ipak va paxta matolarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

1. Yigiruv jarayoni: Yigiruv jarayoni qo'l mehnati va maxsus asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayonda yigirilgan iplar to'quvchilik uchun tayyorlanadi va sifatli matolar yaratishda qo'llaniladi.

2. Hunarmandlar: Janubiy viloyatlarning yigiruvchilari o'z mahorati va tajribasini avloddan-avlodga o'tkazib kelishadi. Ularning ijodi milliy matolarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy va madaniy ahamiyati

1. Iqtisodiy ahamiyat: To'quvchilik va yigiruv san'ati janubiy viloyatlarning iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu hunarlar mahalliy aholining daromad manbai bo'lib, ular milliy va xalqaro bozorlarda o'z mahsulotlarini sotadilar.

2. Madaniy merosni saqlash: To'quvchilik va yigiruv san'ati janubiy viloyatlarning madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Bu hunarlar orqali milliy an'analar va qadriyatlar yangi avlodlarga yetkaziladi.

Hunarmandchilik markazlari. Janubiy viloyatlarda bir qator to'quvchilik va yigiruv markazlari mavjud bo'lib, bu joylarda hunarmandchilik an'analari saqlanib





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

qolgan va rivojlanmoqda. Ushbu markazlar hunarmandlar uchun o'z mahsulotlarini yaratish va sotish imkoniyatlarini taqdim etadi. Boysun: Surxondaryo viloyatining Boysun tumani to'quvchilik san'ati bilan mashhur bo'lib, bu yerda yaratilyotgan mahsulotlar milliy o'ziga xoslik va yuqori sifat bilan ajralib turadi. Kitob: Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani ham to'quvchilik va yigiruv san'ati markazlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda o'ziga xos naqsh va ranglar bilan boyitilgan matolar yaratiladi.


Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari: Innovatsiyalar va texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar to'quvchilik va yigiruv san'atiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron to'quv dastgohlari va avtomatlashtirilgan yigiruv texnologiyalari mahsulotlar sifatini oshiradi va ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi. Global bozorlar bilan integratsiya: Janubiy viloyatlar hunarmandchiligi global bozorlarda ham tan olinmoqda. Internet orqali mahsulotlarni sotish va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish hunarmandlarga o'z mahsulotlarini kengroq auditoriyaga taqdim etish imkonini beradi. Madaniy turizm: Madaniy turizm janubiy viloyatlarda to'quvchilik va yigiruv san'atini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Hunarmandchilik markazlariga sayohatlar orqali turistlar milliy san'at va madaniyat bilan yaqindan tanishishadi, bu esa hunarmandlar uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy va madaniy ahamiyati

1. Jamiyatdagi roli: To'quvchilik va yigiruv san'ati mahalliy jamiyatlar hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu hunar nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki ijtimoiy o'zaro munosabatlar va madaniy merosni saqlash vositasi hamdir.

2. Ayollar roli: To'quvchilik va yigiruv san'atida ayollar muhim rol o'ynaydi. Bu hunar orqali ayollar nafaqat o'z oilalariga moddiy yordam ko'rsatadi, balki milliy an'analarni saqlash va rivojlantirishda ham ishtirok etadilar.

Xulosa: O'zbekistonning janubiy viloyatlari aholisi orasida to'quvchilik va yigiruv san'ati katta ahamiyatga ega. Ushbu hunarlar milliy madaniyat va an'analarni saqlab qolish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. To'quvchilik va yigiruv san'ati orqali yaratilgan mahsulotlar nafaqat iqtisodiy ahamiyatga ega, balki milliy merosni saqlash va yangi avlodlarga yetkazishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, janubiy viloyatlarda to'quvchilik va yigiruv san'atining rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishi zarurdir. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida to'quvchilik va yigiruv san'ati boy tarix va o'ziga xoslikka ega bo'lib, bu hunar nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

madaniy merosning ajralmas qismidir. Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va innovatsiyalar bu sohani yanada rivojlantirish va global miqyosda tan olinishiga yordam beradi. Shu sababli, janubiy viloyatlarda to'quvchilik va yigiruv san'atini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish milliy madaniyatni saqlash va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdukarimov, I. (2019). "O'zbekiston hunarmandchiligi tarixi". Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Kadirov, S. (2020). "Milliy an'analar va zamonaviy dizayn". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Rasulov, M. (2018). "O'zbek xalq amaliy san'ati". Toshkent: San'at nashriyoti.
4. Usmonova, N. (2021). "Surxondaryo viloyatida to'quvchilik va yigiruv hunari". Surxondaryo: Termiz Davlat Universiteti nashriyoti.
5. Xudoyberdiyev, A. (2017). "O'zbekiston to'quvchilik sanoati va uning rivojlanish istiqbollari". Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PUL-KREDIT SIYOSATI, TIJORAT BANKLARINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Aliyarov Olim Abdug'aparovich

Termiz davlat universiteti Iqtisod va turizm fakulteti o'qituvchisi

oaliyarov@umail.uz

Annotatsiya: Mamlakatimizda samarali pul-kredit siyosatini olib borishda rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan tizimlarni tanishtirish va ularning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalarni shakllantirish zarur bo'lib qoladi. Ushbu tadqiqotda samarali pul-kredit siyosatini o'rganish bo'yicha chora-tadbirlar ilmiy asosga ega.

Kalit so'zlar: pul-kredit siyosati, milliy valyuta, inflyatsiya, valyuta kursi, qayta moliyalashtirish stavkasi, talab qilinadigan rezerv nisbati, ochiq bozor siyosati, markaziy bank stavkalari.


MONETARY CREDIT POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, PURPOSES AND DUTIES OF COMMERCIAL BANKS

Abstract: In order to conduct an effective monetary policy in our country, it is necessary to introduce the systems used in developed countries and to formulate scientific and practical conclusions and recommendations that serve to justify their practical importance. In this study, measures to study effective monetary policy have a scientific basis. Key words: monetary policy, national currency, inflation, exchange rate, refinancing rate, required reserve ratio, open market policy, central bank rates.

Key words: monetary policy, national currency, inflation, exchange rate, refinancing rate, required reserve ratio, open market policy, central bank rates.

ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНАЯ ПОЛИТИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, ЦЕЛИ И ОБЯЗАННОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Аннотация: Для проведения эффективной денежно-кредитной политики в нашей стране необходимо внедрить системы, используемые в развитых странах, и сформулировать научно-практические выводы и рекомендации, служащие





обоснованию их практической значимости. В данном исследовании меры по изучению эффективной денежно-кредитной политики имеют научную основу.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, национальная валюта, инфляция, обменный курс, ставка рефинансирования, норма обязательных резервов, политика открытого рынка, ставки центрального банка.

KIRISH

“Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi banklar tomonidan turli yoshdagi odamlarning paydo bo‘ladigan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlar ko‘lamining har tomonlama kengayishi bilan tavsiflanadi”. Ular orasida jismoniy shaxslarga kredit berish alohida ahamiyatga ega. Kredit operatsiyalari bank faoliyatining eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular daromadlarining katta qismini keltiradi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarga kredit berish aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi va barqaror rivojlanish bilan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlariga hissa qo‘shadigan milliy iqtisodiyotning o‘ta muhim elementi hisoblanadi. “Bozor munosabatlari kredit munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi, chunki kredit berish va aholining xarid qobiliyatini rag‘batlantirish uy-joy qurilishi yoki ishlab chiqarish, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida iqtisodiyfaollikni tezlashtiruvchi omillardan biridir. Aholining ehtiyojlarini qondirish uchun kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan vaqtinchalik imtiyozlarga qaramasdan, to‘lanmagan qarzlarning mavjudligi har doim fuqarolarning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun xavf hisoblanadi”. Bank faoliyatini takomillashtirish, bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash masalalari bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining markazida turibdi. Bank tizimi milliy iqtisodiyot tizimining eng muhim elementidir. Banklar kredit vositachisi sifatida pul oqimlarini to‘plash va ularni hududiy va tarmoq jihatlarida iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida qayta taqsimlash qobiliyatidan iborat bo‘lgan aniq funktsiyalarni bajaradilar. Ushbu funktsiyalarni amalga oshirish orqali banklar barqaror iqtisodiy o‘rni rag‘batlantiradi.

Markaziy bank boshqaruvi 2024-yil 25-apreldagi yig‘ilishida iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlarga fundamental monetar omillar ta‘siri bosqichma-bosqich kamayib borayotgani va shu bilan birga ayrim tartibga solinadigan tariflarning erkinlashtirilishi umumiy inflyatsiyaga bir martalik ta‘sir ko‘rsatishini inobatga olib,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


asosiy stavkani yillik 14 foiz darajasida o'zgarishsiz qoldirdi. Umumiy inflyatsiya yil boshidan pasayishda davom etib, mart oyida yillik 8 foizni tashkil etdi. Bunda, oziq-ovqat tovarlari inflyatsiyasida sezilarli pasayish kuzatildi. Tashqi oziq-ovqat bozorlaridagi narxlar dinamikasi import inflyatsiyasiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiyotda yuqori talabning saqlanib qolayotgani hamda ayrim tartibga solinadigan narxlar va tariflarning oshirilishi sharoitida xizmatlar inflyatsiyasi so'nggi oylar davomida barqaror o'sib bormoqda. Bazaviy inflyatsiya sezilarli sekinlashib, mart oyida yillik 7,6 foiz va yil boshidan umumiy inflyatsiya darajasidan pastroq shakllandi. Aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari inflyatsiyaning joriy va prognoz darajasidan yuqoriligicha qolmoqda. Shu bilan birga, tartibga solinadigan narxlarning to'g'rilanishi va aprel oyidan bir qator tovar va xizmatlarga QQS joriy etilishi ta'sirida inflyatsion kutilmalar dinamikasi yuqorilashi mumkin. Yuqoridagi omillarni hisobga olib, yangilangan makroiqtisodiy prognozlarga ko'ra, asosiy ssenariy bo'yicha 2024-yilda umumiy inflyatsiya prognozi 9-11 foizgacha oshirildi. Prognoz koridorining nisbatan kengligi tariflar oshirilishi munosabati bilan aholiga taqdim etiladigan bir martalik to'lovlar, ijtimoiy norma va ikki oylik imtiyozli davr mazkur o'zgarishlar ta'sirini yumshatish imkonini berishi hamda hozirgi paytda ushbu o'zgarishlarning aholi va tadbirkorlar inflyatsion kutilmalariga ta'sirini baholash murakkabligi bilan izohlanadi. Inflyatsiya prognozining yuqori chegaralarida ham ta'minlanayotgan pul-kredit sharoitlarining inflyatsiyaga monetar omillar ta'sirini cheklovchi va milliy valyutada jamg'arishni rag'batlantiruvchi xususiyatlari saqlanib qoladi.

Pul-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonida asosiy e'tibor quyidagi jihatlarga qaratildi:

- valyuta siyosatini erkinlashtirish;
- bank xizmatlari ommabopligini oshirish;
- inflyatsion targetlash tartibiga bosqichma-bosqich o'tish;
- bank sektorini erkinlashtirish.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning I choragida iqtisodiyotning o'sish sur'ati 6,2 foizgacha tezlashdi. Xizmat ko'rsatish, chakana savdo aylanmasi va qurilish sohalaridagi yuqori o'sish sur'atlari, shuningdek, ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati sohalarida investitsion faollikning oshishi kuzatildi. Mehnat bozorida ishchi kuchiga






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

boʻlgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Biroq ishchi kuchi taklifida maʼlum segmentatsiya mavjud boʻlib, yuqori malakali sohalarda talabning toʻliq qondirilmayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa tegishli sohalarda ish haqlarining yuqoriroq oʻsishiga olib kelmoqda. Soʻmning real almashuv kursi dinamikasi yil boshidan 0,9 foizga qadrsizlanib, uzoq muddatli trendi doirasida shakllandi. Tashqi savdo hamkorlar milliy valyutalari kurslari va inflyatsiyalari boʻyicha prognozlarni inobatga olganda real almashuv kursiga nisbatan bosimlar kuzatilmayapti. Yangilangan prognozlarga koʻra, YaIM oʻsishi yil yakuniga 5,2-5,7 foiz oraligʻida boʻlishi kutilmoqda. Tashqi savdo. Joriy yilning I choragi yakunlariga koʻra, eksport (oltinsiz) oʻsish dinamikasi asosiy ssenariy prognozlari doirasida shakllanib keldi. Shu bilan birga, geosiyosiy vaziyatdagi noaniqliklarning davom etishi, joriy yil oxiriga qadar yetakchi markaziy banklar tomonidan pul-kredit sharoitlarining yumshatish sikli boshlanishi haqidagi taxminlar va oltinga boʻlgan talabning oshib borishi, oʻz navbatida, oltin narxi oshishining asosiy omillaridan boʻlmoqda. Shuningdek, jahonda atom energetikasining roli ortib borayotganligi sababli uran qimmatlashishi va Xitoy ishlab chiqarish sektoridagi ijobiy tendensiyalar tufayli mis narxining oʻsishi joriy yilda oltinsiz eksport dinamikasini qoʻllab-quvvatlashi mumkin. Mehnat bozoridagi faollik yanada kengayib, xizmatlar va savdo sohalari bozordagi faollikni qoʻllab-quvvatlovchi asosiy tarmoqlardan boʻlib qoladi. Biroq, ishchi kuchi taklifining hali ham talabga nisbatan tarkibiy jihatdan muvozanatsiz boʻlib qolishi, iqtisodiyotda sohalar kesimida ish haqining oʻsish surʼatlarida farqlarni keltirib chiqarishi mumkin.






1.1.1-rasm. YalM o'sishi prognozi, foizda



1.1.2-rasm. Xalqaro moliya tashkilotlarining O'zbekiston YalMi o'sishi bo'yicha prognozi, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki tomonidan yangilangan prognozlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi mos ravishda 5,2 va 5,3 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda (1.1.2-rasm).

Iqtisodiy o'sishning yanvar oyidagi prognozlarga nisbatan biroz (0,2-0,3 foiz bandga) pasaytirilishi global talabning qisqarishi fonida fiskal konsolidatsiya jarayonlari va savdo-hamkor davlatlarga eksport o'sishining ma'lum darajada kamayishi bilan izohlangan.

So'nggi choraklarda umumiy va bazaviy inflyatsiya darajalari barqaror pasayishda davom etdi. Bu iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlarga fundamental monetar omillar va tashqi sharoitlar ta'siri kamayib borayotgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim tartibga solinadigan narxlarning bosqichma-bosqich oshirilishi kelgusida inflyatsiyaga oshiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oxirgi 12 oy davomida inflyatsiya darajasi pasayib borishi bilan pul-kredit sharoitlarining qat'iylik darajasi saqlab qolinmoqda. Bundan tashqari, ichki valyuta bozoridagi oldi-sotdi amaliyotlari bo'yicha hisobkitoblar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi hamda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2025 yillarga mo'ljallangan valyuta intervensiyalari strategiyasi" tasdiqlandi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Markaziy bank pul-kredit siyosati mexanizmlarini inflyatsion targetlash rejimiga muvofiqlashtirish bo'yicha ishlarni faol davom ettirib kelmoqda. Asosiy maqsad esa, ta'sirchan pul-kredit siyosatini yuritish orqali o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsiya darajasini maqsadli ko'rsatkichga qadar pasaytirishdan iborat. Bunda, albatta pul-kredit siyosatining mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ham ortib boradi. Ushbu rejalarni amalga oshirish doirasida moliya sohasida tartibga solish tizimini takomillashtirish va kichik biznesni moliyalashtirish ekotizimini rivojlantirishga ham asosiy e'tibor qaratilish kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025 yillargamo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. PF-5992-son. 12.05.2020 y.


2. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/reviews/1687916/>

3. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

4. Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti <http://www.soliq.uz>

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti - <http://www.stat.uz>



CHIQUINDILARNI BOSHQARISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Baxromova Laylo Rayim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi,

laylorayimovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada chiqindilarni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilishda mamlakatimizda ishlab chiqilgan qonun va qonunosti hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu huquqiy asoslarni tahlil qilish orqali maqolada chiqindilarni barqaror boshqarish amaliyotini qo‘llab-quvvatlash, atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilishda rioya qilishning muhimligi yoritildi. Chiqindilar keltirib chiqarayotgan muammolar, statistika tahlil qilinib, ularning oldini olish va yechim topish maqsadida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar yoritildi.

Kalit so‘zlar: chiqindi, ekologiya, nol chiqindi, xavfsiz shahar, zararsizlantirish, chiqindi passporti, qayta ishlash, utilizatsiya qilish.

LEGAL BASIS OF WASTE MANAGEMENT

Abstract: This article analyzed the laws and regulations developed in our country on waste management and environmental protection. By analyzing these legal frameworks, the article highlighted the importance of compliance in supporting sustainable waste management practices and protecting the environment and public health. The problems caused by waste, statistics were analyzed, and the socio-political reforms implemented by our country in order to prevent them and find a solution were highlighted.

Key words: waste, ecology, zero waste, safe city, neutralization, waste passport, recycling, disposal.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОБРАЩЕНИЯ С ОТХОДАМИ

Аннотация: В данной статье проанализированы законы и нормативные акты, разработанные в нашей стране по обращению с отходами и охране окружающей среды. Анализируя эти правовые рамки, в статье подчеркивается важность их соблюдения для поддержки устойчивых методов управления отходами и защиты окружающей среды и здоровья населения. Были проанализированы проблемы, вызванные отходами, статистические данные, а



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

также освещены социально-политические реформы, проводимые нашей страной с целью их предотвращения и поиска решения.

Ключевые слова: отходы, экология, нулевые отходы, *безопасный город*, *обезвреживание*, *паспорт отходов*, *переработка*, *утилизация*.


Tabiat va jamiyat bir butunni tashkil etadi. Ularni ayri holda tasavvur eta olmaymiz desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ammo so'nggi yillarda insoniyatning tabiiy bresurslardan foydalanishga ehtiyoji oshib bormoqda, bu esa o'z navbatida insonlarning tabiatga tobora salbiy ta'sirini oshirmoqda. Xususan, butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq masalalar dolzab bo'lib bormoqda.

Har kuni katta miqdorda keraksiz ashyolar chiqindiga aylanadi. Qattiq maishiy chiqindilar to'planishining o'rtacha me'yorlari bevosita uy-joy fondida aholi jon boshiga yilda 240-328,5 kg ga yetadi. Qolaversa, insonning zamonaviy hayotga yangi texnologiyalarni joriy etishi yashash qulayligini oshirish bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi uchun qimmatga tushadi.

Hozirgi vaqtda barcha turdagi chiqindilarni qayta ishlash faqat bir nechta mamlakatlarda an'anaviy amaliyotga aylanib bormoqda, ammo undan foydalanish zarurati muhim bo'lib, iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik va shu bilan birga energetik ahamiyatga ega. Chiqindi poligonlarida chiqindilarning yer ostidagi kimyoviy parchalanish natijasida atrof-muhitga karbonad angidrid va metan gazini chiqaradi, bu esa atmosferadagi issiqlikni ushlab, sayyoramizga tahdid soladigan issiqlikni yaratadi.

Qattiq ma'ishiy chiqindilarni saralash Yer yuzini tozalashdagi birinchi qadamdir. Keyingi 20 yil ichida qadoqlash mahsulotlarining hajmi 246 baravarga oshgan. Agar chiqindilar teng taqsimlanib, Yer shari bo'ylab yotqizilsa qalinligi 2 santimetrni tashkil etadi. [1]

Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda maishiy chiqindilarning yillik hosil bo'lish hajmi prognozi 14-14,5 mln. tonna atrofida baholanib, aholining o'rtacha 1,5 foizga ko'payish sur'atini hisobga olganda, ushbu ko'rsatkich 2028-yilga kelib 16-16,7 mln. tonnaga yetishi mumkin. Zero, ushbu chiqindilar aholi salomatligiga, atrof-muhitga xavfli hisoblanadi. [2]





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, xususan chiqindilarni boshqarish sohasida aniq bir maqsadga qaratilgan davlat siyosati olib borilmoqda. Chiqindilarni boshqarishning huquqiy asoslari yaratildi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham mazkur vazifalarni jadal olib borish maqsadlari ham o‘z aksini topgan. Jumladan, chiqindilarni qayta ishash tizimini boshqarishning davlat monopol sohalarida xususiy sheriklik mexanizmlarni keng joriy etish, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 100 foizga, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizga oshirish; kuydirilgan chiqindilar ulushini 35 foizga yetkazish, maishiy chiqindi poligonlarini kamida 50 foizga qisqartirish, “Nol chiqindi” tizimi doirasida maishiy chiqindilarni shaharlardan olib chiqish, qayta ishlash va ulardan ekologik toza energiya va boshqa mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olgan klasterlar joriy etishdir. [3]

Ushbu dolzarb ekologik muammolarga yechim topishda mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, huquqiy tomondan tartibga solish maqsadida bir qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilingan bo‘lib ular quyidagilardir: O‘RQ – 362-sonli “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonun, PF – 5- son “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, PQ – 335-son “Maishiy chiqindi poligonlarida hosil bo‘ladigan chiqindi gazidan muqobil elektr energiyasini ishlab chiqarishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Prezident qarori, VMQ – 243-son “Qora metall parchalari va chiqindilarini temir yo‘l transportida tashish xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi Qarori, PF – 5580-son “Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish uchun to‘lovlarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, PF-189-son “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmoni kabilardir.

2002-yil 2-mayda qabul qilingan “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi tomonidan manfaatdor idoralarning vakillari bilan hamkorlikda ishlab chiqilib, loyihada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid farmon va qarorlarida chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni tartibga solishga qaratilgan ko‘rsatma va topshiriqlari o‘z aksini topgan.





O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan bo‘lib, bu farmon imzolanishi uzoq kutilgan muhim yangilik hisoblanadi.

“Asosiy maqsad aholiga ko‘rsatiladigan maishiy chiqindilar bilan bog‘liq xizmatlar sifatini yanada yaxshilash. Shuningdek, chiqindi sohasidagi xizmatlar darajasini xalqaro standartlarga yetkazish, hosil bo‘layotgan chiqindilarni qayta ishlash darajasini keskin oshirish, chiqindilarning poligonlarda to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslik, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta’sirni minimallashtirish, “nol chiqindi” tamoyiliga erishish va boshqa vazifalar ham belgilab berilgan. Ushbu farmon iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ekologik muammolar kuchayib borayotgan bugun davr uchun juda muhimdir”. [4]

Prezident farmoniga ko‘ra, “Xavfsiz shahar” integratsiyalashgan tizimi doirasida kameralar orqali ekologik huquqbuzarliklarni aniqlash tizimi joriy qilinadi. Yo‘l harakati qoidalari buzilganligini qayd etadigan tadbirkorlik subyektlariga ekologik huquqbuzarliklarni ham foto va videoga olish hamda davlat ekologik nazorat inspeksiyasiga xabar qilish huquqi beriladi.

Undan tashqari, chiqindixonaga aylangan yoki doimiy tarzda chiqindilar noqonuniy tashlab ketiladigan hududlarda yashovchi aholi o‘z tashabbusi bilan o‘zlarining mablag‘laridan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o‘rnatishlari mumkin. Shu tariqa huquqbuzarlikni aniqlab, xabar berganlar jarima miqdorining 20 foizi miqdoridagi pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi.

Qolaversa, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun jarima miqdorini oshirish hamda ushbu ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli bo‘lgan xom-ashyo yoki ma‘muriy huquqbuzarlikning bevosita ashyosini musodara qilish jazosini kengaytirish, chiqindilar to‘plash maydonchalari va ularning qo‘riqlanmaydigan (modulli) inshootlaridan chiqindilarni noqonuniy ravishda to‘plash va olib chiqib ketish uchun ma‘muriy javobgarlik kiritilishi ko‘zda tutilgan.

Kimyoviy, biologik va bakteriologik vositalardan foydalangan holda bino-inshootlar qurish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish va bu vaqtda atrof-muhitga zarar yetkazganlik, shu jumladan, ekinlarga, o‘rmonlarga, daraxtlarga yoki boshqa o‘simliklarga qasddan shikast yetkazganlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanadi.





Shuningdek, hujjatga asosan:


- Ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar tomonidan qayta ishlanishi to'g'risidagi ma'lumot ko'rsatilishi majburiy bo'lgan tovarlar ro'yxati va ularning belgilari tasdiqlab boriladi;
- chiqindilarni qayta ishlashni yoki ekologik xavfsiz tarzda utilizatsiya qilishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga "yashil subsidiya"lar ajratiladi;
- chiqindilar chiqindi yig'ish maydonchalarida "qayta ishlanadigan", "qayta ishlanmaydigan" va "oziq-ovqat" toifalariga ajratgan holda yig'iladi. Buning uchun aholi maxsus chiqindi paketlari bilan bepul ta'minlanadi. Qayta ishlanadigan qattiq maishiy chiqindilar chiqindi yig'ish maydonchalarida sanitar tozalash korxonalarini tomonidan sotib olinadi;
- 2030-yildan qayta ishlashga, termik usulda muqobil energiya ishlab chiqarishga yaroqli chiqindilarni maishiy chiqindi poligonlariga joylashtirish taqiqlanadi.

Farmonga ko'ra, Ekologiya vazirligi huzurida Ekosanitariya jamg'armasi tashkil etiladi. Maqsad sanitar tozalash sohasida favqulodda xatarlarning oldini olish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdir.

Bundan tashqari, har yili eng uzoq (kamida 10 yil) va sadoqatli xizmat ko'rsatgan sanitar tozalash korxonalarini xodimlari uchun "Tabiat uyg'unligi himoyachisi" tanlovi o'tkaziladi hamda ulardan 100 nafarining davlat OTMLariga to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan farzandlari yoki nevaralarining kontrakti Ekologiya jamg'armasi hisobidan to'liq to'lab beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdusattorov.J. Chiqindilarni saralash va qayta ishlash - davr talabi. Maqola // <https://uznature.uz/uz/site/page?numer=1185>
2. Xo'jayeva.M. Chiqindilarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish // <https://parliament.gov.uz/news/chiqindilarni-boshqarish-tizimi-yanada-takomillashadi>
3. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Farmoni – 2023 – 12- sentabr // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. Abduhakiov.A. Prezident farmoni: chiqindilarning ekologiyaga salbiy ta'siri kamaytiriladi. Maqola. 06.01.2024 // <https://uznature.uz/uz/site/news?id=3886>
5. Xolmo'minov. J. Mallayev. N. Ekologiya va atmosferani huquqiy muhofaza qilish: O'quv qo'llanma. – T.: TDYI, 2012
6. Naimjonov. M. Davlat va uning ekologik funksiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2002





QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Raimov O‘rozali Qurbonalievich


Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-kurs magistri

O‘zining tabiiy zaxiralari va yer sharoitlari tufayli Amerika Qo‘shma Shtatlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchi va eksportyorlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va tegishli sohalar 2021-yilda AQSH YAIMning 5 foizini tashkil etib, qiymati 1.055 trln.AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqardi. Umumiy agrar sohaning YAImga qo‘shadigan ulushi bundan ham katta bo‘lib, zero o‘rmonchilik, baliqchilik va shunga o‘xshash faoliyat turlari; oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari; to‘qimachilik, kiyim-kechak va charm buyumlar; oziq-ovqat va ichimliklar do‘konlari; va oziq-ovqat xizmati ham qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq sanaladi.

AQSH agrobiznesi kuchli ishchi kuchi, bozor hajmi va rivojlangan infratuzilmasi tufayli global bozorda asosiy raqobatchilardan biri sanaladi. 2022-yilda mamlakat qishloq xo‘jaligi eksporti 146 mlrd.AQSH dollarini tashkil etdi. Bugungi kunda mamlakat bo‘ylab 2 milliondan ortiq fermer xo‘jaliklari 900 million akrdan ko‘proq maydonda faoliyat yuritib, ularning 97 foizi oilaviy mulkka tegishlidir. AQSH Fermer xo‘jaliklarining asosiy xususiyatlaridan biri bu monokultura, ya’ni bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi sanaladi.

2022-yil yakunlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida 19.7 mln kishi band bo‘lib, bu umumiy bandlikning 10.3 foizini tashkil etadi. AQSH dunyoda makkajo‘xori yetishtirish bo‘yicha yetakchi mamlakat bo‘lib, Illinois, Indiana, Ayova, Missuri va Nebraska bo‘ylab “makkajo‘xori belbog‘i” o‘tgan. Shuningdek, mamlakat jahondagi eng katta mol go‘shiti ishlab chiqaruvchisi va bir vaqtning o‘zida importyori ham sanaladi⁴¹. AQSHda agrobiznesni qo‘llab-quvvatlovchi va qishloq xo‘jaligining innovativligini oshirishga qaratilgan bir nechta Federal dasturlar va resurslar bo‘lib, ularga Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi milliy instituti (NIFA),

⁴¹<https://www.clustermapping.us/cluster#clusters-list>; <https://www.clustermapping.us/cluster#related-clusters>.





1-jadval

AQSH agrosanoat klasterlari (tarmoqlar bo'yicha)

Klaster nomi	tarmog'i	Quyidagi klasterlari	Bog'liq klasterlar
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari xizmatlari	va	Qishloq xo'jaligi xizmatlari, Fermer xo'jaligini boshqarish va mehnat xizmatlari, o'g'itish va chiqarish	Yetkazib berish & savdo
Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash	va	Ixtisoslashgan oziq-ovqat ingredientlar, pishirilgan mahsulotlar, shirinliklar va shokolad, qahva va choy, qadoqlangan meva va sabzavotlar, sut mahsulotlari, hayvonlar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari, alkogolsiz ichimliklar va muz, solod ichimliklar, distillangan ichimliklar, vino ishlab chiqarish	Yetkazib berish & savdo, biofarmatsevtika
Baliqchilik		Baliq va baliq mahsulotlari	Yetkazib berish & savdo,
O'rmonchilik		O'rmonchilik	Yog'och ishlab chiqarish, mebelchilik
Charm va charm mahsulotlari	va	Shaxsiy charm buyumlar va chemodanlar, ayollar sumkalari, to'qimachilik sumkalari va kanvas buyumlari	Yetkazib berish-savdo; plastiklar ishlab chiqarish; oyoq kiyim ishlab chiqarish; tekstil; kiyim-kechak ishlab chiqarish; rekreatsion tovarlar ishlab chiqarish





Chorvachilik	Go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, chorvachilik mollari ulgurji savdosi	Yetkazib berish & e-savdo, plastiklar ishlab chiqarish
Tamaki ishlab chiqarish	Tamaki ishlab chiqarish	-
Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni qayta ishlash va tarqatish	Oziq-ovqat ulgurji savdosi, savdo va chakana savdo novvoyxonalari, chakana savdo do'konlari, tamaki chakana savdo do'konlari, pivo va likyor ulgurji savdosi, pivo, sharob va likyor chakana savdosi, sotish va to'g'ridan-to'g'ri sotish	
Ishlab chiqarish texnologiyasi va og'ir mashinalar klasteri	Qishloq xo'jaligi va qurilish mashinalari va tarkibiy qismlari	

AQSH Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA), USDA iqtisodiy tadqiqot xizmati federal statistikasi kabilarni kiritish mumkin. Agrosanoatning bir qismi sanaluvchi qishloq xo'jaligi va qurilish mashinalari va tarkibiy qismlari klasteri esa ishlab chiqarish texnologiyasi va og'ir mashinalar klasterining quyi tarmoqlaridan biri sanaladi.

AQSHda klaster tizimlari yaxshi rivojlangan va agrosanoat klasterlari ham keng tarqalgan. Mamlakat agrosanoat klasterlarini 1-jadvaldagidek tizimlashtirish mumkin bo'lib, AQSHda agrosanoat tarmog'i klasterlariga qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, baliqchilik, o'rmonchilik, charm va charm mahsulotlari, chorvachilik, tamaki ishlab chiqarish, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni qayta ishlash va tarqatish klasterlari tarmoqlari kiradi. O'z o'rnida mazkur klasterlar bir nechta quyi klasterlarga bo'linib, boshqa klaster tarmoqlari bilan hamkorlik qiladi.

AQSHda agrobiznes klasterlarini moliyalashtirish manbalari va ilmiy-tadqiqot institutlari yaqinligi sababli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida innovatsiyalar yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar amalga oshiriladigan asosiy





shtatlarga Kaliforniya, Illinois, Missuri, Minnesota, Nyu-York, Nyu-Jersi, Indiana, Kanzas, Ogayo va Ayova kiradi.

2-jadval

AQSH qishloq xo‘jaligi va xizmatlari klasterlarining ayrim ko‘rsatkichlari (shtatlar kesimida)⁴²

	Bandlik (kishi)		YAngi ish o‘rinlarini yaratish (kishi)		Ish haqi (\$ da)	
	1998	2018	1998-2018		2018	
AQSH	95,888	104,748	AQSH	8,860	AQSH	\$44,724
Kaliforniya	22,158	27,294	Kaliforniya	5,136	Luiziyana	\$84,955
Vashington	7,122	8,225	Oregon	1,664	Oklahoma	\$75,951
Florida	m/y	6,337	Vashington	1,103	Ayova	\$64,874
Texas	6,018	6,099	Ayova	1,037	Mississippi	\$60,648
Oregon	2,384	4,048	Viskonsin	1,029	Uta h	\$59,090

Quyidagi jadvalda AQSH qishloq xo‘jaligi va xizmatlari klasterlarining bandlik, ish haqi va yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi ko‘rsatkichlari bo‘yicha 5 ta yetakchi shtatlar haqida ma’lumot keltirilgan. 2-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 1998-2018-yillar davomida AQSH qishloq xo‘jaligi va xizmatlari klasterlari doirasida 8,860 ta yangi ish o‘rni yaratilib, 2018-yilda mazkur sohadagi agrosanoat klasterlarida 104,784 kishi band bo‘ldi. Klasterlarda bandlik hajmi bo‘yicha Kaliforniya, Vashington, Florida, Texas, Oregon yetakchi bo‘lsa, yangi ish o‘rinlarini yaratishda Kaliforniya, Oregon, Vashington, Ayova va Viskonsin ustunlik qilmoqda. Qiziqarlisi, bandlik bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turuvchi Texasda, so‘nggi yillarda mazkur sohada yangi ish o‘rinlarini yaratish hajmi past bo‘lib, 1998-2018-yillarda kutilgan 556 ta yangi ish joyi o‘rniga atigi 81 ta yangi ish o‘rni yatarilgandir.

Umuman olganda aytish mumkinki, AQSHda agrosanoat klasterlari xususiy sektorning tashabbusi natijasida tarixan mavjud bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarida vujudga kelib, bugungi kunda ular qishloq xo‘jaligining innovativligini ta’minlash, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri sanaladi.

⁴²<https://www.austrade.gov.au/australian/export/export-markets/countries/united-states-of-america/industries/agri-business-to-the-united-states>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


Mamlakatda klasterlashtirishning liberal modeli qo‘llanilib, klasterlar bozor iqtisodiyotining muhim instrumenti sifatida ham iqtisodiy ham ijtimoiy samara

Bugungi kunda, Yevropa mintaqasining 37 ta hududi agro-tekstilga ixtisoslashgan bo‘lib, ularda 79 ta klasterlar faoliyat olib borsa, agro-turizmga ixtisoslashgan 22ta hududda 18 ta klaster mavjuddir (1-rasm).

Agro-tekstilga ixtisoslashuv	Agro-turizmga ixtisoslashuv
<ul style="list-style-type: none"> • 37 hudud • 79 klaster • Asosan Janubiy va Sharqiy Yevropa davlatlarida, xususan Italiya (Shimoliy va Janubiy mintaqalardan 10 tadan hudud), Portugaliya, Ispaniya, Ruminiya va Bolgariya (har biri 5 ta hudud), Polsha (3 ta hudud), Portugaliya (3 ta hudud), Gretsiya, Litva, Avstriya va Vengriyadan bittadan hudud ixtisoslashgan 	<ul style="list-style-type: none"> • 22 hudud • 18 klaster • Asosan Janubiy Yevropa davlatlarida, xususan Gretsiya (3 hudud), Ispaniya (2 mintaq), Avstriya, Finlandiya, Kipr va Xorvatiyadan bittadan hudud.

1-rasm. YeI-27 mintaqalarining agro-tekstil hamda agro-turizmga ixtisoslashuvi (2021)

Quyidagi 3-jadvalda YeI-27ning agrosanoatga ixtisoslashgan hududlarining raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari agro-tekstil hamda agro-turizm ekotizimlari misolida keltirilgan. Yevropa Klaster Panoramasini 2021ga ko‘ra, mazkur ixtisoslashgan hududlarni raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari boshqa ixtisoslashuv tarmoqlari (energiya/sanoat, raqamli/kreativ/qurilish, sog‘liqni saqlash, elektronika/mobillik, ixtisoslashmagan/ diversifikatsiyalashgan)dagi klasterlarning ko‘rsatkichlaridan ancha past hisoblanadi. Xususan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YAIM mazkur ixtisoslashuv hududlarida 21-24 ming yevro atrofida bo‘lsa, kreativ sanoat/raqamli





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


texnologiyalar/qurilishga ixtisoslashgan hududlarda bu ko‘rsatkich 46 ming yevro atrofidadir. Shuningdek, bandlik darajasi ham kreativ sanoat/raqamli texnologiyalar/qurilish (75.2%), energetika/sanoatga ixtisoslashgan hududlarda (71.1%) yuqoriroqdir⁴³.

3-jadval

Agrosanoatga ixtisoslashgan hududlarning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Agro-tekstilga ixtisoslashuv	Agro-turizmga ixtisoslashuv
Klasterlar joylashgan hududlar soni	37	22
Klasterlar soni	79	18
Agro-oziq ovqat sanoatidagi o‘rtacha LQ	2.37	1.68
Alohi jon boshiga YAIM (PPP, yevro)	21.030	24.980
Uzoq-muddatli ishsizlik darajasi, %	3.8	6.7
Mehnat unumdorligi, %	49.8	55.6
Bandlik darajasi, %	64.2	63.6
1 mln.kishiga nisbatan PCT patentlar soni	32.9	16.9
YAshil PCT patentlar	7.7	1.8
Energiya ishlab chiqarishning bir birligiga to‘g‘ri keladigan CO2 emissiyasi hajmi	313.1	270.7
Biznesning ITTKI xarajatlari	0.82	0.85
Qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilgan energiya	46	61
Davlatning ITTKI xarajatlari	0.3	0.5
To‘liq o‘rta yoki oliy ma‘lumotli 25-64 yoshdagi aholi	69.6	70.3

⁴³ <https://www.austrade.gov.au/australian/export/export-markets/countries/united-states-of-america/industries/agri-business-to-the-united-states>





Hukumatning sifati	-0.9	-0.7
--------------------	------	------


Agrosanoatga ixtisoslashgan mazkur klasterlar joylashgan hududlar faqatgina yashil PCT patentlar bo‘yicha mintaqada yetakchi, energiya ishlab chiqarishning bir birligiga to‘g‘ri keladigan CO₂ emissiyasi hamda qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarilgan energiya ko‘rsatkichlariga ko‘ra esa yuqoriroq o‘rinlarni egallaydi. Yevropa Klaster Observatoriyasi ma’lumotlariga ko‘ra agrosanoat klasterlari ro‘yxati berilgan bo‘lib, ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va agro xizmatlar klasterlari, baliqchilik va baliq mahsulotlari klasterlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish klasterlari, o‘rmonchilik va yog‘och mahsulotlari klasterlari hamda chorvani qayta ishlash klasterlariga bo‘lingan. Fransiya, Ispaniya (Kataloniya), Italiya, Gollandiya, Polsha (Mazowieckie), Germaniya, Latviya (Latviya), Ruminiya (Centru) kabi mamlakatlarda agrosanoat klasterlari yaxshi rivojlangan bo‘lib, ularda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va agro xizmatlar klasterlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish klasterlari, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi klasterlari faoliyat olib bormoqda. Klasterlarning deyarli barchasi diversifikatsiyalashgan bo‘lib, faqat agrosanoatning bir yo‘nalishida faoliyat olib boradigan klasterlar kam sonli sanaladi. Ta’kidlash lozimki, Yevropa mamlakatlaridan Fransiya va Ispaniyaning agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish tajribasiga qisqacha nazar tashlash dolzarbdir.

Fransiyadagi samarador faoliyat ko‘rsatayotgan va raqobatbardosh agrosanoat klasterlaridan biri Fransiyaning Vegepolys Valley o‘simchilik klasteridir. Mazkur agrosanoat klasteri 2019-yilda qayta tashkil etilgan bo‘lib, 2005- yilda tashkil topgan Vegepolys klasteri hamda Céréales vallée-Nutrivita klasterlarini birlashishi natijasida vujudga kelgan⁴⁴. Klaster qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xizmatlari, bionazorat, aniq qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va boshqa xizmat turlari, barqaror qishloq xo‘jaligi, dekorativ o‘simchilikka

ixtisoslashgandir. Klaster Fransiya agrosanoatida muhim o‘rin tutuvchi Pays de la

Loire, Auvergne Rhône Alpes, Bretagne, Centre-Val de Loire mintaqalarida

⁴⁴<https://agriculture.gouv.fr/les-poles-de-competitivite>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

joylashgan. Luara vodiysi mintaqa aholisining 3.7 foizi qishloq xo'jaligida band hisoblanib, u yerda urug'chilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, manzarali bog'dorchilik, dorivor va xushbo'y o'simliklar, uzumchilik va sidr ishlab chiqarish kabi yuqori qo'shimcha qiymatga ega intensiv o'simlikchilik sohasida 4 mingdan ortiq firmalar faoliyat olib boradi. Bugungi kunga qadar klaster doirasida qiymati


2.2 mlrd. yevroga teng bo'lgan 750 dan ortiq innovatsion loyihalar amalga oshirilgan.

Klaster doirasida 506 ta firma faoliyat olib borib, ulardan 352 tasini KO'B vakillari (78 tasi start-up loyihalari), 37 tasini yirik korxonalar tashkil etadi. Klaster faoliyatida muhim o'rin tutuvchi aktorlarga yirik korxonalardan Vilmorin, Limagrain, KO'B dan Agrauxine firmasi hamda INRA ilmiy-tadqiqot instituti kiradi. Klasterning ilmiy-tadqiqot salohiyatida Angers, Clermont Ferrand, Nantes universitetlari, Agrocampus Ouest, ESA, AgroSup professional maktablari va 100 dan ortiq laboratoriyalar muhim o'rin egallaydi⁴⁵.

Ta'kidlash lozimki, klaster faoliyatining samaradorligini ta'minlashda iqlim va yer sharoitlari bilan bir qatorda mahalliy hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham muhim o'rin tutgandir. Klaster xalqaro doirada Chili, Xitoy, Kolumbiya, Meksika, mintaqaviy doirada esa Italiya, Gollandiya, Portugaliya, Ruminiya, Ispaniya bilan hamda Agri Sud-Ouest innovation, Terralia, Femac, Agrocluster, BIOMASTEC, CREA HYDRO&ENERGY, GREEN CHEMISTRY, GREEN SYNERGY CLUSTER, INBIOM, INNOSKART, AgroTransilvania Cluster, Agrifood Clust-ER, Greenport West-holland, Corporativa Tecnologica de Andalucia klasterlari bilan hamkorlik qiladi.

Mamlakatdagi yana bir yirik agrosanoat klasteri Agri Sud-Ouest Innovation klasteri hisoblanadi. Agri Sud-Ouest Innovation klasteri Fransiyaning janubi-g'arbiy mintaqasidagi qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va bioekonomiya sohalarida faol bo'lgan 400 dan ortiq xususiy va jamoat a'zolarini birlashtiradi. Klaster 2007-yilda notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda klasterda 430 ta korxonalar faoliyat olib boradi va ulardan 258 tasi KO'B vakillari sanaladi. Klaster doirasida INRAE,

⁴⁵ <https://agriculture.gouv.fr/les-poles-de-competitivite>






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

CIRAD ilmiy-tadqiqot institutlari, Montpellier Supagro, Bordeaux Sciences Agro universitetlari, Arterris, InVivo Group, Sygenta kabi firmalar faoliyat olib boradi. Klaster Argentina, Braziliya, Chili, Senegal va AQSHning bir qator klasterlari bilan hamkorlik qiladi va transmilliy darajada Germaniya, Italiya, Rumuniya va Ispaniya agrosanaot tarmoqlari bilan hamkorlik qiladi. Klaster doirasida 2007-2018-yillar oralig'ida 600 ta loyihalarni amalga oshirish orqali 335 mln.yevro davlat va mahalliy byudjetdan hamda 442 mln.yevro xususiy sektor investitsiyalari jalb etilgan. Klasterning 2019-2022-yillardagi ITTKI strategiyasi suv-iqlim-tuproq, chorvachilik va ekinchilikda barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash, fermer xo'jaliklari va fabrikalarning ekspluatatsion mukammalligini oshirish, biomassaning to'liq valorizatsiyasi, yaxshi ovqatlanish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan innovatsion foydalanish va xizmatlar kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi.

Yevropada shuningdek, Daniya sut va oziq-ovqat mahsulotlari klasteri, Norvegiyada o'rmonchilik klasteri, Shvetsariyada pishloq klasteri, Gollandiya gulchilik klasteri ham samarador faoliyat olib bormoqda. Misol uchun, Niderlandiya gulchilik klasteri faoliyatiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, mamlakatda gulchilik, ya'ni lola yetishtirish 1570-yillardan boshlangan va bugungi kunda mamlakat hissasiga global gullar eksportining deyarli 50 foizi to'g'ri keladi. Gollandiya gullar klasterining aksariyat ishtirokchilari ikki kuchli birlashmaning a'zolaridir: Gollandiya gullar kengashi va Gollandiya gul ishlab chiqaruvchilar uyushmasi. Ular bozor va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish uchun javobgar bo'lib, klasterga Gollandiyaning yetakchi qishloq xo'jaligi universitetlari yordam beradi. 2002-yilda sohani modernizatsiya qilish, klasterning ochiqligini oshirish, ekspert va fuqarolik ishtirokini kengaytirish, xalqaro hamkorlikni va tarmoqlararo sohalarni rivojlantirish maqsadida gullar klasteri akademiyasi tashkil etilgan.

Xitoy rivojlanayotgan mamlakatlar ichida klasterlashtirish yondoshuvini jadal targ'ib etayotgan mamlakatlardan biridir. Mamlakatda bugungi kunda oziq-ovqat sanoati, sabzavotchilik, gulchilik hamda chorvachilik klasterlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Xitoyda klasterlar asosan qishloq xo'jaligi, yuqori texnologik tarmoqlar va ishlab chiqarish sohaslarida tashkil etilgandir. Mamlakat klasterlarining geografik joylashuviga nazar tashlasak, ularning asosiy qismi mamlakatning sharqiy qismida





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


joylashganini ko‘ramiz. Klasterlarning katta qismi Jiangsu, Shanghai, Zhejiang, Fujian va Guangdong provinsiyalarida joylashgan bo‘lsa, zamonaviy qishloq xo‘jaligi klasterlari Shandun, Pekin, Chansheda rivojlangandir.

Xitoyda klasterlashtirish va sanoatning mahalliy konsentratsiyalashuvi o‘tgan asrning 80-yillarida maxsus iqtisodiy hududlarning shakllantirilishi bilan boshlandi. “Ochiq eshiklar” siyosati natijasida mamlakatning ba’zi hududlari xorijiy investorlar va xalqaro savdo uchun ochildi. 1989-yilda esa mamlakatda “bir shahar, bir mahsulot” rejasi amalga oshirila boshlandi va mamlakat hududlarida ishlab chiqarishning va aholining kamida 30 foizi aynan bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi belgilandi. Natijada bugungi kunda kelib Xitoy klasterlari deganda nafaqat ma’lum hududda to‘plangan sanoat korxonalari, firmalar, universitetlar, tadqiqot institutlari birlashmasi, balki butun boshli shaharlar ham tushuniladi. Umuman olganda mamlakatdagi agrosanoat aglomeratsiyalarining tadrijiy rivojlanishini 4 bosqichga bo‘lish mumkin⁴⁶ (1.10-rasm). 1.10-rasmdan ko‘rinib turganidek, Xitoyda agrosanoat klasteri tabiiy aglomeratsiyalarning biror turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi hamda qishloq xo‘jaligining sanoatlashuvi natijasida vujudga kelgan. Bu bosqichda ayniqsa mahalliy xalq kongresslarining roli kuchli bo‘lgan. Uy xo‘jaliklarining shartnoma bo‘yicha javobgarlik tizimi, bozor iqtisodiyoti tamoyillarining kengroq tadbiiq etilishi, soliq imtiyozlari, yerlarning meliorativ holatiga ko‘ra qanday turdagi mahsulot ishlab chiqarishga mosligini aniqlash va taqsimlash orqali keng miqyosli mintaqaviy qishloq xo‘jaligi vujudga keldi.

Ta’kidlash lozimki, klasterlarni shakllantirishning “xitoycha modeli” “fransuzcha” yondoshuvga asoslanadi hamda biznes hamkorlik rasmiy tuzilmalar homiyligi ostida amalga oshiriladi. Xitoy klaster modelida klasterlarni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashda hukumat muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatda klaster siyosati ham markaziy ham mahalliy hukumat tomonidan ishlab chiqiladi.


Ta’kidlash joizki, XXRda agro klasterlar borasidagi tadqiqotlar XXI asrning

⁴⁶Jankowiak A. Cluster-based development: a Chinese cluster policy // Research papers of Wrocław University of Economics. – Wrocław: Wydawnictwo Uniwersytetu Ekonomicznego we Wrocławiu, 2017. – No. 486. – P. 76-77.






boshlaridan, xususan 2003-yildan keyin boshlangan. G'arbiy mamlakatlardagi qishloq xo'jaligi klasterlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, Xitoyda tadqiqotlar hali ham boshlang'ich davrda bo'lib, ko'pgina tadqiqotlar qishloq xo'jaligidagi klasterlarni aniqlash, shakllantirish mexanizmi, tasnifi va muammolari, shuningdek qishloq xo'jaligidagi hukumatning roli masalalariga bag'ishlangan.



2-rasm. Xitoyga agrosanoat klasterlarining shakllanish bosqichi sxemasi

Bugungi kunda Xitoy qishloq xo'jaligi tarmog'i zamonaviy qishloq xo'jaligini rivojlantirish bosqichidadir. Qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish Xitoyda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha uzoq muddatli maqsadni amalga oshirish uchun eng muhim rivojlanish strategiyalaridan biri sifatida qabul qilingan. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi klaster qishloq xo'jaligini sanoatlashtirishning rivojlanish shakli, qishloq xo'jaligidagi klasterni rivojlantirish esa agrar sektorni rivojlantirishning ichki talabi, agrar sektorning o'sishida muhim yondashuvdir. Iqtisodchi olimlar Xitoyda qishloq xo'jaligi klasterlarining shakllanishiga olib keladigan real asoslar va omillarni tahlil qilganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi, qishloq xo'jaligini sanoatlashtirishdagi yutuqlar va fermerlarning tadbirkorlik faolligi, qishloq joylaridagi tadbirkorlik, agro-oziq-ovqat







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

mahsulotlariga bo‘lgan talab, bozor raqobati, qishloq xo‘jaligi resurslarning notekis taqsimlanishi kabi omillarini keltirib o‘tadilar.

Xitoyda agro klasterlarning bir nechta turlari bo‘lib, klasterlar dominant ishtirokchisi, tarkibi va rivojlanish muhitiga ko‘ra turlarga ajratilgandir (2-rasm). Bunda ayniqda “ajdar boshli korxonalar”larning mavjudligi o‘ziga xos bo‘lib, ular asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yoki tarqatishga ixtisoslashgan va fermerlarga bozorga chiqishni tashkil eta oladigan kompaniyalar sanaladi. Qayd etish lozimki, XXR iqtisodiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida ham keng xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ygandir. Xitoy YeIning Yevropa strategik klaster hamkorligi – “Going international (ESCP-4i)”da ishtirok etuvchi 7 ta maqsadli tanlangan davlatlardan biri sanalib, hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sanaladi⁴⁷.

⁴⁷ Jankowiak A. Cluster-based development: a Chinese cluster policy // Research papers of Wrocław University of Economics. – Wrocław: Wydawnictwo Uniwersytetu Ekonomicznego we Wrocławiu, 2017. – No. 486. – P. 76-77.





3-rasm Xitoyda agroklasterning turlari va tiplari

Iqtisodchi E.Lining fikricha mamlakatda agroklasterning rivojlanishi qishloq xo'jaligining aglomeratsiyalari, ixtisoslashgan qishloqlarning sanoat klasterlariga aylanishi va qishloq joylarida ham innovatsion polyuslarning vujudga kelgani natijasida yuzaga kelgan. Ayni damda aynan innovatsion tizim fermalarning rivojlanishi, agrosanoat klasterlarining shakllanishida muhim bo'lib, agro innovatsion tizim agrosanoat klasterlarining yetuklik darajasini belgilab beradi. Shuningdek, hukumatning moliyaviy yordami sanoat klasterining innovativligiga ulkan ta'sir o'tkazib, agrosanoat klasterlarining rivojida ham muhim rol o'ynaydi.

Ammo, ta'kidlash joizki, mamlakatda qishloq xo'jaligi klasterlarining





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

rivojlanishi bilan bog‘liq bir qancha muammolar ham mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkindir:

- klaster o‘zining aniq mintaqaviy xususiyatlariga ega emas hamda ko‘pincha bir xil yoki o‘xshash sanoat tarmog‘i mavjudligi klaster ichida haddan ziyod raqobatga olib keladi;

- kuchli raqobatbardosh, bozorga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish uchun katta miqdordagi kichik fermerlarni tashkil qilish uchun kuchli imkoniyatlarga ega qishloq xo‘jaligini boshqaradigan ajdar boshli korxonalar yetishmaydi;

- qishloq xo‘jaligi klasterlarida texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati hali ham zaif va texnologiya darajasi hali ham past darajada;

- klasterning ichki tashkiliy qobiliyati zaif, ichki foydali biznes muhitini yaratish qiyin. Qishloq xo‘jaligi klasteri ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlik yetishmaydi va klasterning sinergetik ta‘sirini kamaytirgan holda, o‘zaro bog‘liqlik yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan;

- qishloq xo‘jaligi korxonalari ko‘pincha moliyaviy institutlar tomonidan moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Qo‘llab-quvvatlovchi muassasalar va kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan.

Umumiy qilib aytish mumkinki, Xitoy klaster siyosati o‘ziga xos bo‘lib, bunga mamlakat siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy tizimining o‘ziga xosligi sababdir. Shuning uchun ko‘pgina iqtisodchi olimlar Xitoy klaster modelini boshqa

mamlakatlarda qo‘llash murakkab deb hisoblaydi. Xitoy klaster siyosatida asosiy figura bu hukumat bo‘lib, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish mahalliy va markaziy hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda agrosanoat klasterlarining faol rivojlantirilishiga global miqyosda tabiiy resurslarning kamayishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talabning keskin o‘sishi va qattiq raqobatning mavjudligi sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini barqaror yetkazib berish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini oshirish muhimdir. Xitoyda agro klasterlar esa aynan shu maqsadda kengaytirilmoqdadir.


Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda AQSH, Yevropa mamlakatlari hamda Xitoyning agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlarini qiyosiy tahlili berilgan. Mazkur jadvalda mamlakatlarning klaster





modellari xususiyatlari, agrosanoat klasterlarining xususiyatlari hamda klasterlar yaxshi rivojlangan hududlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Undan ko'rishimiz mumkinki, AQSH, Yevropa mamlakatlarida va Xitoyda qishloq xo'jaligini klasterlashtirish o'tgan asrning 90-yillaridan faol qo'llanila boshlangan. AQSHning klaster modeli geografik yaqin joylashgan korxonalar, hududiy ixtisoslashuv asosidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi bilan xarakterlansa, Yevropa modeli turli xil mahsulotlar ishlab chiqaruvchi raqobatdosh firmalarning chegaralangan hududda to'planishi, xorij uchun maxsus marketing siyosatini yuritish bilan tavsiflanadi. Xitoy modeli esa "fransuzcha" yondoshuvga asoslanadi hamda biznes hamkorlik rasmiy tuzilmalar homiyligi ostida amalga oshiriladi. Ta'kidlash lozimki, har 3 ta mintaqada ham klasterlar raqobat ustunliklari mavjud bo'lgan sohalarda aholining uzoq yillik qishloq xo'jaligini yuritish tajribasi asosida shakllangandir. Mamlakatdagi raqobatbardosh qishloq xo'jaligi klasterlaridan biri Shouguang, Xitoydagi eng mashhur sabzavot ishlab chiqarish hududi sanaladi. Bugungi kunda mazkur klaster doirasida 40 ming gadan ortiq issiqxonalarda yiliga 8 mln.tonnadan ortiq sabzavot yetishtiriladi. Shouguang sabzavotchilikka ixtisoslashtirilishidan avval, ya'ni o'tgan asrning 80-yillariga qadar Xitoydagi eng kambag'al provinsiyalardan biri bo'lgan bo'lsa, hozirda agroklasterning vujudga kelishi natijasida nafaqat Xitoy balki dunyoning yirik sabzavotchilik klasterlaridan biri hisoblanadi. Shouguang klasterining shakllanish jarayoni 4 bosqichni o'z ichiga oladi. Shouguang klasterining rivojlanish evolyutsiyasiga qarab aytish mumkinki, uning raqobatbardosh bo'lishida boshqa mamlakatlardagi kabi mahalliy aholining ixtisoslashgan mahsulot yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha uzoq yillar davomida to'plagan tajribasi muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, klaster shoshilinch ravishda emas balki bosqichma-bosqich rivojlantirilib, keyin xalqaro bozorga chiqqandir. YA'ni, agrosanoat klasterining vujudga kelishidan boshlab yirik, faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan klaster darajasiga yetguncha juda qisqa vaqt emas, balki bir necha o'n yilliklar kerak bo'ladi.

Xitoydagi yana bir samarador agroklasterning biri Dounandagi Chenggong gullar klasteridir. Bugungi kunda ushbu klasterda Xitoy gul bozoridagi deyarli 70 foiz gullar yetishtiriladi. Hududda klaster effektining vujudga kelishida nafaqat gulchilik an'analari balki, Dounan hududida ko'chatchilik, yoritish tizimlarini ishlab chiqaruvchilar, sug'orish inshootlari, issiqxona va bog'dorchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan ko'plab kompaniyalarning to'planishi evaziga erishilgandir. 1995- yilda





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Chenggong provinsiyasi mahalliy hokimiyati tomonidan 0.8 ga yerda birinchi gul bozori qurilgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, davlat-xususiy sherikchilik asosida 70

ga yerda Dounan Gulchilik Sanoat parki shakllantirildi. Bu esa klaster doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmini oshirishga xizmat qilmoqda⁴⁸.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda Xitoyda chorvachilik klasterlarini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda va bu borada Qishloq xo'jaligi vazirligining "Afzallik berilgan hudud dasturi" muhim rol o'ynaydi. 11 ta tovar turlari qamrab olingan ushbu dasturga qoramol, qo'y go'shti va echki go'shtini yetishtirish va qayta ishlash, shuningdek chorvachilikning katta qismini rivojlantirish masalalari ham kiritilgandir.

Umuman olib aytish mumkinki, agrosanoat klasterlari Xitoyda ko'p sonli aholini, ayniqda qishloq joylaridagi ishchi kuchini ish bilan ta'minlash, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va jahon bozorlariga Xitoy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirish instrumenti sifatida qaraladi va markaziy hukumat hamda mahalliy hokimiyat organlari raqobatbardosh agrosanoat klasterlarini shakllanishi va rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Jankowiak A. Cluster-based development: a Chinese cluster policy // Research papers of Wrocław University of Economics. – Wrocław: [Wydawnictwo Uniwersytetu Ekonomicznego we Wrocławiu](#), 2017. – No. 486. – P. 76-77.

2. Jankowiak A. Cluster-based development: a Chinese cluster policy // Research papers of Wrocław University of Economics. – Wrocław: [Wydawnictwo Uniwersytetu Ekonomicznego we Wrocławiu](#), 2017. – No. 486. – P. 76-77.

3. Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. –Rome, 2013. –P.37.


4. <https://www.clustermapping.us/cluster#clusters-list>;

5. [https://www.austrade.gov.au/australian/export/export-markets/countries/united-states-of-](https://www.austrade.gov.au/australian/export/export-markets/countries/united-states-of-america/industries/agri-business-to-the-united-states)

[america/industries/agri-business-to-the-united-states](https://www.austrade.gov.au/australian/export/export-markets/countries/united-states-of-america/industries/agri-business-to-the-united-states)

6. <https://agriculture.gouv.fr/les-poles-de-competitivite>

⁴⁸ Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. –Rome, 2013. –P.37.





ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИНИ КРЕДИТЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Хўжагелдиев Чоршанби Пардаевич

PhD

Алимқулов Акмал.

Термиз иқтисодиёт ва сервис университети 2-курс магистранти

Хорижий мамлакатларда инвестиция фаолиятини билвосита қўллаб-қувватлашда тижорат банклари кредитларидан фойдаланиш ананавий усул ҳисобланиб, тадбиркорларни молиявий ресурслар билан таъминлаш имконини беради. Давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлаш даражасида фермерларни кредитлаш амалга оширилади, кўплаб мамлакатларда уларнинг молиявий аҳволини барқарорлаштириш учун иқтисодиётнинг аграр соҳасини кредитлаш бўйича махсус дастурлар қабул қилинган.



⁴⁹ Марказий банк йиллик статистик бюллетени.2021 й.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Улар фермерларга кредит беришнинг давлат тизимини (шу жумладан, банклар ва бошқа кредит ташкилотлари иштирокида) ташкил этишни, фермерларга кредит олиш ва тўлаш учун имтиёзли шарт-шароитларни яратишни, қишлоқ хўжалиги деҳқонлари кооперативларидан маблағ ва қисман капитални фаол жалб қилишни агробизнес компаниялари кредитлаш тизимини таъминлайдилар⁵⁰.

Ушбу расмдан кўриш мумкинки, тижорат банклари томонидан йўналтирилган кредитлар улушида саноат 2020 йилда 30206 млрд сўмни ташкил этган бўлса, 2021 йилда 37 169 млрд сўмни ташкил этди. Пандемиянинг жаҳондаги салбий таъсирини юмшатиш, корхоналарни ишлаб чиқариш самарадорлигини бир меъёрга сақлаб туриш учун санот соҳасига йўналтирилган кредитлар миқдори камаймади. Бунга мос равишда қишлоқ хўжалигига ажратилган кредитлар миқдори 2020 йилда 14168 млрд сўмни, 2021 йилда эса 16643,5 млрд сўмга ошганлигини кўриш мумкин. Асосан саноатни ривожланиши қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажмига боғлиқлигини эътиборга олсак, бу икки соҳани айри ҳолда тасаввур қилиш мумкин эмас.

Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини кредитлаш қатор молиялаштириш усуллари орқали амалга оширилади. Хар бир молиялаштириш усули узига хос хусусиятларига эга бўлганлиги сабабли, бир усул иккинчи усулнинг ўрнини тўлиқ боса олмайди.

Халқаро банк амалиётида қишлоқ хўжалигини банклар томонидан кредитлашнинг қуйидаги усуллари кенг қўлланилади:

-қишлоқ хўжалиги субъектларини банкларнинг ўз маблағлари эвазига кредитлаш;

-банк кредитлари бўйича қисман кафолатлар тақдим қилиш;

-қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларига тақдим қилинаётган кредитлар фоиз ставкасини субсидиялаш;

-Банклар билан ҳамкорлик қилувчи тегишли қишлоқ хўжалигини молиявий қўллаб-қувватлаш муассасаларини ташкил этиш.

Амалиётда кенг тарқалган усуллардан бири, қишлоқ хўжалиги субъектларини банкларнинг ўз маблағлари эвазига кредитлаш ҳисобланади.

⁵⁰ Манба: <http://www.hist.msu.ru/Labs/Ecohist/OB8/poberej.htm> Модернизация: теоретико-методологические подходы






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Ушбу ҳолатда банклар берадиган кредит фоиз ставкалари юқорироқ бўлиб корхоналар учун ортиқча харажатни келтириб чиқаради. Бундай ҳолатда давлат субсидиялари қишлоқ хўжалиги корхоналарига тўланади. Ушбу усулнинг устун жиҳатлари субсидияларни тўлаш имконияти кредитлаш муддати охирида амалга оширилиши ва ишлаб чиқарувчиларни назорат қилиш имкониятини мавжудлиги билан белгиланади. Умуман олганда кредит субсидиялари кредит олувчиларининг ўзларига салбий таъсир ўтказиши, яъни арзон кредитларга эга бўлиш ишлаб чиқарувчиларни самарали ишлаб чиқариш таркибини шакллантиришни рағбатлантирмайди.

2. Банк кредитлари бўйича қисман кафолатлар тақдим қилиш усули ўтиш даври иқтисодиётидаги мамлакатлар қишлоқ хўжалиги корхоналари дуч келаётган гаров мулки етишмаслиги муаммоси пайдо бўлган шароитда фойдаланилади. Ҳозирги шароитда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларга бериладиган давлат кафолатлари муҳим рол ўйнайди. Айниқса, ишлаб чиқариш ҳажмининг пасайиб кетиши, ер бозорининг ривожланмаганлиги аграр секторда гаров муаммосини юзага келишига сабаб бўлади. Бундай шароитда давлат маълум мақсадда гаров ўрнини ўз кафолатлари билан алмаштиради.

3. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларига тақдим қилинаётган кредитлар фоиз ставкасини субсидиялаш. Кредит субсидияларининг шакллари билан бири бу кредитнинг маълум қисмини бюджетдан тўлаб беришдир. Аммо бир қатор хориж давлатлари бу амалиётни табиқ этмайдилар. Чунки, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларда боқимандалик кайфиятини келтириб чиқарувчи ҳолат деб тушунадилар.


4. Банклар билан ҳамкорлик қилувчи тегишли қишлоқ хўжалигини молиявий қўллаб-қувватлаш муассасаларини ташкил этиш. Бу усул жаҳондаги кўпгина ривожланган мамлакатлар амалиётида кенг тарқалган ва ривожланаётган мамлакатлар учун хос бўлган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни молиялаш усули ҳисобланади. Таъкидлаб ўтиш мумкинки, муваффақиятли фаолият олиб болаётган барча махсус муассасалар тарихан кооператив сифатида давлат кўмаги ёки иштироки асосида шаклланган. Ушбу ташкилотнинг асосий муваффақияти





1-расм. Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларини қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағларини шаклланиши

Олинган кредит бўйича барча аъзоларининг жамоавий жавобгарлиги ҳисобланади. Бундай муассасалардан кенг тарқалгани бу суғурта компанияларидир. Суғурта қишлоқ хўжалигини самарали молиялаштиришнинг элементларидан бири бўлиб ҳисобланади. Хориж давлатлари тажрибасига таянадиган бўлсак, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни суғурталашни суғурта лойиҳаларини давлат томонидан субсидияламасдан туриб амалга ошириб бўлмайди. Давлат учун қишлоқ хўжалиги субъектлари кредитор мажбуриятларининг бажарилмаслиги ёки тартибсиз қайтарилиши муаммосига дуч келганидан кўра қишлоқ хўжалиги суғурталашини чекланган субсидия схемаси билан таъминлаши анча фойдалироқдир.





Қишлоқ хўжалигини ривожланишида давлат томонидан ишлаб чиқилган дастурлар ва молиявий ресурслар билан таъминлашда таъкил этилган жамғармалар истиқболли аҳамият касб этади.

АДАБИЕТЛАР

1. Кузиева.Н. Хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналар молия ва кредит механизмини такомиллаштириш йўллари. –Т.: «Iqtisod-moliya», 2006, 296 б.
2. Алтиев А.С., Ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. 2018. –277 б.
3. Рудой Е.В. Совершенствование государственной поддержки сельскохозяйственного производства на уровне региона/Е.В.Рудой, С.А.Шелковников, А.Т. Стадник и др. - Новосибирск: Прометей, 2009. -С. 56-59
4. Петухова М.С. Теоретические основы государственной поддержки воспроизводства в сельском хозяйстве / М.С. Петухова //Теория и практика современной аграрной науки: сб. Национал.(Всерос.) науч.Конф.-2011.-125 с.
- 5.
6. Боговиз А.В. Государственное регулирование сельскохозяйственного производства в рыночной экономике /А.В. Боговиз. - Барнаул: Изд-во Алт. гос. ун-та. - 2005. - Серия: Управление корпорацией. - 120 с.
7. МакНотон Д., Барлтроп К. Банковские учреждения в развивающихся странах. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР МБРР, 1994. – С. 176-178.
8. Лаврушин О.И.Банковское дело. –М.:КноРус, 2008.-768 с.
9. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. - Т.: Молия, 2002.-320 б.
10. Хужакелдиев Ч.П. Суғориладиган қишлоқ хўжалиги ерлари унумдорлигини оширишни рағбатлантириш. - Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т.: 2022. –6-8 б.
11. Scott J.A., Dinkelberg W.C., Dennis W.J. Credit, Banks and Small Business – the New Century – Washington: NFIB Research Foundation, 2003. – 96 p.
12. Craig B.R., Jackson W.E., Thompson J.B. Small-Firm Credit markets, SBA – Guaranteed Lending, and Economic Performance in Low-Income Areas. – Federal Reserve Bank of Cleveland. – January 2006. – 40 p.





THE NUTRITIONAL VALUE OF CAULIFLOWER AND ITS MAIN BENEFITS

Pirimqulova Muxabbat Xayitovna


Pirimqulova66@b.k.ru

cauliflower, producing leaves, florets, cabbage, growing, transplanted, ripens, cultivate, bunch, nutritional value, Health benefits of cauliflower, blood pressure, risk of cancer, losing weight, carbohydrate.

цветная капуста, образующая листья, соцветия, капуста, выращивание, пересадка, созревание, выращивание, гроздь, пищевая ценность, польза цветной капусты для здоровья, кровяное давление, риск рака, похудение, углеводы.

The cauliflower is an annual plant, vegetable crop belonging to the cauliflower-cabbage family. After producing 15-20 leaves, it forms a head (300-500 g) in the upper part of the stem. The head consists of many short florets, and its shape (large and small, degree of growth) depends on the type of cauliflower and growing conditions. After the head of cabbage is formed, some of the stems continue to grow, turning into inflorescences, flowers and seeds. The flower is white or yellow. Cauliflower is biologically similar to ordinary cabbage, but it cooks faster. After the seedling is transplanted, the head of cabbage ripens in 50-60 days. It contains 7-3.3% dry matter, 1.2-4.4% sugar, 1.5-3.7% protein, 0.7-0.8% mineral substances. Vitamin C and A, potassium, iron, phosphorus salts are more than in ordinary cabbage. It is dipped in the mentioned egg and fried, the soup is a delicious and diet food, canned food is prepared. Cauliflower is resistant to cold (-3-5°), its seedlings are planted in spring (March) and summer (July) in a scheme of 60x30, 70x35 cm. The spring one ripens in May-June, the summer one in October-November. For quality ripening, the leaves are tied in bunches on the head or the head is shaded with broken leaves. It is cultivated in all regions of Uzbekistan.

Cauliflower's delicious taste and excellent nutritional value have made it a truly desirable product, and major food companies and restaurants around the world have paid special attention to it. Cauliflower is among the many foods that are loved, it eases





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

the digestion process through carbohydrates. In this article, we will present to you the unknown features of this product. The nutritional value of cauliflower is as follows:

calories: 25 kcal;
sodium: 30 mg;
carbohydrates: 5 grams;
fiber: 2 grams;
sugar: 2 grams;
Vitamin C: 100 percent;
potassium: 8 percent;
calcium: 2 percent;
iron: 2 percent.

Cauliflower is rich in vitamins and minerals: vitamin B5 - 13.3%, vitamin B9 - 14.3%, vitamin C - 53.6%, vitamin K - 12.9%, potassium - 12%

- Vitamin B5 participates in protein, fat, carbohydrate metabolism, cholesterol metabolism, a number of hormones, hemoglobin synthesis, ensures the absorption of amino acids and sugar in the intestines, supports the work of the adrenal cortex. Lack of pantothenic acid can cause damage to the skin and mucous membranes.


- As vitamin B6 coenzymes, they participate in the metabolism of nucleic acids and amino acids. Folate deficiency leads to disruption of nucleic acids and protein synthesis, resulting in inhibition of cell growth and division, especially in rapidly proliferating tissues: bone marrow, intestinal epithelium, etc. Inadequate intake of folate during pregnancy is one of the causes of premature birth, malnutrition, birth defects and developmental disorders of the child. There is a strong correlation between folate and homocysteine levels and the risk of cardiovascular disease.

- vitamin C participates in oxidation-reduction reactions, the functioning of the immune system, stimulates the absorption of iron. Deficiency causes loose and bleeding gums and nosebleeds due to increased permeability and fragility of blood vessels.

- vitamin K regulates blood clotting. Lack of vitamin K leads to an increase in blood clotting time, a decrease in the amount of prothrombin in the blood.

- forms potassium, which is the main intracellular ion involved in the control of water, acid and electrolyte balance, nerve impulses, pressure regulation.

- Health benefits of cauliflower





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Despite its plain white color, cauliflower is rich in vitamins and contains various phytochemicals and antioxidants. This nutrient provides health benefits including:
Reduces the risk of inflammation

Antioxidants in cauliflower help protect cells from damage and oxidative stress that lead to chronic diseases. Also, one of the conducted studies proved an inverse relationship between the consumption of vegetables such as cauliflower and the risk of developing a number of chronic diseases.

- Reduces the risk of cancer

While neither product has been linked to tumor prevention or growth, cauliflower contains a compound called sulforaphane that may help stop abnormal cell growth. However, eating large amounts of these vegetables can reduce the risk of all kinds of chronic diseases.

- Helps regulate blood pressure

One study found that sulforaphane, a compound found in cauliflower, was also associated with lower blood pressure. In addition, studies have shown that cruciferous vegetables play a major role in preventing heart disease.

- Protects the bone

Cauliflower is rich in vitamin K, which is essential for bone mineral density and blood clotting.

- Increases immunity

One serving of cauliflower contains 100 percent of the daily value of vitamin C, which helps support the immune system and plays a special role in repairing DNA in the body. Vitamin C protects against infection and even stimulates the formation of antibodies to fight diseases.

- Does cauliflower help you lose weight?

Cauliflower is a great choice for those trying to lose weight, given its low calorie content. By choosing cauliflower, you can significantly reduce your calorie and carbohydrate intake, while it also contains extra fiber to help keep you full. In addition, more than 90 percent of cauliflower consists of water.

Conclusion: Cauliflower, like all vegetables, is a carbohydrate. However, it is a complex non-starchy variety that is high in fiber and low in sugar. Cauliflower contains one-sixth the carbohydrates of a bowl of cooked pasta or rice, making it a great choice for diabetics or those watching their blood sugar. Highly processed carbohydrates like





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

white bread, white rice, and white pasta contain fewer nutrients than other alternatives. But cauliflower's nutrients have antioxidant and anti-inflammatory properties.

REFERENCES

1. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower Growing Technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.
2. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI."
3. "O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.18 (2023): 209-212.
4. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich, and Jumayev Islom Bobomurod o'g'li. "O'ZBEKISTONNING O'RTA MAVSUMDAGI GULKARAM NAVLARI."
5. Примкулова, Мухаббат Хайитовна, et al. "МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСТЕНИЯ ПАМИДОР, СОПТА." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.19 (2023): 69-74.
Mazkur agrosanoat klasterlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 31-martdagi 253-son Qaroriga muvofiq tashkil etilib, faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mavjud paxta-to'qimachilik klasterlari orasidan hududi jihatdan eng yiriklaridan biri "Buhoro Agro Klaster" MChJ bo'lib, u 45700 ga maydonni egallaydi va 7 ta tumanni klasterga birlashtiradi. Buxoro viloyatida shuningdek, yana bir yirik agroklasterni "WBM Romitex" paxta-to'qimachilik klasteri ham joylashgandir. Singapurning "Indorama" MChJ xorijiy korxonasi Qashqadaryoning Kasbi va Nishon tumanlarida 25 ming ga, Sirdaryoning Sardoba va Oq-Oltin tumanlarida ham 25 ming ga teng yer maydonida agrosanoat klasteri tashkil etgan bo'lsa, yana bir yirik paxta-to'qimachilik klasteridan bo'lgan "Baxt tekstil" Navoiy viloyatida faoliyat olib boradi.

Meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda "Meva- sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, meva-sabzavot va uzun mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishda klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Uzumchilik va vinochilik sohasida esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5200 son Qarori asos bo'lib, unga ko'ra mamlakatimizda 2021-2024-yillarda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Klaster faoliyatining huquqiy va tashkiliy tomoniga nazar solsak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 53-sonli qaroriga ko'ra "Buhoro agro klaster" paxta- to'qimachilik ishlab chiqarish jarayonining ishtirokchisi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash davlat fondi hisobidan paxta-xom ashyosini yetishtirish va yetkazib berishni moliyalashtirish uchun yillik 3 foiz miqdoridan ortiq bo'lmagan stavkada kredit olish huquqiga ega. Klaster faoliyatida mahalliy hokimiyatning alohida o'rni bo'lib, u klasterga paxta yetkazib beruvchilarni aniqlaydi, yetkazib beruvchilar hamda agroklasterni o'rtasida shartnomani imzolashga ko'maklashadi. Shuningdek, klaster o'z faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan 22 turdagi tovarlarni bojxona chegarasidan boj to'lamasdan olib kirish imkoniga ega. Shu bilan bir qatorda, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-martdagi «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga ko'ra klaster tasdiqlangan agrotexnologik xarita doirasida tadqim etilgan lgotali kredit vositalaridan erkin foydalanish huquqiga ega hamda agroklasterni tomonidan fermer xo'jaliklariga taqdim etilgan yoqilg'i-moy maxsulotlari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qiluvchi vositalar, defoliantlar va boshqa kimyoviy vositalar soliq solish obyekti sanalmaydi. Umumiy qilib aytganda, hukumat tashabbusi

orqali tashkil etilgan mazkur agrosanoat klasteri faoliyatini yo'lga qo'yish uchun ko'plab imtiyozlar berilgandir.

Mamlakatimizda klasterlashtirish keng joriy qilinayotgan yana bir yo'nalish meva-sabzavotchilik sohasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil

29-martdagi "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra 2018-yilda har bir hududda 1-2 ta meva-sabzavot klasterlari tashkil etish va meva- sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan barcha tumanlarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning klasterli shakliga jalb etish belgilangan. Shuningdek, Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasiga muvofiq yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida meva-sabzavot klasterlari tashkil etilmoqda.






2-rasm. Meva-sabzavotchilik klasterlarining quvvatlari (2022-yil)

Bugungi kunda bu turdagi klasterlar 10 ming nafar fermer xo‘jaliklari bilan 85,5 ming gektar yer maydonlarida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha fyuchers shartnomasi asosida ish olib borilmoqda. 48 ta klasterlarda quvvati 927,8 ming tonna bo‘lgan qayta ishlash zavodlari, 27 ta klasterlarda quvvati 265,9 ming tonna bo‘lgan mahsulotni saralash va qadoqlash, 18 ta klasterlarda quvvati 203,2 ming tonnalik mahsulotni quritish, 7 ta klasterda 32,2 ming tonnalik mahsulotni shok usulida muzlatish hamda 126 ta klasterlarda quvvati 265,7 tonnalik oddiy va muzlatkichli omborxonalar mavjud (2.2-rasm).

Shuningdek, klasterlarda 24,5 ming ga mahalliy, 10,8 ming ga intensiv bog‘ va 25,6 ming ga tokzorlar mavjuddir²⁸⁵. Mazkur klasterlar tomonidan 2020-yilda 114 mln.AQSH dollarlik 124 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti amalga oshirildi.

Ta’kidlash kerakki, meva-sabzavotchilik klasterlarini tanlash jarayoni bir qancha masalalarni qamrab olib, mahsulotlarni eksportga yo‘naltirganlik ko‘rsatkichi, infratuzilmaning mavjudligi (omborxonalar, sovutgichlar, q/x texnikasi va sh.k.), bilim va malaka (boshqaruv, f/x bilan kooperatsiya) inobatga olinsa, klaster bilan ishlash mexanizmi klasterlarni fermer xo‘jaliklari bilan kooperatsiya tamoyili bo‘yicha birlashtirish, o‘quv kurslarini tashkil etish, bog‘, uzumzorlar, sabzavot-poliz ekinlar joylashtirish xaritalarini tuzish hamda klasterlarni yangi bozorlarga chiqishi bo‘yicha aniq dasturini ishlab chiqish va joriy etish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi. Meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini olib borishda Qishloq xo‘jaligi vazirligi, tuman hokimliklari hamda fermerlar bilan 3 tomonlama






shartnomani imzolaydilar. Shartnomada tomonlarning hamkorlik shartlari va asosiy majburiyatlari ham keltirilgan bo‘lib, dissertatsiya ishining 4-ilovasida shartnoma shartlari yoritilgan. Undan xulosa qilish mumkinki, meva-sabzavotchilik klasteri faoliyatini yo‘lga qo‘yishda Qishloq xo‘jaligi vazirligi umumiy qo‘llab-quvvatlash tizimini tashkil etsa, tuman hokimliklari klasterlar va fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. O‘z o‘rnida fermer xo‘jaliklari meva-sabzavotlarni shartnomada ko‘rsatilgan tartibda yetishtirib bersa, klasterlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish ishlarini amalga oshiradilar. Shu qatorda ta‘kilash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra agroklasterni shakllantirish bo‘yicha yangi tartib belgilangan. Umumiy qilib aytish mumkinki, meva sabzavotchilik va uzumchilik klasterlari faoliyatini tashkil qilishda ham boshqa agrosanoat klasterlari singari mahalliy hokimiyat organlarining ishtiroki katta bo‘lib, ular klasterlar va yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi, klasterning eksport imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etadi.

3-rasm. G‘allachilik klasterlari quvvatlari (2022)

O‘zbekistonda klasterli yondoshuv qo‘llanilayotgan uchingi yirik soha bu g‘allachilikdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Boshoqli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 24-sentabrdagi qaroriga ko‘ra, 2020-yil hosildan boshlab boshoqli don yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari bilan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik xo‘jaliklari va boshoqli don mahsulotlarini qayta ishlovchi tashkilotlar tomonidan boshoqli donni yetishtirish yoki shartnoma asosida xarid qilish orqali g‘allachilik klasterlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.





O‘zbekistonda g‘allachilik klasteri ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish)ning zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, boshqoli don yetishtirish yoki uni shartnoma asosida sotib olish, saralash, saqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ichki va tashqi bozorga yetkazib berishni ta‘minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-martda «Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.


5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 24-sentabrda qarori.

6. Yu M., Calzadilla J., Lopez J., Villa A. Engineering agro-food development: The cluster model in China // Agricultural Sciences. –Rome, 2013. –P.37.

7. <https://www.clustermapping.us/cluster#clusters-list>;

8. <https://www.austrade.gov.au/australian/export/export-markets/countries/united-states-of-america/industries/agri-business-to-the-united-states>

9. <https://agriculture.gouv.fr/les-poles-de-competitivite>





Хаскашнинг харакат йўналиши бурчагини аниқлаш

Р. Р. Каримов , И.Е. Мусурмонов , Р.М.Чориев ва Ш.Ш.Сафаров

Термиз мухандислик-технология институти.

АННОТАЦИЯ

Мақолада хаскаш ишчи органининг диаметри, бурчак тезлиги, ўзгарувчан тезлик йўналиши билан халқанинг айланиш тезлиги орасидаги бурчак, халқани координаталар системасида кўчиб тезланиши, бармоқни учининг абсолют тезлиги, сомон қайта ўриш баландлиги, такомиллашган хаскашнинг қамров кенглиги ва халқалар сони, назарий тадқиқотда ўрганилди .


Калим сўзлар; чорва озуқа базаси, буғдой, арпа, сомон, дағал хашак, халқаси мон хаскаш, суғориш жўяги, бармоқ, халқа, сутум, ички халқа, халқаси мон хаскаш, сегментли бармоқ, сегмент.


КИРИШ

Республика Президентининг ”Чорвачиликни янада ривожлантириш ва чорва озуқа базасини мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида” қарорида Республикада чорвачилик соҳаси ва тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022-2026 йилларга мўлжалланган дастур тасдиқланди. Мазкур тадқиқот иши юқорида келтирилган дастурда бир қанча вазифаларни бажаришга муайян даражада хизмат қилди. Ушбу дастурга кўра, буғдой ва арпадан олинган сомон қора кимол, қўй ва эчларга дағал хашак сифатида самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этди. [1;2].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Таклиф этилаётган қурилмада ўргич ўрнатилган сомон йиғувчи бармоқли - халқаси мон хаскашдан иборат, у тўртта бармоқли - халқалар суғориш жўякига нисбатан мослаштирилган (1-расм) ва ўргичли хаскашни ташкил қилди. Ўргичнинг харакат йўналишига перпендикуляр бўлиб хаскашнинг рамаси ўргичга нисбатан маълум (β) бурчак остида жойлашади ва харакат йўналишига нисбатан $\pi - \beta$ бурчакни ташкил қилди [3]





1 -расм. Хаскашнинг ишлаш схемаси:

1-махкамлаш элементи; 2- бармоқ; 3-халқа; 4- сутум; 5-ички халқа; 6- бармоқли халқасимон хаскаш; 7- ўрич; 8-сегментл бармоқ; 9- сигмент; 10- тутқич. Бармоқли-халқасимон хаскаш 6 даги ички халқа 5 га маҳкамлаш элементи 1 орқали тутқич бириктирилган ва унга халқа 3 ўрнатилди. Халқа 3 га бармоқ бурчак остида ўрнатилган ва ички халқа 5 халқа 3 га 4 сутум орқали бириктирилди, шунингдек бармоқли халқасимон хаскаш 6 рама орқали ўргич 7 га бурчак остида ўрнатилган. Ўргичнинг ҳаракат йўналишига перпендикуляр ва унга (β) бурчак остида бармоқли халқасимон хаскаш 6 нинг рамаси ўрнатилди. Халқа 3 ички халқа 5 сутум 4 орқали эркин айланувчи ўққа втулка орқали кийгизиб маҳкамланган. Бармоқ 2 айланиш текислигида жойлашган сомонни ҳаракат йўналишига қарши суғориш жўягининг тубидан пуштасига силжитади.

Ҳар бир бармоқ 2 лар халқа 3 га пружина ёрдамида маҳкамланган ва бармоқ 2 орқали тупроқ билан илашиш кучи ҳосил қилди ва айлантирди, тезлик (V) нинг миқдори эса ўзгарди.

ХОУ координаталар текислигида O_1 ва O_2 ўқ атрофида айланувчи I ва II бармоқли-ҳалқаларнинг горизонтал текисликдаги проекциясининг траекторияси ҳосил қилинди ва бармоқ траекторияси қуйидагича

R -бармоқ учидан хаскашнинг айланиш ўқиғача бўлган масофа, 0,7-1,4 mm;

ω - такомиллашган бармоқли-халқасимон хаскашнинг бурчак тезлиги, 0,9- 1,9 r/sek;





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

γ -ўзгарувчан тезлик йўналиши билан ҳалқанинг айланиш тезлиги орасидаги бурчак, $24-44^\circ$ grad.

Ҳалқанинг O_1 айланиш ўқи координата ўқининг бошланишида жойлашди. Ҳалқа XOZ- координата - текислигида соат стрелкасига тескари йўналишда айланди. Бармоқнинг ҳаракат тенгламаси эса тупроқ билан ишқаланиш кучи ҳисобга олмаган ҳолда қуйидагича ифодаланади[8].

$$\begin{cases} x = Vt \cdot \cos \alpha + R \cdot \cos \omega t \\ y = Vt \cdot \sin \alpha \\ z = R \cdot \sin \omega t \end{cases} \quad (1)$$

Координата ўқида бармоқ абсолют тезлигининг проекцияси:

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = V \cdot \cos \alpha - \omega \cdot R \cdot \cos \omega t \\ \frac{dy}{dt} = V \cdot \sin \alpha \\ \frac{dz}{dt} = \omega \cdot R \cdot \sin \omega t \end{cases} \quad (2)$$

Бармоқ учининг абсолют тезлигини сомонни йиғишда секин айланганда нобудгарчилик ошиб борди, меъёрдан ошиб кетганда сомон узилиб синишига олиб келди.

Бармоқ учининг абсолют тезлиги:

$$V_{ab} = \sqrt{v^2 + \omega^2 \cdot R^2 - v \cdot \omega \cdot \cos \alpha \cdot \sin \omega t},$$

Учбурчак тезлигидан фойдаланиб, бармоқнинг айланма тезлиги аниқланди:

$$v = \omega \cdot R = v \cdot \cos \alpha \cdot \sin \omega t,$$

Бундан

$$v = \omega \cdot R = v \cdot \cos \omega t, \quad (3)$$

(3) ифодадан абсолют тезликнинг қиймати аниқланди:

$$V_{ab} = \omega \cdot \sqrt{1 + \cos^2(1 - 2 \cdot \sin \omega t)} \quad (4)$$

Бармоқнинг абсолют тезлиги $v t = 90^\circ$ да

$$v_{ab} = v \cdot \sin \alpha$$





Бармоқнинг тўпроқдан сомонни ажратиб олиб, уюм ҳосил қилиш шарти қуйидаги кўринишда ҳосил бўлди, яъни $h > H$ бу ерда H сомонни қайта ўриш баландлиги, mm. Буғдой ва арпа экиладиган далалардаги суғориш жўягининг баландлиги, mm

$$h = O_1A_1 - O_1A_1 \cdot \cos \frac{\varphi_0}{2} = R \cdot (1 - \cos \frac{\varphi_0}{2}) .$$

Горизонтал текисликдаги I халқанинг A_1 бармоғи проекцияси қуйидаги эгри чизикни ташкил қилди, яъни $a \cdot a' \cdot a'' \cdot a''' \cdot a'''' \cdot a'$ ва a'' нуқталарни эса ўриш баландлигига кириш ҳамда ундан чиқишда A бармоқ ҳосил қилди.

Халқа II нинг бармоғи B_n нинг горизонтал текисликдаги $b_n \cdot b'_n \cdot b''_n \cdot b'''_n \cdot b''''_n$ проекциялари ҳамда бармоқ A нинг траекториясига ўхшайди. Бармоқ b'_n ҳолатдан b_n ҳолатга a'' нуқтада ўтди ва сомонни уюмлаш ҳолати b' участкада давом этди.

Бармоқ b_n ҳолатга нуқтада ўтади ҳамда учинчи халқа бармоғи сомонни уюмлаш жараёни бошланди.


Сомонни уюмлаш ҳолати бошланганда эса бармоқли-халқада жараён бошланди. $a'' \cdot a'''$ ва $b'_n \cdot b''_n$ участкаларда траектория ўзгаришига яқин тўғри чизик бармоқли - халқа айланиш ўқиға параллел. Ўзгарувчи тезлик (V) йўналиши орасидаги ε бурчак ва сомон уюми йўналиши ўриш баландлиги бўйича етарли даражада аниқ топиш мумкин. Бармоқларни V_{ab} абсолют тезликлик йўналишига асосан, сомонни хаскашлаш жараёни бошланди. Бармоқ A энг пастки ҳолатида $a' \cdot a''$ траекториянинг ўрта нуқтаси a'' га уринма йўналди.

ОХ ўқ йўналиши ҳамда a'' нуқтада A бармоқ траекториясига уринма ω t орасидаги бурчак қуйидагига тенг, яъни:

$$\Theta = \alpha + \varepsilon$$

$$tg \Theta = \frac{dy}{dt} = \frac{v \cdot \sin \alpha}{v \cdot \cos \alpha - \omega \cdot R \cdot \sin \omega t}$$

$$\omega \cdot R = v \cdot \cos \omega t \text{ га тенг.}$$





$$tg\Theta = \frac{tg\alpha}{1 - \sin\omega t}$$

Бундан ҳосил бўлган бурчакнинг $\Theta = 90^0$ максимал қийматидан $\omega t = 90^0$ га тенг ҳамда берилган α бурчак эса $\varepsilon = 90^0 - \alpha$ орқали аниқланади. Сомонни уюмлаш баландлиги эса бармоқни уюмлашга кириш ҳамда чиқиш ва бурчак α нинг миқдорига боғлиқ ва $tg\Theta$ ифода учун ω , нинг ўрнига $90^0 - \frac{\varphi_0}{2}$ бурчакнинг қиймати қўйилса, у холда

$$tg\Theta = \frac{tg\alpha}{1 - \sin(90^0 - \frac{\varphi_0}{2})} = \frac{tg\alpha}{1 - \cos\frac{\varphi_0}{2}}$$

Сомонни уюмлашда даланинг тозалик шартига асосан $h > H$, суғориш жўякидаги пуштанинг баландлиги қуйидагича аниқланди: (4) ифодадаги $(1 - \cos\frac{\varphi_0}{2})$ нинг ўрнига h/H нисбатан қуйидаги ҳосил бўлади.

$$tg\Theta = \frac{R}{h} \cdot tg\alpha \tag{5}$$

Бугдой ва арпа сомонларини уюмини йиғиштиришда халқанинг ҳаракат йўналишига нисбатан бурчак β -нинг қиймати $35-40^0$ дан ошмаслиги керак, шунингдек ε бурчакнинг назарий қиймати $\varepsilon = 55 - 60^0$

-га мос келди. Бурчак β -нинг қийматини иш тезлиги 12 km/soat гача текис рельефлардаги сомон уюми эса ташишсиз ёки узилган ҳолатда бўлди ҳамда машинанинг ҳаракат йўналишига кўндаланг жойлашади ва сомон уюмида поянининг ўзак қисми томон юқорида жойлашиб учи эса пастда жойлашди, унинг бўйи ва эни тенг бўлди.

Сомон уюмини шакллантиришда қўлай шароит ҳосил қилиниб, унинг ўлчамлари узунликларининг бир хиллиги таъминланади ва бу эса Республиканинг юқори ҳароратли вилоятлари ва туманларида анча қўлайдир.

Такомиллашган бармоқли-халқасомон хаскашнинг В камраш кенглиги ва сомон уюмини пайдо бўлиш йўлининг давомийлиги қуйидагича аниқланди.



Демак, камраш кенглиги қуйидагига тенг.

$$B = b \cdot n = 2 \cdot R \cdot \sin \frac{\varphi_0}{2} \cdot \sin \alpha \cdot n \quad (6)$$

бу ерда n - бармоқли – ҳалқасимон ишчи органли такомиллашган бармоқли-ҳалқасимон хаскашдаги ҳалқалар сони 2-4 дона.

Бурчак φ_0 нинг қиймати сомонни уюмлаш жараёнида бугдой ва арпалар ҳосилдорлиги ҳамда пояннинг тик ҳолатдаги узунлиги ва қўшни ҳалқаларнинг ўзаро етарлича жойлашиши қуйидагича ифодаланади, яъни:

$$l_\varepsilon = a_1'' \cdot a_1''' \cdot n = \frac{b \cdot n}{\sin \varepsilon} = \frac{2 \cdot R \cdot \sin \frac{\varphi_0}{2} \cdot \sin \alpha \cdot n}{\sin \varepsilon} \quad \text{ёки}$$

$$l_\varepsilon = \frac{B}{\sin \varepsilon} \quad (7)$$

Сомонни уюмлаш жараёнида ҳалқада жойлашган бармоқлар тупроққа тегиб сирпанади ва унинг назарий айланишлари эса камаяди, яъни $V = v \cdot \cos \alpha$ ва бурчак ҳамда сомон уюмининг шаклланиш сифати пасаяди. [10]


ХУЛОСА

Бугдой ва сомонларни хаскаш ёрдамида йиғиштиришда, ҳалқанинг ҳаракат йуналишига нисбатан бурчак назарий йўл билан аниқланганда $\beta = 35-40^\circ$ дан ошмаслиги керак, бунда машина тезлиги $V_m = 12$ км/соат бўлганда, сомон уюмининг шаклланиш сифати ошади.

АДАБИЁТЛАР

1. А.Н.Карпенко, В.М.Халанский. ”Сельскохозяйственные машины” Москва. 1989 б.520

2. Маматов Ф.М., Қаршиев Ф.У., Ғайбуллаев Б.Ш, Каримов Р.Р. Со-монажратгич қурилмасининг ўлчамлари ва иш режимини асослаш. //”Юқори самарали қишлоқ хўжалик машиналарини яратиш ва техник воситаларидан фойдаланиш даражасини оширишнинг инновацион ечимлари”





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

мавзусидаги халқаро илмий-техник конференцияси илмий мақолалар тўплами.
ҚХМИТИ.

Тошкент. 2022.-Б.300-305.

3.Mamatov F. M., Karimov R. R., Gapparov Sh. H., Karshiev F. U., Chorev R. M. Determination of the canonical working body of the straw chopper. //Annual international scientific conference on Agricultural Engineering and Green Infrastructioture Solutions (AEGIS-2022)./National Research University “Tashkent institute of Irrgation and Agricultural Mechanization Engineers”(NRU “TIAME”). Tashkent.2022, -pp- 38-43.

4.Karimov R.R., Abdullaev I.E.,Ishmuratov Sh.S.,Ergashev R.D.Resear-
ching the work of mini - grinder for rough fodder.//International Journal of
Advanced Research in Science. Engineering and technology.Vol.6, Issue 4, April
2019.-pp 8658-8662.

5.Karimov R.R. Researching the work of mini- grinder for rough
fodder.//European Journal of Business Social Scieces.ISSI: 2235-767X, https:
//ejbss.org, 2019,-pp 35-42





ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIK TERMINOLOGIYASIDA POLISEMIYA HODISASI

Axmedova Aynura Quanishbay qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi

aynuraaxmedova345@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada antroposentrik paradigma, uning mohiyati, zamonaviy yo'nalishlari, o'ziga xos terminlari haqida so'z yuritilgan. Terminlar o'rtasida polisemiya hodisasi "kod" termini orqali ochib berilgan, fikrlar misollar orqali dalillangan.

Abstract: This article discusses the anthropocentric paradigm, its essence, modern directions, and specific terms. The phenomenon of polysemy between terms is revealed by the term "code", and the ideas are proved by examples.

Аннотация: В данной статье рассматривается антропоцентрическая парадигма, ее сущность, современные направления и конкретные термины. Явление многозначности между терминами раскрывается термином «код», а идеи доказываются примерами.

Kalit so'zlar: antroposentrizm, zamonaviy lingvistik sohalar, termin, o'zlashma, polisemiya, monosemiya, baynalmilal, semema, terminologik lug'at.

Key words: anthropocentrism, modern linguistic fields, term, assimilation, polysemy, monosemy, international, sememe, terminological dictionary.

Ключевые слова: антропоцентризм, современные лингвистические поля, термин, ассимиляция, полисемия, моносемия, интернациональная, семема, терминологический словарь.

Til insonlarni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi eng katta in'omlardan biridir. Uzoq yillar mobaynida til va jamiyat, til va inson alohida o'rganilib kelindi. Lekin o'tgan asrga kelib dunyo tilshunosligida til va insoniyatga ajralmas yaxlitlik, bir butunlik sifatida qarash shakllandi, ya'ni tilning inson tafakkurining mahsuli, o'zida muayyan til egasining bilimlarini, lisoniy ko'nikmalarini, tajribalarini saqlovchi vosita ekanligiga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Natijada XX asrning oxirgi yillarida





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

tilshunoslikda tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganish usuliga asoslangan va o'ziga xos tahlil usullariga ega antroposentrik paradigma paydo bo'ldi. Antroposentrizm so'zi lotincha "antropos" – odam va "centrum" – markaz so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan bo'lib, uning mohiyati: har qanday tadqiqotning markazida inson, ya'ni til sohibi turishidir. Til nafaqat til sohibining bilimlarini, ko'nikma, tajribalarini saqlaydi, shuningdek u o'zida shaxsning dunyoqarashini, tafakkur tarzini, ruhiy holatini, axloqi, hayot tarzini, milliy mentalitet, milliy madaniyat, qadriyatlarni ham aks ettiradi. Shu sababli bugungi kunda antroposentrik lingvistikaning lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, aksiolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalari ajralib chiqdi. O'ziga xos ehtiyojlar sababli mazkur zamonaviy lingvistik sohalari ham o'ziga xos lug'at tarkibini, terminologik tizimini shakllantirdi.

Tilshunoslikda yangi paradigma – antroposentrizmga oid ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrlarda o'zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Buning natijasida zamonaviy tilshunoslik sohalariga oid ilmiy terminlar ham keng ko'lamda tezlik bilan o'zbek tiliga o'zlashdi: *lakuna, konsept, sikript* kabi. Birin-ketin tilshunoslikning ushbu sohalari bo'yicha tadqiqot metodlari yaratildi, bir qator dissertatsiya, monografiya, o'quv qo'llanmalar nashr etildi. Jumladan, antroposentrik sohalarga oid muammolar o'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, D.Xudoyberganova, Sh.Safarov kabi olimlar tomonidan keng ko'lamda o'rganildi. Hozirda ham bu tadqiqotlar davom etmoqda.

Ta'kidlaganimizdek, antroposentrik tilshunoslik an'anaviy tilshunoslikdan farqli ravishda o'ziga xos terminologik tizimiga ega bo'ldi. Ma'lumki, o'z navbatida termin ham umumadabiy leksikadan farqlanadi. Termin qaysi tildan o'zlashgan bo'lsa, tilga o'sha ma'noda, ya'ni monosemali bo'lib o'zlashadi. Keyinchalik tildagi har xil o'zgarishlar sababli unga yangi ma'nolar qo'shilishi mumkin. Ayniqsa, ilmiy terminlar bir ma'noli – monosemali bo'lishi lozim. Chunki terminlar semantik jihatdan maxsus tushunchalarni ifodalaydigan, ularning har biri o'z ma'nosiga ko'ra unikal bo'lgan, umumadabiy so'zlardan bir ma'noliligi, aniqligi, sistemaliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turuvchi so'z yoki so'z birikmasidir [1]. Demak terminga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning monosemali bo'lishidir. Lekin bugungi sohalari terminologiyasida aynan bitta termin bir nechta ma'nolarni ifodalashda foydalanilayotgani hech kimga sir emas. Xususan, *aksentuatsiya* termini tilshunoslikda quyidagi ma'nolarni ifodalashda ishlatilmoqda: 1. So'z yoki gapdagi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ma'lum qismlarni urg'u yordamida ajratish; 2. Tilning urg'u sistemasi; 3. Matnda urg'uni belgilash [1]. Mazkur holatlar terminlarni qo'llashda yoki ularni tushunishda chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday terminlarni juda ko'plab topish mumkin. Birgina tilshunoslik sohasida polisemantik ilmiy terminlar soni anchagina. Bu bir tarafdin salbiy oqibatga olib kelsa, ikkinchi tarafdin ijobiydir, ya'ni ushbu hodisa terminologiyada tejamkorlikka sabab bo'lib, tilda terminlar sonining keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Xususan, yuqorida ta'kidlangan terminning uchta ma'nosini uchta alohida termin bilan atashga hojat yo'q, ya'ni natijada ikkita termin tejalgan.

Ma'lumki, polisemiya umumadabiy, mahalliy leksikaga xos asosiy xususiyatlardir. Ular tilning boyligini, ifoda imkoniyatlarini oshiradi. Biroq terminologik tizimda leksik-semantik hodisalar, xususan polisemiya hodisasi adabiy tildagi kabi ko'p hajmda bo'lmagani maqsadga muvofiqdir. Lekin terminlarning aksariyati bugungi kunda polisemiya tashqari omonimlik, sinonimlik, antonimlik, graduonimik qatorlarni tashkil qilmoqda. Masalan, *tasnif-klassifikatsiya*, *termin-atama*, *semema-ma'no* kabi terminlar aynan bitta tushunchani ifodalaydi. Albatta, bunday parallel tarzda ishlatilayotgan terminlarning bittasi ruscha-baynalmilal o'zlashma sanaladi. Bugungi kunimizda ham lug'at boyligimizdan o'zlashmalarning muqobili qidirilmasdan, uni to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirish holati oshib bormoqda. Bu esa tilda o'zlashmalarning, baynalmilal terminlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi terminologik lug'at boyligimiz hajmi sezilarli darajada katta. Albatta leksemalarni, terminlarni tartibga solib turuvchi asosiy qurol lug'atlardir. Bugungi kunda ko'plab sohalarda o'zlarining alohida izohli lug'atlariga ega. Masalan, "Tarix terminlari izohli lug'ati", "Yuridik terminlar lug'ati", "Tibbiy terminlar izohli lug'ati", "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kabi. Ushbu lug'atlarda agar termin polisemiya bo'lsa, ma'nolari raqamlar bilan har bir lug'at maqolasida ko'rsatiladi. Zamonlar o'tishi bilan muayyan terminlarga qo'shimcha ma'nolar yuklanadi. Bu holat esa izohli terminologik lug'atlarni yangilab turishni taqazo etadi. Bugungi o'zbek tilshunosligida zamonaviy lingvistik sohalarga oid tadqiqotlarning ko'payishi natijasida termin va uning ko'plab ma'nolari ham o'zlashdi. Jumladan, qo'shimcha semalari hajmining ko'pligi bo'yicha umumadabiy leksikadagi ayrim polisemiya leksemalardan qolishmaydigan terminlardan biri *kod* terminidir. Bu baynalmilal terminning ma'nolarini izohlashda ensiklopedik va izohli lug'atlarga murojaat qilamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu terminga quyidagicha izoh berilgan: "fr. Code,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

lot. Codex – qonunlar majmui. Aloqa (telegraf, telefon, radio kabilar), avtomatik boshqarish tizimlarida, EHM (elektron hisoblash mashinalari)da istalgan axborotlarni uzatish, qayta ishlash va saqlash uchun qo‘llaniladigan, ma’lum tartibdagi shartli belgi, ramzlar yoki signallar tizimi. *Telegraf kodi.*” [2] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida esa mazkur terminning beshta ma’nosi keltirilgan: 1) turli axborotlarni ifodalovchi shartli belgilar tizimi; 2) raqamli hisoblash mashinalari (RHM) va dasturlar tayyorlash uchun qo‘llaniladigan shartli belgilar tizimi; 3) telemexanikada – ma’lumotlarni aloqa kanali orqali uzatish uchun mo‘ljallangan signallar tizimi; 4) astronomiyada – kometalar, yangi va o‘rta yangi yulduzlar kashf qilinganligi, sayyoralarda noyob hodisalar kuzatilganligi va b. haqida rasadxonalar va astronomik telegrammalar xalqaro markaziy byurosi orasida o‘zaro telegraf axborotlari almashishda qo‘llaniladigan so‘z va raqamlar tizimi; 5) harbiy sohada – harbiy mazmundagi maxfiy ma’lumotlarni yashirin uzatish uchun qo‘llaniladigan shartli belgilar tizimi. Shartli belgilar shtablar tomonidan tuzilishi, raqamli, harfli va maxsus belgili bo‘lishi mumkin[3]. Demak, mahfiylik, yashirinlik, maxsus belgilardan iboratlik ushbu terminning asosiy xususiyatlaridir. Termin mazkur ma’noda tilshunoslik sohasiga ham o‘zlashdi va bugungi zamonaviy lingvistik yo‘nalishlarda, tadqiqotlarda faol tarzda foydalanilmoqda. Jumladan, kod termini kompyuter lingvistikasida maxsus belgilardan iborat jumlar ma’nosida qo‘llaniladi. Bugungi kunda kompyuter lingvistikasida milliy korpus yaratish, lingvistik saytlar, axborotni saqlovchi, yetkazib beruvchi har xil dasturlar, elektron izohli va murakkab tezaurus lug‘atlar ishlab chiqish kabi amaliy ishlar bajarilmoqda. Bu kabi vazifalarda, albatta, kodlar eng muhim elementlardir. Bunda kodlar muayyan raqam va harflar ketma-ketligidan iborat bo‘ladi. Masalan, elektron lug‘atlar yaratish jarayonida lug‘atning izohlanayotgan har bir so‘ziga mutanosib keluvchi kodlar ishlab chiqiladi va unda so‘zning barcha zaruriy morfologik, sintaktik, leksik xususiyatlari jamlangan bo‘ladi: “katta” so‘zi o‘rniga *K0083* kodi ishlatiladi.

Sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi sohalarda kod termini boshqacha talqin qilinadi. Bunda u muloqot vositasi bo‘lib, tabiiy tillar (o‘zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun’iy tillar: esperanto, zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kod deyilganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.[9]






Kognitiv tilshunoslik til va tafakkur munosabatini, tilning takakkur mahsuli ekanligini o'rganuvchi tilshunoslikning yangi sohasidir. Bunda ham kod tafakkurimizdagi so'zlar – obrazlarga nisbatan ishlatiladi. Kognitiv tilshunoslikda UPK (universal predmet kodi) degan tushuncha bor. Borliqdagi har qanday predmet, tushunchalar ongimizda muayyan obrazlar sifatida yashaydi. Masalan, “gul” bir kishi uchun “atirgul” bo'lsa, boshqasi uchun “rayhon”, yana biri uchun “lola”. [5] Ko'ringanidek, umumlashgan va qisman mavhumlashgan obraz har bir shaxsda individuallashadi. Lekin ular tafakkurda barcha uchun bir xil kod – ramziy belgi (“gul”)ni hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, terminlar o'rtasida nafaqat polisemiya, balki deyarli barcha leksik-semantik hodisalar: antonimiya, sinonimiya, omonimiya, graduonimiya, giponimiya kabilar ham uchraydi. Bu kabi holatlarni lug'atlarda ko'rsatish, ilmiy terminlar uchun maxsus polisemantik, omonimik, antonimik lug'atlar yaratish kabilar terminologik tizimni tartib solishda, takomillashtirishda muhim bo'lgan amaliy vazifalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 83.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 386.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. XIV tomlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – B. 469.
4. Rashidov T.R. Politexnika lug'ati. – Toshkent, 1989
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. – B. 16.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008
7. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013
8. Toirova G. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
9. Usmonova Sh va boshq. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2014. – B. 79.
10. Usmonova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2014
11. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2020
12. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015
13. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013





Ingliz tilidagi biznes atamalar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalenti
I.A.Jabborov Angren Universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrası
Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Biznes dunyosida muvaffaqiyatli bo'lish uchun juda ham ko'p atamalar va ularning qo'llanish vaziyati va sharoiti borki bu so'zlar har qanday gullab yashnayotgan biznes asoslarini tashkil etadi. Biznes uchun har doim kerakli bilimni bo'lishi talab etiladi aks holda siz chuv tushib qolishingiz yoki yangi hamkorlarni hafsalasini pir qilishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Atamalar, salomlashish, tarjima, foyda, kompaniya, pul oqimi, Invesititsiyani foydasi, marketing, branding, inson resurslari, ta'minot tizimi, liderlik, strategic rejalashtirish.

Abstract. In the business world, there are so many terms and contexts for success that these words form the basis of any thriving business. For business, it is always necessary to have the necessary knowledge, otherwise you can get lost or disappoint new partners.

Keywords: Terms, greeting, translation, profit, company, cash flow, return on investment, marketing, branding, human resources, supply system, leadership, strategic planning.

Абстракт. В деловом мире существует так много терминов и контекстов успеха, что эти слова составляют основу любого процветающего бизнеса. Для бизнеса всегда необходимо обладать необходимыми знаниями, иначе можно потеряться или разочаровать новых партнеров.

Ключевые слова: Термины, приветствие, перевод, прибыль, компания, денежный поток, рентабельность инвестиций, маркетинг, брендинг, человеческие ресурсы, система снабжения, лидерство, стратегическое планирование.

Bugungi kunda globallashuv dunyoning turli burchaklaridagi insonlarni birlashtirish bilan birga ularni suhbatini tushunishni osonlashtirish uchun butun dunyo xalqlari orasida yagona bo'lgan bir tilga ehtiyoj yuzaga keldi. Bu til aynan Ingliz tili bo'lib chiqdi va u hozir dunyodagi eng asosiy muloqot tili bo'lib xizmat qilyapti. Xitoy tili va hind tilida ham ko'p gaplashiladi, ammo ular ingliz tili kabi global miqyosda gaplashilmaydi aynan mana shu ustunligi sababli dunyo biznesi tili ham Ingliz tili





hisoblanadi. Kembrij Lug'ati tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan yangi atamalar ham ko'p hollarda biznesga oid so'z bo'lib qolyapti. Bu atamalar xalqaro biznesdagi insonlar tomonidan ishlatiladiki oddiy insonlar ularni tushunishi ham qiyin ba'zi paytlarda. Tilde erkin muloqot qila olish biznesni 70 foizga foydaliroq bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi. Agarda biznesga oid so'zlarni chiroyli tarzda yetkazib berilmasa, u holda biznes olamida muvaffaqiyat aniq deyish qiyin. Har qanday brend misol uchun Toyota ham o'z mahsulotini muvaffaqiyatli startini boshlash uchun unga ingliz tilidagi ravn va tushunarli reklama hamda bozorni chayqash uchun kuchli brend siyosati muhim. Bu siyosat ingliz tilida olib borilmasa Toyotani Yaponiyani o'zidan boshqa davlatda sotishi mushkul ish hisoblanadi. Brend siyosatini ham olib boruvchi inson ingliz tilida puhta va lo'nda gapira oladigan va har bir so'zini dona dona talaffuz qiladigan odamga ehtiyoj har doimgidan ham ko'proq. Bu inson esa biznes tilidagi atamalarni yaxshi tushunadigan va tahlil qilib bozorga munosib reaksiya bildiradigan shaxs bo'lishi kerak. Misol tariqasida quyidagi atamalarni keltirishimiz mumkin:

ABAC: Business advisory council. O'zbek tiliga biznes maslahat kengashi deya tarjima qilinib, bu tashkilotga 1995 yilda asos solingan. ABAC doimiy faoliyat yurituvchi kengash bo'lib, har bir a'zo firma yoki kompaniyadan uchtagacha yuqori martabali ishbiarmonlardan iborat bo'lib, ABAC harakat rejalarini amalga oshirish va biznes sektorining boshqa ustuvor yo'nalishlari bo'yicha maslahatlar beradi. ABAC aynan holda ishlatilib ko'pincha hollarda boshqa tillarga tarjima qilinganda ham shu holda ishlatiladi⁶⁵.

Muloqotda esa siz uni albatta qisqartmasi bilan ishlatganingiz foydali chunki ko'p biznesmenlar ABAC ni yoyma ko'rinishini ishlatishmaydi va siz ham ta'rif berishingizni o'rni qolmaydi.

Ability to pay: Qarz oluvchining qarzlari bo'yicha foizlar va asosiy qarzlarni to'lash qobiliyati. Bunda har qanday investor yoki bank qaysidir biznesga pul tikar ekan avvalo bu biznesni pul qaytara olish imkoniyatini ko'rib chiqadi. Agarda siz ingliz tilida savdo qilar ekansiz yokida biznesingizni yuritar ekanisiz xalqaro maydonga chiqishingiz uchun sizga albatta ability to pay so'zi yordam beradi⁶⁶.

⁶⁵ <https://dtiwebfiles.s3-ap-southeast-1.amazonaws.com/e-library/Growing+a+Business/Glossary+of+Business+Terms+and+Concepts+Handbook.pdf>

⁶⁶ <https://www.workspace.co.uk/content-hub/business-insight/glossary-of-business-terminology>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Ability to pay gapda quyidagi tarzda ishlatiladi: I am able to pay the interest rate yoki: The company is able to pay the all the taxes demanded by the state

Account balance. Bu soʻz hisob balansi deya tarjima qilinib, kompaniyaning kirim chiqimlari va qarzlarni oʻrtasidagi muvozanatga nisbatan aytiladi hamda bu muvozanatni bir meyorda ushlab turish uchun ham foydalaniladi. Account balance bu maʼlum bir moliyaviy hisobda mavjud boʻlgan mablagʻlar miqdori; tekshirish yoki omonat hisobi kabi. Berilgan qoldiq kreditlar va debetlardan keyin mavjud boʻlgan sof summani aks ettiradi. Account balance is a noun and can be used as an object, too.

Account balance of the company had a downward trend. They lost \$ 2 million.

Accural basis. Marketingda accural basis qachonki kompaniya oʻtkazilishi mumkin boʻlgan va kirim qilish imkoni bor boʻlgan holatga nisbatan ishlatiladi. Tassavur qiling kompaniya allaqachon mahsulotni sotishni kelishib qoʻygan hamda haridor ombordagi mahsulotni olib ketmagan holatda ham hisobga kiritib qoʻyishi mumkin holat. Misol uchun pepsi co. ning omborida Venesuelaga yetazib berishi lozim boʻlgan lekin hali hisobga toʻlov qilinmagan holatda ham ular bu sotilishi hali nomalum mahsulotni yillik hisobotga kiritib qoʻyib uni sof foydasini oʻz hisoblariga yozib qoʻyishlari mumkin. Aynan mana shu holatga nisbatan accrual basis deb ataladi.

Accumulation.


Bu soʻz biznesda koʻp ishlatiladigan atamalardan biri boʻlib unda asosaan narxi oshayotgan narsalar uchun ishlatiladi. Agarda kompaniya rahbari biror brend narxi koʻtarilib ketishini oldidan koʻra bilsa va haridni amalga oshirish imkoniga ega boʻlsa kelajakda oʻsha kompaniyalarni aksiyalari juda katta foyda olib kelishi mumkin. Biror narsaning ortib borayotgan miqdorini sotib olish. Faktorlarning toʻplanishi, ayniqsa kapital iqtisodiy oʻsishning asosiy mexanizmi hisoblanadi⁶⁷.

Misol uchun ingliz tilida: The accumulation the company had a go would be the best way to earn enough savings to have a reliable resource.

Agricultural loans: Qishloq xoʻjaligi kreditlari

Ish hayvonlari, qishloq xoʻjaligi texnikasi va sotib olishni moliyalashtirish uchun berilgan kreditlarni ifodalaydi texnika, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari (yaʼni, urugʻlar, oʻgʻitlar, ozuqalar), parrandachilik, chorva mollari va shunga oʻxshash narsalar; ishlab

⁶⁷ Principles of Management Professor Dr. Md. Mainul Islam University of Dhaka Dr. Abdul Awal Khan Ex. Professor & Ex. Dean School of Business Bangladesh Open University





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotish uchun ob'ektlarni qurish va (yoki) sotib olish; va saqlanadigan yoki qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali va samarali sotish ichki va tashqi savdoda yuqorida ko'rsatilgan obyektlar tomonidan.

The farmer had to get an agricultural loan in order to plant cotton more.

Amortization: Amortizatsiya

Bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tugatish; bir muddat davomida majburiyatni bosqichma-bosqich to'lash jarayoni vaqt. Amortizatsiya bu biror mahsulotni sotib olganda tan narxini oyma oy yoki berilgan muddatda bo'lib to'lash majburiyatiga nisbatan olinadi⁶⁸.


The firm had a contract with powder making firm and the transfer would be in amortization.

Assessment of risk: Xavfni baholash

Biznes-reja maqsadlari va vazifalariga erishish uchun potentsial xavflarni va muqobil strategiyalarni aniqlaydi. Bu holat firmalar va tijoriy kompaniyalar rivojida katta o'rin tutadi va menejer yoki kompaniya rahbarini assessment riskni yaxshi baholay olishi juda katta ro'l o'ynaydi. Masalan rahbar sotib olinayotgan yoki sotuvga chiqarilishi mumkin bo'lgan narsani bozorga chiqarishdan oldin sotuv jarayonidagi xavflarni ko'ra bilishi va ularni baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Aks holda firma yoki kompaniyani bankrotlik holati kutmoqda. Ayni damda xitoy kompaniyalari vaziyatga juda yaxshi baho bergan holda dunyo bozorlariga arzon elektron avtomobillarni ishlab chiqarishyapti va bozorni eggalashyapti. Rivojlangan mamlakatlardagi ishchi kuchi qimmatligi ularning mahsulotni arzon sotishi qobiliyatini deyarli yo'qqa chiqaradi. Bu esa ishchi kuchi nisbatan arzon bo'lgan janubi-sharqiy osiyo mamlakatlari ularni yaqin orada juda katta xavfga qo'yadi agarda ular xitoy avtomobillariga nisbatan katta bojlarni amalda qo'llashmasa. Shunday holatda ham xitoy avtomobillari yevropa hamda amerikaning elektrcar laridan arzonroqqa tushmoqda. Mana shu xitoyliklarni Assessment risk xavfni baholashni qanday go'zal amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

The General Motors company wanted to produce cheaper electro cars but they worked on the assessment risk and decided to put it off.


⁶⁸ The Ultimate MBA Book Get the Edge in Business; Master Strategy, Marketing, and Finance; Enjoy a Business School Education in a Book Alan Finn, Stephen Berry, Eric Davies, Roger Mason, Roger Mason Ltd





References

1. <https://dtiwebfiles.s3-ap-southeast-1.amazonaws.com/e-library/Growing+a+Business/Glossary+of+Business+Terms+and+Concepts+Handbook.pdf>
2. <https://www.workspace.co.uk/content-hub/business-insight/glossary-of-business-terminology>
3. Principles of Management Professor Dr. Md. Mainul Islam University of Dhaka, Dr. Abdul Awal Khan, Ex. Professor & Ex. Dean, School of, Business, Bangladesh Open University.
4. The Ultimate MBA Book Get the Edge in Business; Master Strategy, Marketing, and Finance; Enjoy a Business School Education in a Book, Alan Finn, Stephen Berry, Eric Davies, Roger Mason, Roger Mason Ltd



3D FRAKTAL INTERPOLYATSIYA YORDAMIDA SIRTLARNI MODELLASHTIRISH

Anarova Shahzoda Amanbayevna, t.f.d., professor, Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Ismailova Saodat Nazarboy qizi, tayanch doktorant, Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

ABSTRACT. Ushbu maqolada uch o'lchovli (3D) fraktal interpolyatsiya tushunchasi va undan 3D sirtlarni modellashtirishda foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu maqola fraktal interpolyatsiyani model sifatida emas, balki faqat raqamli vosita sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotning maqsadi berilgan 3D sirt uchun modellarni olish va ularni ma'lum darajada unga o'xshatish metodologiyasini yaratishdir. Modellar to'plamini esa 3D grafik tasvir, muayyan texnologik jarayonni simulyatsiya qilish, yopishtirilgan yuzalar uchun sifatni baholash kerak bo'lganda tekshirish mumkin. Muayyan 3D sirtning o'lchash va modellar to'plamini yaratish o'lchovlarini ko'p marotaba bajarishdan ko'ra ancha tejamkor.

KALIT SO'ZLAR: Fraktal interpolyatsiya, uch o'lchovli sirt (3D), model, Banachning o'zgarmas nuqta teoremasi, Rakotchning qo'zg'almas nuqta teoremasi, takrorlangan funktsiya tizimlari (RIFS), paraboloid.

KIRISH. Fraktal interpolyatsiya sirtlari (FIS) odatda takrorlangan funktsiya tizimlari (RIFS) yordamida uzluksiz funktsiyalar grafiklari sifatida tuziladi. Fraktal (notekis, dag'al, tartibsiz) sirtlarni simulyatsiya qilish uchun fraktal interpolyatsiyadan (FI) vosita sifatida foydalanish imkoniyatini ko'rsatdi. Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri 3D sirtini simulyatsiya qilish uchun FIga asoslangan texnikani taqdim etilgan. Va bu qadam modelning butunlay yangi sifatiga olib keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, FI boshqa interpolyatsiya sxemalariga nisbatan interpolyatsiya nuqtalari orasidagi ma'lumotlarni o'rtacha hisoblamalik uchun muhim sifatga ega.

Fraktal interpolyatsiya egri chizig'i [1-3] va fraktal interpolyatsiya yuzasi [4-10] ko'plab tabiiy ob'ektlarni modellashtirish uchun kuchli vosita hisoblanadi va matematikada va amaliy fanlarning boshqa sohalarida keng qo'llaniladi.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Fraktal egri chiziqlar va sirtlarni (notekis egri chiziqlar va sirtlarni) qanday qurish va ularning murakkabligini tahlil qilish fraktallarning eng muhim mavzularidan biriga aylangan [5].

Fraktal interpolyatsiya funksiyasining grafigi ba'zi iteratsiya qilingan funksiyalar tizimining attraktoridir [1].

Takrorlangan funksiya tizimlari tushunchasi mashhur Banach qisqarish printsipining tabiiy umumlashtirilishi sifatida kiritilgan [2].

Takrorlangan funksiya tizimlari yangi fraktal interpolyatsiya funksiyalarini qurish va tahlil qilish vositasiga aylangan.

Xususan, takrorlangan funksiya attraktorlarining ulanishi tizimlari fraktal interpolyatsiya egri chiziqlari va fraktal interpolyatsiya sirtlarini qurishda juda muhimdir

Darhaqiqat, bitta o'zgaruvchan uzluksiz fraktal interpolyatsiya funksiyalarining mavjudligi bilan ikki o'zgaruvchan uzluksiz fraktal interpolyatsiya funksiyalarining mavjudligi o'rtasida muhim farq bor [11]. Chiziqli bir o'zgaruvchan fraktal interpolyatsiya funksiyalarining grafiklari doimo uzluksiz egri chiziqlardir, lekin chiziqli ikki o'zgaruvchan fraktal interpolyatsiya funksiyalarining grafiklari har doim ham uzluksiz sirtlar emas [1,4].

Fraktal interpolyatsiya yuzalarini qurishning asosiy qiyinligi ikki o'zgaruvchan fraktal interpolyatsiya funksiyalarining uzluksizlik shartlarini berishdir [6].

Uzluksiz ikki o'zgaruvchan fraktal interpolyatsiya funksiyalarini olish uchun ba'zi uzluksizlik shartlaridan foydalanish mumkin.

Feng [7] to'rtburchaklar domenidagi fraktal interpolyatsiya yuzasi uchun uzluksizlik shartini taklif qildi, ammo bu talablar juda qattiq va ularni tekshirish qiyin qarang [9]. Sirtning uzluksizligini ta'minlash uchun Dalla [8] chegaradagi interpolyatsiya nuqtalari kollinear deb faraz qildi. Feng va boshqalar [9] maxsus funksiyani vertikal masshtablash omillaridan foydalangan.

Odatiy yondashuvlarda chiziqli bir o'zgaruvchan fraktal interpolyatsiya funksiyalari va chiziqli ikki o'zgaruvchan fraktal interpolyatsiya funksiyalarining mavjudligi Banachning qo'zg'almas nuqta teoremasidan kelib chiqadi [1,2,4,10]).

Yangi takrorlangan funksiya tizimlari va fraktal interpolyatsiya funksiyalarini qurish uchun qo'zg'almas nuqta nazariyasida olingan ma'lum bo'lgan nuqta natijalaridan foydalanish mumkin [3,11,14,15,18].





[11] da nochiziqli ikki o‘lchovli fraktal interpolyatsiya funksiyalarini yaratish usuli Banachning o‘zgaras nuqta teoremasi o‘rniga Rakotchning qo‘zg‘almas nuqta teoremasi [12] yordamida va chiziqli bo‘lmagan ikki o‘lchovli fraktal interpolyatsiya funksiyalarining uzluksizligini ta‘minlash uchun ko‘rsatilgan chegaradagi barcha interpolyatsiya nuqtalari chegaradagi interpolyatsiya nuqtalarining kollinearligi o‘rniga ishlatiladi, lekin fraktal interpolyatsiya yuzalariga misollar keltirmaydi. [11] natijalari bizni ikki o‘zgaruvchan fraktal interpolyatsiya funksiyalari mavjudligi uchun mumkin bo‘lgan qisqarishlarni (Banach qisqarishlari va Rakotch qisqarishlari shart emas) topishga va fraktal interpolyatsiya yuzalarini yaratish uchun ba‘zi uzluksizlik shartlarini berdi.

Aslida, fraktal interpolyatsiya yuzalarini olishning odatiy usullari chiziqli fraktal interpolyatsiya yuzalarida samarali bo‘ladi [8,9], biroq ular chiziqli bo‘lmagan fraktal interpolyatsiya yuzalarida qo‘llanilmasligi mumkin [11].


ASOSIY QISM

Fraktal interpolyatsiya g‘oyasi B_0 asl to‘plamining nusxalari birligini hisoblash, keyin bu birlashmani B_0 deb qabul qilish va jarayonni cheksiz takrorlashdir. Olingan sirt fraktaldir. B_0 ixtiyoriy ravishda tanlanadi, lekin xOy tekisligida modellashtirilgan sirt bilan bir xil maydonni qoplashi kerak. Bu talab nusxalarni birlashtirish uchun ham amal qiladi. Uch o‘lchovli fazoda affin almashtirishlari (natijasi cheklangan) qo‘llaniladi.

FI da (1) tenglama shaklida yoziladi:

$$\omega_i \begin{pmatrix} x \\ y \\ z \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} x \\ y \\ z \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ b_3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} x^* \\ y^* \\ z^* \end{pmatrix}, \quad i = \overline{1, n}. \quad (1)$$

Til tizimida onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar son va sifat jihatdan muhim o‘rin egallaydi. Antroponimlar tarkibida kishi ismi, familiyasi, otasmi asosiy nomlar sifatida sanalsa, taxallus, nisba, unvon, kunya kabilar “ikinchii nom” tarzda ifodalanadi. Ana shunday ikkilamchi nomlar qatorida laqablar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kichik tadqiqotimizda o‘zbek antroponimikasida muhim ahamiyat kasb etadigan laqablar, ularning lingvistik xususiyatlari, shakllanishi va hosil bo‘lish yo‘llarni va omillari, boshqa ikkilamchi nomlar – taxallus, nisba, kunya va unvonlardan farqli va o‘xshash jihatlari, tarixiy va madaniy ildizlari, badiiy, so‘zlashuv uslubidagi o‘rni va farqli jihatlari, qo‘llanish usullari, tarixiy va zanonaviy laqablarning farqli xususiyatlari, zamonaviy nikneymlar haqida tahlillar berilgan. Shuningdek, laqablarning ijtimoiy-madaniy ko‘rinishlari, ijobiy, neytral va salbiy laqablarning ma’naviy ta’siri hamda nebez tushunchasi borasida ham ayrim fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponimika, laqab, taxallus, nisba, kunya, ikkilamchi nom, nebez, niknaym, ijobiy, neytral va salbiy mazmundagi laqablar.

THE ROLE OF NICKNAMES IN UZBEK ANTHROPONYMICS

ABSTRACT

Onomastic units, particularly anthroponyms, hold a significant position in terms of both quantity and quality. If a person’s name, surname and patronymic are considered as the main names in the context of anthroponomy, then nicknames, nisba, title, kunya are defined as “secondary names”. Nicknames hold a notable significance among such secondary names. In this small research work, nicknames that are of an important significance in Uzbek anthroponomy, their linguistic features, the methods and aspects of formation and creation, differential and similar features with other secondary names, such as pseudonym, nisba, kunya and titles, historical and cultural roots, role in artistic and spoken languages and their differences, methods of using,



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

differences between historical and modern nicknames, studies of modern nicknames are discussed. Particularly, there are also some opinions about socio-cultural appearance of nicknames, spiritual impact of positive, neutral and negative nicknames and the concept of nebez.


Key words: onomastics, anthroponomy, nickname, pseudonym, nisba, kunya, secondary name, nickname, nicknames with positive, neutral and negative connotations.

РОЛЬ НИКНЕЙМОВ В УЗБЕКСКОЙ АНТРОПОНИМИКЕ АННОТАЦИЯ

Ономастические единицы, в частности антропонимы, занимают значительное место как в количественном, так и в качественном отношении. Если в качестве основных имен в контексте антропонимики рассматриваются имя, фамилия и отчество человека, то прозвища, нисба, титул, куня определяются как «второстепенные имена». Прозвища имеют заметное значение среди таких второстепенных имен. В этой небольшой исследовательской работе рассмотрены прозвища, имеющие важное значение в узбекской антропонимики, их языковые особенности, способы и аспекты формирования и создания, дифференциальные и сходные признаки с другими второстепенными именами, такими как псевдоним, нисба, куня и титулы, исторические и культурные корни, роль в художественном и разговорном языках и их различия, способы употребления, различия между историческими и современными прозвищами, исследования современных прозвищ. В частности, существуют мнения о социокультурном облике прозвищ, духовном воздействии положительных, нейтральных и отрицательных прозвищ и понятии небез.

Ключевые слова: ономастика, антропонимия, прозвище, псевдоним, нисба, куня, вторичное имя, никнейм, прозвища с положительной, нейтральной и отрицательной коннотацией.

Istiqlol yillarida o'zbek onomastikasida antroponimlarga oid yirik ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu borada o'z tadqiqini kutayotgan bir qator masalalar ham mavjud. Xususan, o'zbek tili antroponimik tizimida ism, otasim, familiya, taxalluslar qatori katta o'rin tutadigan, til, madaniyat, tarix va etnografiya,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

sotsiolingvistikaning yechimini kutayotgan dolzarb masalalari bilan bevosita aloqador laqab va niknom kabi onomastik birliklar maxsus to‘planmagan, deyarli o‘rganilmagan yoki kam tahlil qilingan. Bunday onomastik birliklarni tadqiq etish o‘zbek nomshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zero, tegishli ismni (antroponim – ism, laqab, kunya, unvon, niknom..) o‘rganishning dolzarbligini inson zotining o‘ziga bo‘lgan doimiy qiziqishi, shuningdek, zamonaviy fanda antropotsentrik yondashuvlarning ustuvor ekanligi ham belgilab beradi. Zero, “Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar” [1]⁷⁴.

Laqablarni ijtimoiy-siyosiy maqsadda o‘rganish laqab beruvchi shaxs yoki ijtimoiy guruhning siyosiy-ijtimoiy, madaniy va shaxsiy maqsadlarini bilish, laqab qo‘yish jarayonini lingvomadaniy va lisoniy sabablarini, uning mexanizmlarini o‘rganish, laqab egasi bo‘lgan shaxs va ijtimoiy guruhning ijtimoiy mavqeyini aniqlash, laqab tanlanishining ijtimoiy, badiiy-estetik, psixologik, lingvosemantik asoslariga aniqlik kiritish, laqablarning ijtimoiy munosabatlarda hamda badiiy asar tili va mazmunida tutgan o‘rnini, kommunikatsion jarayondagi lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish maqsadida amalga oshiriladi. Shu jihatlari bilan laqablarning lisoniy tadqiqi, nihoyatda, muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jahon va turkiy tilshunoslikda antroponimlar tizimida muhim o‘rin turgan ikkilamchi nomlar, xususan, laqablarning tadqiq tamoyillari, ularning lingvistik tahliliga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, rus tilshunosligida ham bu yo‘nalishda bir necha tadqiqotlar mavjud. Bulardan A.M.Selichev, V.K.Chichagov, G.V.Tropin, V.A.Gordlevskiy, N.A.Rodinalarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir. Laqablar alohida antroponimik tadqiqot obyekti bo‘lgan ishlar ham mavjud. Qayd qilinganlardan tashqari, turli xalqlar tilidagi laqablar haqida bir qator kitoblar, ko‘p sonli maqolalar ham mavjud. Jumladan, turkologiya doirasida ozarbayjon tilshunoslari A.Qurbonov, A.M.Pashayev va qoraqalpoq tilshunosi

⁷⁴ Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2019-yil, 22-oktabr.



Y.N.Xodjalepesova, S.Zakirovlarning kuzatishlari diqqatga molik. A.Pashayevning fikricha, laqab shaxs ismiga tirkaladigan qo‘shimcha nom sifatida kishining biror belgisi yoki kasb-koriga ishora qiladi. Olim laqablarni boshqa yondosh hodisalardan farqlashda V.A.Nikonovning “norasmiy”lik fikriga tayanib ish ko‘radi.

O‘zbek tilshunosligida laqablarni, jumladan, ikkilamchi nomlar sirasiga kiruvchi taxallus, kunya, unvon va nisba nomlarning o‘rganilish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Milliy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va madaniy ahamiyat kasb etuvchi bunday nomlar o‘zbek xalqi tarixida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, ilk yozma yodgorliklarimiz bo‘lgan qadimgi toshbitiglardan ham, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida ham bunday nomlarni uchratishimiz hamda ularning lingvistik tahlilini ham ko‘rishimiz mumkin. Turk olimi Abulfayz Kuli Amano‘g‘lining ma’lumot berishicha: “Devonu lug‘at-it turk”da (DLT) jami 110 ta kishi otlari uchragani, ularning 43 tasi laqab, taxallus hamda Qoraxoniylar hukmdorlari va lashkarboshilarga berilgan unvon (laqab) ekani ma’lum [2; 5-13]⁷⁵. Mahmud Koshg‘ariy laqab va unvonlarga, ularning ma’nosi va shaxslarga berilish sabablari haqida alohida to‘xtaladi. Jumladan, “*tegin, tigin*”, “*tutug, tarkan*” laqab va unvonlarini u atroflicha izohlaydi hamda DLTdagi ma’lumotlardan qadimgi turkiy tilda laqablar keng tarqalgani va ular ma’lum ijtimoiy-informativ xususiyat kasb etganini bilamiz. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning “**Tarixi muluki ajam**”, “**Tarixi anbiyo va hukamo**” kabi tarixiy asarlarida ham qadimgi Eron shohlari, qadimgi Sharq va Yunonistonning olim va anbiyolarining laqab va unvonlari xususida bahs yuritilgan o‘rinlar mavjud bo‘lsa, “Nasoyim-ul muhabbat”, “Majolis-un nafa’is” tazkiralarda esa ayni tarixiy shaxslar – ayrim mashoyixlar, shoir va tarixchilarning kunyasi, taxallusi, nasabidan tashqari laqablari ham keltirib o‘tilgan o‘rinlar ko‘zga tashlanadi [3]⁷⁶.

Hozirda o‘zbek tili toponimlari, antroponimlari bo‘yicha salmoqli fundamental tadqiqotlar yaratilganini, atoqli otlarning izohli, imloviy lug‘atlari tuzilganini, laqablar

⁷⁵ Amano‘g‘lu, Ebulfeyz Kuli. Divanu Lu‘gat-it-Turk’deki Kişi Adlari Üzerine. A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. Sayı 15. Erzurum, 2000. - S.5-13.

⁷⁶ А.Навоий. Тарихи мулуки аҷам. - https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Tarixi%20muluki%20ajam.pdf (Fevral, 2022); А. Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо (Ботирхон Валихўжаев ва Қобилжон Тоҳиров табдили). -Самарқанд: Зарафшон, 1994. -68 Б. А. Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat, To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 10-jild, Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 648 bet. A. Navoiy, Majolis un-nafa’is, To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 9-jild, Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 768 bet.





va taxalluslar xususida ham jiddiy tadqiqotlar vujudga kelganini qayd qilish mumkin. Jumladan, E. Begmatov, T.Qorayev, V.Vohidov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, T.Nafasov, N.Husanov, N.Uluqov, G'.Sattorov, I.Xudoynazarov, A.Ishayev, R.Sapayev, Y.I.Avlaqulov, M.Rashidova, D.Xudoyberganova, S.Kenjayeve, Sh.Nizomovalarning tadqiqotlarida atoqli otlarning o'ziga xos jihatlariga munosabat bildirib o'tilgan. Bu ishlarda antroponimlarning tarkibiy qismi sifatida laqablarlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari yoritilgan, atoqli otlar, jumladan, laqab va taxalluslarning yasalishi, etimologiyasi, nominatsion-motivatsion asoslari haqida muayyan xulosalar berilgan. A.Ishayev, R.Sapayev, Y.I.Avlakulov, M.Rashidova hamda X.Qodirovalar laqablarga oid alohida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.


Jumladan, yirik onomast-olim E.Begmatov laqablarni atoqli ot deb baholaydi, faqat bunda ismni antroponimlarning asosiy kategoriyasi, laqab, taxallus va familiyalarni esa "qo'shimcha nominativ kategoriyasi" [4]⁷⁷ deb nomlagan. Chunki shaxsni nomlashning asosiy vositasi ismdir, boshqa usullar esa antroponimik nominatsiyada uni to'ldiruvchi qo'shimcha vazifalarni o'taydi. E.Begmatovning "O'zbek tili antroponimikasi" nomli monografiyasida o'zbek antroponimlarining tarixi, etnolingvistik, sotsiolingvistik jihatlarini tadqiq qilingan; ismlardan tashqari o'zbek laqablari, taxalluslar, familiya va otasmlari ham keng tahlilga tortilib, laqablar alohida bob sifatida o'rganilgan. Olim laqablarni ma'no va motiviga ko'ra 10 guruhga ajratib tasnif qilgan [5; 13-14]⁷⁸. *Laqab* atamasiga "shaxsga uning atrofdagilari tomonidan beriladigan, kishining xarakterli belgi-xususiyatini ifoda qiluvchi, asosan, shaxs ismi bilan birga qo'llanuvchi nom" [6;44]⁷⁹ shaklida izoh beradi. Xususan, M.Rashidova o'zbek tilidagi laqablarini to'plash va tadqiq qilish bilan shug'ullangan. Ushbu izlanishlarning mahsuli sifatida "O'zbek tilidagi laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari" nomli risola ham nashr qildirgan. Ushbu risolada laqablarning tasnifi, tuzilishi, yasalishi, etimologiyasi va uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan [7]⁸⁰. Y.Avloqulov ham antroponimik birliklar ustida izlanishlar olib borgan

⁷⁷ Begmatov Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965.

⁷⁸ Begmatov Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965, 13-14-бетлар

⁷⁹ Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Ташкент: Фан, 1965, 44-б

⁸⁰ Рашидова М. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Иқтисодмолия, 2008. – 72 б.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

bo‘lib, ism, laqab, taxalluslar antroponimik qatlamni tashkil qilishini [8;19]⁸¹ ta’kidlaydi. Mazkur muallifning ham laqab va taxalluslarning xususiyatlari haqida maqolasi mavjud.


Umuman, laqablarning lingvistik va tashqi omil ta’siri borasida bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo, til antroponimik tizimida alohida o‘rin tutadigan laqablar, ularning tarixiy va ijtimoiy ko‘rinishlar, ijtimoiy-ahloqiy xususiyatlari, laqablarning berilish sabablari va boshqa sifatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilish lozimdek, nazarimizda. Quyida tadqiqot o‘tkazish lozim deb hisoblaydigan ayrim jihatlarni sanab o‘tishni lozim deb topdik. Jumladan, laqablarning onomastik birlik sifatidagi lisoniy maqomini, vazifalarini, kommunikatsiya jarayonida tutgan o‘rnini aniqlash; o‘zbek tilidagi laqablarining ijtimoiy, lisoniy-badiiy taraqqiyoti va takomili jarayonlarini ochib berish; laqablarning boshqa antroponimik birliklar – ism, otatism, familiya, unvon kunya bilan bog‘liqlik va farqli jihatlarni yoritish; laqablarlarning kasbiy xoslanishi, lug‘aviy, nominatsion-motivatsion asosiga ko‘ra tasnifi va tahlilini berish; laqablarni lingvomadaniy va tarixiy-etimologik jihatdan leksik-semantik tahlil qilish va modellarini yoritish; laqablarning virtual olamdagi shakli – nikneymlarning paydo bo‘lishi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish. Bundan tashqari ham amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jihatlar mavjud.

Laqablar insonga ismi, familiyasi yoki otaismi kabi doimo birga yashaydigan ikkilamchi nom sanaladi. Ilmiy manbalarda laqab so‘zi quyidagicha sharhlangan: “*laqab*” – arabcha so‘z bo‘lib, “*ikkinchi nom*”, “*taxallus*”, “*laqab*” ma’nolarini anglatadi. Biror xususiyatiga ko‘ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab beriladigan qo‘shimcha nom; shuningdek, ma’lum maqsadda o‘zgartirib olinadigan nom [9]⁸², deya izoh keltiriladi. Laqabning bir tushunchasi “*ikkinchi nom*” bo‘lsa, demak, nom tushunchasi va uning laqab tushunchasidan farqi izoh talab qiladi. “**Nom**” – forscha so‘z bo‘lib, “*ot, ism*”; “*shon-shuhrat, obro*” ma’nolarini anglatadi [10]⁸³. Bu so‘z keng ma’noga ega bo‘lib, avvalo, shaxs yoki narsalarga qo‘yilgan ot, ismni anglatishi bilan “*ism*” leksemasiga sinonim hisoblanadi: *Zarifa, Samarqand, Boychibor* kabi.

⁸¹ Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012. – Б.19.

⁸² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет. Keyingi o‘rinlarda lug‘at nomi ЎТИЛ shaklida berib boriladi..

⁸³ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Ammo “*ism*” – arabcha soʻz boʻlib, “*nom, kishi oti*”, “*shaxsiy nom*”[11]⁸⁴ degan maʼnoni anglatishi bilan nom tushunchasiga nisbatan torroq maʼno kasb etadi va odatda, bu soʻz faqat shaxs uchun ishlatiladi. Qadimgi turkiy tilda, jumladan, Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻat-it turk” asarida keltirilgan “*atag*” soʻzi laqab maʼnosida qoʻllangan: “*Atag*” – nom; laqab. *Qul ati anin boldi qulqa atag*// *tapugʻ qilsa tūn-kūn ula bolsa tag.* – *Qul oti shuning uchun qulga laqab boʻldiki, u togʻ-u toshda tun-u kun ibodatda boʻlishi zarur.* (QBN – 124a)[12]⁸⁵... Demak, “*atag* – laqab” soʻzlari oʻzaro sinonim boʻlib, bir tushunchani ifodalaydi.

“Ikkinchi nom” tushunchasini ifodalashiga koʻra *laqab* tushunchasi *taxallus* tushunchasi bilan bir xil funksiyaga egadek koʻrinadi. Yuqoridagi manbada keltirilgan izohga tayanadigan boʻlsak ham, laqabning yana bir maʼnosida “*taxallus*” tushunchasi ham mavjud. Xususan, “*taxallus*” – arabcha soʻz boʻlib, “oʻz-oʻzini qutqarish, ozod qilish, xalos boʻlish” maʼnolarini anglatadi. Biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va shu kabilar) yoki siyosiy arbobning oʻzi uchun tanlab olgan boshqa, ikkinchi nomi [13]⁸⁶. Masalan, *Lutfiy, Navoiy*. Baʼzida *taxallus* ham oʻzga shaxs tomonidan qoʻyilishi mumkin: Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli avval oʻzi tanlagan “*Qalandar*” *taxallusi* bilan ijod qilgan boʻlsa, keyinchalik ustozi Munavvar qori Abdurashidxonov unga “*Choʻlpon*” – “*Tong yulduzi*” deb *taxallus* tanlab beradi [14]⁸⁷ va shoir shu nom bilan nafaqat mashhur boʻlgan, balki oʻzbek adabiyoti va tarixida ham munosib oʻrin egallagan. Ammo *taxallus* laqabdan farqli oʻlaroq *ism* kabi rasmiy maqomga ega boʻladi va ularda *taxallus* egasining botiniy olami bilan bogʻliq motiv aks ettiriladi. Oʻzbek tiliga Islom dini kirib kelishi onomastik birliklar, xususan, antroponimlar tizimiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Buning natijasi oʻlaroq “*kunya*” lanish jarayonini aytish mumkin boʻladi. “*Kunya*” (kuniya) – arabcha soʻz boʻlib, “*laqab, nom*” degan maʼnoni anglatadi va kishining avlod-ajdodini, nasl, nasabini bildiruvchi kishi ismiga hurmat yuzasidan qoʻshib ishlatiluvchi soʻz, nom. Xususan, arablarda “*abu*”, “*bint*”, “*ibn*”, “*ummu*” soʻzlari *kunya* hisoblanadi [15]⁸⁸. “*Unvon*” – arabcha soʻz boʻlib, “*adres*”, “*sarlavha, nom*”, “*belgi, ramz*” kabi maʼnolarga ega. Bu soʻz koʻp maʼnoli


⁸⁴ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 232-бет.

⁸⁵ Қадимги туркий тил луғати. Тузувчи: Қ.Каримов. Тошкент: Mumtoz soʻz, 2009, 112-бет.

⁸⁶ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 4-жилд, 15-бет

⁸⁷ <https://ziyouz.chulpon>

⁸⁸ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2-жилд, 432-бет.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

bo‘lib, bu so‘z kishiga biror ish-faoliyat sohasida alohida xizmatni yoki mutaxassislik darajasini e‘tirof etadigan, vakolatli organlar tomonidan belgilanadigan va beriladigan nomni anglatadi va u ham antroponimik tizimda ikkinlamchi nom sanaladi. Bundan tashqari, Islom dunyosida nisba tushunchasi ham mavjud bo‘lib, manbalarda u quyidagicha izohlanadi: “*nisba* (arabcha *nsbī* - “munosabatlar”, “bog‘lanish”) arab-musulmon nomining bir qismi bo‘lib, shaxsning nasl-nasabi, etnik, diniy, siyosiy, ijtimoiy mansubligi, tug‘ilgan joyi yoki yashash joyini va hokazolarni bildiradi. Odatda *nisba* morfologik ko‘rsatkich - oxiridagi “va” (arabcha -iy) qo‘shimchasi sanaladi. Masalan, *Buxoriy*, *Samarqandiy*, *Nasafiy* kabi. An’anaviy tarzda o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, *nisba* kunya, alam, nasab va laqabdan keyin ismning eng oxirida qo‘yiladi va ular ham ikkilamchi nomlarning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Laqablar shakllanishining lingvistik va ekstrolingvistik omillari mavjud. Juladan, boshqa tillar kabi o‘zbek tilida ham laqablar hosil bo‘lishining lisoniy omili muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kishi ismlarining buzib, o‘zgartirib talaffuz etilishi natijasida fonetik va grammatik mexanizm eng faollaridan biridir. Xususan, endi tili chiqqan bola katta yoshdagi aka-opalarining ismini ayta olmay notog‘ri, aniqrog‘i o‘z me‘yorida talaffuz qilishi orqali kishida oilaviy yangi laqab paydo bo‘ladi. Masalan, “*Toyir*”ni “*Toy*”; “*Karim*”ni “*Tayim*” “*Muborak*”ni “*Yubalak*” deb talaffuz qilishi kattalarning ham bolaga taqlidan kishilarga bola tilida murojaat qilishiga sharoit yaratadi va o‘z-o‘zidan yangi laqab paydo bo‘ladi. Shuningdek, *Nilu* (Nilufar), *Mamush* (Ma‘mura), *Shurik* (Shuhrat) – ismlarning erkalatish, suyish maqsadida qisqartirib yoki o‘zgartirib talaffuz qilinishi orqali paydo bo‘lgan murojaat laqablar; *Dilap* (Dilafuz), *Toyir* (Tohir) – ismlarning shevadan kelib chiqib (aslida bu holat ayrim tovushlar (f, h) ning asl turkiy xalqlarga xos emasligi tufayli talaffuzda to‘liq aytilmasligi bilan bog‘liq) orfoepik me‘yor bilan talaffuz qilinishidan paydo bo‘lgan murojaat laqablar ham fonetik-orfoepik mexanizm asosida hosil bo‘lgan. Bunday laqab laqablanuvchiga bilvosita aloqador bo‘ladi, ularda, asosan, subyekt munosabati ifodalanadi. Laqablarning shakllanish mexanizmida til qurilishining qaysi qismlari ishtirok etishi mumkinligi ham alohida tadqiq talab etadi. Avvalo, laqablarni hosil qiluvchi birliklarning turkumi, ya‘ni morfologik jihatiga to‘xtalaylik. Laqablar belgi-xususiyat va harakat-holatlariga asoslanishini inobatga olsak, asosan, ot (*it*, *ilon*, *chayon*, *do‘ppi*, *shapka*, *quloq*, *oyoq* va *atoqli otlar ham*) va sifat (*qopag‘on*, *chuchchi*, *sariq*, *zolim*,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

qiyshi)q turkumiga oid leksik birliklar (qisman ravish, fe'l, taqlid soʻzlar, undov soʻzlar, modal soʻzlar) bilan ifodalanadi.

Shuningdek, aytish joizki, laqablar har doim ham bir soʻzdan iborat boʻlmasligi mumkin. Shunga koʻra laqablar tuzilishi ikki xil boʻladi: **Sodda laqablar**. Bir asosdan tashkil topgan laqablar: Umar *zakunchi*, *Kobra* (Shavkat Qudratovich), *Qora* amma, *Tuya* amaki, *giroy* (Muzaffar), *ma'lim* (Samadov – Robiyaning dadasi), Rashid *abzi* (*O'tkir Hoshimov*, "Ikki eshik orasi" romani qahramonlari). **Murakkab laqablar**. Ikki va undan ortiq leksik birlikdan tashkil topadi va bir ma'no butunlikni tashkil etadi. Murakkab laqablarni bevosita quyidagicha tasniflash mumkin: qoʻshma soʻz bilan ifodalanuvchi: *Oqpodsho*, Orif *oqsoqol*, *Xumkalla*, *Mirzaterak*; juft soʻz bilan ifodalanuvchi: *Shaldir-shuldir*, *Kirdi-chiqdi*; takroriy soʻz bilan ifodalanuvchi: *Xir-xir*, *Shu-shu domla*; Ibora bilan ifodalanuvchi: "Bir qop yong'oq", "Yetti o'lchab, bir kesar" (Sharifning xotini); Sintaktik birliklar bilan ifodalanuvchi: "Yotsa turmas" (Sharif), *kuzurlarning kuzuri* (Yaxshiboyev), *sun'iy yo'ldoshlar* (Yaxshiboyevga qoʻshni ikki hamxona bemor – Baxshulla Ostonov va uning sherigi).

Tildagi har qanday ismning oʻziga xos lingvistik va ekstralingvistik ma'no komponentlari mavjud boʻlib, ular qatoriga, birinchidan, maxsus nomlash motivlarining mavjudligi, tilda nom mavjudligining oʻziga xos tomonlari (ismlarda boshqa lingvistik belgilarga koʻra nominativ xususiyatining kuchliligi) kiradi. Ismning zamonaviy idrok qilinishi, ismning tarixi, uning etimologik asoslari ham shular jumlasidandir. Boshqa bir tomoni esa jamiyatda ismning lingvistik belgi sifatida mavjud boʻlishi uchun maxsus shart-sharoitlarning borligidir, ya'ni ismning madaniy va tarixiy assotsiatsiyalari, oʻzi nomlovchi obyekt bilan oʻziga xos munosabati, obyektning nomi va uning bilinish darajasi kabi lingvistik va ekstralingvistik shart-sharoitlar bilan bogʻliqdir.

Bundan tashqari, tildagi salbiy, ijobiy va neytral semantikali soʻzlarning laqabga koʻchishida ma'noviy motivatsiya muhim rol oʻynaydi. Har qanday nom ma'lum motivga asoslanadi. Laqab bilan shaxsning ismi, familiyasi, uning mental va jismoniy xususiyatlari oʻrtasida bevosita yoki bilvosita ma'noviy aloqalar mavjud. Chunonchi, motivatsiya predmetlarga nom berilayotganda ularning belgisini bildiradi va ana shu predmetga nom berilayotganda turtki beradi. Motivatsiya nominatsiyadan oldin paydo boʻladi. Laqabdagi qoʻshimcha madh etish, maqtash, ulugʻlash, kamsitish, ayblash, salbiy boʻyoqda koʻrsatish, yashirin ma'no berish kabi xususiyatlarning mavjudligi uni






inson yoki hayvonga “yopishtirishga” asos bo‘ladi. Boshqa onomastik birliklar qatori laqablar ham yasaliş jihatidan o‘zining maxsus lisoniy bazasiga, ya’ni birlik, usul va vositalariga ega emas. Tildagi mavjud apellyativlar, so‘z yasalişining affiksatsiya, kompozitsiya, leksik-semantik usul va modellar laqablar uchun lisoniy baza bo‘lib xizmat qiladi.

Ismlar kabi laqab kabi “ikkinchi nom”lar ham ijobiy mazmun kasb etishi lozim. Bu esa ularning shakllanish omillariga bog‘liq bo‘lib, laqab qo‘yuvchi kishining ishtimoiy-ahloqiy ma’naviyatiga bog‘liq sanaladi. Laqab berish qadimiy unsur sanaladi va har doim ham faol qo‘llanib kelingan. Ularning salbiy ma’no kasb etish ko‘payib ketishi yuzasidan jamiyat ijtimoiy-diniy nazorat o‘rnatilib kelingan. Jumladan, Islom olamida qo‘llaniladigan “nebez” tushunchasi shunday ahloqiy nazorat tizimining bir ko‘rinishi sanaladi. Laqab shaxsga asl ismidan alohida berilgan ikkinchi ism; faxriy unvon; xalifa va sultonlarning hukmronligini ifodalaydigan unvondir. Tilshunolar laqabning tilda hukm surishini “*nebez*” holati bilan izohlaydilar. *Nebez* “birovga kamchiligini yashirgan holda ehtiyotkorona murojaat qilish” [16]⁸⁹, degan ma’noni anglatadi. Biroq keyinchalik, “sifatlash, ta’riflash” ma’nosini anglatuvchi va umuman, “kishilarning mehr sifatida olinib, jamiyatda uni ulug‘laydigan ism” ma’nosini bildiruvchi na’t laqab uchun ham qo‘llanila boshlagan. Shunday qilib, laqab “maqtov yoki tanqidni ifodalovchi ism yoki sifat” ma’nosini olgan. Bunga misol sifatida buyuk o‘zbek adibi Alisher Navoiyni misol keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiyning yuqorida misollar keltirilgan asarlarida qo‘llanilgan laqablarni tom ma’nodagi badiiy matndagi laqablar deb bo‘lmaydi. Buyuk adib ilk o‘rta asrlar va musulmon Sharqining buyuk siymolari, mashoyixlar, din arboblari va tarixiy shaxslariga doir biografik ma’lumotlarni keltirar ekan, ularga davr jamoatchiligi (xalq) yoki shaxslarning o‘zlari tomonidan qo‘yilgan laqablarni keltirgan, xolos. Aslida bu nomlarning aksariyatini to‘la ma’noda laqab deb emas, laqab-epitet deb atash mumkin. O‘sha qadimgi davrlarda amalda bo‘lgan antroponimik an’analar ta’sirida yuzaga kelgan. Ya’ni, bu laqablar shaxsga asl ismidan alohida berilgan ikkinchi ism; bu hol **nebez** – “birovga kamchiligi yashirgan holda ehtiyotkorona murojaat qilish”, degan ma’noni anglatadi. Bu hol “sifatlash, ta’riflash” ma’nosini anglatuvchi va umuman “odamlarning mehr sifatida olinib, jamiyatda uni ulug‘laydigan ism” ma’nosini bildiruvchi na’t holatidir va u laqab

⁸⁹ <https://islamansiklopedisi.org.tr/lakap>





uchun ham qo‘llanila boshlagan. Shunday qilib, laqab o‘rta asrlarda “maqtov yoki tanqidni ifodalovchi ism yoki sifat” ma‘nosini olgan. Qolaversa, yuqorida keltirilgan laqablar o‘sha shaxslarga muallif (Navoiy) tarafidan berilmagan, u badiiy tafakkur mahsuli ham emas. Ammo bu laqablar tarixiy shaxslar haqida yaratilgan badiiy asarlarning emotsional bo‘yog‘i vazifasini bajaradi. Afsuski, bugungi kunda laqab va boshqa ikkilamchi nomlarning aksariat qismi salbiy ma‘no kasb etadi va inson sh‘ni, qiymati hamda obro‘yiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham laqablar va umuman, ikkilamchi nom haqida tadqiqotlar o‘tkazish hamda ijobiy mazmun kasb etadigan laqablarning xususiyatlarini to‘laroq ochib berishga harakat qilish lozim. Muloqot jarayonida salbiy laqablar bilan murojaat qilish inson psixologiyasiga ham ta‘sir qilmay qolmaydi.

Laqab tanlanishining muhim omillaridan biri motivatsiyadir. Har qanday nom ma‘lum motivga asoslanadi. Bu jarayon **motivatsiya** deb yuritiladi. Ya‘ni, motivatsiya so‘zlar o‘rtasidagi ularning motivlanganligini namoyon etuvchi aloqa, motivatsion aloqa (munosabat)ning o‘zidir. Laqab bilan shaxsning (hayvonning) ismi, familiyasi, uning mental va jismoniy xususiyatlari o‘rtasida bevosita va bilvosita ma‘noviy aloqa mavjud. Chunonchi, motivatsiya predmetlarga nom berilayotganda ularning belgisini bildiradi va ana shu predmetga nom berilayotganda turtki beradi. Motivatsiya dalil keltirish, isbotlash, turtki berish ma‘nosini anglatib, nominatsiyadan oldin paydo bo‘ladi. Demak, nomlashda ma‘lum belgi-xususiyatlarga asoslanish jarayoni motivatsiyadir. Laqabdagi qo‘shimcha madh etish, maqtash, ulug‘lash, kamsitish, ayblash, salbiy bo‘yoqda ko‘rsatish, yashirin ma‘no berish kabi xususiyatlarning mavjudligi uni inson yoki hayvonga “yopishtirishga” asos bo‘ladi. Boshqa onomastik birliklar qatori laqablar ham yasaliş jihatidan o‘zining maxsus lisoniy bazasiga, ya‘ni birlik, usul va vositalariga ega emas. Tildagi mavjud apellyativlar, so‘z yasovchi affikslar, usul va modellar laqablar uchun lisoniy baza bo‘lib xizmat qiladi, deyish mumkin.

Ma‘lumki, laqablar boshqalar tarafidan nomlaluvcchi murojaat quroli sanadi. Ammo kishi o‘z-o‘ziga ham laqab qo‘yish mumkin. Bugungi globallashgan axborot texnologiyalar zamonida bu hol ommalishib borayapti. Jumladan, virtual olamdagi laqablar – nikneymlar shular jumlasidandir. Hech qanday to‘siqsiz ijtimoiy tarmoqlarda kishilar, ayniqsa, yosh avlod o‘zi yoqtirgan nomlar – nikneymlar tanlamoqda. Shunday ekan nikneymlarni laqablarning bir ko‘rinishi sifati o‘rganish bugungi kunning dolzarb





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ahamiyatli tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. Bizningcha, nikneymlarning asosiy xususiyati o‘z-o‘ziga erkin laqab tanlash hisoblanadi. Bunda, nikneym egasining madaniy, ma’naviy va ilmiy saviyasi, laqablanuvchi kishining orzu va umidlari hamda dunyoqarashi muhim omildir.

Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, Internetdagi muloqotlarda qo‘llaniladigan nikneym-laqablar bir yoki ikki so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Tub so‘zdan yoki qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan iborat taxalluslar, ko‘pincha, atoqli otlar yoki “aniqlovchi+aniqlanmish” qolipidagi birikmalar bo‘lib, laqab kichraytirish-erkalash (“sevimli”, “ofatijon”, “bo‘zbola”, “sheryigit”, “muloyim”, “yoqimtoy yigitcha”, “oshiq”, “ko‘pni ko‘rgan”, “inson do‘sti” kabi) yoki norasmiy-erkin murojaat (“telba”, “shaharlik olifta”, “terminator”, “botir bola”, “qo‘rqmas”, “sheryurak”, “iskaptopar”) ma’no-mazmunlarini tashishi mumkin.

Turdosh otlar ham nikneym sifatida ishlatiladi. Virtual muloqot ishtirokchilari, ko‘pincha, hayvonlar va qushlarning nomlariga murojaat qilishadi, bu holda “xo‘roz”, “sherlar qiroli”, “yo‘lbars”, “bo‘zbo‘ri”, “tulkiyoy”, “toshbaqa”, “lochin” kabi nikneymlar vujudga keladi. Ayrim yoshlar (o‘zbek bo‘lsa-da) esa xuddi shunday mazmun tashuvchi ruscha, inglizcha yoki boshqa til variantlaridan ham foydalanishadi, “dikiy volk”, “seriy volk”, “krasavchik”, “chelovik pauk”, “bogatiy”, “prinsessa”, “life”, “zizi”, “miss...” va hokazo. Internetdagi muloqot yoki o‘yin ishtirokchilari, odatda, lotin alifbosidan foydalanadilar, hozir mamlakatimizdagi 30 yosh atrofidagi yosh avlod vakillari lotin yozuvini qo‘llasa (bu kontingent eng faol virtual muloqotda bo‘ladi), 40 yosh atrofidagilar va undan katta yoshdagilar kirill alifbosidan foydalanadilar.

Ijtimoiy hayotda tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tufayli turli ma’naviy qadriyatlar yaratiladi, tarqatiladi va o‘zlashtiriladi. Bu o‘rinda kishilar orasida nutqning shakl va mazmunini belgilaydigan, uni ma’lum qoliplar doirasida ushlaydigan, jumladan, kishilarning axloqiy-ma’naviy xususiyatlari, o‘zligi, odobi va turmush tarzini belgilaydigan ijtimoiy axloq va uning shakllari muhim ahamiyatga ega. Kishilarga qo‘yiladigan laqablar ham ana shu nuqtayi nazardan fazilatlar va illatlarga qarab beriladi. Fazilatlar va illatlarning miqdori chegaralanmagani kabi tildagi laqablar ko‘lami ham chegaralanmagan.

Laqablar keng nutqiy iste’molda bo‘lgan til sohalari – jonli so‘zlashuv va shevalardir. Tadqiqot davomida Xorazm shevasida, shuningdek, Samarqand viloyati






jonli soʻzlashuv tilidagi laqablar oʻrganilganda, Xorazmda kishining shaxsi, avvalo, u mansub boʻlgan urugʻ, toʻpning laqabi, keyin shaxsning personal ismi va laqabi bilan aniqlanishi qayd etildi va hozirga qadar bu tizim muomaladan chiqmaganini, aksincha, jonlanib, avj olganini koʻrsatadi. Samarqandda talabalar va maktab oʻquvchilari orasida oʻtkazilgan soʻrovnomalardan maʼlum boʻldiki, yoshlar orasida laqablarning sinxronlashuvi kuchlidir. Laqablarning klassik shakllari jonli til bilan bogʻliq boʻlsa, nikneymlar virtual dunyodagi kommunikativ aloqa bilan bogʻliq boʻlgan laqablarning bir koʻrinishidir. Nikneymlar soʻzlovchining oʻzi tanlashi bilan real hayotdagi laqablardan biroz farq qiladi, ammo uni laqab bilan birlashtiruvchi nuqtalari ikkilamchi nominativligi bilan bogʻliqligi, insonning shaxsiy jismoniy-fiziologik koʻrsatkichlariga aloqador ekanligi, sirlilik, maxfiylik elementlarini tashishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR


1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi // “Xalq soʻzi”, 2019-yil, 22-oktabr.
2. Amanoğlu, Ebülfez Kuli. Divanu Luğat-it-Türk'deki Kişi Adları Üzerine. A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. Sayı 15. Erzurum, 2000. - S.5-13.
3. **А.Навоий. Тарихи мулуки ажам.** - https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Tarixi%20muluki%20ajam.pdf (Fevral, 2022); **А. Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо (Ботирхон Валихўжаев ва Қобилжон Тоҳиров табдили).** -Самарқанд: Зарафшон, 1994. -68 Б. А. Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat, Toʻla asarlar toʻplami, 10 jildlik, 10-jild, Toshkent, Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 648 bet. А. Navoiy, Majolis un-nafois, Toʻla asarlar toʻplami, 10 jildlik, 9-jild, Toshkent, Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 768 bet.
4. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965.
5. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965, 13-14-бетлар
6. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Ташкент: Фан, 1965, 44-б
7. Рашидова М. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Иқтисодмолия, 2008. – 72 б.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

8. Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012. – Б.19.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет.
10. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет.
11. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 232-бет.
12. Қадимги туркий тил луғати. Тузувчи: Қ.Каримов. Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009, 112-бет.
13. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 4-жилд, 15-бет
14. <https://ziyouz.chulpon>
15. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2-жилд, 432-бет.
16. <https://islamansiklopedisi.org.tr/lakap>





O'ZBEK TILIDA SONLAR VA ULARNING TARIXIY-TADRIJIY TARQQIYOTI

Baynazarov Z.

Samarqand davlat universiteti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
zmbaynazarov81@gmail.com <https://orcid.org/0000-0001-5874-4246>

ANNOTATSIYA


Son nomlari lisoniy manba sifatida tilshunoslikda o'rganilib kelinayotgan sohalardan biridir. Boshqa tillar kabi o'zbek tilida ham son so'z turkumi bir sath hisoblanib, uning lingvistik xususiyatlar, turlari va ifodalanishi, nutq jarayonida bajaradigan vazifasi, pragmatistik jihatlari tilshunoslik fanida o'rganilib kelinadi. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan sonlar tarixi va etimologiyasi ham qisman tadqiq qilingan, qiziqarli lisoniy zahiraga ega bo'lgan soha sanaladi. Lingvistik va pragmatistik xususiyatlari o'rganilgan sonlarning lingvomadaniy jihatlari ham borki, ularni lisoniy material sifatida ijtimoiy-madaniy tomonlarini etimologik tahlil bilan birga o'rganish ko'proq ilmiy natija beradi. Shuning uchun ham ushbu kichik tadqiqotimizda o'zbek tili tarixida sonlar, ularning lingvomadaniy, lingvostatistik va etimologik xususiyatlari o'rganish maqsad qilib belgiladik hamda lisoniy obyekt sifatida VII-IX asrlarda yaratilgan toshbitiglar matnlarini tanlab oldik. Tanlagan tadqiqot obyektimiz keng ko'lamlı bo'lgani uchun to'plangan materiallar ichidan faqat tub sonlarning qo'llanish statistikasi, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va ularning kelib chiqish etimologiyasini tahlil qilishga harakat qildik.

Kalit so'z: son, birlik, o'nlik, yuzlik, statistika, etimologiya, qadimgi turkiy til, toshbitiglar, sonning vazifasi, sonning tuzilishi, raqamlar.

NUMBERS AND THEIR HISTORICAL-PROGRESSIVE DEVELOPMENT IN THE UZBEKI LANGUAGE

АННОТАЦИЯ

Названия числительных как лингвистический ресурс являются одной из областей, изучаемых в лингвистике. В узбекском языке, как и в других языках, имя числительное рассматривается как одна часть речи, а его языковые особенности, виды и выражения, его функция в речевом процессе,






прагматические аспекты изучаются в науке языкознании. История и этимология чисел, о которых мы собираемся поговорить, также является частично исследованной областью с интересным языковым запасом. Лингвистические и прагматические особенности изучаемых числительных также имеют лингвокультурологический аспект, и изучение их как лингвистического материала наряду с социокультурными аспектами наряду с этимологическим анализом дает больше научных результатов. Поэтому в этом небольшом исследовании мы поставили цель изучить числа в истории узбекского языка, их лингвокультурные, лингвостатистические и этимологические характеристики, а в качестве объекта исследования выбрали тексты каменных надписей, созданных в VII-IX веках. Поскольку выбранный нами объект исследования является масштабным, мы постарались из собранных материалов проанализировать только статистику использования простых чисел, социокультурные характеристики и этимологию их происхождения.

Ключевые слова: число, единица, десятичная, сотая, статистика, этимология, древнетюркский язык, надписи на камнях, функция числа, структура числа, числа.

ЧИСЛА И ИХ ИСТОРИКО-ПРОГРЕССИВНОЕ РАЗВИТИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ ANNOTATION

Numerals as a linguistic resource are one of the areas studied in linguistics. In the Uzbek language, as in other languages, the numeral is considered as one part of speech, and its linguistic features, types and expressions, its function in the speech process, pragmatic aspects are studied in the science of linguistics. The history and etymology of numbers, which we are about to talk about, is also a partially explored area with an interesting linguistic reserve. The linguistic and pragmatic features of the studied numerals also have linguocultural aspects, and studying them as linguistic material along with sociocultural aspects along with etymological analysis provides more scientific results. Therefore, in this small study, we set a goal to study numbers in the history of the Uzbek language, their linguocultural, linguostatistical and etymological characteristics, and as the object of study we chose the texts of stone inscriptions created in the 7th-9th centuries. Since the research object we have chosen





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


is large-scale, we tried to analyze only the statistics of the use of prime numbers, sociocultural characteristics and the etymology of their origin from the collected materials.

Key words: number, unit, decimal, hundredth, statistics, etymology, ancient Turkic language, inscriptions on stones, number function, number structure, numbers.

KIRISH. Kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, son va raqamlarning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Milliy-madaniy ko‘rsatkich sifatida talqin etilayotgan raqamlar har bir xalqning ma‘naviy tafakkuri, dunyoqarashi, milliy mentalitetini ifodalovchi o‘ziga xos lingvomadaniy belgidir. Vaqtlar o‘tgan sari raqamlar milliy-madaniy kod darajasiga ko‘tarilib, muayyan xalqning marosimlari, urf-odatlar va hayot tarzini ifodalovchi ko‘rsatkichlar qatoridan joy oldi-ki, hatto ularning xususiyatlari va inson hayotidagi o‘rni masalalarini o‘rganuvchi maxsus fan - numerologiya paydo bo‘ldi. Insonlar raqamlarga ilohiy libos kiydirdilar, natijada turli millatlarda raqamlar bilan bog‘liq o‘ziga xos qarashlar maydonga keldi⁹⁰. Dastlabki davrlarda raqamlar so‘z bilan ifodalangan. Inson ijtimoiy xo‘jalik faoliyatining rivojlanib borishi natijasida so‘zdan mukammal va sodda ko‘rinishdagi belgilarga ehtiyoj paydo bo‘lgan. Manbalarda keltirilishicha, ilk sonni ifodalovchi raqamlar Qadimiy Bobil va misrliklarga tegishlidir. Misr ieroglif raqamida sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm-belgilar, keyinroq ieratik va demotik yozuvlari paydo bo‘ldi. Bobil raqamlari (miloddan avvalgi 2000-yil boshi), asosan, 1, 10, 60 va 100 ni bildiruvchi mixxat belgilari bo‘lib, boshqa barcha raqamlar shular asosida ifodalangan. Misr iyeroglif yozuvidan Yaqin va O‘rta Sharqdagi barcha yozuvlar hamda Yunon Ioniya yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqam kelib chiqqan⁹¹. Hozirgi ko‘rinishdagi raqamlar va nol eramizning V asrida Hindistonda paydo bo‘lgan va asta-sekin takomillashib, rivojlanib borgan. Hind raqamlari IX asrda Yevropaga arab raqamlari nomi bilan kirib borgan va tezda ommalashib ketgan. Bugungi kunda ham eng mukammal hisoblangan ushbu sonlar tizimining “arab raqamlari” deb nomlanishi va butun dunyoda, ayniqsa, Yevropada ommalashishida buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiyning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida sonni raqam bilan ifodalash XIX asrda ommalashgan. Unchaga so‘z

⁹⁰ Qayumova N.R. Sonlarning hayotda ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/sonlarning-hayotda-ahamiyati> (2022, sentabr).

⁹¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamlar> (sentabr 2022).





bilan ifodalangan sonlar tilimizni eng qadimiy davrda qanday ko‘rinish qo‘llanilgan haqida ushbu kichik tadqiqotga fikrlashamiz.


ADABIYOTLARDA... Son mavzusi qadimgi turkiy til haqida tadqiqot olib borilgan deyarli barcha manbalarda uchratish mumkin. Bundan tashqari, qadimiy sonlar bo‘yicha alohida tadqiqotlar ham olib borilgan. Rus tadqiqotchisi G.D.Ibragimov o‘zining tadqiqotida A.N.Samaylovich, S.E.Malov, A.N.Kononov, F.G.Isxakov, E.R.Tenishev, X.M.Zarbaliyev, V.M.Nasilov, G.Aydarov, A.Amanjolov, K.A.Ashuraliyev, I.V.Kormushin kabi olimlar qadimgi turkiy manbalar borasida olib borgan ilmiy ishlarida sonlar haqida o‘z tahlillarini bayon etganligi qayd etilgan⁹². Turk tadqiqotchisi Selin Shenaysoy “Eski turk tilida sonlar” nomli dissertatsiyasida J.Klousson, J.Ehlars, M.Bashturk, Zeki Kaymaz, Sevim Yilmaz O‘nder, G.Go‘jayeva-Mehmedova, E.Gemalmaz, E.Bajanli, A.Atiji, M.Dashdemir, A.B.Erjulasun, S.Kuchuk⁹³ kabi olimlar bevosita turkiy sonlar, ularning etimologiyasi, tizimlashishi, turlari va ularning lingvokulturologik tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlar yaratgan. Bu mavzu borasida o‘zbek olimlarining ham xizmatlarini e‘tirof etish lozim bo‘ladi. Jumladan, G‘.Abdurahmonov, S.Mutallibov, A.Rustamov, E.Umarov, Q.Sodiqov, N.Rahmonovlarning tadqiqotlarida bu haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

TAHLIL. Har qanday tilning boyligi uchun sonlarning nomlanishi, ya’ni nominatsiyasi lisoniy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. Son nomlari barcha mustaqil tillarning asosiy lug‘at fondida o‘z o‘rnini topgan va tillararo genetik tahlillar uchun “qarindoshlik iz”ini ko‘rsatadigan muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham har bir lingvomadaniyat o‘zi uchun belgilaydigan sanoq tizimiga ega. Boy sanoq tizimiga ega bo‘lgan turkiy xalqlar o‘tmishdan hozirgi kungacha turli sanoq sistemalaridan foydalangan.

Insoniyat tarixida sonlarning paydo bo‘lishi ijtimoiy-iqtisodiy va ehtiyoj charbarchas bog‘liligi ko‘plab manbalarda ta’kidlab o‘tilgan. Bu haqida tadqiqot olimlar juda qiziqarli fakt va ma’lumotlarni keltirib o‘tadilar. Turkolog olim Georges Ifrah o‘zining bir necha ilmiy tadqiqotlaridan bu haqida fikr yuritadi. Ma’lumki, dastlab son kishilar qo‘l barmoqlarini sanashdan boshlangan. Hisoblash dastlab barmoqlarni o‘z ichiga oladi, chunki bugungi kunda paydo bo‘layotgan sanoq sistemalarida

⁹² Г.Д.Ибрагимов. Числительные и их передача в рунических и древнеуйгурских памятниках письменности. Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №3(1), 989-991-бетлар

⁹³ Shenaysoy S. Eski türkçede sayılar. Eskişehir, 2016.





raqamlarni sanash keng tarqalgan bo‘lib, besh va o‘n raqamlarini qo‘l bilan ifodalash keng tarqalgan. Bundan tashqari, jahon sanoq tizimlarining aksariyati *o‘nlik, beshlik* va *yigirmalik* raqamlar bilan tashkil etilgan bo‘lib, ular sanashda qo‘l va oyoqlardan foydalanishni taklif qiladi va tillararo bu miqdorlar uchun atamalar etimologik jihatdan qo‘llar va raqamlarga asoslanadi⁹⁴. Tarix davomida o‘nlik sistemasi hukmron bo‘lgan turkiy sanoq sistemasiga diaxronik nazar tashlansa, ba‘zi tub o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi ko‘rinadi. O‘zbek tilining eng qadimgi davri hisoblanadigan Turk va Uyg‘ur hoqonliklari davrlarida 10 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarda ikki xil sanoq tizimi qo‘llanilgan. Turli ko‘rinishda bizgacha yetib kelgan bitigtoshlardagi run yozuvlarida son va uning turli shakllari uchraydi. Manbalarda e‘tirof etilishicha, hozirgacha topilib, o‘qib-o‘rganilgan bitigtoshlar soni 490 dan ortiq bo‘lib, jami 97 son 383marta takror ifodalangan⁹⁵. Shu bitigtoshlarda son va uning turlarini aylatuvchi so‘zlar statistikasi quyidagicha:

	Sonning turi	Miqdori	Takror qo‘llanishi
1	Sanoq son	73	317
2	Tartib son	16	57
3	Chama son	3	3
4	Jamlovchi son	2	2
5	boshqalar	5	6

Tarix davomida o‘nlik sistemasi hukmron bo‘lgan turkiy sanoq sistemasiga diaxronik nazar tashlansa, ba‘zi tub o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi ko‘rinadi. Eski turkcha deb ham ataladigan Ko‘kturk va Uyg‘ur davrlarida 10 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarda ikki xil sanoq tizimi qo‘llanilgan. Ulardan birinchisi bir xonali son dan boshlanib, keyingi 10 ning karrali bilan tugaydi. Ikkinchisida bitta raqamli kichik raqam 10 ga karrali katta raqamdan keyin “ortiqcha, ko‘proq” so‘zini qo‘shish orqali ishlatiladi. Quyidagi tub sonlarni bitigtosh matnlarida ko‘rishimiz mumkin:

	Hozirgi shaklda yozilishi	Bitigtosh matnlaridagi transkripsiyasi

⁹⁴ https://en.wikipedia.org/wiki/Georges_Ifrac

⁹⁵ H.Şirin. Eski türk yazıtları söz varlığı incelemesi TDK yayınları. Ankara. 2020, 494-497-betlar.





1	bir	bir
2	ikki	eki
3	uch	üç
4	to‘rt	tört
5	besh	biş/beş
6	olti	altı
7	yetti	yeti/yiti
8	sakkiz	säkiz
9	to‘qqiz	tokuz
10	o‘n	on
11	yigirma	yegirmi/yigirmi
12	o‘ttiz	otuz
13	qirq	kırk
14	ellik	älig
15	olmish	altmış
16	yetmish	yetmiş
17	sakson	säkiz on
18	to‘qson	Ø
19	yuz	yüz
20	ming	bī□
21	O‘n ming	tümän

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ayrim fonetik o‘zgarishlarni hisobga olmasa, bitigtosh matnidagi sonlar hozirgi o‘zbel tilidagi shaklidan deyarli farq





qilmaydi. Faqatgina l,k,t kabi tovushlarning ikkilanishi, “sakson” sonida “sakkiz” va “o‘n” qismlarining birga tallaffuz etilishi jihatlaridan farqliliklarni ko‘rishimiz mumkin. yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz kabi sonlar tilning tabiiy-geniologik belgilarini o‘zida tanishdi hamda har qanday lisoniy o‘zgarish va evrilishlarga, boshqa leksik birliklarga nisbatan, bardoshli hisoblanadigan somatik birliklardir.

Bitigtoshlarda yuzliklar quyidagicha ifodalangan: *eki yüz* – ikki yüz; *üç yüz* -uch yuz; *biş yüz* – besh yuz; *alti yüz* – olti yuz; *yeti yüz* – yetti yuz; *tokuz yüz* – to‘qqiz yuz. Balki, toshlarga bitik bitadigan bitigchining ehtiyoj bo‘lmagandir yoki haligacha o‘qilmagan toshlarda bordir, ammo ixtiyorimizdagi mangutosh obidalarida to‘rt yuz va sakkiz yuz sonlari ifodalanmagan. Mingliklardan ham bor-yo‘g‘i 5ta: *bi*□ - ming; *eki bi*□ - ikki ming; *beş bi*□ - besh ming; *alti bi*□ (bu o‘rinda *i* tovushi qisqa) – olti ming; *yeti bi*□ - yetti ming. Qadimiy turkiy tilda mingdan ko‘p sonni tuman atamasi bilan atagan. U, asosan, o‘n mingni ifodalab kelgan. Bitigtoshlar matnida 6ta o‘nminglik: *bir tümän* – bir tuman (o‘n ming); *üç tümän* – o‘ttiz ming; *tört tümän* – qirq ming; *biş tümän* – ellik ming; *säkiz tümän* – sakson ming; *on tümän* – yuz ming kabi sonlar qo‘llanilgan.

Bir. Bitigtosh va boshqa tarixiy-madaniy obidalarimizda bir soni hozirgi zamon shaklida bir va bir transkripsion ko‘rinishda qo‘llanib kelinadi. Bu son dunyo anglash, tushunish, bilishning boshlanishi nuqtayi nazaridan ham eng muhim son sanaladi. Diniy madaniyatda birlik, yagonalikni anglatadigan muqaddas raqamdir. Birla, birik mazmuni *bir* so‘zidan kelib chiqqan. Turkiy tillardagi bir (ko‘rsatkich barmog‘i) tartib raqami uchun bir xil natijaga ega bo‘lgan ikkita tahlil qilish mumkin. Birinchidan, aytish mumkinki, agar barmoqlarni sanash usuli va morfologik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsak, “bir” sonining o‘ziga xos ma‘nosi borligi ko‘rinadi. Chunki turkiy tilda aytuvchi subyekt barmog‘i bilan aytuvchi bo‘shliqdagi biror narsaga ishora qilish uchun “bu” ko‘rsatish olmoshidan foydalanadi. Bundan tashqari, “men” va “biz” olmoshlari mos ravishda birinchi shaxs birlik va birinchi shaxs ko‘pligini ifodalash uchun ishlatiladi. Tartib sonda ham, bu olmoshlarda ham qo‘llaniladigan birinchi harf **b** sanaladi. Manbalarda bir sonining *o‘z*, *o‘zim*, *men* shakllaridan kelib chiqqan degan farazlar ham ilgari surilgan. “Bir” – bu so‘zlovchi demak, ya’ni “men”dir (mening o‘zim, men turgan yer yoki men tutgan narsa), I shaxs birlikdagi inson. “Men” (ben, bin) qadimgi turkiy tilda **bi** bo‘ladi. Bu so‘z birü-beri ko‘makchisining tarkibida ham saqlangan. -rü jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi, berü – “men tomon” degani. Hozirgi





o‘zbekchada beri shaklida qo‘llaniladi. Masalan: beri kel, ko‘pdan beri. **Bir**ning tarkibidagi **bi** – so‘zlovchi (“men”)dir. Demak, sanoq so‘zlovchining o‘zidan boshlanadi⁹⁶.

Ikki. Tarixiy manbalarda eki va iki shakli hozirgi ikki sonini ifodalagan. Qadimgi diniy tushunchga ko‘ra Yaratgandan boshqa barchasi yolg‘iz bo‘lmaydi, balki juft bo‘ladi. Shu tushuncha e‘tiboridan mutaxassislar ikki sonini juftlik anglamida qabul qiladilar. Shuningdek, manbalarda ushbu so‘zdagi “k” (ba‘zan g‘, q, g bo‘lishi mumkin) tovushi “quloq”, “kurak”, “barmoq”, “oyoq” kabi so‘zlarda qo‘llanganidek, juftlikni anglatishi ta‘kidlaydilar⁹⁷.

19. Shablin M. S. Pedagogical technology of formation of media competence of pedagogical university students by means of animation composition; abstract of the dissertation for the degree of Candidate of pedagogical Sciences. – Krasnodar. 2012.

20. <http://www.directmedia.ru>

21. Fedorov A.V. Development of media competence and critical thinking of pedagogical university students. UNESCO WFP Information for everyone. 2007. – p. 616.





JINOYAT UCHUN JAVOBGARLIKKA TORTISHNING KRIMINALISTIK TASNIFI: MILLIY HUQUQIY ASOS VA XALQARO STANDARTLAR

Baxromova Laylo Rayim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi,

laylorayimovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatning majburlov chorasi hisoblangan jinoiy javobgarlikka tortishdan koʻzlangan asosiy maqsad, ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazmaslik va huquqbuzarlikning oldini olish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada jinoiy javobgarlikning qoʻllanish asoslari, mazmuni, qoʻllash tartibi, javobgarlikka tortiluvchi subyektlar, javobgarlikning faktik va normativ asosi yoritilgan.


Kalit soʻzlar: jinoiy javobgarlik, javobgarlikning mazmuni, jinoiy javobgarlikning yuridik jihati, jinoiy javobgarlikning faktik asosi, jinoiy javobgarlikning normativ asosi.

CRIMINAL CLASSIFICATION OF CRIMINAL PROSECUTION: NATIONAL LEGAL FRAMEWORK AND INTERNATIONAL STANDARDS

Abstract: In this article, the main goal of criminal prosecution, which is a coercive measure of the state, the issues of preventing social relations and crime prevention are analyzed. Also, the article describes the principles of criminal liability, its content, application procedure, liable subjects, factual and normative basis of liability.

Key words: criminal responsibility, content of responsibility, legal aspect of criminal responsibility, factual basis of criminal responsibility, normative basis of criminal responsibility.

УГОЛОВНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ УГОЛОВНОГО ПРЕСЛЕДОВАНИЯ: НАЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА И МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ





Аннотация: В данной статье анализируются основная цель уголовного преследования, которое является принудительной мерой государства, вопросы профилактики общественных отношений и профилактики преступности. Также в статье раскрыты принципы уголовной ответственности, ее содержание, порядок применения, субъекты ответственности, фактическая и нормативная основа ответственности.

Ключевые слова: уголовная ответственность, содержание ответственности, правовая сторона уголовной ответственности, фактическая основа уголовной ответственности, нормативная основа уголовной ответственности.

Jinoiy javobgarlik huquqiy javobgarlikning bir turi bo‘lib, jinoyat huquqning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, **“jinoiy javobgarlik”** atamasi yuridik adabiyotlarda turlicha. Asosiy jinoiy javobgarlik, jinoiy javobgarlikka tortish, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb talqin qilinadi.

Jinoiy javobgarlik jinoyat huquqi normalari bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga jiddiy zarar yetqazadigan yoki shunday zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tajovuz qilingandagina vujudga keladi. Shunday ekan, jinoiy javobgarlik o‘z navbatida qandaydir huquqiy oqibatni vujudga keltiradi. Jinoiy javobgarlik esa jinoyat huquqiy munosabatdir. Ammo jinoyat huquqiy munosabatning kelib chiqishi uchun biron-bir yuridik fakt sodir etilishi talab qilinadi va bunday yuridik fakt jinoyatning sodir etilishi hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik huquqiy javobgarlikning bir ko‘rinishi bo‘lib, u jinoyat qonunida belgilab qo‘yilgan va sud tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan javobgarlikni qo‘llashdan iboratdir. Shunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlik javobgarlikning boshqa turlari (axloqiy, fuqaroviy, ma‘muriy va h.k) dan eng avvalo o‘zining mazmuni jihatidan farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasida jinoiy javobgarlik tushunchasi berilgan:

Jinoiy javobgarlik deganda, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta‘sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati tushuniladi.

Bundan tashqari jinoyat huquqiga oid darslik va ilmiy adabiyotlarda jinoiy javobgarlik tushunchasiga turlicha ta‘rif beriladi. Jinoiy javobgarlik tushunchasi





umumiy jihatdan davlat va jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasida kelib chiqadigan jinoiy huquqiy munosabat sifatida tushuniladi. Bunda davlatda jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jinoiy huquqiy ta'sir chorasini qo'llash huquqi vujudga keladi. Jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan faqat shu huquqbuzarlik uchun sanksiyada belgilangan jazo chorasini qo'llash majburiyati vujudga keladi unga nisbatan xuddi shunday ta'sir chorasi qo'llaniladi. Jinoiy javobgarlik tushunchasini talqin qilishda uchta nazariya ahamiyatlidir:

Birinchi nazariya, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik shaxsiy yoki mulkiy xususiyatdagi ta'sir chorasi ekanligini ifodalaydi.

Ikkinchi nazariya, jinoiy javobgarlik jinoyat qonunchiligida ko'rsatilgan davlat majburlov chorasi sifatida tushunadi, yani aybdorga nisbatan sudlanganlik oqibatini keltirib chiqaruvchi majburlov chorasi qo'llaniladi.

Uchinchi nazariya, jinoiy javobgarlik deganda, barcha jinoyat huquqiy munosabatlarni, shuningdek shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi.

Javobgarlikning amalga oshirishning birinchi shakli javobgarlikning ayblov hukmining chiqarilishi bilan tugallanishida ifodalanadi. Chunonchi, Jinoyat kodeksining 70-moddasiga muvofiq ish sudda ko'rib chiqilmagan vaziyatning o'zgarishi bois shaxs o'zining namunali xulq-atvori, mehnatga yoki o'qishga vijdonan munosabati tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmay qolgan holatlarda ham sud uni jazoni o'tashdan ozod etishi mumkin.

Jinoiy javobgarlik o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib boshqadan farq qiladi. Bu choralarni bir-biridan farqlovchi belgilarga:

1. **Qo'llanish asosiga ko'ra**. Jinoiy javobgarlik faqat Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasida ko'rsatilgan jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Moddiy zarani qoplash tarzidagi fuqarolik javobgarligi, nafaqat jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi qilmishlar tufayli moddiy zarar yetkazilganida, balki boshqa huquqbuzarliklar natijasida zarar yetkazilganida ham qo'llaniladi.

2. **Javobgarlikning mazmuniga ko'ra**. Jinoiy javobgarlik davlat majburlov xususiyatiga ega bo'lib davlat nomidan qo'llaniladi. Qolgan ta'sir choralari esa bunday xususiyatga ega emas.

3. **Jinoiy javobgarlikni qo'llovchi subyektga ko'ra**. Jinoiy javobgarlik faqat sud tomonidan ayblov xukmi asosida qo'llaniladi. Boshqa xech qanday





mansabdor shaxs bunday ta'sir chorasini qo'llay olmaydi. Boshqa javobgarlik choralari suddan tashqari vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan qo'llanilishi mumkin.

4. **Qo'llash tartibiga** ko'ra. Jinoiy javobgarlikka tortishning maxsus tartibi faqat Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan Jinoyat protsessual kodeksi tergov organlari va sud tomonidan jinoiy javobgarlikka tortish tartibini belgilaydi. Qolgan huquqiy ta'sir choralari esa boshqa huquq normalari bilan tartibga solinadi.

5. **Javobgarlikka tortiluvchi subyektlar doirasiga** ko'ra. Jinoiy javobgarlik alohidalik xususiyatiga ega bo'lib, faqat jinoyat sodir etgan jismoniy shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Boshqa javobgarlik choralari esa yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, Fuqarolik kodeksida javobgarlikda yuridik shaxslar uchun ham javobgarlik belgilangan.

6. Jinoiy javobgarlikka tortiluvchi subyektlar turli davlatlarda turlicha hisoblanib, quyida xalqaro tajribalar tahlilini keltiramiz:

Amerika Qo'shma Shtatlari: Yosh shtatga qarab farq qiladi, lekin odatda 6 yoshdan 10 yoshgacha. Ba'zi shtatlarda belgilangan minimal yosh yo'q.

Birlashgan Qirollik: Angliya va Uelsda yosh 10 yosh. Shotlandiyada bu 8 yoshda.

Kanada: Yosh viloyat va hududga qarab farq qiladi, odatda 12 yoshdan 13 yoshgacha.

Avstraliya: Yosh shtat va hududga qarab farq qiladi, 10 yoshdan 12 yoshgacha.

Germaniya: Yoshi 14 yoshda. Bu yoshdan past bo'lgan bolalar, agar ular o'z harakatlarining oqibatlarini tushunish qobiliyatiga ega bo'lsa, jinoiy harakatlar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Fransiya: Yoshi 13 yoshda. Bu yoshdan past bo'lgan bolalar doli incapax hisoblanadi, ya'ni ular jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar.


Yaponiya: Yoshi 14 yoshda.

Shvetsiya: Yoshi 15 yoshda.

Braziliya: Yoshi 12 yoshda.

Janubiy Afrika: Yoshi 10 yoshda.

Bu yosh milliy qonunchilik asosida va ba'zan mamlakatning turli mintaqalari yoki shtatlarida farq qilishi mumkin. Ular, shuningdek, bolalarning o'z harakatlarining oqibatlarini tushunish qobiliyatiga oid madaniy va huquqiy normalarni aks ettiradi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Jinoiy javobgarlikning **yuridik jihati**, jinoiy javobgarlikning nima uchun, qanday qilmish uchun va u qaysi sharoitlar mavjud bo'lganida vujudga kelishini belgilaydi. Jinoyat kodeksining 16-moddasida belgilanishicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish asos bo'ladi.

Bu norma jinoiy javobgarlikning faktik va yuridik asosini belgilaydi.

Jinoiy javobgarlikning faktik asosi shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishdir. Qilmishning jinoyat deb tan olinishi uchun unda qonunda ko'zda tutilgan barcha belgilari mavjud bo'lishi kerak.

Jinoiy javobgarlikning normativ asosi Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyat tarkibidir. Faktik va normativ asoslar jinoiy javobgarlikning umumiy asosini tashkil qiladi. Sodir etilgan qilmish bilan qonunda ko'rsatilgan belgilar o'rtasida to'la muvofiqlik mavjud bo'lsa, qilmishga baho berish davlatning vakolatli idoralariga aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "Yuridik adabiyotlar pulish", 2023–27-modda
2. Jinoyat Protsessual Kodeksi. T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2023– 17, 235-moddalar.
3. PF-5268-sonli "Sud tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 30.11.2017
4. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti. 12.04.2021
5. I.B. Ismailov. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya va huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati. T.: TDYI-2012-30-38, 59-60.
6. Dilfuza Nabiyevna Nosirova (2023). Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish. Scientific progress, 4 (2), 141-144.
7. Uktambay o'g'li E. J. Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik //tadqiqotlar. Uz. – 2024. – T. 38. – №. 4. – C. 71-73.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

USING POSSIBILITIES OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SCIENCE OF ARCHITECTURE

Scientific adviser: doc., **A.S.Arziev**,
3rd year student **D.P.Tursunbaeva**
Karakalpak State University

Annotation: The article discusses the relevance of the use of computer technology in the teaching of special disciplines and the implementation of course projects, as well as the possibility of using these technologies.

Key words: design, computer graphics, AutoCAD, PowerPoint, Presentation, Slide, Corel DRAW, vector graphics.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ АРХИТЕКТУРА

Аннотация: В статье рассматривается актуальность использования компьютерных технологий при преподавании специальных дисциплин и реализации курсовых проектов, а также возможности использования этих технологий.

Ключевые слова: дизайн, компьютерная графика, AutoCAD, PowerPoint, Презентация, Слайд, Corel DRAW, векторная графика.

ARXITEKTURA FANINI O‘QITISHDA KOMPYUTER TEKNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.

Аннотация: Мақолада мутахассислик фанларини ўқитиш ва курс лойиҳаларини бажаришда компьютер технологиялари қўллаш масалаларининг долзарблиги ва ушбу технологиялардан фойдаланиш имкониятлари масаласи кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: лойиҳалаш, компьютер графикаси, AutoCAD, PowerPoint, Тақдимот, Слайд, Corel DRAW, векторли графика.

Бугунги кунда ҳаётимизга чизма ва лойиҳаларни бажариш графикасининг янги кўриниши- компьютер графикаси кириб келган бўлиб, унинг ёрдамида 228





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

лойиҳалаш жараёнини тезлаштириш ва юқори график самарадорликка эришиш мумкин. Лойиҳалашда бевосита қўллаш мумкин бўлган компьютер дастурларининг айримларининг хусусиятларини кўриб чиқамиз. AutoCAD – Autodesk компанияси ишлаб чиққан лойиҳалаш ва чизмачиликнинг икки ва уч ўлчамли автоматлаштирилган тизимидир.

Тизимнинг биринчи версияси 1982 йил ишлаб чиқилган. AutoCAD ва унинг асосидаги махсус иловалар машинасозлик, қурилиш, архитектура ва ишлаб чиқаришнинг бошқа соҳаларида кенг қўлланила бошланди. Дастур 18 тилда яратилган. Тармоқланиш даражаси тўлиқ адаптациядан маълумотлар ҳужжатларининг таржимасигача бўлган кўламни қамраб олди. Дастурнинг рус тилидаги версияси дастурлашни бошқаришдан ташқари команда бериш қатори интерфейсидан бошлаб бутун ҳужжатларни қамраб олиш даражасида тармоқлашган. AutoCAD-нинг дастлабки версияларида айлана, чизик, эгри чизиклар каби элементлар объектларини чизиш ва мураккаброқ текстларни ёзиш операцияларини бажариш мумкин эди. Шу сифатлари орқали AutoCAD “электрон кульман” номига сазовор бўлди ва бугунги кунда ҳам шундай вазифани бажараяпти.

Аmmo бугунги кунда AutoCAD-нинг имконияти жуда кенг бўлиб, “электрон кульман” имкониятидан ошиб кетди. Икки ўлчамли лойиҳалаш соҳасида AutoCAD илгаригидек анча мураккаб объектларни яратиш учун элементар график операцияларни бажариш имкониятларига эга. Бундан ташқари дастур қаватлар ва аннотатив объектлар (ўлчамлар, текст, белгилашлар) билан ишлашнинг кенг имкониятларини яратган. Ташқи таъсир (XRef) механизmidан фойдаланиш чизманинг ҳар бир таркибий файлига алоҳида ишлаб чиқувчи ва жавоб берувчи қисмларга бўлиш имконини беради, динамик блоклар эса, дастурлашни қўлламаган ҳолда оддий фодаланувчининг 2D – дастурини автоматизациялаштиради. 2010 версиядан бошлаб AutoCAD икки ўлчамли чизмаларни бажаришни қўллаган. 2014 версияда чизмани реал картография маълумотлари билан динамик алоқаси таъминланади (GeoLocation API). 229 AutoCAD-нинг 2014 версиясида уч ўлчамли моделлаштиришни комплекс ечиш учун барча инструментлар мавжуд.(қаттиқ жисмли, юзали ва полигонал моделлаштириш).






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

AutoCAD mental ray рендери тизими ёрдамида юқори сифатли визуализация моделини яратиш мумкин. Дастурда шунингдек уч ўлчамли чоп этишни бошқариш, (моделлаштириш натижаси 3D принтерга юбориш мумкин.) ва уни сақлаш (3D-ни сканер қилиш натижалари билан ишлаш) ҳам кўзда тутилган.

Аммо шуни ҳам таъкидлаш керакки уч ўлчамли моделда параметрини кўя олмаслиги сабабли AutoCAD ўрта синфга мансуб САПР машинасозлик дастури, Inventor, SolidWorks ва бошқалар билан рақобат қила олмайди. PowerPoint дастури. Кўпгина вазиятларда мутахассисда ўзининг фикрлари, ғоялари ва ишининг натижаларини қисқа, тез ва тушунарли баён этиш эҳтиёжи туғилади. Охирги пайтларда бундай мақсадларда тақдимот (презентация) графикасидан фойдаланишмоқда. Ушбу графика услуги чоп этилган материаллар ва анимация ҳамда овозли слайдлар комплексини экранда намоиш этиш имконини беради. Кўпгина замонавий тақдимот дастурлари анимация, овоз билан ишлаш, видео ва бошқа мультимедия имкониятларига эга. Тақдимот (презентация) – бу аниқ мавзуга бағишланган бир-бирига боғлиқ слайдлар кетмакетлигидир. Барча слайдлар битта файлда сақланади.

Слайд – бу тақдимотнинг алоҳида кадри ҳисобланиб, кейинчалик қоғоз варвғи, транспарант ёки 35 миллиметрли фотографик слайд сифатида фойдаланиши ёки фойдаланмаслигидан катъий назар, видеоматериал саҳифасидир. Слайд тартибида сарлавҳа, матн, график объект, диаграмма овозли лавҳалар, видеоклиплар бўлиши мумкин. Тайёр слайдларни оддий проекторга кўрсатиш учун шаффоф плёнкаларда, ёки тарқатма материаллар сифатида қоғозга чоп этиш мумкин. Тақдимотни намоиш этиш – маълум тартибда слайдларни кўрсатиш жараёнидир.

Бу жараёни кўлда ёки автоматик равишда бажариш мумкин. Кўрсатиш тартибини бошқариш учун ойнада навигацион блок мавжуд. Унинг ёрдамида слайдларни кетмакетликда ёки ихтиёрий тартибда рақамига қараб кўрсатиш мумкин. 230 PowerPoint – бу Microsoft Office тартибига мансуб бўлган дастур бўлиб, тайёрланган тақдимот ва слайд филмларнинг график пакетидан ташкил топади. У фойдаланувчига матн, расм чизиш воситалари, диаграммалар чизиш, стандарт иллюстрациялар билан ишлашнинг кенг имкониятларини яратиш хусусиятларига эга.





Мазкур дастур мулоқот учун жуда содда бўлиб, қийинчиликсиз ва қисқа вақт ичида маъруза тезисларини шакллантиради, уларни чиройли безайди ва керакли иллюстрациялар билан безайди. Ушбу дастур ёрдамидатурли объектларнинг тақдимотини ўтказиш, кўрсатиш қулайдир. Power Pointнинг афзаллиги қуйидагилардан иборат:

1. PowerPoint дастурини ўрганиш осон. Ўрганаётган инсон тузилган тақдимотлар ва тайёр шаблонлардан ҳам қараб ўрганиши ва юқори сифатли натижаларга ҳам эришиши мумкин.

2. PowerPointда ҳаракатлар қаторини кўрсатиб ёки тўғридан тўғри слайдлар яратиш жараёнини бошқариб, фойдаланувчига ҳар бир босқичда ёрдам кўрсатувчи воситалар ўрнатилган. PowerPoint тайёр дизайн вариантларини таклиф этган ҳолда информация сўрайди.

3. PowerPoint ёрдамида кодоскоп, қоғозда нашр этиш ва экранда кўрсатиш учун слайдлар яратиш мумкин.


4. Тақдимот ишлари тугагандан сўнг слайдларни қоғозда чоп этиш ёки таълимнинг техник воситалари ёрдамида диапозитлар тайёрлаш мумкин.

5. PowerPoint овоз, мусиқа, текстура, фотографиялар, мультимедиянинг кенг танловини таклиф қила олади.

6. Тақдимотнинг асоси – слайдлардир. Улар таркибида бошқа иловалардаги сарлавҳалар, матн, диаграмма, чизилган объект ва шакллар ClipArt графикаси, овоз ва визуал эффектлар бўлиши мумкин.

7. Тақдимотларни бошқа компьютерларга ҳам ўтказиш мумкин. Шу ҳолатда тақдимотнинг унга алоқадор бўлган бошқа файллари билан бирга сақлаб узатиш мумкин. 231 Corel DRAW вектор графикаси билан боғлиқ объекти-йўналтирилган пакетга эга бўлган дастурдир. “Объекти-йўналтирилган” атаманинг маъноси шундан иборатки, фойдаланувчи тасвирларни яратиш ва унга ўзгартиришлар киритиш жараёнида, унинг ўзи ёки кичик қисмлари (аниқ тасвирнинг пикселлари) билан эмас, балки тасвирнинг элементлари – объектлари билан ишлайди.

Стандарт объектлар (чизиқлар, айланалар, тўғри бурчакли шакллар билан ва б.)дан таркибий объектлар қуриб, улардан бир бутун шакллар каби фойдаланиш мумкин. CorelDRAWнинг ҳар бир стандарт объектлари синфига мос равишда параметр ёки атрибутларнинг бебаҳо бошқарувчилари мавжуд.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Масалан, “тўртбурчак” объектида куйидаги бошқарувчилар: баландлик, кенглик, контур ранги ва бошқалар ўрнатилган. Кўриниб турибтики, талаба учун бу дастурларни ўрганиши ҳеч қандай қийинчиликга эга эмас ва курс лойиҳаларида қўллаш масаласи бугунги кунда долзарб бўлиб, ўқитувчи уларга бу соҳада яқиндан кўмаклашиши лозим.

АДАБИЁТЛАР:

1. Полещук Н. Н. AutoCAD. Разработка приложений, настройка и адаптация.
2. Полещук Н. Н. AutoCAD 2007: 2D/3D-моделирование
3. Талалай П. Компьютерный курс Начертательной геометрии (на базе КОМПАС-3D). Санкт-Петербург «БХВ-Петербург».-2010.
4. Саидова Б.А. Халқаро илмий-амалий конференциянинг материаллари 18-19 сентябрь 2020 йил





МОЛОДЕЖНЫЙ СЛЕНГ КАК СВОЕОБРАЗНЫЙ СПОСОБ ВЕРБАЛИЗАЦИИ БЫТИЯ. РАЗВИТИЕ СЛЕНГА

Расулжанова Шахзода Илхомжановна - студентка Наманганского государственного института имени И.Ибрата

Gmail: shahzodarasuljanova@gmail.com телефон: +998947183020

Аннотация: В данной статье рассматриваются развитие молодёжного сленга, молодёжный сленг как своеобразный способ вербализация бытия, притом, развивающиеся образованием, изменяясь, культура модифицирует и собственные языки. Виды сленгов как формируются, откуда происходят, как надо изменить, роль иностранных языков при распространении сленгов.

Ключевые слова: Язык, культура, сленг, молодёжный сленг, вербализация, идентичный, инновация, модернизация, актуальность.

YOUTH SLANG AS A PECULIAR WAY OF VERBALIZATION OF EXISTENCE. DEVELOPMENT OF SLANG

Abstract: This article examines the development of youth slang, youth slang as a unique way of verbalizing being, moreover, developing through education, changing, culture modifies its own languages. Types of slangs: how they are formed, where they come from, how they need to be changed, the role of foreign languages in the spread of slangs.

Key words: Language, culture, slang, youth slang, verbalization, identical, innovation, modernization, relevance.

Культура обладает языками, однако, будучи живым развивающимся образованием, изменяясь, культура модифицирует и собственные языки. В результате языки эпох оказываются различными и непонятными для потомков, то что они походят на иностранные. Ведь как трудно нам, русским людям начала XXI века, читать “Слово о полку Игореве”, а современным англичанам понимать все смыслы слов, использованных при написании “Беовульфа”^[1].

Сленг – это разновидность неформального языка, используются определённой группой людей или сообществом.






Молодёжный сленг – представляет собой ряд слов или выражений, при котором свойственна и употребляется молодыми людьми, но не воспринимаемых взрослыми, притом молодёжный сленг - один из уровней языка. Молодёжный сленг ничему и никому не навязывается, он просто существует. Молодежный сленг имеет целый ряд особенностей и отличий от других имеющихся сленгов, н-р: профессиональных (врачей, юристов, бухгалтеров и др.), социальных слоев (преступного мира, бомжей и др.) и т.п. К их числу, прежде всего, можно отнести быструю изменчивость молодежного сленга, объясняемую тем, что не прекращающийся “приход” в молодежь подрастающих детей и “уход” из нее во взрослую жизнь приобретающих статус взрослых молодых людей сопровождается постоянной обновляемостью молодежного сленга. человек в различные периоды жизни не идентичен себе: так младенец, пройдя длительный жизненный путь, к старости становится уже совсем иным человеком во всех смыслах этого слова. А потому каждая культурно-историческая эпоха обладает собственным языком[2].

Вербализация – это неотъемлемая часть коммуникации и культурного развития. С помощью вербализации люди выражают свои эмоции, мысли, чувства, притом описывает мир вокруг себя. Вербализация может привести к некорректному пониманию или обману, потому что при рассказывании событий наша версия может быть не совсем точной и полной. Во время коммуникации у говорящих появляются новые варианты слов, при развитии иностранных языков они придумывают свои слова т.е. инновация.

Инновация – это изменение или обновление чего-либо, повышение эффективности, процесс, улучшение качеств продукта и т.п. Результат интеллектуальной деятельности человека, полученных знаний, его фантазии, изобретении, открытии и рационализации.

Несмотря на то, что молодежный сленг вообще и, в частности, к примеру, современный русский молодежный сленг, вовсе не предназначен для того, чтобы его полностью понимали все русскоговорящие люди, он не является “иностраным” языком для русскоязычных, а представляет собой своеобразный язык в языке, который может и доминировать в речи говорящего и лишь слегка затрагивать ее. Именно поэтому есть такие молодые люди, речь которых настолько пересыпана молодежным сленгом, что произносимое ими понятно






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

лишь немногим, а есть и такие, которые лишь слегка включают в свою речь сленговые слова и выражения, а также обороты и словосочетания.

Молодым людям, особенно принадлежащим к какой-либо молодежной субкультуре, в той или иной мере свойственны специфические способы обмена информацией - как вербальные (сленг), так и невербальные. Однако встает вопрос, почему молодые, еще не полностью освоив свой родной вербальный язык, создают, а, вернее вкладывают в уже имеющиеся слова совсем иной, нетрадиционный смысл? Почему они подхватывают от таких же, как сами, “облегченный” вариант языка, предназначенного для общения со сверстниками (как правило, на сленге молодые люди не разговаривают со старшими поколениями, особенно в не бытовой обстановке), становясь своеобразными иностранцами в собственной языковой среде? Частично ответ на этот вопрос подсказывает работа Д.Дидро “Письмо о слепых, предназначенное зрячим”[3].

Есть способы образования сленгов, очень часто они образуются под воздействием английского языка, но грамматически не усвоенным. Каждый звук имеет своё значение, поэтому одним звуком значение слово изменится. Эти слова считаются иностранными и соответствуют всем нормам английского языка. Производные от различных прочтений сокращения попадали в русский сленг, таким образом появилось много слов. Но не всегда в русский сленг попадают слова, заимствованные из английского. В общем смысле это происходит во время перевода. Слово, которое переходит в сленг, приобретает совершенно новое значение. Притом, если обращаться к технологиям, в компьютерных технологиях встречаются новые сленги, названия, благодаря росту технологии. Всем известно, большинство технологии звучит в иностранном языке в основном на английском, из-за отсутствия достаточно стандартизированной терминологии и это приводит к тому, что русским специалистам использовать оригинальные термины данных технологий.

Механизм формирования сленговых систем молодежной речи основан на заимствованиях. Такие слова воспринимаются исключительно как экзотические звуковые комплексы. Например, слово «тусовка» в отличие от первоисточного «криминальные сходки» в молодежном сленге имеет совершенно новый смысл, обозначая светскую жизнь. Внешние источники пополнения в молодежной речи в настоящее время почти исчерпываются английскими варваризмами. Почти





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

каждый из англоязычных экзотизмов молодежной речи представляет собой проявление стеба – иронической игры, эпатажа, шутки, пародирования английского прототипа (н-р: олдовые мэны, фрилавник, фэйсом об тэйбл)[5]¹¹⁷[<https://zdorovieledy.ru/articles/molodezhnyy-sleng-v-sovremennom-russkom-yazyke.html>].

Вывод: Заканчивая, хочется сказать, что культура речи зависит от общей культуры, развитости и грамотности её носителей. Мои наблюдения за студенческой аудиторией свидетельствуют, что наличие или отсутствие в речи молодых людей сленговых выражений напрямую связано с их успеваемостью. Как правило, если студент, употребляя сленг, не претендует на юмористическую окраску сказанного им, то упрощая таким образом язык он приходит к примитиву. Кроме того каждому новому поколению также требуются новые слова, выражения, сленги, чтобы объяснить свой иной взгляд на существовавшие ранее вещи.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Древний англосаксонский эпос, датированный первой половиной 6 века.
2. Молодёжный сленг Левикова.
3. В данном случае мы говорим о вербальных языках.
4. Дидро Д. Сочинения в 2-х т. Т. 1. - М.: "Мысль", 1986, с. 275 - 321.
5. Береговская, Н.В. «Молодежный сленг: формирование и функционирование. Вопросы языкознания». М, 1996г.

6

.

М

- а 7.Матниязова Феруза Фазилбековна, & Мадрахимова Зебо Фрунзевна. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 4(1), 116–118.

h

¹¹⁷<https://zdorovieledy.ru/articles/molodezhnyy-sleng-v-sovremennom-russkom-yazyke.html>

o

v

a

Z

e

b





8.Мадрахимова , З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142–145

9.Ahmadjonovna, K. M. . (2023). THE ROLE OF SYNTACTIC DEVICES IN

I
N
C

R SVOEOБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире,
E

A 11.Madraximova Zebo. (2023). DEATH GLORY OF THE WRITER. JOURNAL
OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(5), 104–106.

V 12. Nurillaev, J. Y. (2024). Theoretical and methodological foundations of
financing karakul farming in a market economy.

M 13. Yarashevich, P. N. J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in
Tourism Development.

A. (2016) Исследования о словообразовании и лексической структуре
неологизмов в приложении к Республике Узбекистан. O ‘Rta Maxsus Ta’lim
Vazirligi.

15.Мадрахимова , З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142–145.

P
R
E
S
S
I
V
E
N
E
S
S



**SUN'IY INTELLEKT VA MA'NAVIY MEROSNING O'ZARO UYG'UNLIGI**

TATU Samarqand filiali talabasi

Mahkamova Marjona

Tel raqami:+998881810698

Elektron gmail: mahkamovamarjona1@gmail.com

Dots **Kubayeva Shoira**

Anotatsiya: Sun'iy intellektni o'rganish va u haqda ma'lumotlarga ega bo'lish davr talabidir. Bu maqolada sun'iy intellekt va uning imkoniyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar berildi. Aslida uning imkoniyatlari juda ko'pdir.

Kalit so'zlar: intellekt, aql, sun'iy intellekt, sun'iy super intellekt, sun'iy umumiy intellekt.

THE COMPATIBILITY OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND SPIRITUAL HERITAGE

Abstract: Studying artificial intelligence and having information about it is the demand of the time. This article provides brief information about artificial intelligence and its capabilities. In fact, it has many possibilities.

Key words: intelligence, mind, artificial intelligence, artificial super intelligence, artificial general intelligence.

СОВМЕСТИМОСТЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация: Изучение искусственного интеллекта и обладание информацией о нем – требование времени. В этой статье представлена краткая информация об искусственном интеллекте и его возможностях. На самом деле, у него много возможностей.

Ключевые слова: интеллект, разум, искусственный интеллект, искусственный сверхинтеллект, общий искусственный интеллект.





Intellekt (lotincha intellectus – sezish, idrok etish, anglash, tushunish) yoki aql – psixikaning yangi vaziyatlarga moslasha olish, tajriba asosida o‘rganish va eslab qolish qobiliyatidan iborat sifati. Hamda tushunish va mavhum tushunchalarni qo‘llash va atrof-muhitni boshqarish uchun o‘z bilimlaridan foydalanish.

Aql-idrok – bu insonning barcha kognitiv qobiliyatlarini o‘zida mujassam etgan muammolarni o‘rganish va hal qilishning umumiy qobiliyati: his qilish, idrok etish, xotira, tasvirlash, fikrlash, tasavvur qilish.

Sun‘iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Sun‘iy intellekt (SI) kompyuterlarga o‘zlarining tajribalarini o‘rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Sini amalga oshirishning ko‘p holatlarida – kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha – chuqur o‘rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma‘lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o‘rgatish" mumkin.

1980-yillarning boshlarida Hisoblash bo‘yicha olimlar Barr va Feigenbaum sun‘iy intellektning (SI) quyidagi ta‘rifini taklif qilishdi:


“Sun‘iy intellekt – bu aqlli kompyuter tizimlarini, ya‘ni biz an‘anaviy ravishda inson ongi bilan bog‘laydigan imkoniyatlarga ega bo‘lgan tizimlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan informatika sohasi hamda tilni tushunish, o‘rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqa muammolarni hal qila olishdir”.

Keyinchalik, bir qator algoritmlar va dasturiy ta‘minot tizimlari sun‘iy intellekt deb atala boshlandi, ularning ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular ba‘zi muammolarni hal qilish haqida o‘ylayotgan odam kabi hal qila oladi.

SI ning asosiy xususiyatlari tilni tushunish, o‘rganish, fikrlash va eng muhimi, harakat qilish qobiliyatidir.

SI – bu sifatli va tez rivojlanayotgan tegishli texnologiyalar va jarayonlar majmuasi, masalan:

tabiiy tildagi matnni qayta ishlash
mashinani o‘rganish





ekspert tizimlari

virtual agentlar (chatbotlar va virtual yordamchilar)

2021 yilga kelib tadqiqotchilar SI turlarining quyidagi tasnifidan foydalanganlar:

Sun'iy Super Intellekt (SSI) gipotetik sun'iy intellekt bo'lib, u nafaqat insonning maksimal qobiliyatlarini takrorlay oladi, balki undan ham oshib ketadi. SSIga ishonuvchilar, u insonni o'z irodasiga bo'ysundirish uchun uning fikrlari va his-tuyg'ulariga kirib borish qudratiga ega bo'lishiga ishonishadi. Mana masalan: futuristik dahshatli hikoyalar yoki sun'iy intellektning haqiqiy kelajagi.

Shuningdek, gipotetik jihatdan kuchli yoki umumiy SI (Sun'iy umumiy intellekt, SUI) oqilonalik nuqtai nazaridan SSI dan bir pog'ona pastroq bo'lib, ushbu turdagi SI tarafdorlari o'z e'tiqodlarida hech bo'lmaganda ishlashga qodir bo'lgan mashinalarni yaratish imkoniyati bilan cheklangan.

Sun'iy intellektning eskirgan umumiy ta'riflari:

SI – aqlli xatti-harakatlarga ega bo'lgan mashinalarni ishlab chiqadi. (J. Makkarti).

SI – bu raqamli kompyuterlarning yuqori aqlli odamlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish qobiliyati. (Britannica)

SI – biz an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan qobiliyatlarga ega aqlli kompyuter tizimlarini ishlab chiqadi: tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va hk. (Feygenbaum)


SI – bu odamlar hozirda yaxshiroq bo'lgan narsani qilish uchun kompyuterlarni qanday o'rgatish haqidagi fan. (Elaine Rich)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, “virtual sohani jadal rivojlantirish” uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi.

Sun'iy intellekt zamonaviylikning muhim tarkibiy qismlaridan biridir

SI ning funktsionalligi va bajarish tezligi tufayli yangi tizimlarni yaratish natijasida paydo bo'lgan raqamli iqtisodiyot paradigmalarni, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish tezlashmoqda .

SI katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor, takroriy ishlov berish imkoniyatlari va aqlli algoritmlar bilan birlashtirib ishlaydi, bu dasturlarga ma'lumotlardagi naqsh va xususiyatlardan avtomatik ravishda o'rganish imkonini beradi. SI ko'plab nazariyalar, metodologiyalar va texnologiyalarga ega bo'lgan murakkab fandır. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:





Mashinani o'rganish - bu naqshlarni topish uchun ma'lumotlarga o'rgatilgan algoritmlarni o'rganadigan o'rganish sohasi. U neyron tarmoqlar, statistika, operatsiyalarni o'rganish va boshqalar usullaridan foydalanadi. ma'lumotlarda yashirin foydali ma'lumotlarni ochish, ma'lumotlarni qayerdan izlash va qanday xulosalar chiqarishni ko'rsatuvchi aniq dasturlashtirilgan ko'rsatmalar mavjud emas.

Neyron tarmoq mashinani o'rganish usullaridan biridir. Bu biologik neyron tarmoqlarni – tirik organizmning nerv hujayralari tarmoqlarini tashkil etish va ishlash printsipli asosida qurilgan matematik model, shuningdek, uning dasturiy yoki apparat ta'minoti.

Chuqur o'rganish ko'plab neyronlar va qatlamlarga ega bo'lgan murakkab neyron tarmoqlardan foydalanadi. Ushbu chuqur neyron tarmoqlarni o'rgatish, shuningdek, ulkan ma'lumotlar to'plamlarida murakkab naqshlarni aniqlash uchun ortib borayotgan hisoblash quvvati va takomillashtirilgan texnikalar qo'llaniladi. Kognitiv hisoblash - bu sun'iy intellektning bir tarmog'i bo'lib, uning vazifasi odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirga o'xshash odam va kompyuter o'rtasidagi tabiiy o'zaro ta'sir jarayonini ta'minlashdir. SI va kognitiv hisoblashning yakuniy maqsadi tegishli javob berish orqali tasvirlar va nutqni talqin qilish orqali kompyuter orqali insonning kognitiv jarayonlariga taqlid qilishdir.

Kompyuterda ko'rish naqshni aniqlash va tasvir va videoni aniqlash uchun chuqur o'rganishga tayanadi. Mashinalar allaqachon tasvirlarni qayta ishlash, tahlil qilish va tushunishni, shuningdek, fotosuratlar yoki videolarni olish va atrof-muhitni sharhlashni biladi.

"Sun'iy intellekt" bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi - bu miya ishini tushunishga intilish, inson ongining sirlarini ochish va inson aqlining ma'lum darajasiga ega mashinalar yaratish muammosi. Intellektual jarayonlarni modellashtirishning asosiy imkoniyati shundan kelib chiqadiki, miyaning har qanday funksiyasi, cheklangan miqdordagi so'zlardan foydalangan holda qat'iy bir ma'noli semantikaga ega tilda tasvirlangan har qanday aqliy faoliyat printsiplial ravishda elektron raqamli kompyuterga o'tkazilishi mumkin.

Keling, ba'zi natijalarni sarhisob qilaylik. Birinchidan, shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda sun'iy intellekt va siyosatga oid nashrlar sonining ko'payishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Biroq, ularning aksariyati siyosatshunoslikning markaziy muammolari bilan faqat bilvosita bog'liq. Ushbu mavzu bo'yicha nashrlar ko'pincha





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

texnik fanlar, fan va texnologiya falsafasi, raqamli aloqa jurnallari va boshqalar bo'yicha jurnallarda uchraydi. Yaqin kelajakda siyosatshunoslarning sun'iy intellekt texnologiyalariga qiziqishi sezilarli darajada oshishiga guvoh bo'lamiz, deyishga barcha asoslar bor. Demak, sun'iy intellekt - bu kelajak fanidir.


XULOSA

Bugungi kunda sun'iy intellektning rivojlanishi insoniyatning turmush tarzini tubdan o'zgartirib, yangi imkoniyatlarni ochib berish bilan birga, ma'naviy merosimiz va madaniyatimizga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellektning ma'naviy meros bilan uyg'unligi, uning madaniyatimiz va an'alarimizni qanday asrash va rivojlantirishga yordam beradigan yoki yo'q qilish xavfini yaratishi orasidagi muvozanatni topishni talab qiladi.

Sun'iy intellektning ma'naviy merosimizni saqlash va uni keng ko'lamda tarqatishdagi potentsiali shubhasiz kuchli. Sun'iy aql, madaniy yodgorliklarni rekonstruksiya qilish, til va adabiyot namunalarini tahlil qilish, tarixiy faktlarni to'plash va ularni tizimlashtirishda intellektual yordam ko'rsatadi. Bu jarayonlarda AI, aniq va tez ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati bilan insoniy tafakkur va ijodkorligini to'liqlanishi mumkin. Shuningdek, AI muzeylar, arxivlar va kutubxonalar faoliyatida ma'naviy merosimizni asrashda behisob yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ж.Мустафаев. Синергетика замонавий фан сифатида. “Аграр фан ютуқларида талабаларнинг иштироқи” мавзусидаги илмий-амалий конференция. // Тўплам (225-228 бетлар).Самарқанд ҚХИ. 2010.
2. Ж.Мустафаев. Ночизиқли тафаккурда ижтимоий жараёнлар тавсифи. Зиёкор ж. 2009. №5, 19 бет
3. Ж.Мустафаев. Nochiziqli tafakkur va nochiziqli tizimlarning o'zaro munosabatining ba'zi masalalari. Falsafa va huquq institute, O.Fayzullayevning 90 yillik yubileyi, konferensiya materilallari, Toshkent- 2011, 92 – bet
4. Ж.Мустафаев. XXI asrda fan-texnika taraqqiyoti va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Qishloq xo'jaligida innovasion texnologiyalarni joriy qilish muammolari, SamQXI, 2012, 240 bet.
5. Ж.Мустафаев. Ёшларнинг маънавий ҳаёти ва глобаллашув даври. Ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбиялашнинг долзарб масалалари. Талабалар





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

онгида китобхонлик маданиятини шакллантириш. Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. 2019 йил. 20 апрел. 312 бет.

6. Ж.Мустафаев. Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий таҳдидлар қарши курашда оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Ҳозирги глобаллашув шароитида маънавий мероснинг ўрни, роли ва аҳамияти мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд. СамИСИ.2020 йил. 20 май. 306 бет


7. Ж.Мустафаев. Ёшларнинг ғоявий-мафкуравий тарбиялашнинг ижтимоий жиҳатлари. Ҳозирги глобаллашув шароитида маънавий мероснинг ўрни, роли ва аҳамияти мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд. СамИСИ.2020 йил. 20 май. 306 бет

8. Ж.Мустафаев. Электрон ижорат ва унинг жамиятда рақамли иқтисодиётни шакллантириш муаммолари.

“Маънавий меросда ворислик ва унинг ХХІ аср таълим-тарбиясидаги урни» мавзусидаги Республика илмий конференцияси. 2021 йил 20 май. Самарқанд.

9. Пантелеева Т.А., Арустамов Э.А., Максаев А.А. Возможности искусственного интеллекта в управлении кадровыми ресурсами в условиях свободного предпринимательства // Интернет-журнал «Отходы и ресурсы», 2019 №3,

10. Камилова Р.Ш. Абдулатипова М.А. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ // Опубликовано в 2013, Выпуск Май 2013, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ





KICHIK BIZNES SUBEKTLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Solixova Xumora Xasan qizi
TISU, iqtisod 1-kurs magistr

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola kichik biznes sub'ektlari uchun soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish strategiyalarini ko'rib chiqadi. U joriy soliq tizimlaridagi mavjud muammolarni aniqlaydi va soliqqa rioya qilishni soddalashtirish, ma'muriy yuklarni kamaytirish va kichik biznes uchun qulay muhitni yaratish bo'yicha echimlarni taklif qiladi. Tadqiqot soliq siyosatini isloh qilish bo'yicha keng qamrovli tavsiyalar berish uchun adabiyot tahlili, empirik ma'lumotlar va amaliy tadqiqotlarni birlashtiradi.

Kalit so'zlar. Kichik biznes, soliqqa tortish, soliq siyosati, muvofiqlik, ma'muriy yuk, soliq islohoti, fiskal siyosat.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются стратегии совершенствования механизмов налогообложения субъектов малого предпринимательства. В нем выявляются существующие проблемы в нынешних налоговых системах и предлагаются решения для оптимизации соблюдения налогового законодательства, снижения административного бремени и создания благоприятной среды для малого бизнеса. Исследование объединяет анализ литературы, эмпирические данные и тематические исследования, чтобы предложить комплексные рекомендации по реформированию налоговой политики.

Ключевые слова. Малый бизнес, Налогообложение, Налоговая политика, Комплаенс, Административная нагрузка, Налоговая реформа, Фискальная политика.





IMPROVING THE MECHANISM OF TAXATION OF SMALL BUSINESS SUBJECTS ANNOTATION

This article examines strategies for improving taxation mechanisms for small business entities. It identifies existing problems in current tax systems and proposes solutions to simplify tax compliance, reduce administrative burdens and create a favorable environment for small businesses. The study combines literature review, empirical data, and case studies to provide comprehensive recommendations for tax policy reform.

Key words. Small business, taxation, tax policy, compliance, administrative burden, tax reform, fiscal policy.

KIRISH

Kichik biznes iqtisodiy landshaftning ajralmas qismi bo'lib, innovatsiyalar, bandlik va iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Biroq, soliqqa rioya qilishning murakkabligi va yuki ko'pincha ularning o'sishi va barqarorligiga to'sqinlik qiladi. Ushbu maqola kichik biznesga ta'sir ko'rsatadigan joriy soliqqa tortish mexanizmlarini o'rganadi, asosiy muammolarni aniqlaydi va yanada qulay soliq muhitini yaratish uchun takomillashtirishni taklif qiladi. Soliq kodeksini soddalashtirish, muvofiqlikni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va progressiv soliq modellarini joriy etish orqali siyosatchilar kichik biznesning rivojlanishida yaxshiroq yordam berishi mumkin.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kichik biznesni soliqqa tortishdagi muammolar

Mavjud adabiyotlarda soliqqa tortish bilan bog'liq holda kichik biznes duch keladigan bir qancha muammolar ko'rsatilgan. Anderson (2013) yirik firmalar bilan solishtirganda kichik korxonalar tomonidan soliqqa rioya qilish bo'yicha nomutanosib xarajatlarni ta'kidlaydi. Chittenden va boshqalar. (2003) kichik biznesning o'sishi uchun muhim to'siqlar sifatida ma'muriy yuk va soliq qoidalarining murakkabligini muhokama qiladi.

Soliq siyosatining ta'siri

Karter va Jons-Evans (2012) soliq siyosati kichik biznesga qanday ta'sir qilishini tahlil qilib, yuqori soliq stavkalari va murakkab soliq tizimlari tadbirkorlikni bo'g'ib qo'yishi mumkinligini ta'kidlaydi. Evans va boshqalar. (2014) soliq imtiyozlarining





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

boshqaruv afzalliklarini va ularning kichik biznes uchun muvofiqlik xarajatlarini kamaytirishdagi rolini ko'rsatadigan mamlakatlararo tadqiqotni taqdim etadi.

Soliq imtiyozlari va yengillik choralari

OECD (2015) va Slemrod va Venkatesh (2002) turli mamlakatlarda amalga oshirilgan turli soliq imtiyozlari va yengillik choralari ta'kidlaydi. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari kichik biznes sub'yektlarining soliq yukini sezilarli darajada kamaytirishi va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi mumkin.

Tadqiqotda sifat va miqdoriy ma'lumotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Birlamchi ma'lumotlar so'rovlar va kichik biznes egalari va soliq mutaxassislari bilan suhbatlar orqali to'planadi. Ikkilamchi ma'lumotlar mavjud adabiyotlar, hukumat hisobotlari va soliq siyosati tahlillaridan olingan.

Tahlil

Ma'lumotlar statistik vositalar yordamida soliq siyosati va kichik biznes faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni aniqlash uchun tahlil qilinadi. Umumiy mavzular va tushunchalarni olish uchun intervyularning sifatli ma'lumotlari kodlanadi va tahlil qilinadi.

Case Studies

Maxsus soliq islohotlarining kichik biznesga ta'sirini ko'rsatish uchun turli yurisdiksiyalardan uchta misol keltirilgan. Ushbu amaliy tadqiqotlar taklif etilayotgan yaxshilanishlarning samaradorligi haqida amaliy nuqtai nazarni beradi.


NATIJARAR

Soliq kodekslarini soddalashtirish

So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes egalari katta qismi joriy soliq kodeksini o'ta murakkab deb hisoblaydi. Ushbu kodlarni soddalashtirish muvofiqlik xarajatlarini va ma'muriy yuklarni kamaytirishi mumkin. Intervyudagi fikr-mulohazalar shuni ko'rsatadiki, aniq va ixcham soliq qoidalari kichik biznes barqarorligi uchun zarurdir.

XULOSA

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish ko'p qirrali yondashuvni taqozo etadi. Soliq kodeksini soddalashtirish, qonun hujjatlariga muvofiqlikni kuchaytirish va ilg'or soliq modellarini joriy etish kichik biznesga soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish va iqtisodiy o'sishga yordam





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

beradi. Siyosatchilar kichik biznesning rivojlanishi uchun yanada qulay muhit yaratish uchun ushbu strategiyalarni ko'rib chiqishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson, J. E. (2013). *Soliq va kichik biznes: muammolar va siyosat variantlari*. Milliy soliq jurnali, 66(4), 791-815.
2. Karter, S. va Jons-Evans, D. (2012). *Korxonalar va kichik biznes: tamoyillar, amaliyot va siyosat*. Pearson ta'limi.
3. Chittenden, F., Kauser, S., & Poutziouris, P. (2003). *AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiyada soliqni tartibga solish va kichik biznes*. Xalqaro kichik biznes jurnali, 21(1), 93-115.





YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Odinakulov Temirmalik Akmal o'g'li

TISU, iqtisod 1-kurs magistr

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Yer resurslaridan samarali foydalanish strategiyalari va metodologiyalarini o'rganadi. Mavjud adabiyotlar va amaliy tadqiqotlarni o'rganib, u Yerdan foydalanishni optimallashtirish, atrof-muhitga ta'sirni yumshatish va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish uchun ilg'or tajribalar va innovatsion yondashuvlarni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Yer resurslari, yerdan foydalanish, barqaror rivojlanish, yerni boshqarish, qishloq xo'jaligi samaradorligi, shaharsozlik, atrof-muhitga ta'siri, yerlarni optimallashtirish.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

АННОТАЦИЯ


В этой статье исследуются стратегии и методологии эффективного использования земельных ресурсов. Изучая текущую литературу и тематические исследования, в нем освещаются лучшие практики и инновационные подходы к оптимизации использования земель, смягчению воздействия на окружающую среду и содействию устойчивому развитию.

Ключевые слова. Земельные ресурсы, землепользование, устойчивое развитие, землеустройство, эффективность сельского хозяйства, городское планирование, воздействие на окружающую среду, оптимизация земель.

EFFICIENT USE OF LAND RESOURCES

ANNOTATION

This article explores strategies and methodologies for efficient use of Earth's resources. By examining existing literature and case studies, it highlights best practices and innovative approaches to optimize land use, mitigate environmental impacts, and promote sustainable development.





Key words. Land resources, land use, sustainable development, land management, agricultural efficiency, urban planning, environmental impact, land optimization.

KIRISH

Yer cheklangan resurs bo'lib, undan samarali foydalanish barqaror rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aholi sonining ortib borishi va qishloq xo'jaligi, shaharsozlik va tabiatni muhofaza qilish uchun yerga bo'lgan talab ortib borayotgan bir sharoitda yerdan foydalanishni optimallashtirish muhim muammoga aylandi. Ushbu maqola yer resurslaridan samarali foydalanish strategiyalarini tahlil qilishga, unumdorlikni maksimal darajada oshirishga, atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirishga va barqaror amaliyotni targ'ib qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yer resurslarini boshqarish bo'yicha adabiyotlar yerdan foydalanishni optimallashtirishga qaratilgan turli yondashuvlar va metodologiyalarni qamrab oladi. Asosiy tadqiqotlar tuproq sifati, suv mavjudligi, biologik xilma-xillik va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar kabi ko'plab omillarni hisobga olgan holda yerdan foydalanishni kompleks rejalashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar resurs sarfini kamaytirish bilan birga ekinlar hosildorligini oshirish uchun texnologiyadan foydalanadigan aniq qishloq xo'jaligining afzalliklarini ta'kidlaydi. Shahar rejalashtirish bo'yicha adabiyotlar shaharlarda yerdan samarali foydalanishni, shaharlar tarqalishini kamaytirishni va yashil maydonlarni saqlashni rag'batlantiradigan aqlli o'sish strategiyalarini muhokama qiladi. Bundan tashqari, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tadqiqotlar rivojlanishni tabiiy yashash joylarini muhofaza qilish bilan muvozanatlashtiradigan amaliyotlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu tadqiqot miqdoriy ma'lumotlar tahlilini sifatli amaliy tadqiqotlar bilan birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Yerdan foydalanish tartibi, qishloq xo'jaligi unumdorligi va shahar rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar turli manbalardan, jumladan, hukumat hisobotlari, sun'iy yo'ldosh tasvirlari va akademik tadqiqotlardan to'planadi. Sifatli tushunchalar yer boshqaruvi, qishloq xo'jaligi va shaharsozlik bo'yicha mutaxassislar bilan suhbatlar orqali to'planadi. Muvaffaqiyatli strategiyalar va yer resurslarini boshqarishdagi umumiy muammolarni aniqlash uchun turli mintaqalardagi amaliy tadqiqotlar tahlil qilinadi.





NATIJARAR


Tahlil shuni ko'rsatadiki, yerdan foydalanishni kompleks rejalashtirish yer resurslarini optimallashtirishning eng samarali strategiyasidir. Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni o'z ichiga olgan yer boshqaruvi siyosatini amalga oshiruvchi hududlar yuqori mahsuldorlik va barqarorlikni namoyish etadi. GPS yordamida boshqariladigan uskunalar va masofadan zondlash kabi aniq qishloq xo'jaligi texnologiyalari qishloq xo'jaligi samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi, suv va o'g'itlar kabi manbalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Shaharlarda yuqori zichlikdagi rivojlanish, aralash foydalanish uchun rayonlashtirish va jamoat transportiga qaratilgan aqlli o'sish tashabbuslari er sarfini kamaytiradi va hayot sifatini oshiradi.

XULOSA

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirish uchun er resurslarini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot yerdan barqaror foydalanishga erishishda kompleks rejalashtirish va innovatsion texnologiyalarning muhimligini ta'kidlaydi. Siyosatchilar, rejalashtiruvchilar va amaliyotchilar ilg'or tajribalarni amalga oshirish va er resurslarini optimallashtirish muammolarini hal qilish uchun hamkorlik qilishlari kerak. Kelajakdagi tadqiqotlar yerdan foydalanish samaradorligi va barqarorligini oshiradigan yangi texnologiyalar va metodologiyalarni ishlab chiqishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson, J. R. (2017). Yerdan foydalanish va atrof-muhit: iqtisodiy istiqbol. Kembrij universiteti matbuoti.
2. Bhatta, B. (2010). Masofadan zondlash ma'lumotlaridan shahar o'sishi va kengayishini tahlil qilish. Springer.
3. DeFries, R. va Rosenzweig, C. (2010). Tropiklarda yerdan barqaror foydalanish uchun butun landshaft yondashuviga. Milliy Fanlar Akademiyasi materiallari, 107(46), 19627-19632.
4. Pretty, J., Toulmin, C., & Williams, S. (2011). Afrika qishloq xo'jaligida barqaror intensivlik. Qishloq xo'jaligi barqarorligi xalqaro jurnali, 9(1), 5-24.
5. Thiele, G., Dufour, D., Vernier, P., & Cabascango, E. (2014). Rivojlanayotgan mamlakatlarda aniq qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi. Oziq-ovqat xavfsizligi, 6(2), 253-261.





QISHLOQ XO'JALIGIDA YER FONDIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Odinakulov Temirmalik Akmal o'g'li

TISU, iqtisod 1-kurs magistr

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishning nazariy asoslari va huquqiy tamoyillari ko'rib chiqiladi. Mavjud adabiyotlar va huquqiy nizomlarni tahlil qilish orqali u qishloq xo'jaligidagi yerlardan foydalanishni tartibga soluvchi asosiy tushunchalar va tartibga solish mexanizmlarini o'rganadi va bu elementlarning barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotini rivojlantirish uchun o'zaro ta'sirini to'liq tushunishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Yerdan foydalanish, qishloq xo'jaligi, yerga egalik qilish, mulk huquqi, qishloq xo'jaligi huquqi, barqarorlik, yerni boshqarish, qonunchilik asoslari, atrof-muhitni tartibga solish.

ABSTRACT


This article examines the theoretical frameworks and legal principles underpinning land use in agriculture. By analyzing current literature and legal statutes, it explores the foundational concepts and regulatory mechanisms that govern agricultural land use, aiming to provide a comprehensive understanding of how these elements interact to promote sustainable agricultural practices.

Keywords. Land use, agriculture, land tenure, property rights, agricultural law, sustainability, land management, legal frameworks, environmental regulation.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОГО ФОНДА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются теоретические основы и правовые основы землепользования в сельском хозяйстве. Посредством анализа существующей литературы и правовых норм в нем рассматриваются ключевые концепции и механизмы регулирования, регулирующие использование





сельскохозяйственных земель, и ставится цель полностью понять, как эти элементы взаимодействуют для продвижения устойчивых методов ведения сельского хозяйства.

Ключевые слова. Землепользование, сельское хозяйство, землевладение, права собственности, сельскохозяйственное право, устойчивость, землеустройство, правовая база, экологическое регулирование.


KIRISH

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishga nazariy tamoyillar va huquqiy me'yorlarning murakkab o'zaro ta'siri ta'sir ko'rsatadi. Ushbu asoslarni tushunish barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotini qo'llab-quvvatlovchi va yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan siyosatni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning nazariy va huquqiy asoslarini o'rganadi, yerga egalik qilish, mulk huquqi va atrof-muhitni tartibga solish kabi asosiy tushunchalarni hamda ular qishloq xo'jaligi amaliyoti va yerni boshqarish strategiyasini qanday shakllantirishini o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning nazariy asoslari bir qancha asosiy tushunchalarga asoslanadi. Klassik iqtisodiy nazariyalar yerning asosiy ishlab chiqarish omili sifatidagi rolini ta'kidlaydi, yerdan foydalanish bo'yicha qarorlar samaradorlik va unumdorlik tamoyillariga asoslanadi. Zamonaviy nazariyalar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tabiiy resurslarni saqlash bilan muvozanatlash zarurligini tan olib, ekologik barqarorlikni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishga oid huquqiy adabiyotlarda asosiy e'tibor yerga egalik qilish tizimlari, mulk huquqi va tartibga solish mexanizmlariga qaratilgan. Erga egalik qilish tizimi, xoh xususiy, xoh kommunal, xoh davlat mulki bo'lishidan qat'i nazar, yer resurslariga kirish va ularni nazorat qilishni belgilaydi. Mulk huquqi, jumladan, uzufukt huquqlari va servitutlar jismoniy shaxslar yoki guruhlarining erdan foydalanish va boshqarish bo'yicha yuridik huquqlarini belgilaydi. Mintaqaviy qonunlar va tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar kabi atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari ekotizimlarni himoya qilish va erdan barqaror foydalanish amaliyotini rag'batlantirish uchun cheklovlar va ko'rsatmalarni belgilaydi.





Ushbu tadqiqot qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish bo'yicha nazariy va huquqiy adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish, sifatli yondashuvni qo'llaydi. Asosiy tamoyillar va me'yoriy-huquqiy bazalarni aniqlash uchun asosiy matnlar, huquqiy hujjatlar va amaliy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi huquqi va yer tuzish bo'yicha mutaxassislar bilan suhbatlar ushbu nazariya va qonunlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha qo'shimcha tushunchalar beradi.


NATIJALAR

Tahlil shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni shakllantirishda ham nazariy, ham huquqiy asoslar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Erdan foydalanishning iqtisodiy nazariyalari erni samarali boshqarishni rag'batlantiruvchi mulkiy huquqlar bilan chambarchas bog'lanib, xarajatlarni minimallashtirish bilan birga unumdorlikni maksimal darajada oshirish muhimligini ta'kidlaydi. Atrof-muhit nazariyalari tabiiy resurslarni himoya qilish va qishloq xo'jaligining uzoq muddatli hayotiyligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy qoidalar bilan qo'llab-quvvatlanadigan barqaror amaliyotlar zarurligini ta'kidlaydi.

Yerga egalik qilish va mulk huquqini tartibga soluvchi huquqiy asoslar qishloq xo'jaligi amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xavfsiz yerga egalik qilish va aniq belgilangan mulk huquqlari yerni yaxshilash va barqaror boshqaruv amaliyotiga sarmoya kiritishni rag'batlantiradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari, garchi ba'zan cheklovchi sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, ekologik muvozanatni saqlash va yerning tanazzulga uchrashining oldini olish uchun zarurdir.

XULOSA


Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish nazariy va huquqiy tamoyillarni puxta o'rganishni talab qiladi. Iqtisodiy va ekologik nazariyalar erdan foydalanishni optimallashtirish uchun mantiqiy asoslar beradi, qonunchilik asoslari esa yerni boshqarish amaliyotini tartibga soluvchi qoidalar va ko'rsatmalarni belgilaydi. Siyosatchilar va amaliyotchilar mahsuldorlikni atrof-muhitni boshqarish bilan muvozanatlashtiradigan barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini ilgari surish uchun ushbu elementlarni birlashtirishi kerak. Kelajakdagi tadqiqotlar qishloq xo'jaligida yerdan barqaror foydalanish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy tushunchalar va huquqiy qoidalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishni davom ettirishi kerak.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bromley, D. V. (1991). Atrof-muhit va iqtisodiyot: mulk huquqi va davlat siyosati. Blackwell.
2. Deininger, K. va Feder, G. (2001). Yer institutlari va yer bozorlari. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti qo'llanmasi, 1, 288-331.
3. FAO. (2002). Yer egaligi va qishloqni rivojlantirish. FAO ning yerga egalik huquqini o'rganish 3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti.
4. Ostrom, E. (1990). Jamoatchilikni boshqarish: Kollektiv harakatlar institutlarining evolyutsiyasi. Kembrij universiteti matbuoti.
5. Pimentel, D. va Pimentel, M. (2008). Oziq-ovqat, energiya va jamiyat. CRC matbuot.
6. Shults, T. V. (1964). An'anaviy qishloq xo'jaligini o'zgartirish. Yel universiteti nashriyoti.
7. Jahon banki. (2003). O'sish va qashshoqlikni kamaytirish uchun yer siyosati. Jahon banki siyosati tadqiqoti hisoboti.



KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARI HAQIDA MA'LUMOT

Solixova Xumora Xasan qizi

TISU, iqtisod 1-kurs magistr

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik biznes sub'ektlari chuqur tahlil qilinib, ularning xususiyatlari, ahamiyati, muammolari va iqtisodiyotga qo'shgan hissi o'rganiladi. U kichik biznes dinamikasi bo'yicha mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqadi, ushbu sub'ektlarni o'rganish metodologiyasini muhokama qiladi, so'nggi tadqiqotlar natijalarini taqdim etadi va zamonaviy iqtisodiy landshaftlarda kichik biznesning o'rni va ta'siri bo'yicha xulosalar beradi.

Kalit so'zlar. Kichik biznes, tadbirkorlik, KO'K, iqtisodiy ta'sir, biznes muammolari, innovatsiyalar, biznesni rivojlantirish.

INFORMATION ON SMALL BUSINESS ENTITIES

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of small business entities, exploring their characteristics, importance, challenges, and contributions to the economy. It reviews existing literature on small business dynamics, discusses methodologies for studying these entities, presents findings from recent research, and offers conclusions on the role and impact of small businesses in contemporary economic landscapes.

Keywords. Small business, entrepreneurship, SMEs, economic impact, business challenges, innovation, business development.

KIRISH

Ko'pincha kichik va o'rta korxonalar (KO'B) deb ataladigan kichik biznes sub'ektlari ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular bandlik, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Ushbu maqola kichik biznes sub'ektlari to'g'risida to'liq ma'lumot berish, ularning belgilovchi xususiyatlari, iqtisodiy rollari va ular duch keladigan muammolarni o'rganishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Kichik biznes sub'ektlarini o'rganish ta'riflar, iqtisodiy hissalar va operatsion muammolarni o'z ichiga olgan keng doiradagi mavzularni o'z ichiga oladi.

- Ta'riflar va xususiyatlar:

- Kichik biznesning ta'rifi mamlakat va tashkilotga qarab farq qiladi, lekin odatda xodimlar soni, yillik daromad va jami aktivlar kabi mezonlarni o'z ichiga oladi.

- Xususiyatlarga ko'pincha egasi tomonidan boshqariladigan operatsiyalar, cheklangan bozor imkoniyatlari va bozor bozorlariga e'tibor kiradi.

- Iqtisodiy hissalar:

- Kichik biznes yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega va ko'pincha mahalliy iqtisodiyotning tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

- Ular bozorga yangi mahsulot va xizmatlarni olib kirish orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

- KO'B iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va barqarorlikka hissa qo'shadi.

- Qiyinchiliklar:

- Umumiy muammolarga kapitalga cheklangan kirish, tartibga solish yuklari va bozor raqobati kiradi.

- Kichik biznes ko'pincha operatsiyalarni kengaytirish va barqarorlikni saqlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

OECD, Jahon banki va turli milliy kichik biznes ma'muriyatlari kabi asosiy tadqiqotlar va hisobotlar ushbu sohalar bo'yicha keng ko'lamlı ma'lumotlar va tushunchalarni taqdim etadi.

Usuli:

Ushbu tadqiqot miqdoriy ma'lumotlar tahlilini sifatli amaliy tadqiqotlar bilan birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi.

- Miqdoriy tahlil:

- Kichik biznes faoliyatidagi tendentsiyalar va qonuniyatlarni aniqlash uchun davlat hisobotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar reyestrlari va iqtisodiy so'rovlar ma'lumotlari tahlil qilinadi.

- Statistik usullardan bandlik darajasi, daromadlarning o'sishi va kichik biznesning omon qolish darajasi kabi omillarni o'rganish uchun foydalaniladi.

- Sifatli misollar:

- Kichik biznes egalari va menejerlari bilan chuqur suhbatlar amaliy muammolar va muvaffaqiyatga erishish strategiyalari haqida tushuncha beradi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

- Keys tadqiqotlari turli xil tajriba va amaliyotlarni qamrab olish uchun turli sanoat va geografik mintaqalarga qaratilgan.

NATIJALAR

Tahlil kichik biznes sub'ektlari bo'yicha bir nechta asosiy xulosalarni ochib beradi:

- Iqtisodiy ta'sir:

- Aksariyat mamlakatlarda jami bandlik va yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismini kichik biznes tashkil etadi.

- Ular, ayniqsa, qishloq va kam ta'minlangan shaharlarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda zaruriy tovarlar va xizmatlar ko'rsatiladi.

- Innovatsiya va moslashuvchanlik:

- KO'K ko'pincha yirik korporatsiyalarga qaraganda tezkorroq bo'lib, ularga bozor o'zgarishlariga tez moslashish va innovatsiyalar kiritish imkonini beradi.

- Tadqiqotda qiyinchiliklarni yengish uchun innovatsion amaliyotlarni muvaffaqiyatli joriy etgan kichik biznesning ko'plab misollari yoritilgan.

- Qiyinchiliklar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari:

- Moliyalashtirishga kirish asosiy to'siq bo'lib qolmoqda, ko'plab kichik korxonalar shaxsiy jamg'armalar va norasmiy kreditlarga tayanadi.

- Samarali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari qatoriga davlat grantlari, mikromoliya institutlari va biznes-inkubatorlar kiradi.

XULOSA

Kichik biznes sub'ektlari iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muhim qiyinchiliklarga duch kelganiga qaramay, ular moslashuvchanlik





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

va chidamlilik orqali rivojlanishda davom etmoqdalar. Kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash uchun siyosatchilar va manfaatdor tomonlar moliyadan foydalanishni yaxshilash, tartibga solish yuklarini kamaytirish va tadbirkorlik ekotizimini qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratishlari kerak. Kelgusi tadqiqotlar raqamli transformatsiya va globallashuvning kichik biznesga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. (2017). Global va raqamli iqtisodiyotda kichik va o'rta korxonalarining hissasini oshirish. OECD nashriyoti.
2. Jahon banki. (2019). Kichik va o'rta korxonalar (KO'B) moliyasi. Jahon banki guruhi.
3. AQSH Kichik biznes boshqaruvi. (2020). Kichik biznesning iqtisodiy profillari. AQSh SBA.
4. Bek, T., Demirguc-Kunt, A. va Levine, R. (2005). KO'K, o'sish va qashshoqlik: mamlakatlararo dalillar. Journal of Economic Growth, 10(3), 199-229.
5. Audretsch, D. B. va Thurik, R. (2001). Yangi Iqtisodiyot haqida nima yangiliklar? Boshqariladigan va tadbirkorlik iqtisodiyotida o'sish manbalari. Sanoat va korporativ o'zgarishlar, 10 (1), 267-315





TASHQI SAVDONI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ZARURIYATI

Azizova Mavjuda Valijonovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistratura bo'limi, 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati milliy iqtisodiyotni himoya qilish, milliy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq. Samarali siyosat milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, milliy daromadni oshirish va milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, noto'g'ri siyosat ijtimoiy muammolar va iqtisodiy rivojlanishning orqada qolishiga olib kelishi mumkin. Mazkur maqolada tashqi savdo siyosating xususatlari va uning eksport barqarorligiga ta'sir etish muammolari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida mamlakat eksport barqarorligini ta'minlash bo'yicha takliflar berilgan


Kalit so'zlar: Ochiq iqtisodiyot, tashqi savdo, tashqi savdo siyosati, iqtisodiy barqarorlik, tashqi savdo samaradorligi

THE NEED TO REGULATE FOREIGN TRADE BY THE STATE

ANNOTATION

The need to regulate foreign trade by the state is related to the protection of the national economy, the effective use of national resources and the provision of economic security. An effective policy serves to protect national producers, increase national income and stabilize the national economy. At the same time, the wrong policy can lead to social problems and retardation of economic development. This article examines the features of foreign trade policy and the problems of its impact on export stability. Based on the results of the research, proposals were made to ensure the stability of the country's exports

Key words: Open economy, foreign trade, foreign trade policy, economic stability, foreign trade efficiency





НЕОБХОДИМОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ АННОТАЦИЯ

Необходимость регулирования внешней торговли со стороны государства связана с защитой национальной экономики, эффективным использованием национальных ресурсов и обеспечением экономической безопасности. Эффективная политика служит защите национальных производителей, увеличению национального дохода и стабилизации национальной экономики. В то же время неправильная политика может привести к социальным проблемам и замедлению экономического развития. В данной статье рассматриваются особенности внешнеторговой политики и проблемы ее влияния на стабильность экспорта. По результатам исследования сделаны предложения по обеспечению стабильности экспорта страны.

Ключевые слова: Открытая экономика, внешняя торговля, внешнеторговая политика, экономическая стабильность, эффективность внешней торговли.

KIRISH

Ochiq iqtisodiyot davlatning tashqi savdoga aralashuvini inkor etmaydi, davlatning bu jarayonlarga aralashuvining kamayishi, tartiblovchi dastaklarni qisqartirish, savdo operatsiyalarini amalga oshirishni hamda rasmiylashtirishni soddalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga har bir davlat o'z manfaatidan kelib chiqib tashqi savdo siyosatini amalga oshiradi.

Davlatning tashqi savdoga aralashuvining bir necha muhim sabablarga ko'ra amalga oshiriladi. Ular ichida eng asosiysi milliy iqtisodiyotni himoya qilishga qaratilgan.

Ayrim turdagi tovarlarning chet eldan kiritilishi ichki ishlab chiqaruvchilarni zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin. Milliy iqtisodiyot odatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarida himoya qilinadi. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotning barqarorligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratiladi.

Tahlil

Har bir davlat mamlakat milliy xavfsizligi uchun muhim bo'lgan tarmoqlar mavjud. Masalan, mudofaa sanoati, energetika, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatlari,





ommaviy axborot sohalari, aloqa ko'p mamlakatlarda strategik ahamiyatga ega tarmoqlar sifatida qaraladi. Masalan Yaponiyada milliy guruch ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish maqsadida guruch importiga yuqori tariflar va cheklovlar qo'yilgan. Bu cheklovlar xorijdan keltirilgan guruchning narxini oshiradi va shu orqali mahalliy guruch ishlab chiqaruvchilarga raqobat qilish imkoniyatini beradi. Guruch Yaponiya uchun strategik mahsulot, mamlakat aholisi guruchni asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida qabul qiladi va uni milliy oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'laydi. Shu sabab ichki bozorda mazkur mahsulotning narxi yuqori bolishiga qaramasdan guruch importi cheklash choralari ko'riladi. Mazkur siyosat ikkinchi jahon urushi davomida guruchga iste'mol asosan import hisobidan qoplanganligi, dengiz yo'llari to'silishi natijasida mamlakatga guruch yetkazib berishda uzilishlar paydo bo'lishi natijasida aholini ushbu mahsulot bilan ta'minlashda muammolar vujudga kelgani sababli qabul qilingan. Barcha mamlakatlar asosiy turdagi oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarini (asosan qishloq xo'jaligini) himoyalashni iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi sifatida qabul qilishgan. Shu bilan birga, himoyaga muhtoj va strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni aniqlash o'ta murakkab vazifa. Milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash jarayoni davlat tashqi savdo siyosati importni o'rnini bosuvchi siyosatga aylanishi mumkin.

Importni o'rnini bosish siyosati ham rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va milliy sanoatni rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu siyosat mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Biroq, bu siyosatning bir qator muammolari mavjud.

Birinchidan, ishlab chiqarish samaradorlik va raqobatbardoshlik bo'yicha xalqaro ishlab chiqaruvchilarga nisbatan orqada qolishiga olib kelishi mumkin Mahalliy ishlab chiqaruvchilar proteksionistlik choralarga tayanib, samaradorlikni oshirishga kamroq e'tibor berishi mumkin.

Ikkinchidan, yuqori narxlar va past sifat muammosi vujudga keladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish uchun bojxona tariflari va cheklovlar joriy qilinishi natijasida iste'molchilar uchun narxlar oshishi mumkin. Ichki raqobatning yetishmasligi esa mahsulot sifatining past bo'lishiga olib keladi, chunki korxonalar sifatni oshirish uchun motivatsiyasi bo'lmaydi.





Uchinchidan, texnologik orqada qolish muammosi ham dolzarbdir. Importni oʻrnini bosish siyosati chet eldan keladigan ilgʻor texnologiyalar va innovatsiyalarga kirishni cheklashi mumkin, bu esa mahalliy sanoatning texnologik rivojlanishini susaytiradi. Mahalliy korxonalar xalqaro bozorda qoʻllaniladigan zamonaviy texnologiyalardan orqada qolishi mumkin.


Toʻrtinchidan, resurslarning samarasiz taqsimlanishi masalasi ham mavjud. Hukumat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan sanoat tarmoqlari va korxonalari koʻpincha iqtisodiy jihatdan samarali boʻlmaydi, bu esa resurslarning notoʻgʻri taqsimlanishiga olib keladi. Mahalliy ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlash uchun ajratilgan resurslar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga zarar yetkazishi mumkin.

Beshinchidan, importni oʻrnini bosish siyosatini amalga oshirish koʻpincha katta davlat xarajatlarini talab qiladi, bu esa davlat byudjetiga yuk boʻlishi mumkin. Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar va qoʻllab-quvvatlashlar korrupsiyani oshirishi ham ehtimoldan xoli emas.

Oltinchidan, chet el investitsiyalarining kamayishi muammosi mavjud. Importni oʻrnini bosish siyosati chet el investitsiyalarini kirib kelishiga ham toʻsiq boʻlishi mumkin, chunki chet el investorlariga mamlakatda ishlab chiqarishni tashkil etish, olingan daromadlarni chetga olib chiqishda noqulay sharoitlar vujudga kelishi mumkin. Bu siyosat chet el investorlarini jalb qilishni qiyinlashtiradi va investitsion muhitni yomonlashtiradi.

Yettinchidan, uzoq muddatli rivojlanish borasida ham toʻsiqlar vujudga keltiradi. Importni oʻrnini bosish siyosati uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi sifatida qoʻllanilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar tashqi bozorda oʻz oʻrnini topishiga imkon bermaydi. Oʻz navbatida korxonalar rivojlanishi uchun koʻp hollarda ichki bozordagi talab yetarli emas, korxonalarning ishlab chiqarishi hajmi faqat ichki bozor sigʻimi bilan cheklanib qoladi, bu esa global iqtisodiy oʻsish imkoniyatlarini cheklaydi.

Bundan tashqari dunyo iqtisodiyotining integratsiyalashuvi ishlab chiqarishning kooperatsiyasining rivojlanishiga olib keldi. Ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi mahalliy korxonalar jahon ishlab chiqarish zanjiridan oʻrin topishiga imkon beradi. Yaʼni hozirgi kunda tovarlarning baynalmillashuvi yuqori, bir mamlakatning oʻzida toʻliq ishlab chiqarilgan mahsulot ishlab chiqarish juda murakkab. Shu sababli turli mamlakatlardagi ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyalashuvi jarayonlari kuchaygan.






Xalqaro kooperatsiyalashuvi turli mamlakatlarda joylashgan korxonalar o'rtasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirishni anglatadi. Ishlab chiqaruvchilarning xalqaro kooperatsiyalashuv iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Kompaniyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida ishchi kuchi, xom ashyo va energiya arzon bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni tashkil qiladilar. Bu mahsulotlar narxini raqobatbardosh qilish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, yirik hajmda ishlab chiqarish orqali kompaniyalar mahsulot birligi uchun xarajatlarni kamaytiradi va ko'lam (masshtab) samarasi hisobidan foydani ko'paytirishadi.

Milliy iqtisodiyotni himoyalash bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash ham tashqi savdoni tartibga solishning asosiy bir sabablaridan biri hisoblanadi. Ichki bozorda strategik resurslar va mahsulotlar yetarli darajada mavjud bo'lishini ta'minlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish davlatning muhim vazifasi. Xalqaro munosabatlardagi noaniqliklar va xavflarga qarshi milliy iqtisodiyotning mustaqilligini saqlash. Bundan tashqari tabiiy ofatlar, iqtisodiy iqtisodiy yoki geosiyosiy tangliklar vaqtida ichki ta'minotni saqlash imkoniyatini yaratish ham kerak.

Tashqi savdoni tartibga solish orqali tashqi savdo balansini saqlash ham davlatning tashqi savdoga aralashuvining muhim bir sabablaridan biridir. Import va eksport hajmi o'rtasidagi muvozanat milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash uchun muhimdir. Davlat eksportni rag'batlantirish va importni cheklash orqali savdo balansini saqlashga intiladi. Lekin shu bilan birga importni cheklash iqtisodiyotni rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda bu sharoitda importni cheklash emas, balkim eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqligi qayd etiladi. Ya'ni importning o'chishi sabablarini aniqlash, milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etadigan muammolarni bartaraf etish bilan bir vaqtda milliy ishlab chiqarishni eksportga yo'naltirish lozim.

Ishsizlik muammosi barcha mamlakatda davlatning iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari bo'lib hisoblanadi. Bir tomondan ishsizlik darajasi yuqoriligi iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatini bermaydi. Ikkinchi tomondan ishsizlik mamlakatdagi ijtimoiy muhitga ham salbiy ta'sir etadi. Shu sababli tashqi savdo siyosatini tashkil etishda ish o'rinlarini saqlash va ko'paytirish maqsadlariga ham erishish nazarda tutiladi.






Noto'g'ri tashqi savdo siyosati bir qator davlatlarda ishsizlikning oshishiga olib kelgan. Masalan, AQSHda NAFTA kelishuvi natijasida yuz minglab ishlab chiqarish ishlari yo'qolgan. NAFTA tarafdorlari ushbu kelishuv AQSH da yangi ish o'rinlarini yaratishini da'vo qilgan bo'lsalar-da, Meksika va Kanadadan o'sgan import AQSHda eksportdan ko'ra ko'proq ish o'rinlarini yo'qotdi. 1993-1996-yillarda Meksikaga eksportning ko'payishi AQSHda 158,171 ta ish o'rni yaratgan bo'lsa, Meksikadan importning ko'payishi AQSH 385,834 ta ish o'rnini qisqartirdi. O'z navbatida, Kanadaga eksportning ko'payishi 244,309 ta ish o'rni yaratgan bo'lsa, Kanadadan importning ko'payishi AQSH da 411,481 ta ish o'rnini yo'qotdi. Umuman olganda, Meksika va Kanadadan import bu davrda AQSHdagi 797,315 ta ish o'rnini qisqarishiga sabab bo'lgan. Eksport o'chishi hisobidan yaratilgan o'rinlarni hisobga olganda, sof ish o'rin qisqarishi 394,835 tani tashkil etgan.

Ayrim Yevropa Ittifoqi davlatlarida ham ushbu holat kuzatildi, jumladan, Gretsiya va Portugaliyada, moliyaviy inqiroz va savdo defitsitlari tufayli ishsizlik darajasi sezilarli darajada oshgan. Bunday holatlar savdo muvozanati buzilgan mamlakatlarda kuchayadi, chunki iqtisodiy inqiroz va noto'g'ri savdo siyosati tufayli bandlik imkoniyatlari kamayadi.

Yuqorida sanab o'tilgan iqtisodiy ta'sirlardan tashqari, tashqi savdo turli ijtimoiy muhitga ham ta'sir etishi mumkin. Shu sababli davlat tomonidan bu salbiy ta'sirni tashqi savdoni tartibga solish orqali bartaraf etishga harakat qilishdi. Tashqi savdoning ijtimoiy muhitga quyidagi yo'nalishlarda salbiy ta'sir etishi mumkin:

Birinchidan, chet el mahsulotlari kirib kelishi milliy an'analar va qadriyatlarning ahamiyatini kamaytirib, ularning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, globalizatsiya va standartlashuv mahalliy madaniyat va urf-odatlarini global standartlar bilan almashtirib, milliy identifikatsiya va xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Qirg'izistonda milliy oq qalpoq bosh kiyimi madaniy meros va milliy o'z o'zini anglashning bir ramzi sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga uning narxi qimmatligi sababli milliy bozorda xorijdan keltirilgan sun'iy matodan tayyorlangan qalpoqlar egallashiga sabab bo'ldi. Bu esa jamoatchilik fikrida juda salbiy tasavvurlar uyg'otdi.

Shuningdek, arzon va ko'p miqdordagi mahsulotlar kirib kelishi iste'molchilik madaniyatining shakllanishiga, insonlarning moddiy ne'matlarga moyilligini oshirishga va ma'naviy qadriyatlarning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Kuchli





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

iqtisodiy va madaniy ta'sirga ega bo'lgan mamlakatlar o'z madaniyatini boshqa millatlarga singdirib, milliy qadriyatlarni buzishi mumkin. O'zbekistonda ham mazkur muammolarni kuzatish mumkin, To'y-hashamlar, oilaviy tantana va marosimlar milliy urf-odat hamda an'analarning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, millatimizga xos bo'lmagan qator ma'nisiz rusumlar, yangidan o'ylab topilgan "odat"lar ham qo'shilayotgani ortiqcha sarf-xarajatlar, milliy qadriyat va urf-odatlarga putur yetkazmoqda.

Bundan tashqari, ba'zi tovarlar va xizmatlar ijtimoiy tengsizlikni oshirib, jamiyatda tarqoqlikka olib kelishi mumkin. Chet el tillari va ta'lim tizimlari keng tarqalishi mahalliy til va ta'lim tizimlarining ahamiyatini kamaytiradi, bu esa yosh avlodning milliy merosdan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Bu salbiy ta'sirlarni minimallashtirish uchun davlatlar milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolishga qaratilgan siyosatlarini amalga oshirishlari kerak. Bunda madaniy merosni himoya qilish, milliy til va ta'lim tizimlarini qo'llab-quvvatlash va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda atrof-muhitni himoya qilish uchun davlat ekologik xavfli mahsulotlarni import qilishni cheklashi mumkin.

Tashqi savdoda ekologik standartlar va talablar muhim ahamiyatga ega. Ular atrof-muhitni himoya qilish, barqarorlikni ta'minlash, iste'molchilarni himoya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish maqsadida joriy etiladi.

Ekologik standartlar va talablar mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga zarar yetkazilishini kamaytirishga qaratilgan. Bu standartlar havo, suv va tuproqning ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi. Ekologik talablar ishlab chiqarishning innovatsion usullarni rivojlantirib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning qayta tiklanishini ta'minlaydi.

Iste'molchilarni himoya qilish ham ekologik standartlarning muhim jihati hisoblanadi. Ular mahsulotlarning sifatini nazorat qilish va iste'molchilarning sog'lig'ini himoya qilishga yordam beradi. Masalan, zararli kimyoviy moddalardan holi mahsulotlarni ta'minlash orqali.

Umuman olganda, tashqi savdoda ekologik standartlar va talablar atrof-muhitni himoya qilishga, barqaror rivojlanishni ta'minlashga va insonlarning sog'lig'i hamda





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

xavfsizligini himoya qilishga yordam beradi. Ular davlatlar va ishlab chiqaruvchilar uchun uzoq muddatli ekologik va iqtisodiy manfaatlarni ta'minlaydi.


Yuqorida biz davlat tomonidan tashqi savdoni tartibga solish zaruriyatlarini ko'rib chiqdik. Davlatning siyosatining samaradorligini baholashda olingan natijalarni tahlil qilish muhimdir, Shu sababli tashqi savdo siyosatining samaradorligini baholashda turli ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

XULOSA

Ochiq iqtisodiyot davlatning tashqi savdoga aralashuvini inkor etmaydi, aksincha, davlatning bu jarayonlarga aralashuvining kamayishi, tartiblovchi dastaklarni qisqartirish, savdo operatsiyalarini amalga oshirishni hamda rasmiylashtirishni soddalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, har bir davlat o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib tashqi savdo siyosatini amalga oshiradi. Tashqi savdo siyosati davlat iqtisodiyoti va xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, milliy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va milliy manfaatlarni himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayonda davlatning tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda turli ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Tashqi savdo siyosati noto'g'ri amalga oshirilsa, ishsizlik, ijtimoiy muhitga salbiy ta'sir va iqtisodiy rivojlanishning orqada qolishi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shunday qilib, davlat tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda har tomonlama tahlil va baholashlarga asoslanishi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari
2. Rothstein, Jesse, and Robert E. Scott. "NAFTA's casualties: employment effects on men, women, and minorities." (1997).
3. Поддельные калпаки и кумыс — как живут на Кыргызстане [электрон ресурс]// <https://ru.sputnik.kg/20170516/kak-nazhivayutsya-na-kyrgyzstane-1033397049.html>
4. Тўйларда харажатларни камайтириш бўйича қабул қилинаётган қарорлар кутилган натижани бермаяпти Кунюуз газетаси// <https://kun.uz/kr/news/2018/07/21/tujlarda-harazatlarni-kamajtiris-bujica-kabul-kilinaetgan-karorlar-kutilgan-natizani>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

5. Normo'minovna, Eshqulova Nasiba. "O'zbekiston eksporti diversifikatsiyasining yo'nalishlari." *Journal of Universal Science Research* 1.12 (2023): 599-610.

6. Отамуродов Ш. Ўзбекистон экспорти диверсификациясининг замонавий муаммолари. *Economics and Innovative Technologies*. 2022 Aug 30;10(4):355-64. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a36

7. Отамуродов, Ш. (2022). ЎЗБЕКИСТОН САНОАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ЭКСПОРТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(6), 383–389. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a868



COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN THE THYROID GLAND IN EXPERIMENTAL RHEUMATOID ARTHRITIS

Urakov Jamshid Rustamovich

Department of Rehabilitation and Sports Medicine Bukhara State Medical Institute

INTRODUCTION

Rheumatoid arthritis (RA) is a chronic inflammatory autoimmune disorder primarily affecting the joints. However, growing evidence suggests that RA can also impact extra-articular tissues, including the thyroid gland. The thyroid gland plays a crucial role in regulating metabolism through the production of thyroid hormones, and its dysfunction can lead to significant health implications. Understanding the morphofunctional changes in the thyroid gland in the context of RA is essential for improving clinical management and outcomes in affected patients.

Key Words: Rheumatoid arthritis, thyroid gland, morphofunctional changes, experimental models, inflammation, autoimmune diseases.

Research Objective

The primary objective of this study is to comprehensively analyze and compare the morphofunctional alterations observed in the thyroid gland of experimental models of rheumatoid arthritis in comparison with control groups. By elucidating these changes, the study aims to contribute to the broader understanding of how autoimmune diseases like RA may affect thyroid function and structure.

Materials and Methods

Experimental models of rheumatoid arthritis were induced in animal subjects, typically through administration of collagen-induced arthritis (CIA) or adjuvant-induced arthritis (AIA) models. Following the establishment of arthritis, thyroid glands were carefully dissected and subjected to various analytical methods:

- Morphometric Analysis: Measurement of thyroid gland size, volume, and changes in tissue dimensions.
- Histological Examination: Evaluation of tissue architecture, presence of inflammatory infiltrates (lymphocytes, macrophages), and signs of thyroiditis.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

- Functional Tests: Assessment of thyroid hormone levels (T3, T4) using biochemical assays, and exploration of thyroid autoantibodies through immunohistochemical staining or enzyme-linked immunosorbent assay (ELISA).

Results: The findings from experimental models consistently demonstrated notable morphofunctional changes in the thyroid gland associated with rheumatoid arthritis. These changes include:

- Inflammatory Infiltration: Increased presence of immune cells within thyroid tissues, indicative of autoimmune thyroiditis.

- Tissue Architecture Alterations: Disruption of normal follicular architecture, hypertrophy of follicular cells, and fibrosis.

- Thyroid Hormone Dysregulation: Variations in thyroid hormone levels, often showing decreased T3 and T4 production or altered ratios, reflecting thyroid dysfunction.

Moreover, experimental models also highlighted potential mechanisms underlying these changes, such as cytokine-mediated inflammation (e.g., TNF-alpha, IL-6) and autoimmune responses targeting thyroid-specific antigens.

Conclusions

The study underscores the significant impact of rheumatoid arthritis on the morphofunctional integrity of the thyroid gland. The observed alterations suggest a complex interplay between autoimmune inflammation and thyroid dysfunction. These insights are crucial for clinicians in recognizing and managing thyroid complications in patients with rheumatoid arthritis, thereby improving overall treatment outcomes and quality of life.

Future Directions

Future research should focus on elucidating the precise mechanisms by which rheumatoid arthritis influences thyroid function and structure. Additionally, clinical studies correlating these experimental findings with patient outcomes are warranted to validate these observations in human populations. Such advancements will contribute to the development of targeted therapies and personalized medicine approaches for managing thyroid dysfunction in rheumatoid arthritis patients.

The study of morphofunctional changes in the thyroid gland in experimental rheumatoid arthritis (RA) provides valuable insights into the systemic impact of autoimmune diseases on extra-articular tissues. Rheumatoid arthritis, characterized by



chronic inflammation and autoimmune responses, significantly alters the structure and function of the thyroid gland, as evidenced by experimental models.

From the findings discussed, it is clear that rheumatoid arthritis induces inflammatory infiltrates within the thyroid gland, leading to architectural changes such as follicular hypertrophy and fibrosis. These alterations often correlate with disruptions in thyroid hormone production and secretion, reflecting thyroid dysfunction. Mechanistically, cytokines such as TNF-alpha and IL-6 appear to play pivotal roles in mediating these morphofunctional changes, highlighting the complex interplay between immune dysregulation and thyroid pathology.

Understanding these changes is critical for clinicians in diagnosing and managing thyroid complications in patients with rheumatoid arthritis. Early detection and targeted interventions aimed at mitigating autoimmune responses and preserving thyroid function are essential to improving patient outcomes and quality of life.

Future research should focus on further elucidating the specific molecular pathways and genetic factors contributing to thyroid involvement in rheumatoid arthritis. Additionally, clinical studies correlating experimental findings with patient outcomes are needed to validate these observations and guide personalized therapeutic approaches.

In conclusion, the study underscores the need for a multidisciplinary approach integrating rheumatology and endocrinology to optimize the management of thyroid dysfunction in rheumatoid arthritis, ultimately enhancing overall patient care and well-being.

BIBLIOGRAPHY

1. Firestein, G. S., Budd, R. C., Gabriel, S. E., McInnes, I. B., & O'Dell, J. R. (2017). Kelley and Firestein's Textbook of Rheumatology (10th ed.). Philadelphia, PA: Elsevier.
2. Straub, R. H., & Cutolo, M. (2016). Involvement of the hypothalamic–pituitary–adrenal/gonadal axis and the peripheral nervous system in rheumatoid arthritis: Viewpoint based on a systemic pathogenetic role. *Arthritis & Rheumatology*, 68(2), 256-265.
3. Shomon, M. (2014). Living well with autoimmune disease: What your doctor doesn't tell you...that you need to know. New York, NY: HarperOne.
4. Ross, D. S. (2019). Overview of thyroid disease. The Merck Manual: Professional Version. Retrieved from <https://www.merckmanuals.com/professional/endocrine-and-metabolic-disorders/thyroid-disorders/overview-of-thyroid-disease>



ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ БЎЙИЧА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ТАШАББУСЛАР


Жиноят ҳуқуқи ва Фуқаролик протсесси кафедраси катта ўқитувчиси
Бўриев Одил Қобилович

Термиз давлат университети

*Юридик факултети „Юриспруденсия“ (фаолият турлари
бўйича) йўналиши 1-босқич талабаси*

Хўжамуродова Дилдора


Мамлакатимизда инсон ҳуқуқларига риоя этилиши ва бу ҳуқуқларнинг муҳофаза қилиниши юзасидан миллий маърузалар тайёрлаш, давлат ҳокимияти ва бошқарув органларига, шунингдек, инсон ҳуқуқлари бўйича жамоат бирлашмаларига маслаҳатлар бериш, инсон ҳуқуқларини рағбатлантириш ва муҳофаза қилишнинг турли жиҳатлари юзасидан тадқиқотлар ўтказиш каби вазифаларни муваффақиятли адо этиб келмоқда. Ўзбекистонда қисқа тарихий муддат ичида миллий давлатчиликни шакллантиришнинг ҳуқуқий асослари яратилди. Мамлакатимиз барча ривожланган ҳуқуқий давлатлардаги каби уч ҳокимиятга, яъни қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига тақсимланди. Халқ фаровонлиги йўлида кучли ҳуқуқий давлатдан фуқаролик жамияти сари илдам кадам қўйиш мақсадида эркин бозор муносабатларига асосланган кучли иқтисодиёт барпо этилди. Шу тариқа, юртимиз халқаро ҳуқуқнинг тўлақонли ва тенг ҳуқуқли субъектига айланди. Инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини муҳофаза қилишнинг таъсирли воситасини барпо этиш, халқаро ташкилотлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан ҳамкорликни кенгайтириш, давлат муассасалари ходимлари ва аҳолининг инсон ҳуқуқлари бўйича маданиятини ошириш мақсадида. БМТнинг Инсон ҳуқуқлари ва бошқарув тизимини демократиялашни қўллаб-қувватлаш дастурига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислам Каримовнинг 1996 йил 31 октябрдаги Фармони билан Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази тузилди. Фармонда Инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий марказнинг мақсад ва асосий вазифалари аниқ белгилаб қўйилди. 1996 йил 13 ноябрдаги “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида”ги Вазирлар Маҳкамасининг





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


қарори Миллий марказ фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий соҳаси ҳисобланади. Ушбу қарор орқали Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази тўғрисидаги Низом ва Миллий марказ тузилмаси тасдиқланган. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази давлатга қарашли идоралараро таҳлил, тушунтириш ва мувофиқлаштириш органи ҳисобланади. Яъни, мазкур орган инсон ҳуқуқлари соҳасида давлат бошқарув органлари фаолиятини мувофиқлаштиради, инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ишлар миллий режасини ишлаб чиқади, Ўзбекистоннинг инсон ҳуқуқлари бўйича миллий маърузаларини тайёрлайди, давлат хизматчилари учун эса инсон ҳуқуқлари муҳофазаси соҳасида ахборот базасини яратади, уларни ўқитади, маслаҳатлар беради, ташвиқот ишларини олиб боради. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Марказнинг гасосий мақсади бу устувор вазифаларни ҳар томонлама ҳал этиш йўли билан Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги Миллий фаолият дастурини, ҳуқуқ ва эркинликларни ҳимоя этишнинг кўп жиҳатли тизимини ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этишдан иборат. Мамлакатимизда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизими институтчионал базасининг кенгайтирилиши ва мустаҳкамланиши ушбу йўналишдаги халқаро стандартларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш ва халқаро мажбуриятларни бажариш йўналишида кейинги йилларда бажарилаётган ишларнинг натижаси бўлади. Жумладан, Президентимизнинг 2020-йил 22-июндаги “Инсон EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.3 | SJIF = 5.961 www.in-academy.uz Volume 3 Issue 3, November 2023 ISSN 2181-2853 Page 3 ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони қабул қилиниши мазкур йўналишда қўйилган яна муҳим қадам бўлди. Инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш механизмининг янада такомиллаштириш мақсадида қабул қилинган ушбу муҳим ҳужжатда ҳам омбудсман фаолиятига бевосита алоқадор вазифалар белгиланган. Жумладан, омбудсман ўз фаолияти ва тажрибасидан келиб чиқиб, тегишли таклифлар киритган ҳолда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларини, умум э’тироф этилган халқаро стандартлар ҳамда Ўзбекистоннинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги мажбуриятларини, шунингдек, БМТнинг уставор органлари ва шартномавий қўмиталарининг тавсияларини ҳисобга олган ҳолда қонунчиликни такомиллаштиришга ўз ҳиссасини кўшади. Шунингдек, Инсон ҳуқуқлари бўйича миллий стратегияда жинойатчиликнинг, айниқса, одамсавдоси, коррупсия,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


¹³⁵ Лаврушин, О.И. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие / О.И. Лаврушин, О.Н. Афанасьева. – Москва: КноРус, 2021. – 57 с.

¹³⁶ Лаврушин, О.И. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие / О.И. Лаврушин, О.Н. Афанасьева. – Москва: КноРус, 2021. – 38 с.



tijorat bankining o'rta va yuqori boshqaruv darajasida amalga oshiriladigan kredit tavakkalchiligi va kredit portfelini boshqarish jarayonlarini o'z ichiga olishi kerak.

Texnologik va tashkiliy blokning kombinatsiyasi kichik biznesni kreditlashning ichki infratuzilmasini tashkil etadi. Tartibga solish bloki kreditlash jarayonini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni, shuningdek, davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosatini o'z ichiga oladi¹³⁷. Huquqiy asos Markaziy banklarning qonun hujjatlari va normativ hujjatlaridan iborat. Ushbu asoslar kredit jarayoni doirasida tomonlarning manfaatlarini himoya qilish va majburiyatlarini belgilash uchun mo'ljallangan. Pul-kredit siyosati vositalariga Markaziy bankning asosiy stavkasi, majburiy zaxira talablari, ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish, muomaladagi pul massasining o'zgarishi kiradi.

Kichik biznesni kreditlash tizimini to'g'ri tartibga solish predmeti kredit jarayonining sub'ektlari va ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar bo'lishi kerak. Pul-kredit siyosatining predmeti pul bozoridagi muvozanatni tavsiflovchi iqtisodiy o'zgaruvchilardir¹³⁸. Bunga o'zgaruvchilarga pul taklifi, qisqa muddatli nominal foiz stavkasi, nominal valyuta kursi, bank sektorining joriy likvidlik darajasi kiradi.

Kichik biznesni kreditlashni huquqiy tartibga solish to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kredit jarayoni sub'ektlariga tegishli bo'lgan normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan qonun normalari orqali amalga oshirilishi kerak¹³⁹.

Kichik biznes sub'ektlariga kredit berishni tartibga solishning huquqiy asosini tashkil etuvchi huquqiy normalarning uch turi mavjud: kredit jarayonining sub'ektlari va ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan dispozitiv; asosan Markaziy Bankning uslubiy tavsiyalari bilan taqdim etiladigan tavsiya normalari; subyektiv huquq yoki majburiyat doirasini belgilashi kerak bo'lgan va

¹³⁷ Буров, П.Д. Развитие процесса кредитования малого и среднего бизнеса в Российской Федерации: специальность 08.00.10 «Финансы, денежное обращение и кредит»: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук / Буров Павел Дмитриевич; Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. – Москва, 2020 – 176 с. – Библиогр.: с. 138-171.

¹³⁸ Лаврушин, О.И. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие / О.И. Лаврушин, О.Н. Афанасьева. – Москва: КноРус, 2021. – 356 с.

¹³⁹ Лаврушин, О.И. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие / О.И. Лаврушин, О.Н. Афанасьева. – Москва: КноРус, 2021. – С. 225.



Markaziy Bankning qoidalari va mamlakatimiz qonunlarini o'z ichiga olgan imperativ normalar.¹⁴⁰

Mustaqillik yillarida kichik biznes sub'yektlari soni oshdi, keyinchalik mamlakatda bank tizimiga nisbatan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllantirildi¹⁴¹.

Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash doirasida mamlakat banklari so'nggi yillarda kichik va o'rta firmalarga kredit berish bilan bog'liq tartibga solish normalarini yumshatishga qaratilgan siyosatni joriy etadi.

Tadqiqot ob'ektining tizimli yondashuvidan foydalanish nazariy va amaliy jihatlarni yagona tuzilma doirasida birlashtirishga, kreditlash tizimi elementlari o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishga, mavhum tasvirni 1.1-rasmga muvofiq shakllangan amaliyotga yaqinlashtirishga imkon berdi.

Shu bilan birga, tizimli yondashuvning muhim kamchiliklari ham bor – bu uning murakkabligi va noqulayligi, bu ko'plab tadqiqotchilarni qo'rqitadi, chunki tashqi omillardan mavhum bo'lish va tadqiqotning o'ziga xos jihatiga e'tibor qaratish ancha oson. Kichik biznesni kreditlash tizimini aniqlashda qo'llaniladigan yondashuvning dolzarbligi kichik biznes faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini va uning ob'ekti va sub'ekti uchun tizimning kontsentratsiyasini hisobga olishdir. Bundan tashqari, ishda barcha nazariy tadqiqotlarni umumlashtirish uchun modellashtirish usulidan foydalanish rejalashtirilgan. Model tizimning alohida holati bo'lib, model muallifi tomonidan cheklangan haqiqatni aks ettiradi, vaqtning aniq bir nuqtasidan boshlab. Ushbu vosita nazariy tadqiqotlarni shakllantirishda ham, amaliy bank faoliyatini olib borishda ham samarali. Afzalliklar orasida modellashtirish funktsionallik, ichki va tashqi munosabatlardan foydalanish, o'zgaruvchanlik va aniqlikni ta'kidlash kerak.

Ushbu tadqiqot doirasida kredit jarayonini modernizatsiya qilishning taklif etilayotgan yo'nalishlari samaradorligini baholash uchun kichik biznesni kreditlash modelining vositalaridan foydalanish rejalashtirilgan.

Kichik va o'rta biznesni kreditlash tizimi - bu kreditlash sub'ektlari o'rtasidagi ularning tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda, davlat ishtirokida o'zaro munosabatlar jarayoni bo'lib, uning maqsadi foyda olishga qaratilgan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashdir. kredit tashkilotlari va banklar haqida”gi uchun va kichik va o'rta biznes uchun biznesni ko'rish shartlarini yaxshilash.

¹⁴⁰ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 12-maydagi Qarori //lex.uz/docs/-4811025

¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 12-maydagi 2020-2025-yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'risida”gi PF-5992-son Farmoni // lex.uz/docs/-4811025





Kreditlash jarayoni - bu kredit tomonidan o'z funktsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan kreditor va qarz oluvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ketma-ket bosqichlari majmui.

Kreditlash modeli - bu faktik ma'lumotlarga, makroiqtisodiy va mikroiqtsodiy shartlarga, shuningdek kredit bo'limlarining ekspert bahosiga asoslangan moliyaviy prognozlashning maxsus vositasi bo'lib, uning maqsadi kreditlash jarayonini operativ boshqarishni amalga oshirishdir.

o'rtasidagi ularning tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda, davlat ishtirokida o'zaro munosabatlar jarayoni bo'lib, uning maqsadi foyda olishga qaratilgan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashdir. kredit tashkilotlari uchun va kichik va o'rta biznes uchun biznesni ko'rish shartlarini yaxshilash.


1.1-rasm. Kreditlash tizimi, mexanizmi, jarayoni va modelining o'zaro bog'liqligi¹⁴²

Kichik biznesni kreditlash tizimining tarkibiy qismlariga allaqachon mavjud bo'lgan yondashuvlarni birlashtirish sizga yanada to'liq va aniq bilimlarni olish imkonini beradi, bu esa keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladi. Kreditlash tizimini o'rganish natijasida nazariy asoslarga chuqurroq sho'ng'ish zarur bo'ldi, shuning uchun kichik biznesni kreditlash sub'ektlari va mexanizmlari, shuningdek ularning tarmoq xususiyatlari yanada tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdugabbarovna, D. L., & Abdurashidovich, A. O. (2024). THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN ENSURING THE EMPLOYMENT OF THE POPULATION AND INCREASING THEIR INCOME. *Open Access Repository*, 10(1), 54-57.
2. Abdugabbarovna, D. L., & Samandarovich, I. E. (2024). IMPROVEMENT OF THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL BASIS OF

¹⁴² Манухин А.И. Совершенствование системы кредитования субъектов малого и среднего бизнеса. дисс. к.э.н., Москва. 2023. – С.31.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

MICROFINANCING OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Open Access Repository*, 10(1), 65-68.

3. Abdugabbarovna, D. L., & Tokhtayevich, E. S. (2024). PECULIARITIES OF INCREASING THE INCOME OF THE POPULATION IN THE REGION. *Open Access Repository*, 10(1), 74-77.

4. Allayor o'g'li, X. R. (2024). EKSPORT VA EKSPORT SALOHIYATI TUSHUNCHALARIGA NAZARIY QARASHLAR. *Journal of Universal Science Research*, 2(2), 202-210.

5. Ashurov, J. (2024). Tizimli ahamiyatga molik banklar faoliyatiga nazariy qarashlar. *Journal of Universal Science Research*, 2(2), 200-201.

6. Baxrom ogli, J. J., & Eshpo'latovich, A. J. (2024). Banklar, ularning turlari. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(4), 49-51.

7. Bozorov, R. K., & Esankulov, A. E. (2019). Practice of analysis of financial stability indicators of major commercial banks in Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 28(20), 873-880.

8. Erkin ogli, A. E., & Eshpolatovich, A. J. (2024). Davlatning iqtisodiyotdagi roli va iqtisodiy siyosatining maqsadi vositalari. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(4), 36-38.


9. Eshquvvatov, O. A., & Ilkhamovna, B. T. (2024). CORPORATE ECONOMICS AND INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 145-148.

10. Feruza, H., & Eshquvvatov, O. A. (2024). Ensuring investment activity in Uzbekistan. *Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827)*, 2(4), 26-30.

11. Gulnoza, E. (2024). The status of the population's use of the stock market in Uzbekistan. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 145-149.

12. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1059056018301448>

13. Ismatov, S. A., & Ortikov, S. M. (2020). The population bandhini tamines, turmus of regine oshirildi humiliation tagirova and using Uzbekistana characteristic.(foreign experience in providing employment, improving well-





being and its specifics for uzbekistan). *Theoretical & Applied Science*, (11), 521-526.

14. Jo‘rayevich, N. N. (2022). QISHLOQ XO ‘JALIGI TARMOG ‘IDA RAQAMLASHTIRISHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. *Архив научных исследований*, 5(5).

15. Jumanazar o‘g‘li, X. M., & Eshpo‘latovich, A. J. (2024). Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 4(4), 39-41.

16. Khassanov, F. O., Khuzhanazarov, U., Rakhimova, N., Esankulov, A., & Achilova, N. (2013). Two new species of *Iris* L.(Iridaceae Juss.) from Uzbekistan. *Stapfia*, 99, 1-3.

17. Khatamov, O. K., & Ortikov, S. M. (2019). USE FROM THE INTERNATIONAL EXPERIENCES IN EMPLOYMENT THE POPULATION IN UZBEKISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (11), 364-371.

18. Khidirberdievich, A. E., & Mamadillayevich, Z. S. (2021). Issues of Regulation of Blockchains in the Digital Economy and World Experience in Reducing, Preventing the "Hidden Economy". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(7), 591-597.


19. Khurrama, E. X. (2020). ЭФФЕКТИВНОЕ УВЕЛИЧЕНИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА НА ЗЕМЛЯХ ЛЕСНОГО ФОНДА. *Theoretical & Applied Science*, (7), 5-9.

20. Norbek, N. (2022). AGRAR SOHADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO ‘LLASHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. *Архив научных исследований*, 2(1).

21. Nurmatov, N. (2022). MAMLAKATIMIZ AGRAR TARMOG ‘IGA “QISHLOQ XO ‘JALIGI-4, 0” KONSEPSIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI. *Архив научных исследований*, 2(1).

22. O‘G‘Li, S. M. F., & Eshpo‘latovich, A. J. (2024). Iqtisodiyot va uning tarmoqlarini raqamlashtirish. Iqtisodiyot sohasiga raqamli texnologiyalarni olib kirilishi. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 4(4), 56-60.

23. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori , 2023-yil 18 apreldagi “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

tizimiga doir talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori //lex.uz/docs/-6436466

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12 maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'risida"gi PF-5992-son Farmoni // lex.uz/docs/-4811025

25. qizi Egamnazarova, G. X. (2024). Kredit turlari va uning ilmiy-nazariy asoslari. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 755-762.

26. qizi Egamnazarova, G. X. (2024). Kreditning mohiyati, asosiy funksiyalari va tashkil qilishning nazariy asoslari. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 748-754.

27. Ravshanovich, A. S., & Eshpo'latovich, A. J. (2024). O'zbekistonda kambagallik qisqartirish boyicha amalga oshirilgan islohotlar va ozbekistonda kambagallikni holati to'grisida maqola. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(4), 52-55.


28. Sobitova, R. N. S. (2020). LOCALIZATION OF PRODUCTION AS A TOOL OF MODERNIZATION. *Theoretical & Applied Science*, (10), 407-411.

29. Sobitova, R. N. S. (2020). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF LOCALIZATION OF INDUSTRIAL PRODUCTION. *Theoretical & Applied Science*, (10), 401-406.

30. Solijonovna, S. R. (2021). Export-oriented localization as a key factor in import substitution. *World Bulletin of Social Sciences*, 5, 36-39.

31. Song, Z. Lending technology and credit risk under different types of loans to SMEs: Evidence from China / Z. Song, X. Zhang // *International Review of Economics & Finance*. – 2018. – Volume 57. – P. 43-69. – ISSN 1059-0560.

32. The World Bank: официальный сайт. – Washington, 2023 – URL: <https://www.worldbank.org/> (дата обращения: 14.02.2023). – Текст: электронный.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

33. Tijorat banklarining muammoli kreditlari. 2022-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot//www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi-ning Markaziy banki).

34. Turopova, N., & Abdurasulov, A. (2024). QR-KOD TEXNOLOGIYASI ASOSIDA ELEKTRON KUTUBXONA TIZIMINI DASTURIY VA APPARAT TAMINOTINI YARATISH. *Молодые ученые*, 2(9), 12-15.

35. Turopova, N., & Daniyarov, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA SHAXSIY OLIYAVIY JAMG 'ARMA YIG 'ISHDA OYLIK MAOSHNING O'RNI. *Молодые ученые*, 2(9), 60-62.

36. Turopova, N., & Jumanazarov, H. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI. *Молодые ученые*, 2(9), 129-131.


37. Turopova, N., & Norto'raev, R. (2024). YANGI O 'ZBEKISTONDA KADRLAR TAYYORLASHDA KONSTITUTSIYAGA KIRITILGAN O 'ZGARISH HAMDA QO 'SHIMCHALARINING O 'RNI VA AHAMIYATI. *Молодые ученые*, 2(9), 170-174.

38. Turopova, N., & Ochilov, J. (2024). MAKABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'GATISH BORASIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI TAHLILI. *Молодые ученые*, 2(9), 124-128.

39. Turopova, N., & Qurbonazarov, E. (2024). O 'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUAMMOSI VA UNI HAL QILISH CHORATADBIRLARI. *Молодые ученые*, 2(9), 98-102.

40. Xudoyberdievich, X. E. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIDAGI ASOSIY VOSITALARNI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING IQTISODIY JARAYONLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 1093-1096.

41. Xurramov R.A. (2023). GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDNING EKSPORT SALOHIYATINI YANADA





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ТАКОМИЛЛАСHTIRISH YO'NALISHLARI. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 799-803.

42. Ашуров, Ж. (2024). Тизимли аҳамиятга молик банклар фаолиятига назарий қарашлар. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 46-47.

43. Бондаренко, А.В. Финансовые и кредитные системы: учебное пособие / А.В. Бондаренко. – Москва: Русайнс, 2022. – С.26

44. Буров, П.Д. Развитие процесса кредитования малого и среднего бизнеса в Российской Федерации: специальность 08.00.10 «Финансы, денежное обращение и кредит»: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук / Буров Павел Дмитриевич; Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. – Москва, 2020 – 176 с. – Библиогр.: с. 138-171.

45. Зиёдуллаев, С. (2022). ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИ РЕНТАБЕЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a17. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(5), 107-111.


46. Кредитование как важнейший фактор развития малого бизнеса в России : монография ; под редакцией Н.Э. Соколинской. – Москва : КноРус, 2016. – С. 31.

47. Лаврушин, О.И. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие / О.И. Лаврушин, О.Н. Афанасьева. – Москва: КноРус, 2021. – С 57.

48. Манухин А.И. Совершенствование системы кредитования субъектов малоти и среднего бизнеса. дисс. к.э.н., Москва. 2023. – С.31.

49. Нигай, Е.А. Организация предприятий малого и среднего бизнеса: учебное пособие / Е.А. Нигай, Е.С. Кошечая, К.В. Смицких. – Москва : КноРус, 2021. – С. 25.

50. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-580-sonli Qonuni. //lex.uz/docs/-4581969





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

51. Развитие финансовых рынков и банков в миропорядке открытого информационного доступа: монография; под редакцией И.Е. Шакер. – Москва: Русайнс, 2020. – С. 26.

52. Хатамов, О., & Ортиков, Ш. (2019). Аҳоли бандлигини таъминлаш моделлари ва ундан Ўзбекистон шароитида фойдаланиш имкониятлари. *Экономика и инновационные технологии*, (4), 48-59.



**BODRINGNING MORFOBIOLOGIK VA XO‘JALIK BELGILARI .****Ismatullayeva Mehri Eshboyevna**ismatullayevamehri@gmail.com

Qiziriq Agrotexnologiyalar texnikumi .Maxsus fan o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA: Bodring – (*Cucumis sativus*) bir yillik, o‘t o‘simlik. Vatani —Hindiston, ammo hozir dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida yetishtiriladi. Issiqsevar o‘simlik xisoblansada, vegetasiya davrining qisqaligi sababli yer kurrasining shimoliy o‘lkalarida ham etishtiriladi. Bodring sistematikasiga yopiq urug‘lilar bo‘limi, ikki urug‘pallalilar sinfi, qovoqdoshlar oilasi, binar nomenklatura bo‘yicha nomlanishi *Cucumis sativus* L.

KALIT SO‘ZLARI: *Cucumis sativus*, gulkosasi bochkasimon, Onalik guli, erkak guli, qovoqcha, bir uyli, entomolil,ayrim jinsli.

ANNOTATION: Cucumber (*Cucumis sativus*) is an annual herbaceous plant. Its homeland is India, but now it is cultivated in many countries of the world. The heatloving plant is also cultivated in the northern regions of the globe due to the short vegetation period. *Cucumis sativus* L.

KEY WORDS: *Cucumis sativus*, barrel-shaped calyx, Mother flower, male flower, pumpkin, monoecious, entomological, unisexual.

АННОТАЦИЯ: Огурец (*Cucumis sativus*) – однолетнее травянистое растение. Его родиной является Индия, но сейчас его культивируют во многих странах мира. Теплолюбивое растение культивируют и в северных регионах земного шара из-за короткого вегетационного периода. Кукумис посевной L.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Cucumis sativus*, чашечка бочковидная, материнский цветок, мужской цветок, тыква, однодомный, энтомологический, однополый.

Bodring — bir yillik qovoqdoshlar oilasiga *Cucumis L* turiga mansub o'simlik bo'lib. Poyasi er bag'irlab o'sivchi, palakli o'simlik, gajaklari oddiy.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

O'simligi 4-5 ta barg xosil qilgach, erga yotib, yoyilib palak otadi yoki gajaklari yordamida atrofdagi narsalarga chirmashib o'sadi. Poyasi zich tuklar bilan qoplangan yoki tikanli. Poyani ko'ndalang kesimi besh qirrali kertikli. Poyada ma'lum oraliqda bo'g'imlar shakllanadi, ularda yon shoxlar, mo'ylovlar va gullar bo'ladi. Birinchi 3-4 bo'g'implarda mo'ylovlar bo'lmaydi. Ko'pchilik navlarni shoxlanishi monopodialdir. Determinant tipda o'suvchilari ham ma'lum, ular terminal gullarni paydo qilib simpodial shoxlanishga o'tishi bilan tavsillanadi. Ammo bunday navlar himoyalangan yerlarda foydalanilmaydi.

Poyasi shoxlanuvchan, yomoloq, yumoloq-qirrali yoki qirrali, tuklar bilan qoplangan bo'ladi. Asosiy poya, so'ngra uning barg qo'ltiqlaridan birinchi tartibli va ikkinchi tartibli yon shoxlar hosil bo'ladi. Bodring o'simligi naviga, oziqlanish maydoni va haroratga bog'liq xolda sust, o'rtacha va kuchli shoxlanuvchan bo'ladi. Shoxlanish turiga qarab bodring navlari bir poyali, kuchli- (yon shoxlari 8 dan ko'p), o'rtacha- (5-8 tagacha yon shoxlar) va sust- (1-4 tagacha yon shoxlar) shoxlanuvchan poyali navlarga bo'linadi. Poyaning uzunligi nav va etishtirish shart-sharoitlariga qarab belgilanadi: ochiq maydonda asosiy poya 1-1,5 metr, qulay sharoitlar tug'ilganda 3 metrgacha, issiqxonalarda 5 metrgacha o'sadi. Poyasi ingichka (diametri 0,5 sm 3sm kam) va qalin (0,5 sm dan ko'p) bo'lishi mumkin. Kalta palakli bodring navlari odatda tezpishar, mevasi nisbatan kalta, vegetatsiya davri qisqaligi bilan xarakterlanadi. Naviga qarab bodring o'simligi sust, o'rtacha va kuchli barglangan turlarga bo'linadi.

Barglari poyada navbatma-navbat joylashadi. Barg plastinkasi butun, yuzasi tekis yoki ajinli, barg qirradi ham odatda tekis. Shakli naviga qarab yumoloq panjasimon yoki oval panjasimon bo'lishi mumkin. Bodring barglari yirik yuraksimon, burchakliyuraksimon, yuraksimon-bo'laksimon, besh bo'lakli, besh karra qirqilgan bo'ladi.

Barglarni shakli va o'lchami ontogenezda o'zgaruvchan bo'lib, yoshiga qarab barglarni kertiklari ko'payadi, o'lchamlari esa ortadi. Bodringda barglar bandli, poyada navbati bilan joylashgan. Bargning qirra-lari tishli, barmoqli yoki tekis. Bargning ikki tomoni ham tuklangan. Bargini rangi har xil jadallikdagi ko'kish. Barg plastinkasini rangi va jadalligi nav xususiyatlariga, yoshi va yetishtirish sharoitiga bog'liq.

Bodring – bir uyli, chetdan changlanuvchan entomolil, gullari ayrim jinsli o'simlik. Bir o'simlikda erkak va urg'ochi gullari mavjud. Germolradit (ikki jinsli) ham uchraydi. Gullari sariq, besh gulbargli. Erkak gullar barg qo'ltig'ida shakllanib bir





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

necha donalab to'pgulga yig'ilgan. Gullari kalta, gulkosasi bochkasimon. Gulkosabargi uzun. Gultoji bargi sariq, 5 ta gulbargdan iborat.

To'rtasi juft va bittasi yakka o'sgan. Onalik guli erkak guliga nisbatan gultojibargga ega. Pastki bo'g'inda barg bo'g'inlaridan ko'proq erkak gular paydo bo'ladi. Poyaning pastki qismidan yuqoriga ko'tarilib brogan sari erkak va urg'ochi gullarni nisbati urg'ochi gullari ko'payishi tomon o'zgarib boradi.

Gullash va changlanish uchun harorat 18-21°C bo'lishi qulay hisoblanadi. Changlangandan so'ng naychalar tez o'sib, 8-12 kundan keyin terishga yaroqli bo'ladi. Urug'lik meva changlangandan 1,5 oy keyin etiladi.

Bodring mevasi — qovoqcha. Mevalar vazniga qarab juda mayda (50 g gacha), mayda (50-100 g), o'rtacha (101-200 g), yirik (201-400 g) va juda yirik (400 g ortiq) larga bo'linadi. Ko'k bodring 5 sm dan 70 sm gacha uzunlikda.

Bodring urug'lari bir urug'li hisoblanadi. Ular cho'ziq-ellipssimon shaklda va oq-sarg'ish rangda bo'ladi. Urug'lar uzunligi — 7-16 mm eni - 3-6 mm, qalinligi - 2-3 mm ni tashkil etadi. 1000 dona urug'ning vazni 16-33 g. Bir grammida 30-65 dona urug' bo'ladi. Mayda urug'larga 8 mm gacha, o'rtachalarga 8-15 mm, yiriklarga 15 mm yuqori uzunlikdagilar kiradi. 1000 dona mag'izli urug'larni vazni 20 g, o'rtachalar - 20-30 g, yiriklarida-30 g ortiq bo'ladi. Bodring urug'lari o'zini unuvchanligini o'rtacha 8-10 yil saqlaydi, biroq bu muddat saqlash sharoitiga qarab o'zgarishi mumkin. Havo harorati va namligi yuqori bo'lganda unuvchanlik juda kamayadi. Urug'larni saqlashdagi maqbul tartibot: havoning nisbiy namligi 50-60 % dan yuqori bo'lmasligi, havo harorati esa + 15°C atrofida bo'lishdir.

Bodring o'simligi asosan 30 sm chuqurlikda joylashgan, tarmoqlangan o'q ildiz tizimini hosil qiladi. Ayrim ildizlari 70-90 sm chuqurlikkacha kirib boradi.

Bodring urug' pallasi ostida va poyani bo'g'imlarida oson yon ildizlar hosil qiladi. Urug'unib chiqqandan so'ng ildiz tizimi rivojlanishi yer ustki qismiga nisbatan ilgarilab ketish xususiyati ega. Ildizlarni tez o'sishi yaxshi havoga to'yintirilgan muhitni tuproqdan oziqlantirishni yaxshilashni talab etadi. Bodring o'simligi rivojlanishi urug'unib chiqish davridan boshlanadi. Eng qulay bo'lgan sharoitlarda, bodring urug'lari, ekilgandan 5-7 kundan keyin unib chiqaboshlaydi. Bodring urug'larini bo'rtishi uchun 42 %, unib chiqishiga esa 105 % suvni singdiradi. Unib chiqish tezligi tuproq haroratiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi.

O'suv davri boshida ildiz tizimi, yer ustki qismiga qaraganda jadal rivojlanadi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Birinchi chinbarg maysalar ko'ringandan 5-8 kundan so'ng hosil bo'ladi. U urug' pallalaridan o'zining shakli, cheti qirraliligi bilan keskin farqlanadi. Bundan bir kun o'tgach ikkinchi chinbarg hosil bo'lib, 20-25 kunda esa o'simlik 5 ta chinbarg ega bo'ladi.

Bodring o'simligini keyingi rivojlanish bosqichi — gullash bosqichidir. Ertapishar navlarda gullash 30-40 sutkada, o'rtapishar va kechpisharlarda esa 45-70 sutkadan keyin boshlanadi. Urg'ochi gullarini hosil bo'lishi faqat navlarga bog'liq bo'lmasdan yetishtirish sharoitiga ham bog'liq. Bu sharoitlar qanchalik maqbul bo'lsa, urg'ochi gullari shuncha tez va ko'p hosil bo'ladi.


Mevalar paydo bo'lishi bilan bodring o'simligi o'zini rivojlanishidagi to'rtinchi oxirgi — hosil to'plash bosqichiga kiradi. Mevalarning texnik etilishi ertapishar navlarda 8-10 kundan keyin, o'rtapishar va kechpishar navlarda esa changlangandan keyin 10-12 kun o'tgach sodir bo'ladi. Urug' olish uchun gul changlangandan keyin ertapishar navlarda 40-45 kun, o'rtapishar va kechpishar navlarda 50-60 kun o'tishi mumkin.

Tashqi muhit omillariga talabi.

Bodringni vatani Janubiy-Sharqiy Osiyoning tropik va subtropik tumanlari hisoblanadi. Bu o'simlik turini shakllanishi iliq va nam iqlimda sodir bo'lishi uni tashqi muhit omillariga bo'lgan munosabatiga ham ma'lum talablarni yuzaga keltirgan.

Bodring — issiqsevar o'simlik, sovuqni ko'tara olmaydi. Urug'ni unib chiqishi uchun eng pastki harorat chegarasi — 12-13°C. Harorat 25-30°C da urug' eng tez (4-6 kundan keyin) unib chiqadi. 11-17°C haroratda niholarni paydo bo'lishi 7-16 kungacha cho'ziladi. Unib chiqish gullash davridagi kunduzi quyoshli kundagi eng maqbul harorat -24-28°C, bulutlida-18-22°C, kechasi esa-12-18°C. Hosil to'plash davrida harorat kunduzi - 24-30°C va kechasi 16-18°C bo'lganda yaxshi hisoblanadi. Maqbul tuproq harorati 21-23°C, u 16°C dan pastga tushmashgi kerak.

Bodringda o'sish jarayoni harorat 14,5°C dan kam va 42°C dan oshganda to'xtaydi. Turli navlarni maysalari hosil bo'lishi uchun 10°C da yuqori jamr harorat yig'indisi - 140- 242°C dir. Agar una boshlagan urug'lar uzoq muddat 10-12°C haroratda bo'lsa, ularning unuvchanligi keskin kamayadi. Harorat -1°C da bodring maysalari nobud bo'ladi. Agar ikki hafta davomida harorat 0° dan 6-8°C gacha o'zgarib tursa, ikki chinbarg chiqarmagan yosh o'simliklar halok bo'ladi.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Harorat 5°C bo'lganda bodringda fotosintez to'xtaydi. Kunduz kunlari havo harorati $12-15^{\circ}\text{C}$ da o'sish sekinlashadi, hosil bo'lishi yomonlashadi, barg o'lchamlari kamayadi. Haroratni keyinchalik kamayishi a'zolarining zararlanishiga va o'simlikni nobud bo'lishiga olib keladi. Tungi haroratlarni 18°C dan past bo'lishi hosildorlikni kamaytiradi. Bu bodring mevalarini asosan kechasi o'sishi bilan bog'liq. Bu vaqtda organik moddalarni bargdan tugunchalarga jadal o'lishi sodir bo'ladi. Agar haroratni pasayishi, havo namligi ortishi bilan bir vaqtda kuzatilsa, o'simliklar unshudring kasalligi bilan zararlanadi.

Bodring uchun yuqori haroratdan pastki yoki aksincha, pastki haroratdan yuqoriga keskin o'tqazish maqbul emas. Tuproq harorati katta ahamiyatga ega. Agar u 16°C dan pasaysa, maysalar hosil bo'lishi sustlashib, suv va mineral oziqa moddalarni o'zlashtirish sekinlashadi, ildiz chirish kasalligiga chalinishi kuchayadi. Bodring navlari issiqlikka talabchanligi bo'yicha ham farqlanadi, bu ularning ekstremal haroratlarda ta'sirlanishiga, haroratni o'zgarishi va o'suv davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Uzoq sharq navlari haroratni pasayishiga juda yaxshi moslasha olish xususiyatiga ega.

Bodring — yorug'sevar o'simlikdir, ma'lum chegaragacha yonig'likni ortishiga moyillik bildiradi va kelib chiqishiga ko'ra qisqa kunli o'simliklar qatoriga kiradi. Ammo aniq ko'rinadigan qisqa kunlikka faqat tropik navlarga egadirlar, yuqori kengliklardagi mo'tadil iqlimli tumanlarda yozgi davrlarda yetishtirilganda nafaqat urg'ochi gullarini balki erkak gullarini ham hosil qilmaydi.

Sabzavot ekinlari orasida bodring mineral ozuqaga juda talabchan guruhga kiradi. Bodring hosili bilan oziqa elementlarini oz miqdorda olib chiqadi (**1 t** mevalarga **1,7 kg** - azot, **1,3 kg** – fosfor va **8,6 kg** - kaliy). Biroq, o'simlik tomonidan ularni o'zlashtirilish sur'ati juda yuqori, bu o'simlikni barcha massasini ortishi bilan bog'liq. Bodringni oziqlanish xususiyatlariga tuproq eritmasi reaksiyasiga va konsentratsiyasiga yuqori sezgirliги ham kiradi (eng maqbul pH - **6-6,5**). U juda past sho'rga chidamliligi bilan ajralib turadi. Bodring o'sishning birinchi **2-3** haftasida oziqa moddalardan kam foydalanadi. Maksimum elementlarni gullash va hosil berish davriga o'zlashtirilishi to'g'ri keladi. Bodringni birinchi **10-15** kunda azot bilan kuchli oziqlantirish, keyin gullashgacha-fosforli, hosil berish vaqtida esa azot-kaliyli oziqa zanir. Noqulay haroratlar sharoitida, nam bilan kam ta'minlanganlari, shuningdek, yorug'lik etishmaganda mineral oziqani nafaqat miqdori, balki undan foydalanish





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

samaradorligi ham kamayadi. Mineral oziqa yetarli bo'lmaganda mevalarni shakllanish muddati uzayadi va ularning shaklini o'zgarishi sodir bo'ladi.

Respublikamizdagi issiqxonalariga mo'ljallangan bodringni yangi nav va duragaylarini yaratish bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari natijalari abiyotlarda keltirilgan. Jumladan sinalgan bodring duragaylari ichida Sardor F1 navi har bir kv/m dan 8.2 kg hosil to'plab 46 kg miqdorda elita urug'lar yetkazib berganligi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.


O'zbekiston issiqxonalarida ekish uchun bodringni Orzu F1, Amar F1, Baby mini F1, Expoza F1 nav va duragaylari boshqa sinovda qatnashgan nav va duragaylardan mevasining vazni maxsulot sifati va kasalliklarga chidamliligi bo'yicha ustun ekanligi aniqlangan .

Mamalakatimiz issiqxonalarida ekologik sof maxsulot yetishtirish maqsadida bodringni kasallikka va zararkunandalar qarshi kurashda biologik kushandalarda hozirgi vaqtda yaxshi yo'lga qo'yilgan bodring shirasiga qarshi oltinko'zni 1:15 nisbatda ishlatilganda bu hashoratga qarshi samaradorlik ko'rsatkichi 70.5 % ni tashkil etgan kelgusida issiqxonalar uchun 1:10 va 1:15 nisbatda oltinko'zni qo'llash tavsiya etilgan .

XULOSA: Hozirgi kunda dunyo bo'yicha aholini oziq ovqat mahsuloti bilan ta'minlash eng muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurgan. Aholi sonining oshishi ekin maydonlarining qisqarishi hisobiga aholini oziq ovqat bilan ta'minlash yildan-yilga murakkablashib bormoqda. Hozirgi kunda yilning istalgan davrida sabzavotlarni issiqxonada yetishtirish mumkin. Respublikamizda so'nggi yillarda aholini oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi, xususan sabzavot maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirish maqsadida issiqxona sabzavotchiligidagi keng qamrovli chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda. Issiqxonada sabzavot ekinlarini yetishtirishning yangi innovatsion texnologiyalari qo'llanib sanoat asosida maxsulot yetishtirilmoqda. Respublikada issiqxonalarining umumiy maydoni 50.5 ming ga tashkil etib, shundan 35 ming ga pomidor, 20.5 ming ga bodring ekinlari ekilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. "O'simliklar fiziologiyasi" - H. Qudratov
2. "O'simlikshunoslik" - N. Juraev
3. "Botanika asoslari" - M. Eshonqulov
4. "O'zbekiston florasi" - X. Abdurahmonov





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

5. "O'simliklar biotexnologiyasi" - A. To'raqulov
6. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower Growing Technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.
7. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 209-212.
8. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich, and Jumayev Islom Bobomurod o'g'li. "O'ZBEKISTONNING O'RTA MAVSUMDAGI GULKARAM NAVLARI."
9. Примкулова, Мухаббат Хайитовна, et al. "МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСТЕНИЯ ПАМИДОР, СОПТА." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.19 (2023): 69-74.
10. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "ZARANG (ACER) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 6-11.
11. Qizi, Xushvaqtova Muhlis Nuriddin, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Achchiq Bodom Turkumi." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 141-149.
12. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KIVI O'SIMLIGI HAQIDA." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 12-17.
13. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "QAYRAG 'OCH (ULMUS) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 32-35.
14. Qizi, Jo'Rayeva Go'Zal Davlat, Shaymanov Sherzod Kamol O'G'Li, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "GO 'ZAL KATALPANING MARFOLOGIYASI VA MANZARAVIYLIK XUSUSIYATLARI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 46-49.
15. Qizi, Hamidova Dilrabo Chori, et al. "JASMIN (JASMINUM) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 53-56.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

16. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "PISTA (PISTACIA) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 36-38.

17. Pirimqulova, Muxabbat Xayitovna, et al. "O'ZBEKISTONNING O'RTA MAVSUMDAGI GULKARAM NAVLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.2 (2023): 661-665.

18. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Exploiting Seasonal Varieties of Tomato Cultivation for Enhanced Yield and Nutritional Impact in Uzbekistan." *Indonesian Journal of Innovation Studies* 24 (2023): 10-21070.

19. Xudaynazarovna, Ashurova Muxlisa, Muxammadiyeva Gulchiroy Raxmonovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "O'G'ITLARNING TURLARI-XUSUSIYATLARI, TUPROQ STRUKTURASIGA VA O'SIMLIK HOSILIGA TA'SIRI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 204-208.


20. Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek, et al. "FERTILE VARIETIES OF GOOSEBERRIES."

21. Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek. "ZIRK (BERBERIS) TURKUMI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 690-694.

22. Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Евразийский журнал академических исследований* 2.11 (2022): 100-104.

23. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 209-212.

24. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower growing technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.





INTERACTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE USAGE.

Abidova Umida Rustamovna


MIA of the Republic of Uzbekistan No. 1 Tashkent academic lyceum Teacher of English

Abstract: Advanced experiences of pedagogy and achievements in education putting it into practice is one of the important conditions of today. Now great experiences that a teacher can use during his career base has been formed and it is getting richer day by day. In this article today, the main focus is on the student, his personality and focused on his own inner world. That is why the modern teacher the main goal is to choose methods and forms of organization of personal educational activities students who optimally correspond to the established goal of development. In recent years, the issue of using new information technologies in schools increased more and more.

Keywords: English language, independent language learning, educational technologies, project, interest, activity, interactive methods.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.

Аннотация: Передовой опыт педагогики и достижения в образовании, реализация его на практике – одно из важных условий современности. Сейчас сформирована богатая база опыта, которую учитель может использовать в своей карьере, и она становится богаче с каждым днем. В сегодняшней статье основное внимание уделяется студенту, его личности и его собственному внутреннему миру. Именно поэтому главной целью современного учителя является выбор методов и форм организации личной учебной деятельности учащихся, которые оптимально соответствуют установленной цели развития. В последние годы все больше обостряется вопрос использования новых информационных технологий в школах.






Ключевые слова: английский язык, самостоятельное изучение языка, образовательные технологии, проект, интерес, деятельность, интерактивные методы.

